



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

21-OKTYABR - DAVLAT TILI HAQIDAGI QONUN QABUL QILINGAN KUN



*Til — shuncha sharafi
bilan nutqning
qurolidir. Agar nutq
noma'qul bo'lib chiqsa
— tilning ofatidir.*

Alisher Navoiy





ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
 Yorqinjon Odilov
 Jabbor Eshonqulov
 Baxtiyor Daniyarov
 Abdurahim Nosirov
 To'liqin Saydaliyev
 Barno Buranova
 Zulxumor Mirzayeva
 Qozoqboy Yo'ldoshev
 Bahodir Jovliyev
 Salima Jumayeva
 Qayum Baymirov
 Manzar Abdulkayrov
 Alijon Safarov
 Madina Nuriddinova
 Latifa Xudayqulova
 Barno Kadirova
 Nargiza Mirzayeva
 Guli Shukurova
 To'maris Butunbayeva
 Okila Turakulova
 Yuldosh Raxmatov
 Ramziddin Abdusatorov
 Feruza Manukyan
 Gulsanam Xolikulova
 Komiljon Qarshiyev
 Svetlana Umirova
 Nigora Xon Ro'zibayeva
 Ra'no Mullaxodjayeva

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
 Shabnam G'ANIYEVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
 Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
 Telefon: (98) 121-74-16,
 (71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
 (71) 233-03-67.
 e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu	tamoyillar.....40
Akram Hamdamov. Xalq tilining jozibas.....3	Sobir Mansurov. "Gulshani Dilafgor" to'plamidagi lirik she'rlar tasnifi.....43
Surayyo Ziyotova. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida turkiy somatizmlarning qo'llanishi.....5	Salima Karimova, Elinura Zokirova. O'quv jarayonini samarali tashkil etish metodologiyalari va ularning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar.....45
Tilshunoslik	Farxad Babadjanov. Hujjat matnlarining lingvistik ekspertizasi.....47
Maxfuza Karaxodjayeva. Alisher Navoiy lingvistik merosining mazmun va mohiyati.....8	Shahzoda A'zamova. Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarida terminlarning lingvokulturologiyasi.....51
Yulduz Eshmatova. Istiqloq davri o'zbek qissachiligida ayollar ruhiyatini ifodalashdagi yordamchi badiiy vositalar.....10	Aziza Erkinova. Fors-tojik, o'zbek, ingliz adabiyoti she'riyatida "Noma (maktub)" janrining shakllanishi.....53
Nafisa Sadinova. O'zbek tili rasmiy uslubida qoliplashgan jumalarning qo'llanishi.....13	Aziza Yusupova. Jahon tilshunosligida konnotatsiya masalalarining antropotsentrik paradigma asosidagi tadqiqi.....55
Shokirjon Aripov, Habibulloh Olimjonov. Arab tilshunosligida nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmlari.....15	Yorqin Djo'rayev. Badiiy asarlarning falsafiy-psixologik tahlili vositasida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish metodikasi.....58
Adabiyotshunoslik	Shozod Normurodov. Imom Moturidiy va u mansub bo'lgan tarixiy-ilmiiy muhit tasviri.....64
Zulxumor Mirzayeva. Cho'lpon tarjimalarida siyosiy poetika.....19	Shahzoda Nurillayeva. O'zbek tilida odob-axloqni ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy talqini.....67
Hoshimjon Ahmedov. O'zbek adabiyotida sajlil nasriy she'rlar.....22	Ro'zixon Mavlonova. Ko'ngil ovi azmi qarori yoxud Jon nisor ul sayyod uchunkim.....69
Nilufar Sultonova. Adabiy asarda syujet dinamikasi va ta'sir nuqtalari.....24	Umida Xon Turakulova. Badiiy matnda o'xshatishlarning o'rni.....72
Tadqiqot	Asal'ya Ergasheva. O' sushnosti funktsional'noy podxoda k izucheniyu leksiko- grammaticheskix yavleniy ruskogo yazyka.....75
Nafosat O'roqova. O'zbek mumtoz shoirilari ijodida floristik obrazlarning badiiy-estetik vazifalari.....28	Nargiza Xodjaeva, Viktoriya Gimadetdinova. Funktsionirovaniye i transformatsiya frazeologizmov v
Zakir Bazarov. Badiiy tarjimada leksik va stilistik bo'yoqdorlik muammolari..32	
Dildora Bazarova. Variantlilik haqida.....35	
Agata Osipova. K voprosu o neobxodimosti izucheniya ustnogo narodnogo tvorchestva na nachal'nom etape podgotovki bakalavra- filologa.....37	
Hulkar Aliqulova, Nigora Raxmatova. Marosim folklori bilan bog'liq o'ziga xos	



русском языке XXI века.....77	forscha tarjimai "Latoyifnoma" orasidagi ayrim ixtiloflar.....107
Улугбек Баисов. Изучение плеонастических выражений в современной лингвистике.....79	Muhayyo Ismailova, Sagdiyana Abdusattarova, Jahongir Asatullayev. O'quvchilarning salomatlik darajasini aniqlash va sportga istiqbolliligini tashxis etish.....109
Мамура Маллаева. Роль русского языка в современных условиях.....81	Urmonoy Toshmatova. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etish.....111
Akmaljon Baratov. O'rta masofaga yuguruvchi maktab o'quvchilari mashg'ulotlarini tashkil etish.....79	Jamshid Atavullayev. Anton Pavlovich Chexov ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri masalalari.....113
Исломжон Махсумов. Комплексный контроль ловкости в процессе многолетней подготовки футболистов.....86	Khurshida Toshova. Perl Bak asarlarida ayol matonati tavsifi.....114
Saodatkhan Khodjaeva. Features of translation of brand names and advertising slogans.....88	Zarina Homidova. Boshlang'ich sinflarda o'quv lug'atlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish usullari.....117
Dildora Babaxanova. The role of motivation in language learning.....91	Dilorom Mengziyoyeva. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida komil shaxs tarbiyasiga oid qarashlar.....119
Nargiza Aminova. Language evolution in the age of social media: a linguistic dilemma.....93	Ismigul Do'stmurodova. Xalq dostonlarida obraz va obrazlilik masalalari.....121
Ulmira Emberganova. Similarities and differences in professional lexicon and terminology in english language teaching.....96	Kumush Odina Qarshiboyeva. Mansur Jumayev she'riyat haqida.....124
Kichik tadqiqot	Nigora Mirzoidova. The role of technology for developing critical thinking through reading and writing in improving the translation competence of university students.....126
Inomiddin Imomov. Kredit modul tizimi: muammo va yechimlar (nodavlat oliy ta'lim muassasalari misolida).....101	Yoshlik ilhomlari
O'lmas Saidov. Ish yuritishga oid terminologik birliklarning shakliy tavsifi.....103	Hakimbek G'ulomjonov. Yigirma yoshimda ellikka kirdim.....128
Akbar Ruziyev. Tilshunoslikda diskurs atamasi talqini.....105	
Parviz Izzatillayev. "Majolis un-nafois" va uning	

ONA TILIM

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
 She'r yozdimu bo'lak ismi qo'irmadim.
 Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,
 Bir eslasam eziladi bag'ri-tilim,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam «erkam» deb quchganda tunlar yarim,
 Erkim yo'q deb zirqirardi bir joylarim,
 Parovozni hansiratgan bug'doylarim,
 Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,
 O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,
 Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,
 Topganimiz handalakdek tilim-tilim,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta,
 Katta millat — Afandisi yo'kdir hatto,
 Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,
 Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,
 Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,
 Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
 Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,
 Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam har shevangda ming jilolar
 Har novdangda, har mevangda ming jilolar.
 Qodiriylar, Cho'lponlar-u, Abdullolar,
 Sening qaytgan kuning men tug'ilgan yilim,
 Ona tilim, ey nuquddas Ona tilim.

Muhammad Yusuf

Akram HAMDAMOV,
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*
E-mail: xamdakov.64@mayl.ru



XALQ TILINING JOZIBASI

Annotatsiya: Abdulla Oripovning “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi” asari badiiy talqinida ham o‘ziga xos usul qo‘llaniladi. Asar boshida ko‘pchilik nazaridan chetda bo‘lgan farrosh kampir badiiy tasvir sahnasiga kirib kelishi bilan manzara tamoman o‘zgarib ketadi. Farrosh kampir asarning ma‘naviy markaziga aylanadi.

Kalit so‘zlar: *samoviy mehmon, besh donishmand, farrosh kampir, xalq tili, besh barmoqday, jonli xalq tili, ruh va til, inson nutqi va ruhiyati.*

Аннотация: уникальный приём использован и в художественной интерпретации произведения Абдулла Орипова “Повесть о небесном госте, пяти мудрецах и старой деве”. В начале произведения на сцену художественного образа выходит старушка. Уборщица, находившаяся вне поля зрения публики, и сцена полностью меняется. Горничная становится духовным центром произведения.

Ключевые слова: *небесный гость, пять мудрецов, уборщица, просторечие, пять пальцев, живое просторечие, дух и язык, человеческая речь и психика.*

Annotation: a unique technique was also used in the artistic interpretation of Abdulla Oripov’s work “The Tale of the Heavenly Guest, the Five Wise Men and the Old Maid.” At the beginning of the work, the old woman Farrosh, who was out of sight of the public, appears on the stage of the artistic image, and the scene completely changes. The maid becomes the spiritual center of the work.

Key words: *heavenly guest, five wise men, cleaning lady, vernacular, five fingers, living vernacular, spirit and language, human speech and psyche.*

Abdulla Oripov xalqning beqiyos adabiy durdonalariga tayanib, badiiy mukammal asarlar yaratdi. Ulardagi xalqona pafos va badiiy mukammallik folklor asarlarining estetik qiymatidan aslo kam emas. Boshidan oxirigacha xalqona ruh bilan sug‘orilgan ko‘pgina she‘rlarining zaminida yengil kulgi, nim tabassum, ba‘zan o‘tkir qochiriv va kinoyalar yashiringan bo‘ladi.

Millatning o‘ziga xos fazilatlarini ifodalovchi xalqona ohanglarda yaratilgan ana shunday asarlardan biri “Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi” dir. She‘rda ifodalanishiga ko‘ra, qilni qirq yoradigan donishmandlar dunyo tillarini **bash barmoqday bilishsa-da, ammo samoviy mehmon oldida ular ojiz.**

Aniqrog‘i, Abdulla Oripov she‘rda xalq tilida mashhur bo‘lgan “Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, yomon gap bilan pichoq qinidan chiqadi” maqoliga ishora qiladi. Bu botiniy vositadan ustalik bilan badiiy foydalangan. She‘rning sarlavhasidan ko‘rinib turibdiki, badiiy maqsad bir-biriga mutlaqo o‘xshamagan asar qahramonlari: **1) samoviy mehmon, 2) besh donishmand, 3) farrosh kampir** va ularning xatti-harakatlari orqali hal etilishi lozim. She‘r “Xabar keldi Fan shahriga olis Jungli tomondan. O‘tgan kecha allanarsa Yonib tushmish osmondan” degan fantastik xabar bilan boshlanadi. Undan keyin besh donishmandning izchil ta‘rifi beriladi. Oxirida esa, istar-istamas “Hatto farrosh kampirni ham birga olib

keldilar” deb qo‘shib qo‘yiladi. Aslida, yozuvchining badiiy maqsadi ana shu farrosh kampir faoliyati orqali ochib berilishi lozim edi. Bu “sir” ni shoir asarning oxirigacha o‘quvchidan yashirib keladi. She‘rni shunday tugatadi: “Olimlarning xizmatlari, yo‘q, bekorga ketmabdi. Shuncha ishni qilishibdi, Faqat mehr yetmabdi”.

Asarni o‘qib bo‘lgach, yuksak mahorat bilan tasvirlangan samoviy mehmon haqidagi fantastik ma‘lumotlar ham, besh donishmandning har qanday kishini lol qoldiradigan ish-faoliyati ham, birdan, arzimas bir narsaga aylanib qolgandek tuyula boshlaydi... Asarda farrosh kampir paydo bo‘lishi bilan ifoda tili ham tubdan o‘zgaradi. Tasvirda jonli xalq tili, xalq og‘zaki ijodiga xos ifodalar yetakchilik qila boshlaydi: “O‘sha payt, deng farrosh kampir kirib keldi tentirab. Farrosh-da u, uni - buni yig‘ishtirmoq unga tan. O‘rindiqda yotgan zotni ko‘rdi kampir daf‘atan!” Ana shu qisqacha ekspozitsiyadan so‘ng farrosh kampirning favqulodda nutqi - o‘zbek kampirlariga xos tabiiy mehribonlikni ifodalovchi so‘zlarida milliy o‘ziga xos mehr tuyg‘usi namoyon bo‘ladi:

*- Voy bechora bolaginam,
Dard zabtiga opti-ku!
Holdan toyib, boshqa ko‘zi
Yumilib ham qopdi - ku!*

Shoir nazdida so‘zda mehr, shafqat, insoniylik

tuyg'ulari – kechinmalari ifodalansagina, til to'laqonli va tom ma'noda muloqot va muomala ehtiyojini qondira oladi. Bu o'rinda shoir tildan ko'ra ruhga ustuvor mavqe beradi. Bu oddiygina farrosh kampir nutqida mujassamlashgan. Demak, farrosh kampir obrazida shoir til va dil munosabatida ruhning ustuvorligiga e'tiborni tortadi. She'rning yana bir fazilati ruhan xalq og'zaki an'analariga bog'lanishidir. Shoirning shu kabi xalqona poetik tafakkur negizida yaratilgan she'rlarida ruh va til, inson nutqi va ruhiyati tushunchalari o'zaro uyg'unlashib ketadi.

*Rangini ko'r, somon deysan,
Suvdanmikan yo o'tdan!*

Bu nutqda barcha o'zbek ayollariga xos o'zbekona milliy mehr-muhabbatning mumtoz namunasi o'z ifodasini topgan. Ushbu nutqiy xarakteristika orqali shoir farrosh kampirning milliy fazilatlari sirasiga kiruvchi qiyofasini yuksak badiiy mahorat bilan chizib beradi. Bu nutqiy parchada jonli xalq tiliga xos ko'plab badiiy vositalar ("**Dard zabtiga opti-ku!**", "**Rangini ko'r somon deysan**", "**Suvdanmikan yo o'tdan!**") qo'llaniladi. Bu shoirning xalq poetik tili xazinasini juda yaxshi bilishi, undan san'atkorona foydalana olishidan darak beradi. Nutqiy xarakteristikadan keyin farrosh kampirning xatti-harakatlarini, uslub yo'nalishini o'zgartirmagan holda, shoirning o'zi tasvirlashni davom ettiradi: "Azbaroyi mehr bilan Boshginasin siladi. Tikandayin tikka o'sgan sochginasin siladi. Kampir bilmas, kim bu mahluq, Yo bilsa ham unutdi. Icha qolgin, jon bolam, deb Hatto unga suv tutdi" (I, 305 –bet).

Farrosh kampirning mehr bilan to'lib-toshgan bu harakatlari asta-sekin o'z samarasini bera boshlaydi: "O'shanda deng, haligining qon chopdi-ya yuziga. Duvva-duvva yosh ham keldi Bittagina ko'ziga... Aylantirib bitta ko'zin Boqdi u yoq-bu yoqqa. Bir mahal deng, dab-durustdan Mehmon turdi oyoqqa".(I, 305-bet). Faqat farrosh kampirning qiyofasi, nutqi va harakatlarigina emas, "...Farrosh kampir qissasi" ning matni to'laqonli xalq tilida, milliy ohangda yaratilgan. Besh qit'adan yig'ib kelingan beshta tengsiz olimning badiiy tasvirida birona ham ilmiy-texnikaviy termin yoki ibora ishlatilmagan. Aksincha, **besh barmoqday biladi, qushlar tilin biladi, xandon suhbat qiladi** kabi xalq tilida sayqal topgan va davr sinovlaridan o'tib kelayotgan asl milliy iboralar qo'llanilgan.

Xalq tilining asosiy belgilaridan biri – uning yumorga boyligidir. O'zbek xalqi quvonchli damlarida ham, oddiy kunlarida ham, hatto g'amgin paytlarida ham hazil–mutoyibasiz yashay olmaydi. Bu fazilat "...Farrosh kampir qissasi" da ham yorqin namoyon bo'ladi. Asarning boshidayoq besh qit'adan yig'ib kelingan nufuzli delegatsiya tarkibiga farrosh kampirning kiritilishidan ("Hatto farrosh kampirni ham Birga olib keldilar") yengil kulgi uyg'onadi. Asarning oxirida ham o'sha farrosh kampir kulgiga sababchi bo'ladi:

*Farroshlarning yulduzidan
Tushdimikan yo mehmon. (I, 305-bet).*

Bu kulgi endi "yengil kulgi" emas, qudratli kulgi edi, buning ustiga, besh donishmand ma'naviyatidagi "kentiklik" ustidan kulish edi:

*Olimlarning xizmatlari
Yo'q, bekorga ketmapti,
Shuncha ishni qilishihti,
Faqat Mehr yetmapti. (I, 306-bet).*

Mehr tuyg'usini yo'qotish – inson uchun mudhish holat. Bu esa bir vaqtning o'zida tilda ham o'z aksini topadi. Xususan, ijodkor til va ruhning dialektik yaxlitligini ta'kidlaydi. Tildan ajralgan ruh yoki ruhdan ajralgan tilning holati mehr tuyg'usini his etmagan besh donishmandga qiyoslanadi. Xalqchillikning badiiy ifodasiga aylangan "Farrosh kampir" she'ri adabiyotimiz xazinasini boyituvchi yuksak milliy asar namunasi sifatida qolajak.

Abdulla Oripov ijodida til va ruhning omuxtaligi falsafiy yo'sinda yuksak badiiy shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, tilni o'zlashtirish va undan foydalanish ham mumkin. Biroq faylasuflar til o'rganishni o'sha tilning ruhini o'rganishdan boshlash lozimligini uqtirishadi. Ruhiyatdan xoli til bamisoli jonsiz tana. Bunda til funksiyasi torayib, bir yoqlama bo'lib qoladi. Boshqacha aytganda, til uning zamiridagi dil aksi bilan jonlidir. Adabiyotshunos T. Boboyev: "... ijodkor xalq dilining haqiqiy tarjimoni bo'lsagina uning asarlari tilida xalqchillik aniq sezilib turadi", (2, 101-bet) -deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, tilga hurmat-ehtirom xalqchillikning alohida ko'rinishidir. U milliy mahdudlikni keltirib chiqarmasligi, milliylik umuminsoniylikka, umumbashariy manfaatlariga to'siq bo'lmasligi kerak. Ulug' ajdodlarimizdan o'zga tillarga hurmat o'zga xalqlarga hurmat ramzi ekanligi muqaddas meros tuyg'u sifatida saqlanib kelmoqda. Milliylik va baynalmillallik bir-birini taqozo etuvchi tushunchalardir. Shu boisdan keyingi o'n yilliklarda, to'g'rirog'i, mamlakatda qayta qurish va yangilanish shabadalari esa boshlagan, ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda xalq tilida erkin so'zlash imkoni vujudga keldi.

Abdulla Oripovning o'z she'rlari bilan ona tilimizning go'zalligini yuzaga chiqarish uchun ham amaliy, ham nazariy jihatdan ulkan ziyoli shaxs sifatida faol bo'lganini ko'ramiz. Uning o'z ona tiliga bo'lgan cheksiz hurmat-ehtiromi asarlaridagi xalqona ruhdan seziladi. Qolaversa, shoir she'rlarida qo'llagan xalqona ta'birlar, original yasalgan so'zlar, qadim mumtoz asarlardan olingan so'zlarni, shevaga xos so'zlarni o'z o'rnida qo'llash, betakror o'xshatishlar shoir she'rlarining til badiiyatini namoyon etadi.

Haqiqiy ijodkor ona tilida jaranglagan so'z orqali kindik qoni to'kilgan tuproq bilan, ona xalqi bilan

samimiy muloqotga kirishadi. Undan ruhiy-ma'naviy quvvat oladi. Shoir xalqona badiiy tafakkurida badiiylikning bosh mezonlaridan biri sanaluvchi badiiy til jozibasini, jonli xalq tilining butun go'zalligi yetakchilik qiladi

Xulosa qilib aytganda, jonli xalq tili xazinalaridan unumli foydalanib, ma'naviy ekologiyaning sodda va buyuk qahramoni – farrosh kampir obrazini yaratdi. Farrosh kampir obrazi Abdulla Oripov ijodida xalq sevgan eng go'zal obrazlardan biri bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. 62-bet.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Oliy ta'lim darsligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. 160-bet.
3. Nazarov B. Abdulla Oripov. O'zbek sovet adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. 443-bet.
4. G'afurov I. Yam-yashil daraxt. – Toshkent, 1996. 221-bet.

Surayyo ZIYOTOVA,

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti

E-mail: z.surayyo_92@mail.ru

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA TURKIY SOMATIZMLARNING QO'LLANISHI



Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida qo'llangan somatizmlar, ya'ni inson tana a'zolarini ifodalovchi leksemalar tarixiy-etimologik, semantik jihatdan tadqiq qilingan. Ushbu leksemalarning asarda qo'llanilishi hamda semantik ma'nolari tahlil qilingan hamda misollar orqali izohlangan.

Kalit so'zlar: *leksema, sema, semema, somatizm, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, metafora, metonimiya.*

Аннотация: в данной статье исторически, этимологически и семантически изучаются соматизмы, использованные в эпосе Алишера Навои «Хайрат уль-Аброр», то есть лексемы, обозначающие части тела человека. Употребление и смысловые значения этих лексем в работе анализируются и поясняются на примерах.

Ключевые слова: лексема, сема, семема, соматизм, расширение значения, сужение значения, метафора, метонимия.

Annotation: in this article, the somatizms used in Alisher Navoi's epic «Hayrat ul-Abror», that is, lexemes representing human body parts, are studied historically, etymologically, and semantically. The usage and semantic meanings of these lexemes in the work are analyzed and explained through examples.

Key words: *lexeme, sema, semema, somatism, expansion of meaning, narrowing of meaning, metaphor, metonymy.*

Kirish. Til – jamiyatda sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'zida namoyon qiladigan, tadjriy rivojlanib boradigan hodisadir [1:44]. Somatizm (yunoncha “soma” – “tana”) – bu odam va hayvon tanasi qismlarining asl ma'nosiga ega bo'lgan otlar [2:1749] hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida somatizm va somatik frazemalarning shakllanishi va ularning matn tarkibida funksional-semantik xususiyatini o'rganish Y. Pinxasov, Sh. Rahmatullayev, A.Hojiyev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, A.Isayev, Sh. Abdullayev, Sh. Usmonova kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan [3:6]. O'zbek tilida inson tana a'zolarini ifodalovchi so'zlarning aksar qismi tub turkiy so'zlar hisoblanib, o'z qatlamga tegishli leksikadir. Tub turkiy so'zlarni geneologik jihatdan qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili bilan qiyosiy o'rganish natijalari umumiy xususiyatlar bilan birga farqli tomonlar borligini ko'rsatdi. Bu tafvutlar aslida ularni ayiruvchi emas, balki yaqinligini dalillovchi farqlar hisoblanadi [4; 207]. O'z qatlam deganda aslan shu tilniki bo'lgan leksemalar va shular asosidagi yasalishlar, shuningdek, o'z affiks bilan boshqa til so'zlaridan hosil qilingan leksemalar tushuniladi [5: 173]. O'z qatlam doirasidagi so'zlar avvalo, tilimizning umumiy boyligini o'zida namoyon

qiladi va bu, o'z navbatida, ularni tarixiy yodgorliklar tili bilan solishtirish negizida til tarixi va etimologiyasi uchun qimmatli xulosalar chiqarishga imkon beradi [6: 24].

Asosiy qism. Alisher Navoiy asarlarida turkiy, arabiy, forsiy somatizmlarni ko'plab va turli ma'no qirralari doirasida uchratishimiz mumkin. "Hayrat ul-abror" dostonidagi somatizmlarni geneologik jihatdan quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1) turkiy somatizmlar: *bosh, qo'l, ilik, oyoq, bel, bo'yin, bag'ir, bo'g'uz, irin, yuz, kiprik, ko'z, son, soch, soqol, qoch, chakka;*

2) arabiy somatizmlar: *ayn, basar, vajh, jabin, isba';*

3) forsiy somatizmlar: *abru, angusht, gardan, gurda, gurdagoh, go'sh, dandon, dast, diyda, dimog', zulf.*

Qo'l "Odamning yelkadan barmoq uchigacha bo'lgan a'zosi" hisoblanib, Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan hamda *qo:l* (DS, 454), keyinchalik *qo:l* -> *qol* (DLT, III, 148) cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (O'TEL, I, 584). ANATILda omonim sifatida keltirilgan: 1) qo'l; 2) tog' aro yo'llar ma'nolarida kelgan. Doston tilida dastlabki ma'nosi qo'llangan:

Yo'ldasa, bu yo'lda Nizomiy yo'lum,

Qo'ldasa, Xusrav bila Jomiy qo'lum (HA, 46).

"Hayrat ul-abror" dostonida qo'l somatizmi bilan birgalikda **ilik** leksemasi ham faol qo'llangan. Ushbu so'z asli qadimgi turkiy tilda "qimirla-", "jil-" ma'nosini anglatgan *yil-* fe'lidan *-(i)k* qo'shimchasi bilan yasalgan. (DLT, I, 102) Keyinroq so'z boshlanishidagi *y* undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan (DLT, I, 102): *yil-+ik > ilik* (O'TEL, I, 115) tarzida o'zgarib borgan. Semantik doirasi tahlil qilinayotgan leksema "qo'l" ma'nosini anglatgan asl turkiy *ilik* so'zi ishtirokida "voz kechmoq, yuz o'girmoq" semasini ifodalashga xoslangan: Olamdin ilik tortqaylar [Alisher Navoiy 1967:203]. "Zafarnoma"ning mutarjimi ushbu birikma zimmasiga "to'xtatmoq, bas qilmoq" ma'nosini ifodalashni yuklagan: Ul ishni kamolig'a yetkurmaguncha ul ishdin ilik tortmas erdi [Sharafuddin Ali Yazdiy 1997:113b] [7:2021]. ANATILda sakkiz ma'nosi keltirilgan *ilik//ilig* leksemasi manobalar matnida quyidagicha: 1) qo'l; 2) panja; 3) o'zluq, shaxsiyat; 4) qaram; 5) yaxshi amal; 6) buyruq; 7) bisot; 8) ixtiyor (II, 26-27) kabi ma'nolari ifodalansa, Navoiyning manobalar asarlarida qo'l va ixtiyor [8: 67] semalari voqealanadi. "Hayrat ul-abror" dostonida quyidagi ma'nolari ishlatilgan:

1) qo'l:

*Sarxat etib birga beshu o'n raqam,
Kim Haq aning ilgini qilg'ay qalam.* (HA, 199).

2) panja:

*Naqshig'a teng tushmay o'zin naqshi Chin,
Olam o'lub ilgida naqshi nig'in* (HA, 123).

3) yaxshi amal:

*Kimki jahon Mulki havasdur anga,
Ushbu ilik tajriba basdur anga* (HA, 102).

4) buyruq:

*Qushki bag'ir yormaq o'lub ko manga,
Shoh iligi ustida orom anga* (HA, 34).

5) bisot:

*Har ne bor ilkingda parokanda qil,
O'z iligindin ani sharmanda qil* (HA, 43).

6) ixtiyor:

*Ilgima tushmay bori ofoq aro,
Balki to'quz charxi ko'han toq aro.* (HA, 53).

Birgina doston tilida ilik so'zning 6 xil semasi qayd qilinmoqda. Bu eski o'zbek adabiy tili davrida ushbu leksemaning ma'no qirralari kengligidan dalolatdir. Hozirgi adabiy tilda "iligi to'q", "iligi qurimoq", "iligi puchchaymoq", "iligini o'ynatmoq" kabi barqaror birikmalarimizning yuzaga kelishiga sabab ham *ilik* so'zining turli semantik maydonni yuzaga keltira olganligidir.

Oyoq gavdaning tayanib turishi va harakatlanishi uchun xizmat qiladigan tana a'zosi hisoblanib, bu ot qadimgi turkiy tildagi *qadaml-* ma'nosini anglatgan *a:d-* fe'lning *ay-* shaklidan *-(a)q* qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYA, I, 103; PDP, 356; DTL, I, 112; DST, 27). O'zbek tilida *a* unilari *â* unililariga almashgan: *ay-+aq = ayaq > âyâq* (O'TEL, I, 250). Ushbu leksema *z->d->y* lashish jarayonidan o'tgan, ya'ni *azaq->adaq->ayaq* tarzida deb xulosa qilish mumkin. Navoiy dostonida ushbu leksemaning ikki semasi aks etadi:

1) oyoq:

*Bumni tepmakka ne qush kirsu chust,
Tepgan oyoqdurki, qilur dom rust* (HA, 206)

2) oxir, payon:

*Borchasini buzmoq agar istasang,
Boshtin-oyoq zeru zabar istasang* (HA, 20).

Doston tilida ushbu ma'nolardan tashqari ushbu so'z "gul oyog'i", "mayl oyog'i" kabi polisemantik ma'noda ishlatilib, metaforani hosil qilgan hamda asarda obrazlilikni oshirishga xizmat qilgan.

*Gul oyog'ig'a suv qo'yub boshini,
Boshini qo'ykim, bu ushoq toshini* (HA, 67).

*Tugmaki ostida gumon etti xayl,
Zahr durur qilg'on oyog'ig'a mayl* (HA, 67).

Bosh so'zining kelib chiqishi qadimgi turkiy tilga borib taqalib, bu ot asli *ba:sh* tarzida talaffuz qilingan (ESTYA, II, 86), keyinchalik *a* unlisining cho'ziqlik xususiyati yo'qolgan (PDP, 369; DLT, III, 165; DTS, 86). O'zbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: *ba:sh -> bash -> bâsh* (O'TEL, I, 61) shakllangan. ANATILda ushbu leksemaning etti semasi keltiriladi: 1) kalla, bosh; 2) biron narsaning uchi; 3) boshlanish, avval; 4) miya, xayol, ong; 5) ust, tepa tomon; 6) og'iz; 7) payt. Doston tilida quyidagi ma'nolari voqealanadi:

1) bosh:

*Boshni fido ayla, ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a* (HA, 139).

2) qalamning uchi:

*Bo'lmadi gar xoma boshin yormog'ing,
Yordi qamar xomasini bormog'ing* (HA, 31).

3) avval:

*Boshida har surasi tazhib ila,
Dargahi koshiy anga tartib ila (HA, 89).*

4) tarozi pallasi:

*To'g'ri tarozug'a bo'lur ikki bosh,
Bir sori gavhar yana bir sori tosh (HA, 90).*

5) tepasida:

*Ma'arakada Zol bila Rustame,
Boshlari uzra o'kulub olame (HA, 113).*

Xulosa. Asar tilini tadqiq qilarkanmiz, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida somatizmlar

soni juda ko'p. Xususan, geneologik jihatdan arabiy va forsiy o'zlashma terminlar soni ancha keng qo'llanilganligi, ammo doston tilida turkiy somatizmlarning ANATILda uchramaydigan qo'shimcha semalari ham yuzaga kelganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Turkiy qatlamga mansub *qo'l, ilik, oyoq, bosh* leksemalari doston tilida semantik jihatdan ma'no kengayganligi va bu, o'z navbatida, eski o'zbek adabiy tili davrida somatizmlarning semantik xususiyati hozirgi o'zbek adabiy tili davriga nisbatan keng qamrovli ekanligi haqida xulosalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyotova S. "Mehrobdan chayon"da ifodalangan ijtimoiy-siyosiy leksikalar. O'zbekiston: Til va madaniyat. №2. – Toshkent. 2022. 44-bet.
2. Gadoyeva M. Somatik leksikaning xususiyatlari // Scientific progress. Volume 2. B – 1749.
3. Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантикпрагматик таҳлили (кўз ва юрак компонентли иборалар мисолида). Ф.ф.ф.д. (PhD) дисс. автор. – Самарқанд, 2018. – Б. 6.
4. Ziyotova S. "Mehrobdan chayon" asari leksikasining statistik tahlili // Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent. 2023. 207-bet.
5. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.173-bet.
6. Egamova Sh. Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2007. 24-bet.
7. Dadaboyev H. "Tortmoq" leksikasining Alisher Navoiy davri eski o'zbek adabiy tilidagi ma'noviy qurilishi. Alisher Navoiy xalqaro jurnali, I, – Toshkent, 2021, 14-bet.
8. Xo'janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manolib asarlari leksikasi. – Toshkent, 2023. 67-bet.

SHARTLI QISQARTMALAR

- ANATIL** – *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.* – *Тошкент, I-IV.* 1983-1985; I-1983, 646 б.; II-1983, 642 б.; III-1984, 622 б.; IV-1985, 636 б.
- BD** – Будагов Л. З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т. I-II. –СПб 1869– 1872.
- DLT** – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. – 499 б.; Т. II. 1961. – 427 б.; Т. III. 1963. Б. 461.
- DTS** – *Древнетюркский словарь.* – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
- ESTYA** – Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М.: Наука, 1974. –767 с.
- HA** – Alisher Navoiy. X jildlik, VI jild. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom. 2013.
- NAL** – *Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати.* – *Тошкент, 1972.* Б.782.
- RSL** – Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. – СПб, 1893-1911. I-1893. – 1980 с.; II-1895, – 1871 с.; III-1898, –2302 с.; IV-1911, – 2337 с.
- PDP** – Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М., 1951. – 451 с.
- O'TEL** – Раҳматуллаев Ш. *Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар).* – *Тошкент: Университет, 2000.* Б.599
- O'TIL** – *Ўзбек тилининг изоҳли луғати.* I-V. – *Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.* I-2006, – 680 б.; II-2006, – 672 б.; III- 2007, – 688 б.; IV-2008, – 608 б.; V-2008, Б. 592.

Maxfuza KARAXODJAYEVA,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
“O‘zbek va rus tillar” kafedrası, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

ALISHER NAVOIY LINGVISTIK MEROSINING MAZMUN VA MOHIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy lingvistik merosining mazmun va mohiyati yoritilgan. Maqolada muallif Alisher Navoiyning “*Muhokamat ul-lug‘atayn*” asari misolida turkiy tillarni fors tili bilan chog‘ishtirma aspektida o‘rgangan.

Kalit so‘zlar: *lingvistik, meros, turkiy, mazmun-mohiyat, fors, asar, aspekt, chog‘ishtirma*

Аннотация: в данной статье освещается суть и значение лингвистического наследия Алишера Навои. В этой статье автор проводит сопоставительный анализ тюркских языков с персидским языком на примере произведения великого просветителя Алишера Навои “*Мухокамат ул-луғатайн*”.

Ключевые слова: лингвистическое, наследие, тюркский, содержание, сущность, персидский, труд, аспект, сравнение.

Annotation: the given article illuminates the meaning of priceless linguistic heritage of Alisher Navoi. In this article the author makes comparative analysis of Turkic language with Persian in the example of writing of great illuminator Alisher Navoi “*Mukhokamat ul- lugatayn*”.

Key words: *linguistic, heritage, Turkic, content, essence, Persian, work, aspect, comparison.*

Tilshunoslik fan sifatida ona tili va xorijiy tillarni o‘rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda, matnlarning tarjimasida muhim ahamiyatga egadir.

Tilshunoslik muammolarini o‘rganish dastlab qadimgi Hindistonda boshlangan. IX – XII asrlarda Mahmud Qoshg‘ariy va Mahmud Zamaxshariy asarlari shu davrdagi ilmiy tavsiflar manbai hisoblanadi. Aynan ana shu davrda yashab ijod etgan qomusiy olimlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Javhariy singari allomalarimizning tilshunoslikni rivojlantirishda hissaları katta bo‘lgan. Javhariy, M.Qoshg‘ariy va M.Zamaxshariylar leksikologiya sohasida jahon tilshunosligiga katta yangiliklar kiritganlar.

O‘zbek tilshunosligi tarixi Mahmud Qoshg‘ariy va Mahmud Zamaxshariylarning izlanishlaridan boshlanib, uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. XIV asrdan XX asrning 20-yillarigacha o‘zbek tilini o‘rganishning amaliy jihatlariga alohida e‘tibor berildi.

Tilshunoslik sohasida yanada ko‘proq va samarali ijod qilgan allomalarimizdan biri, O‘rta Osiyoning XV asr ikkinchi yarmidagi buyuk mutafakkiri, allomasi, she‘riyat sultoni, o‘zbek adabiy tilining homiysi va targ‘ibotchisi Alisher Navoiy (1441-1501) hazratlari tilshunoslik tarixida so‘z va nutq, til va jamiyat rivojida ham yorqin iz qoldirgan ulkan siymolardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov “**Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch**” asarida ta‘kidlaganidek, “**Alisher Navoiy xalqimizning ong-u tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk**

shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha‘n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir” [1].

Darhaqiqat, Alisher Navoiy asarlari, yaxlit olganda, hayot qomusiga o‘xshaydi. Chunki biror-bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular, fazilat va illatlar yo‘qki, u qalamga olmagan bo‘lsa! Uning tilshunosligimiz tarixida ham xizmatlari beqiyosdir.

Alisher Navoiy butun faoliyatini o‘zbek madaniyatini dunyoga tanitish, o‘zbek tili mavqeyini baland ko‘tarishga bag‘ishladi. Alisher Navoiy o‘zigacha bo‘lgan turkigo‘y shoirlar nomlarini hurmat bilan tilga oladi. Lekin forsiy shoirlar qarshisiga chiqadigan, ular bilan dadil bellasha oladigan yolg‘iz Mavlono Lutfiydan o‘zga shoir paydo bo‘lmaganidan afsuslanadi.

Shoir fors-tojik adabiyoti o‘zbek adabiyotiga nisbatan ancha qadimiy va boy tajribaga ega bo‘lganligi, bu tilda hatto qofiya lug‘at kitoblari ham yaratilganligi tufayli fors-tojik tilida ijod qilish bir muncha osonroq bo‘lganligini ta‘kidlaydi. Shuning uchun ham ko‘pgina turk (o‘zbek) shoirlari o‘z ona tillarida emas, balki fors-tojik tilida ijod qilar edilar. Natijada o‘zbeklarning ma‘lum guruhi fors-tojik tilidagi adabiyotlardan bahramand bo‘lsalar ham, lekin ko‘pchiligi badiiy adabiyotdan bebahra qolayotgan edi.

Alisher Navoiy o‘z ona tilida badiiy ijod qilish, ona tilining butun go‘zalligi, tarovatini amalda ko‘rsatish bilangina cheklanib qolmadi. Ona tilini o‘sha davrda badiiy adabiyot uchun an‘ana bo‘lib qolgan fors tiliga qiyoslab, bu tildan hech qolishmasligini, hatto ba‘zi o‘rinlarda ustunroq turishini ilmiy jihatdan ham isbotlab

bermoqni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Ana shu maqsadda 1499-yilda ikki til muhokamasiga — ikki tilning chog'ishtirma grammatikasiga bag'ishlangan maxsus asarini — "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini yaratdi. Alisher Navoiyning bu asari maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Tilshunoslikning hozirgi kunda chog'ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yuritiluvchi yangi yo'nalishiga asos solindi. Chog'ishtirma tilshunoslikning o'ziga xos xususiyati shundaki, ikki tizimga mansub bo'lgan tillar tilning barcha yo'nalishlari bo'yicha bir-biriga solishtiriladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Afsuski, tilshunoslik tarixida chog'ishtirma tilshunoslikning paydo bo'lishi G'arb tilshunoslarining nomi bilan bog'lanadi va bu tilshunoslik yo'nalishining boshlanishi XIX asrdan deb belgilanadi. Bu fikrlar G'arb olimlarining Alisher Navoiy asarlaridan bexabarligidan paydo bo'lgan. Agar boxabar bo'lganlarida edi, Alisher Navoiyning lingvistik merosidan hayratga tushgan va so'zsiz, uni chog'ishtirma tilshunoslikning otasi deb hisoblagan bo'lardilar. Chunki "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida chog'ishtirma tilshunoslikning barcha belgilari mavjuddir. **Birinchi**dan, solishtirish uchun turli tizimdagi tillar olinadi. Turkiy tillarga mansub bo'lgan turk (o'zbek) tili bilan hind-yevropa tillarining eroniy tarmog'iga oid sart (fors-tojik) tili o'zaro qiyoslanadi. **Ikkinchi**dan, solishtirish uchun keltirilgan daliliy misollar tasodifiy bo'lmasdan, tilning butun tizimini qamrab oladi. Fonetik tuzilishdan tortib sintaktik tuzilishgacha har ikki tizimga mansub bo'lgan tillar solishtiriladi. Muallif ularning o'ziga xos tomonlari haqida qimmatli xulosalar beradi. Ikki tilning muhokamasiga bag'ishlangan bu asar Alisher Navoiyning turk (o'zbek) jonli so'zlashuv tilini ham naqadar chuqur o'zlashtirgan, har bir qavmning til xususiyatlari uning e'tiborida bo'lgan, ayni paytda, fors va arab tillarining ham zukko bilimdoni sanalgan keng qamrovli tilshunos ekanligini to'la namoyish etadi. Bu asar orqali Alisher Navoiyning fonetik, leksik, grammatik qarashlari haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lamiz. Alisher Navoiy turli til oilalariga mansub bo'lgan tillarning umumiy va farqli tomonlari, belgi-xususiyatlariga to'xtaladi, ularni tahlil qiladi, muhim ma'lumotlar beradi. Aniqrog'i, tillarni muhokama qilish orqali o'zbek tilining o'ziga xos jihatlari, adabiy-badiiy ijodda — asarlar yaratishda o'zbek tilining ham ustuvor, ulug'vor til ekanligini, shunga ko'ra fors tili bilan bema'lol raqobat qila olishini, hatto ayrim o'rinlarda, tasviriylik imkoniyatlari nuqtai nazaridan esa undan ilgari keta olishini asoslaydi. U mazkur asarida tillarning kelib chiqishi, til va tafakkur orasidagi munosabat, so'z ma'nosi, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari, so'z yasalishi, morfologik kategoriyalar,

fonetikaga oid, tovush bilan bog'liq qator hodisalar haqida chuqur fikr yuritadi, bunday hodisalarni atroflicha tahlil qiladi. Navoiy til va tafakkur munosabati haqida gapirar ekan, ularning o'zaro zaruriy bog'liqligini, ya'ni tafakkurning voqeligi, hayotiyiligi til (nutq) orqali ekanligi, til tafakkurining moddiyilashishi, yuzaga chiqishi uchun xizmat qilishini va ushbu dialektik jarayon insonga xosligini alohida ta'kidlaydi. Alisher Navoiy morfologiyaga oid fikrlarni bayon qilar ekan, asosiysi, yetakchi so'z turkumi sifatida, maqsadga to'la muvofiq fe'llarga murojaat qiladi. Fe'l birliklarning ma'no jihatdan, shakl va qo'llanishi jihatdan eski o'zbek adabiy tilining o'zigagina xos, ya'ni forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini, zukko tilshunos sifatida, puxta tahlil qiladi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida shu tilning o'ziga xos bo'lgan quyidagi fe'llarni keltiradi. Bular: **quvarmoq, quruqshamoq, usharmoq, jiyjaymok, o'ngdaymoq, chekrimak, do'msaymoq, umonmoq, o'sanmoq, igirmak, egarmak, o'xranmak, toriqmoq, aldamoq, arg'adamoq, ishanmak, iglanmak, aylanmok, erikmak, igranmak, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrilmoq, chayqalmoq, qiymanmoq, qizg'anmoq, nikamak, siylanmoq, tanlamoq, qimirdamoq, serpamak, sirmamak, sig'riqmoq, sig'inmoq, qilimoq, yolinmoq, munqlanmoq, indamamak, tergamak, tevrarak, qingg'aymoq, shig'aldamoq, singramoq, yashqamoq, isqarmoq, ko'ngranmak, suxranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmoq, kuymanmoq, ingramoq, tushalmoq, mung'aymoq, tanchiqolmoq, ko'ruksamak, bushurg'anmoq, buxsamoq, kirkinmak, suqadamak, busmoq, burmak, turmak, tamshimok, kaxamoq, sipqormoq, jurkanmak, urtanmak, sizgurmoq, chuprutmoq, jirgamoq, bichimoq, kikzanmoq, singurmak, kezarmak, chidamoq, tuzmak, kazganmoq, gangiramoq, yadamoq, qadamoq, chiqanmoq, qo'ndurmak, sundurmak, suqlatmoq** [2] va boshqa qayd etilgan fe'llarni semantik jihatdan tahlil qiladi, ularning ma'no umumiyliklariga, farqli belgilariga, ma'no nozikliklariga e'tibor beradi, misollar bilan asoslaydi.

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zumdin boray,

Shart bukim, har necha tutsang labo-lab **sipqaray**.

Omonimik va sinonimik munosabatdagi so'zlarni aniqlaydi, polisemantik so'zlarning mavjudligini qayd etadi. Masalan, omonim so'z sifatida **ot**, **tuz**, **ko'k** kabi so'zlarni keltirib, **ot** so'zining **nom-ism** ma'nosida, **hayvon** ma'nosida va **harakat** ma'nosida qo'llanilishi keltiriladi.

Chun pariyo hurdur **oting**, begim,
Sur'at ichra dev erur **oting**, begim,
Har xadangikim, ulus andin qochar,

Notavon jonim sari **oting**, begim[2].

Shoir yana **ko'k** so'zini bir necha ma'noda ishlatilishi haqida bayon etadi. **Ko'k osmon** ma'nosida, **may-sa** ma'nosida, **ohang** ma'nosida, **ko'klam** ma'nosida ifodalanishini ta'kidlaydi[3].

Asardan keltirilgan misollar Navoiyning so'z masalasiga juda jiddiy e'tibor berganidan, o'z davrining buyuk so'zshunos— leksikolog olimi ham bo'lganidan darak beradi.

Navoiy mazkur asarida morfologiya masalasiga ham to'xtaladi, so'z yasashiga oid ayrim fikrlarni qayd etadi. Bu asarda so'z yasovchi affikslar sifatida mansab, hunar kabilarni hosil qiluvchi quyidagilar keltiriladi: - **chi**: qushchi, xolvochi, kiyikchi, suvchi, chavgonchi, xazinachi, kemachi, qo'riqchi, kuychi; - **vul**: bak-

ovul, qarovul, yasovul, jigovul; - **I**: yasol, kabol, tunqol, suyurg'ol va boshqalar. Ma'lum bo'ldiki, affikslar asarda so'z yasovchi vositalar sifatida so'z tarkibida qo'llanib, yangi so'z yasash, asosan, shaxs otini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan ilmiy va adabiy merosini o'rganish, lisoniy yo'nalishda u yaratgan asarlarni tahlil qilish, so'zlarga, so'z ma'nolariga e'tibor berish, ularni izohlash, ma'naviy qamrovini, matndagi quvvatini ochib berish, o'zga tillarga tarjima qilish kabilar XV asrdan boshlab, filologik tadqiqotlarning, leksikografik ishlarining asosiy maqsadi, vazifasi bo'lib qoldi, desak mubolag'a bo'lmaydi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat—yengilmas kuch". — T.: "Ma'naviyat". 2008, 47-bet.
2. Alisher Navoiy, Tanlangan asarlar. 10-tom. — T., 2011. 512-539- betlar.
3. Alisher Navoiy. Hikmatlar. — T.: "O'zbekiston". 2011. 366-bet.
4. Ma'naviyat yulduzlari. — T.: "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti". — T., 2001. 225-231- betlar.



Yulduz ESHMATOVA,

TDIU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, PhD

munis_76@mail.ru

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK QISSACHILIGIDA AYOLLAR RUHIYATINI IFODALASHDAGI YORDAMCHI BADIY VOSITALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayollar ruhiyatini ifodalashdagi yordamchi va badiiy vositalar tahlil qilingan. Unda Istiqlol davri qissalarining badiiy xususiyatlari ham tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu qissalardagi ayollar ruhiyati talqin etilgan.

Kalit so'zlar: *modernizm, postmodernizm, intuitiv, dramatik, janr, polotno, obraz, uslub, syujet, psixologik talqin.*

Аннотация: в данной статье анализируются вспомогательные и художественные средства выражения женской психики в узбекских рассказах периода независимости. Также исследуются художественные особенности рассказов периода Независимости. Также в этих рассказах интерпретируется менталитет женщин.

Ключевые слова: *модернизм, постмодернизм, интуитивный, драматический, жанр, полотно, образ, стиль, сюжет, психологическая интерпретация.*

Annotation: this article analyzes auxiliary and artistic means of expressing women's psyche in Uzbek short stories of the period of independence. It also researches the artistic features of stories of the Independence period. Also, the mentality of women in these stories is interpreted.

Key words: *modernism, postmodernism, intuitive, dramatic, genre, canvas, image, style, plot, psychological interpretation.*

Adabiyotshunoslikda tabiat tasviri va psixologizm muammosini o'rganish doimo dolzarb mavzulardandir. Zero, "Yozuvchi o'z g'oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o'rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali ham amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o'quvchiga ta'sir etishni, undagi go'zallik tuyg'ularini tarbiyalashni ham ko'zda tutadi". Qolaversa, peyzaj tasviriga badiiy-g'oyaviy jihatdan

yondashilganda asar qahramonlari bilan peyzaj tasviri o'rtasida ajratib bo'lmaz dialektik aloqa mavjudligini olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz mumtoz va zamonaviy badiiy asarlar tadqiqi misolida kuzatishgan. "Adabiyotshunoslik lug'ati" da peyzaj ta'rifi quyidagicha ifodalangan: "Adabiy asarda yaratiluvchi voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interyer) tasviri". Darhaqiqat, adabiyotshunos olimlar I.Sulton, B.Sarimsoqov, T.Boboyev H.Umurov, Y.Solijonov, D.Quronovlar ta'kidlaganidek, peyzaj, avvalo, badiiy asarda tasvirlangan tabiat tasviri, ammo peyzaj nazariy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, faqatgina zamon va makon tasviridagina iborat emas.

Peyzaj muammosini maxsus monografik planda tadqiq qilgan M.Sultonova mazkur vositaning badiiy asardagi o'rni masalasi haqida shunday mulohaza yuritgan: "Yozuvchi o'z g'oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o'rab turgan tabiat manzaralarini tasvirlash orqali amalga oshiradi. Peyzaj tasviri orqali o'quvchiga ta'sir etishni, undagi go'zallik tuyg'ularini tarbiyalashni ham ko'zda tutadi". Kuzatganimizdek, olima peyzaj tasvirining qahramon xatti-harakatlari bilan uyg'un kelishidan tashqari, kitobxon qalbiga ta'sir o'tkazuvchi tarbiyaviy, ma'rifiy va estetik vazifasini ham ta'kidlab o'tadi.

Adabiyotshunos M.Qo'chqorova ham M.Sultonova kabi peyzaj vositasining qahramon ruhiyati bilan mos ravishda aks ettirilishini qayd etib, peyzaj – ichki kechinmalarni yanada bo'rttirib tasvirlovchi vosita ekanligini "Ozodlik" va "Fiesta" asarlarida ramz va peyzaj" maqolasida o'rganar ekan, shunday fikr yuritadi: "Binobarin, asardagi har bir peyzaj tasviri, fasllar, unga xos turli holatlar, mavsumiy o'zgarishlar, qahramon holati, kayfiyati, kechinmalari va hissiyotlariga monand ifodalanadi. Shuningdek, tabiat manzaralari va lavhalari qahramon ichki kechinmalarini yanada jonlantirib, kuchaytirib ifoda etuvchi vosita hamdir".

Biz tahlil obyekti sifatida o'rganayotgan X.Do'stmuhammad, S.O'nar, N.Eshonqul, A.Yo'ldosh qalamiga mansub asarlarda tabiat manzaralari va joy tasvirlari, ularning qahramon ruhiy kechinmalari bilan uzviy ravishda bog'liqligi har bir ijodkorda original va individual tarzda yondashilganini kuzatishimiz mumkin.

N.Eshonqulning "Momoqo'shiq" qissasi dastlabki satrlardan oq batafsil joy va mavsum tasviri bilan boshlanadi: "Butun brigada so'nggi uch kun hasharchilarga joy hozirlash bilan ovora bo'ldi: har qalay, madaniyat xodimlari, yana biror kori hol yuz bermasin, bizni madaniyatsiz, deb ketishmasin degan istihola bilan shiyponni obdon oqlashdi, yog'och kart o'rniga simto'shaklar o'rnatishdi, shiypon oldidagi o'to'lanlarni o'rib olishdi, daraxtlarni butashdi, qip-qizil

matoga nima uchun zarurligini o'zlari ham tushunmay: "Xush kelibsiz, hasharchilar", "Oq oltinning bir misqoli ham yerda qolmasin" deb yozilgan shiorlar ilib qo'yishdi. Quduqlarni tozalashdi, atrofini qora qog'oz bilan o'rashib, kichkina omborxonaga qurishdi – hamma ishni qunt bilan berilib bajarishdi: chunki yuqoridan bu yil shiyponga madaniyat vazirligining xodimlari kelishi mumkinligi va shunga yarasha tayyorgarlik ko'rish kerakligi haqida juda ehtiyotkorona xabar kelgan edi. Sunbula oyining endi ikki haftasi o'tganiga qaramay, hasharchilar bu yil erta kela boshlagandi". Mazkur parchada kuzatganimizdek, yozuvchi paxta yig'imterimi davridagi shiypon tasviri, hasharchilarning kelishi munosabati bilan shiypondagi tozalash ishlari, kichkina omborxonaga qurilishi haqida batafsil tasvirlar beradiki, bu o'quvchiga makon va zamon haqida, asarda hikoya etilmoqchi bo'lgan taqdirlar va voqealarga ekspozitsiya vazifasini o'tagan. Shuningdek, N.Eshonqul kinomatografik tasvir uslubidan ham keng foydalangan. Ya'ni turfa xil hissiyotlarni, xatti-harakatlarni operator singari bitta kadrda aniq va tiniq chizadi: "Nihoyat juma kuni peshindan keyin bo'limga qarashli dalalarga olib keladigan yagona tuproq yo'lda peshonalarga bayroq qadalgan toshbaqaga o'xshash uch avtobus ko'rindi: muyulishdagi yo'ldan to shiyponga kelguncha avtobuslar uch-to'rt marta tantanali big'illab qo'ydi; birpasda hammayoq ostin-ustin bo'lib ketdi – savxoz markazidan samovor va qozon tashlab ketishdi: hashardan ko'ra ko'rikka kelishganday juda yasantusan qilib olgan hasharchilar avtobus to'xtashi bilan atrofga yoyilgan chang-chungini kuh-kuhlab o'zlarini shiyponga urishdi – ular yuzga yaqin yosh-yalanglar va turli yoshdagi ayol-u erkaklar edi – ular go'yo o'zlari bilan bu sokin cho'l qo'yniga shaharning sershovqin va betartib hayotini ham birga olib kelganday edilar – shiypon tevaragi ingichka, yo'g'on, shirali, shirasiz, nozli, ishvador, xirildoq, sovuq, hirlinglagan, charillagan, yig'lamsiragan, kulingqiragan, bosinqiragan, hadiksiragan, cho'chinqiragan turli ovozlarga to'ldi". Yuqorida aytib o'tganimizdek, adib mazkur parcha so'ngida turli ovozlarni tasvirini uyushiq bo'lak sifatida (ingichka, yo'g'on, shirasiz, nozli, ishvador, xirildoq, sovuq, hirlinglagan, charillagan, yig'lamsiragan, kulingqiragan, bosinqiragan, hadiksiragan, cho'chinqiragan) keltirar ekan, tasvirda yaxlit badiiy butunlikka erishgan.

Tun xushbo'y siyohrang atirgulga o'xshaydi. Bu gulni kim uzib ko'k qo'yniga qo'yib ketdi ekan, men bilmayman". Kuzatganimizdek, qissa qahramoni ijodkor shaxs uchun tun ulug'vor va go'zal mohiyatga ega. Aslida, bu tavsif yozuvchining dunyoqarashi va badiiy tafakkurini namoyon etib turibdi. Tun tasviri qissada poetik tasvirlarga juda boy.

Yuqoridagi fikrimizga qaytadigan bo'lsak, "Momoqo'shiq" qissasida tun Shamsi Saloh uchun

ko'nglidagi yashirin hislarni to'kib-sochishga boshpana, ikkinchidan o'z qalbi bilan yuzma-yuz turib bahslashishga go'yoki bir panoj vazifasini o'taydi. Demak, tahlil etayotganimizdek, qissada tun – qahramon ruhiyatini yanada ochiq-oshkora taftish etish uchun bir vosita bo'lgan. Yana bir misolga murojaat etamiz: "... Ko'ryapsanmi, yerni turtib-turtib maysalar bosh ko'taryapti, kurtaklar chirigan po'stloqni yorib-yorib chiqyapti, g'unchalar ochilyapti – bular hammasi bir lahzada bo'lyapti, chirigan, so'ligan, payhon qilingan gullar qayta barg yozyapti, bog' turli iforlarga burkanyapti, daraxtlar novda tugyapti, yomg'ir o'ziga kamalakdan libos tikiyapti – bari sening qo'shig'ingdan, sening ilohiy ovozingdan, sen ohanglarni yondirgan ohangsan, sen tun qo'ynida lovvullab turgan alangasan!.." Kuzatganimizdek, mazkur parchada ayol obrazi lirik-romantik uslubda ilohiylashtiriladi, ideallashtiriladi, parcha so'nggida ayol qop-qora tunni yoritayotgan alangaga o'xshatiladi. Qissada Shamsi Saloh nutqiga xos ko'p o'rinlarni ichki-monologning "monolog-orzu" turi tashkil etadi: "Ana sen dunyoni kulgung bilan to'ldirmoqchidek, qiqirlab kulyapsan, yuzingdan jilvalanib-jilvalanib ohanglar taralyapti. Ana sen qizg'aldoqlar ichida yugurib borayapsan, egningda oq harir ko'ylak, boshingda qizil durra...yo'q... yo'q, bu durra emas, qizg'aldoqning bir dona bargi, egningdagi kechagina gullagan o'rikning libosi... Ana sen billur zinalardan yuksaklikka ko'tariyapsan... oyoqlaring ostida baxtning, shon-shavkatning suyaklari sochilib yotibdi – sen, ana, bu qadimiy zulmat va sokinlikni ovozing bilan tilib boryapsan – ovozing yonib boryapti, bu sahroda o'z nomini yo'qotgan va nomsiz narsalarga nom beryapti, ism beryapti, adashgan dunyoni yana o'z holiga qaytaryapti... Senga

musiqaning keragi yo'q, sening ovozingga yulduzlar kuy bastalay oladi... Ko'zlaringni ochib yumishing tun bilan tong almashishiga o'xshaydi – kipriklaring tonggi yulduzlardek yaraqlab ketadi – qani edi ko'zlaring ayvonida uxlab yotgan kipriklardan bittasi men bo'lsam... Yo'q, sening makoning yer emas, sen falak qizisan... Sen oy kursisidan yerga shafqat bilan boqayotgan farishtasan, sen hurlik farishtasidan, sen orzuning, xayolning suratlarini chizib berish uchun bu dunyoga kelgansan...". Demak, yozuvchi tasvirda lirik-romantik o'rinlarga ko'p o'rin bergan holda har bir xatboshida "...Ana" takroriy so'zini qo'llash orqali emotsional bo'yoqdorlikka erishadi. Ayol farishtaga, hurlik farishtasiga o'xshatiladi.

Mazkur monolog-orzudan so'ng muallif yana tun peyzaj tasviriga qaytadi: "Oy ko'k dengizida qip-yalang'och suzib yurardi. U tashqariga gulxan yoqib, hasharchilar qandaydir rok muzikaga dikonglashayotgan shiypon tomon borar ekan, yaqin kunlarda boshlanajak yangi hikoya haqida o'ylardi. U bilan tunda ham dalalar uzra qadam tashlab yurar, sarmo kiyib olgan qora po'stinda zarhal ziraklar yaltirardi". Ko'kda oy qip-yalang'och suzib yurganidek, Shamsi Saloh ham tun qo'ynida yalang'och histuyg'ulari bilan sarosar kezardi. Shamsi Salohning pokizalik timsoli bo'lgan - Muazzam haqidagi o'y-xayollari, u bilan shiypon tomon birgalikda odimlayotgan qora tun kabi xayollari ham tund, badbin, mavhum edi. Qahramonning egniga kiyib olgan zarhal zirakli po'stini ham uning hoy-u havaslari kabi, mashhurlikka o'ch, kibrli, sovuq fe'l-atvoridan darak berib turibdi. Zero, badiiy adabiyotda yaltiroq kiyimlar doimo kibr-u havoning ramziy timsoli bo'lib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Султонова М. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983.9-бет.
2. Набиев Ф. Пейзаж ва маънавий санъатлар. Адабий мерос, 1977.
3. Малехова А.Н. Заметки о поэтике пейзажа в поэме "Лисон-ат-тайр", Вестник Ленинградского университета, 1977. № 2.
4. Султонова М. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983. 88-бет.
5. Қуроноф Д., Мамажоноф З., ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akademnashr, 2010, 220-бет.
6. Қўчқорова М. "Озодлик ва "Фиеста" асарларида рамз ва пейзаж". Ёшлик. – Тошкент. 2010.7-сон. 47-бет.
7. Қўчқорова М. Руҳиятга мутаносиблик. Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент. 2006. 2-сон. 39-42-бетлар.
8. Малехова А.Н. Заметки о поэтике пейзажа в поэме "Лисонут-тайр", Вестник Ленинградского университета, 1977, № 2; Набиев Ф. Пейзаж ва маънавий санъатлар. Адабий мерос, 1977.
9. Эшонқул Н. Момоқўшиқ. Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ, 2008. 113-бет.

Nafisa SADINOVA,
NavDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

O'ZBEK TILI RASMIY USLUBIDA QOLIPLASHGAN JUMLALARNING QO'LLANISHI

Annotatsiya: maqolada o'zbek tili rasmiy uslubida qoliplashgan jummalarning qo'llanishi haqida so'z yuritilgan. Rasmiy uslubning sintaktik xususiyatlari, qoliplashgan jummalarning hujjat turlarida farqli ishlatilishi tahlil qilingan. Shuningdek, rasmiy uslub doirasida qo'llanadigan hujjatlarga oid ba'zi misollar yordamida bu hodisalarning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: rasmiy uslub, qoliplashgan jumla, ish yuritish, hujjat, sintaktik xususiyat, qoliplashgan gap shakllari.

Аннотация: в статье рассматривается употребление формальных предложений в узбекском языке. Анализируются синтаксические особенности делового стиля, различное употребление нормированных предложений в типах документов. Также с помощью некоторых примеров документов, используемых в рамках официальной методики, выделены особенности этих мероприятий.

Ключевые слова: формальный стиль, шаблонное предложение, процедура, документ, синтаксический признак, стереотипные формы предложения.

Annotation: the article talks about the use of formal sentences in the Uzbek language. The syntactic features of the official style, the different use of standardized sentences in document types are analyzed. Also, with the help of some examples of documents used within the framework of the official method, the specific features of these events are highlighted.

Key words: formal style, stereotyped sentence, procedure, document, syntactic feature, stereotyped sentence forms.

Rasmiy uslubning bosh vazifasi rasmiy munosabatlarni ifodalashdir. Uning asosini esa ish yuritish tashkil qiladi. Bu, o'z navbatida, rasmiy ish uslubining qonunlar tili, diplomatik hujjatlar tili va ish qog'ozlari tili kabi yo'nalishlarga bo'linishini asoslaydi. Keyingi yillarda qator tadqiqotlarda ham rasmiy uslub va uning xususiyatlari haqida fikr yuritilmoqda. [1;3;4;5;6;7;8] Rasmiy uslubning bu uchala yo'nalishi uchun ba'zi farqli talablar bilan birga umumiy talablar ham qo'yiladi. Uchala yo'nalish uchun ham qoliplashish hodisasi xos bo'lib, bu hodisa hujjatlar bilan ishlashni osonlashtirishga, qulaylashtirishga xizmat qiladi.

Rasmiy ish qog'ozlarida lisoniy qoliplar haqida fikr yuritgan B.Mo'minova haqida, to'g'risida, xususida ko'makchilari hujjatchilikda keng qo'llanishini, bu ko'makchilar matn sarlavhasini ifodalovchi "harakat nomi + haqida", "harakat nomi + to'g'risida", "harakat nomi + xususida" shaklidagi qolipni vujudga keltirishini va kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruq sarlavhalarida "Ishga qabul qilish haqida", "Ishdan bo'shatish haqida", "Boshqa ishga o'tkazish haqida", "Rag'batlantirish haqida" qoliplari keng qo'llanayotganini juda to'g'ri e'tirof etadi. [5;123.]

Shuningdek, har bir hujjat sintaktik jihatdan o'ziga xos qoliplashgan gap shakllariga egadir. "...so'm maosh bilan ... lavozimiga tayinlansin"; "...o'z xohishiga ko'ra ...lavozimidan ozod qilinsin"; "...boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan ...lavozimidan ozod qilinsin."; "Oylik maoshi shtatjadvali bo'yicha ...so'm miqdorida belgilansin"; "...davrida ... vazifasi ...ga yuklatilsin." kabi gaplar buyruqda qo'llansa, "Meni ... vazifasiga ishga qabul qilishingizni so'rayman"; "Meni ... lavozimiga ishga qabul qilishingizni so'rayman"; "Meni ... lavozimidan o'z ixtiyoriga ko'ra ozod etishingizni so'rayman"; "...ga ruxsat berishingizni

so'rayman" kabi gaplar arizada; "Men, ..., ...ga ...uchun ishonch bildiraman"; "...ga ... bajarishga vakolat beradi" kabi jumlarlar ishonchnomada; "...da ... bo'lib ishlaydi. O'rtacha oylik maoshi ...so'm", "Ma'lumotnoma ...ga taqdim etish uchun berildi." kabi jumlarlar ma'lumotnomada; "...tufayli ...ga qatnasha olmadim", "... sababli ...ni bajara olmadim", "...uchun ...ga kechikib keldim" kabi jumlarlar tushuntirish xatida qo'llanadi. Shuningdek, "ilova qilamiz", "qayta yo'llaymiz" kabi birikmalar ilova xat uchun xos bo'lsa, "...ni so'raymiz" jumlasini so'rov xati va "...tasdiqlaymiz", "ma'lum qilamiz" jumalari tasdiq xati uchun xosdir. Hujjatlar matnlari uchun xos bo'lgan bu shakllar ish yuritishni osonlashtiradi, hujjat yozuvchining ham, hujjatni qabul qiluvchining ham ishini ancha yengillashtiradi. "Ana shu qoliplashgan birikmalarning ishtirokiga ko'ra hujjatchilar "hujjatlar yozilmaydi, balki tuziladi" deyдилar". [2;17.]

Qonunlar tiliga bag'ishlangan tadqiqotlarda qonun matnlarida ham qoliplashish holati kuzatilishi qayd etiladi: "Qonun matnlarida rasmiy ish qog'ozlarida keng qo'llanadigan qoliplashgan qurilmalar erkin qo'llanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunida uchraydigan konstitutsiyaviy huquq, huquqiy asoslar, xohishlariga ko'ra, shart-sharoit yaratildi, erkin tanlash huquqi, zaruriyatga qarab, ehtiyojlarni hisobga olgan holda, fuqarolarning xohishiga ko'ra, boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qonun hujjatlariga muvofiq, belgilangan tartibda kabi qoliplashgan qurilmalarni boshqa qonun hujjatlarida ham ko'plab uchratish mumkin." [8;90.] Lekin ish qog'ozlari matnidagi qoliplashish hodisasi qonunlar matnidagi qoliplashgan qurilmalardan farq qiladi: qonunlar matnida qoliplashish birikmalarga oid bo'lsa, ish qog'ozlari matnida gaplar sintaktik jihatdan qoliplashgan shakl olishini kuzatdik. Qoliplashish hodisasi rasmiy uslubning har ikkala yo'nalishi

uchun xos bo'lganligi bu yo'nalishlarni umumlashtirsa, ularda birikma va gap holatida qoliplashishning farqlanishi har ikkala yo'nalishni xususiylashtiradi. Shuning uchun bemalol aytish mumkinki, ish qog'ozlari uslubidagi gap tuzilishining qoliplashishi bu uslubning o'ziga xosligini ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. "Sintaktik qoliplar yaratishda fe'llarning xoslangan shakllari, nisbat shakllarini hosil qiluvchi qo'shimchalar faoldir." [5;122.]

Ish qog'ozlari matnida kiritma gaplardan foydalanish shu uslubning asosiy sintaktik xususiyati bo'lmish qoliplashish hodisasini yuzaga keltiradi. Masalan:

Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti ma'muriyati nomidan direktor N.Mahmudov (keyingi o'rinlarda "Direktor" deb yuritiladi) bir tomon, ...(keyingi o'rinlarda "Xodim" deb yuritiladi) ikkinchi tomon bo'lib, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar (yoki tuzdik) jumlasini biror korxonaga, muassasa (yuridik shaxs) bilan ma'lum bir jismoniy shaxs o'rtasida tuziladigan kontrakt-shartnomaning kirish qismi bo'lib, unda quyidagi ...(keyingi o'rinlarda ... deb yuritiladi) bir tomon, ... (keyingi o'rinlarda ... deb yuritiladi) ikkinchi tomon bo'lib, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar (yoki tuzdik) qismi qoliplashgan hisoblanadi. Shu turdagi shartnomalarning kirish qismi ham xuddi shu qolipda bo'lib, faqat ochiq qolgan o'rinlar zarur so'zlar bilan to'ldiriladi.

Ish qog'ozlari uslubida o'zlashtirma gap ko'pincha ariza, tushuntirish xati kabi hujjatlarda qo'llanadi: "Bir oydan keyin o'g'limni olgani keldim, lekin javobgar uni menga berishdan bosh tortib, uni mendan ko'ra yaxshiroq tarbiyalay olishini aytdi." (da'vo arizasidan); "Shartnomaning ijro muddati tilxat bo'yicha 1998-yil 1-yanvarda tugagan bo'lishiga qaramay, javobgar, mening ana shu pulsiz ham yashay olishim mumkinligini aytib, qarzni qaytarishdan bosh tortmoqda".

Hujjatlar matnida qo'shma gaplarning barcha turlari qo'llanganini ko'rish mumkin. Jumladan,

a) bog'langan qo'shma gaplar: *Ayni vaqtda idishda qolgan yonilg'i miqdori o'lchanadi va bu o'lchov yo'l qog'ozining tegishli joyiga yozib qo'yiladi.* (yo'riqnoma). Hujjatlar matnida bog'langan qo'shma gapning birlashtiruv va zidlov bog'lovchilari turlari faol qo'llanishi aniqlandi: *Bizning kelishuvimiz paytida Usmon To'rayevich Ahatov bor edi va u shartnoma tuzish holatini tasdiqlashi mumkin; Bu yerda doimiy yashash uchun xotinim va bolalarim ham*

kelishgan, biroq o'z yashash joyimiz yo'q;

b) bog'lovchisiz qo'shma gaplar: *Nashriyotga birlashtirilgan asosiy va aylanma mablag'lar uning Nizom jamg'armasini tashkil etadi, uning miqdori nashriyot balansini bilan belgilanadi;*

d) ergashgan qo'shma gaplar bu uslubda ancha faol ishlatiladi.

Shu bilan birga, hujjat matnida noo'rin qo'llangan ergashgan qo'shma gaplarning ba'zi turlari bilan bog'liq muammolardan qutulish qoliplashish hodisasi tufayli ham ancha qiyin kechyapti. Masalan, hozirgi kunda amaliyotda arizani "Arizani yozishdan maqsadim shuki, ..." yoki "Ushbuni yozib shuni ma'lum qilamanki, ..." kabi jumlar bilan yozish hollari hanuz uchray turadi. Bu jumlar qo'shma gapning keyingi qismini, ya'ni asosiy axborotni aktuallashtiruvchi sifatida qatnashib, hech qanday axborot tashimaydi. Hujjatlar matniga qo'yiladigan qisqalik va lo'ndalik talabiga ko'ra bu jumalarning qo'llanishi o'rinsizdir. Chunki tinglovchining aytilayotgan fikrga e'tiborini tortish vazifasini bajaruvchi bunday jumlar badiiy uslub uchun xos bo'lib, rasmiy uslub uchun keraksiz va ortiqcha hisoblanadi. Talab darajasidagi hujjat matnida har bir jumla axborot tashishga xizmat qilishi kerak, o'rinsiz va ortiqcha birliklarni qo'llash esa ish yuritishni qiyinlashtiradi, xolos.

Ish qog'ozlari matnida uslub talabidan kelib chiqqan holda payt, sabab, shart va to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarning faol qo'llanishini kuzatamiz:

1) payt ergash gapli qo'shma gap – *Ish kuni tugagandan so'ng, yo'l qog'ozini dispetcherga qaytarilishi kerak;* 2) sabab ergash gapli qo'shma gap – *Ota-onam bilan birga Chinoz tumaniga doimiy yashash uchun ko'chib kelganimiz sababli, meni maktabning 9-sinfiga qabul qilishingizni so'rayman;* 3) shart ergash gapli qo'shma gap: *Agar siz ana shu kungacha mazkur summani menga to'lmasangiz, men notarial idoraga murojaat etib, ijro yozuvini olishga majbur bo'lishim haqida Sizni ogohlantiraman;* 4) to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap: *1990-yilda bizning er-xotinlik munosabatlarimiz uzilgan bo'lsa-da, nikoh rasmiy tartibda bekor qilinmagan edi va hokazo.*

Umuman, ish qog'ozlari uslubining sintaktik xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, bu holat, ayniqsa, hujjat matnida sintaktik birliklarning tanlanishi natijasida qoliplashish hodisasida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonova M. Sud hujjatlari tili va uslubiga oid ayrim masalalar // O'zbek tili va adabiyoti, 2009. № 3. 81–83-betlar.
2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ko'rsatilgan qo'llanma. 17-bet.
3. Lutfullayeva D. Rasmiy ish hujjatlari matnida pragmatik maqsadning ifodalanishi // O'zbek tili va adabiyoti, 2019. № 3. 19–24-betlar.
4. Lutfullayeva D. Rasmiy xatlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari // "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari (2019-yil 18-oktyabr). – Toshkent, 2019. 41–46-betlar.
5. Mo'minova B. Rasmiy ish qog'ozlarida lisoniy qoliplar // O'zbek tili va adabiyoti, 2011. №3. 121–123-betlar.
6. Xudoyberganova D. Mustaqillik davrida ish yuritish leksikasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2017. № 4. 13–17-betlar.
7. Ernazarova G. Qonun matnining kommunikativ-mantiqiy tadqiqi // O'zbek tili va adabiyoti, 2011. № 1. 56–59-betlar.
8. Ernazarova G. Qonun matnida rasmiy va ilmiy uslub belgilari // O'zbek tili va adabiyoti, 2011. № 4. 90-bet.

Shokirjon ARIPOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq filologiyasi
va tarjimashunoslik fakulteti o'qituvchisi s.f.n.

Habibulloh OLIMJONOV,
Sharqshunoslik universiteti magistratura bosqichi
lingvistika fakulteti 2-bosqich talabasi
Elektron pochta manzili: habibulloholimjonov@gmail.com

ARAB TILSHUNOSLIGIDA NUTQ TOVUSHLARINING HOSIL BO'LISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: "Arab tilshunosligida nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmlari" sarlavhali maqolada arab fonemalarining hosil bo'lishi bilan bog'liq murakkab jarayonlarga chuqurroq to'xtalib, tilning ham artikulyatsiya, ham akustik jihatlari har tomonlama tahlil qilingan. Arab tili o'zining boy fonetik inventariga ega bo'lib, tilshunoslikni, ayniqsa, undosh va unli tovushlarni o'rganish uchun noyob muammolar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Maqola arab tilining asosiy fonetik tuzilishini bayon qilish bilan boshlanadi, artikulyatsiya nuqtalarining roli (maxorij al-huruf) va arab tovushlarining o'ziga xos xususiyatlari, masalan, urg'u undoshlari, qisqa va cho'ziq unllarning fonematik farqi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, tadqiqot turli xil nutq organlari va tovush to'lqinlarining fizik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirga e'tibor qaratib, ushbu tovushlarni hosil qilishning o'ziga xos mexanizmlarini o'rganadi. U koartikulyatsiya va assimilyatsiya fenomeniga murojaat qiladi, bu yerda qo'shni tovushlar bir-biriga ta'sir qiladi va talaffuzdagi o'zgarishlarga olib keladi. Arab fonetikasining xilma-xilligi va murakkabligini ta'kidlash uchun boshqa semit tillari va arab lahjalari bilan qiyosiy tahlil qilingan.[1]

Maqolaning yakunida til o'rgatish va logopediya uchun ushbu mexanizmlarning amaliy ahamiyati haqida so'z yuritilib, arab tilida so'zlashuvchilarda talaffuzni yaxshilash va nutq buzilishlarini bartaraf etishda fonetik bilimlarning ahamiyati ta'kidlanadi. Ushbu tadqiqot arab fonologiyasini chuqurroq tushunishga yordam beradi va arab tilini o'rganish sohasidagi tilshunoslar va o'qituvchilar uchun qimmatli fikrlarni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: arab fonetikasi, nutq tovushining shakllanishi, artikulyatsiyasi.

Аннотация: в статье под названием «Механизмы образования звуков речи в арабском языкознании» глубже рассматриваются сложные процессы, связанные с образованием арабских фонем, и всесторонне анализируются как артикуляционная, так и акустическая стороны языка. Арабский язык с его богатым фонетическим запасом представляет уникальные проблемы и возможности для изучения лингвистики, особенно согласных и гласных. Статья начинается с описания основного фонетического строя арабского языка, подчеркивая роль точек артикуляции (махаридж ал-хуруф) и специфические особенности арабских звуков, таких как ударные согласные, краткие и долгие гласные.

Кроме того, исследования сосредоточены на взаимодействии различных органов речи и физических свойствах звуковых волн, изучении конкретных механизмов образования этих звуков. Речь идет о явлении коартикуляции и ассимиляции, при котором соседние звуки взаимодействуют и приводят к изменениям в произношении. Сравнительный анализ с другими семитскими языками и арабскими диалектами был проведен, чтобы подчеркнуть разнообразие и сложность арабской фонетики.[1]

Ключевые слова: фонетика арабского языка, звукообразование речи, артикуляция.

Annotation: the article entitled "Mechanisms of the formation of speech sounds in Arabic linguistics" delves deeper into the complex processes related to the formation of Arabic phonemes and comprehensively analyzes both the articulation and acoustic aspects of the language. Arabic, with its rich phonetic inventory, presents unique challenges and opportunities for the study of linguistics, especially consonants and vowels. The article begins with a description of the basic phonetic structure of the Arabic language, emphasizing the role of articulation points (maharijal-huruf) and the specific features of Arabic sounds, such as stressed consonants, short and long vowels.

In addition, research focuses on the interaction between different speech organs and the physical properties of sound waves, studying the specific mechanisms of the production of these sounds. It refers to the phenomenon of coarticulation and assimilation, where adjacent sounds interact and lead to changes in pronunciation. Comparative analysis with other Semitic languages and Arabic dialects has been done to highlight the diversity and complexity of Arabic phonetics.[1]

Key words: Arabic phonetics, speech sound formation, articulation.

Arab fonetikasini o'rganish dunyoning eng keng tarqalgan tillaridan birida nutq tovushlari qanday shakllanishi va tushunilishini qiziqarli o'rganish imkonini beradi. Boy tarixga va chuqur madaniy ahamiyatga ega semit tili bo'lgan arab tili o'ziga xos fonetik tizimi bilan ajralib turadi, u ko'plab boshqa tillarda uchraydigan undosh va ovoqli tovushlarni o'z ichiga oladi. Arab tilida nutq tovushini shakllantirish mexanizmlari tilning murakkab fonologik tuzilishiga hissa qo'shadigan, artikulyar aniqlik va akustik xususiyatlarni birlashtirgan murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Arab tilshunosligida tovushlarning qanday hosil bo'lishini, uzatilishini va idrok etilishini tushunish bir necha sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, u tilning tuzilishi haqida tushuncha beradi, bu tilshunoslarga tovush naqshlarini tartibga soluvchi qoidalarni, masalan, turli tovushlarning so'z ichidagi pozitsiyasiga qarab qanday ifodalanishini tushunish imkonini beradi. Ikkinchidan, u arab lahjalari va unga yaqin semit tillarini qiyosiy o'rganishga yordam beradi, tilning tarixiy rivojlanishi hamda turli mintaqaviy urg'u va dialektlarning ta'siri haqida ma'lumot beradi. Uchinchidan, nutqning tovush mexanizmlarini batafsil tushunish tilni o'rgatish va nutq terapiyasida amaliy qo'llash uchun juda muhimdir, bu yerda aniq talaffuz va nutq buzilishlarini tuzatish katta ahamiyatga ega. [2]

Ushbu maqola arab tilida nutq tovushining paydo bo'lish mexanizmlarini artikulyar va akustik jarayonlarni o'rganishga qaratilgan. Unda arab fonetikasining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, unlilar, undoshlar yasalishi, koartikulyatsiya hodisasi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, u ushbu mexanizmlarni boshqa semit tillari bilan taqqoslaydi va ularning arab dialektologiyasi va til pedagogikasiga ta'sirini muhokama qiladi. Ushbu tadqiqot orqali maqola arab fonologiyasini kengroq tushunishga hissa qo'shishga intiladi, tilshunoslar, o'qituvchilar va til amaliyotchilari uchun qimmatli fikrlarni taklif qiladi.

Arab tilshunosligida nutq tovushlarining shakllanishiga oid adabiyotlar keng qamrovli bo'lib, asosiy fonetik tahlillardan tortib, aniq fonologik hodisalarga oid so'nggi tadqiqotlargacha bo'lgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'limda arab fonetikasini tushunishni shakllantirgan asosiy asarlarning tanqidiy ko'rib chiqilishi, bu tadqiqotlar nutq tovush mexanizmlarini tushunishga qanday hissa qo'shishiga e'tibor qaratiladi.

Ushbu sohadagi muhim ishlardan biri Janet C. E. Uotsonning "Arab tilining fonologiyasi" bo'lib, u turli

dialektlarda arab fonologiyasini chuqur o'rganishni ta'minlaydi. Uotsonning arabcha undosh va unlilarning artikulyatsiya xususiyatlarini, shu jumladan, o'ziga xos ta'kidlangan (faringeallashgan) undoshlarni tahlil qilish arab fonetikasining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning ijodida tilning fonologik tizimida markaziy o'rinni egallagan tovushlarni hosil qilishda artikulyatsiya o'rni va uslubining ahamiyati ko'rsatilgan.

Yana bir muhim hissa Zeki Majid Hassanning "Zamonaviy standart arab fonetikasi va fonologiyasi" asari bo'lib, arab tovushlarining akustik xususiyatlarini batafsil o'rganib chiqadi. Hasan tadqiqoti turli fonetik muhitda unli tovushlar yasalishining nozik jihatlari, format chastotalari, unli va undosh tovushlarning o'zaro ta'sirini yoritib beradi. Uning cho'ziq va qisqa unlilar o'rtasidagi akustik o'zgarishlar, shuningdek, koartikulyatsiya ta'siri haqidagi topilmalari, ayniqsa, arabcha nutq tovushi hosil bo'lishining suyuq tabiatini tushunish uchun zarurdir.[3]

Bundan tashqari, Bryus Inghamning "Bedevi arab fonologiyasi" ishi kabi tadqiqotlar arab fonetikasining mintaqaviy o'zgarishlari haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Inghamning dialektal farqlarni o'rganishi turli arab tilida so'zlashuvchi jamoalarda nutq tovush mexanizmlari qanday sezilarli darajada farq qilishi mumkinligi haqidagi kengroq tushunchani boyitadi.

Ushbu asosiy matnlar ko'plab jurnal maqolalari va tadqiqot ishlari bilan birga arab fonetikasi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular nutq tovushini shakllantirish mexanizmlarini tahlil qilish uchun asos yaratadi va arab fonologiyasining xilma-xilligi va murakkabligini tushunish uchun juda muhim bo'lgan qiyosiy nuqtayi nazarni taklif qiladi.

Arab tilshunosligida nutq tovushining hosil bo'lish mexanizmlarini o'rganish bo'yicha ushbu tadqiqotda qo'llaniladigan usullar tavsif va tahliliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. [4] Tasviriy fonetika – arab tilidagi turli tovushlarni hujjatlashtirish va turkumlash uchun ishlatiladi, artikulyatsiya joyi va uslubi kabi artikulyatsiya xususiyatlariga e'tibor beradi. Bu arabcha unli va undoshlarning hosil bo'lishida yotgan fiziologik jarayonlarni, jumladan, til, lablar va glottislarning rolini batafsil o'rganishni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, akustik tahlil – bu tovushlarning chastotasi, amplitudasi va davomiyligi kabi jismoniy xususiyatlarini o'rganish uchun amalga oshiriladi. Bu arabcha nutq tovushlarining akustik naqshlarini,

xususan, qisqa va cho'ziq unlilar o'rtasidagi farqni hamda urg'uli undoshlarning ta'sirini ta'kidlash uchun spektrogrammalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Nihoyat, zamonaviy standart arab tilining fonetik xususiyatlarini turli arab lahjalari va boshqa semit tillari bilan taqqoslash uchun qiyosiy yondashuv qo'llaniladi, bu arab fonologiyasining o'ziga xos jihatlarini tushunish uchun kengroq kontekstni ta'minlaydi.

Arab tilshunosligida nutq tovushining shakllanish mexanizmlariga oid ushbu tadqiqot natijalari tilning o'ziga xos fonetik xususiyatlariga oid bir qancha asosiy tushunchalarni ochib beradi. Artikulyatsiya va akustik tahlilning kombinatsiyasi orqali tadqiqot arab tilining o'ziga xos fonologik xususiyatlari qanday ishlab chiqarilishi va idrok etilishi, uning o'ziga xos tovush tizimiga hissa qo'shishini ko'rsatadi.

Artikulyatsiya tahlili – arab tilining fonetik inventariga nutq a'zolarining aniq muvofiqlashuvi katta ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. [5] Tadqiqot arab fonologiyasida markaziy o'rinni egallagan ta'kidli (faringeallashgan) va ta'kidlanmagan undoshlarni hosil qilishda tilning muhim rolini, xususan, uning joylashishi va harakatini aniqlaydi. Natijalar, shuningdek, glottal va faringeal mintaqalarning arab tiliga xos bo'lgan noyob tovushlarni, masalan, glottal stop va faringeal frikativlarni yaratishda muhimligini ta'kidlaydi.

Akustik tahlil – qisqa va cho'ziq unlilar o'rtasidagi ziddiyatni ta'kidlab, arabcha unlilarning formant chastotalarida aniq naqshlarni ochib beradi. [6] Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, arab tilidagi cho'ziq unlilar og'zaki tilda ma'noni ajratish uchun juda muhim bo'lgan barqaror va aniq shakllanish naqshlarini namoyish etadi. Bundan tashqari, akustik ma'lumotlar urg'uli undoshlar qo'shni unlilarga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi, ko'pincha ularning format chastotalarini pasaytiradi va unli tovushning markazlashtirilgan sifatini yaratadi, bu hodisa unli tovush sifatida tanilgan.

Zamonaviy standart arab tili va turli lahjalar o'rtasidagi qiyosiy tahlil – arab tilida so'zlashuvchilar dunyosidagi fonetik xilma-xillikni ta'kidlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, asosiy fonetik tamoyillar dialektlarda izchil bo'lib qolsada, mintaqaviy o'zgarishlar talaffuzda, xususan, ayrim undoshlarning artikulyatsiyasi va unli uzunligidan foydalanishda sezilarli farqlarni keltirib chiqaradi. Bu topilmalar shuni ko'rsatadiki, dialektal o'zgaruvchanlik arab fonetikasi evolyutsiyasida hal qiluvchi rol o'ynab, og'zaki tilga ham, uning

fonologik qoidalariga ham ta'sir qiladi.

Umuman olganda, natijalar arab tilidagi nutq tovushini shakllantirish mexanizmlarini har tomonlama tushunish imkonini beradi, bu tilning fonologik tuzilishi va uning turli kontekstlardagi o'zgarishlari haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Arab tilshunosligida nutq tovushining shakllanish mexanizmlariga oid ushbu tadqiqot natijalarini muhokama qilish arab fonologiyasini tushunish va uni turli lingvistik va pedagogik kontekstlarda qo'llash uchun bir qancha muhim natijalarni ko'rsatadi.

Artikulyatsiya mexanizmlarini tahlil qilish arabcha tovushlarni hosil qilish uchun turli nutq organlari o'rtasida zarur bo'lgan murakkab muvofiqlashtirishni, xususan, urg'uli va urg'usiz undoshlarni artikulyatsiya qilishda tilning rolini ochib beradi. [7] Bu arab tilining fonetik inventarining o'ziga xos xususiyatini ta'kidlaydi, bu yerda tilning aniq joylashuvi tilga xos tovushlarni yaratish uchun juda muhimdir. Buning ta'siri, ayniqsa, til o'rganuvchilar va o'qituvchilar uchun juda muhimdir, chunki bu artikulyar nuanslarni o'zlashtirish uchun maqsadli fonetik yo'riqnoma zarurligini ta'kidlaydi. Bu, shuningdek, ona tili bo'lmaganlar, ayniqsa, ona tillarida o'xshash fonetik xususiyatlarga ega bo'lmaganlar to'g'ri talaffuzga ega bo'lishlari mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni ta'kidlaydi.

Akustik tahlil, xususan, arab tilidagi cho'ziq unlilarning barqarorligi va o'ziga xosligi haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. Topilmalar shuni tasdiqlaydiki, unli tovush uzunligi til fonologiyasida hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu ham ma'no, ham talaffuzga ta'sir qiladi. Bu nazariy tilshunoslik uchun ham, amaliy til o'rgatish uchun ham muhim ahamiyatga ega. [8] Ta'kidlangan undoshlarning qo'shni unlilarga kuzatilgan ta'siri, unli tovushlar orqasiga olib kelishi, mavjud fonologik modellarga qarshi turishi mumkin bo'lgan koartikulyatsiya darajasini ko'rsatadi, bu esa tovushlarning uzluksiz nutqda o'zaro ta'sirini yanada chuqurroq tushunishni talab qiladi.

Turli arab lahjalarining qiyosiy tahlili arab tilidagi xilma-xillikni ta'kidlab, mintaqaviy o'zgarishlar fonetik realizatsiyaga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Bulingvistik tadqiqotlarda ham, til ta'limida ham dialektal farqlarni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu o'zgarishlarni tushunish turli arab tilida so'zlashuvchi mintaqalarning o'ziga xos fonetik muammolarini hisobga oladigan samaraliroq o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam

beradi.

Umuman olganda, ushbu munozara arab fonetikasining murakkabligi va boyligiga ishora qiladi va tilshunoslar, til o'qituvchilari va nutq terapevtlari uchun qimmatli fikrlarni taklif qiladi. Topilmalar nafaqat arab fonologiyasini chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki bu bilimlarning arab tilini o'rgatish va nutq terapiyasi amaliyotini yaxshilashda amaliy qo'llanilishini ham ta'kidlaydi.

Arab tilshunosligida urg'uli undoshlar (faringeallashgan undoshlar deb ham ataladi) arab tilini boshqa tillardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatdir. Bu /s/, /d/, /t/ va /z/ kabi tovushlar faringeal mintaqaning bir vaqtning o'zida torayishi bilan hosil bo'lib, "yo'g'on" yoki "qora" sifatini yaratadi. [9] Ona tili bo'lmaganlar, ayniqsa, tillarida o'xshash tovushlar yo'q bo'lganlar uchun bu urg'uli undoshlar ham talaffuzda, ham tushunishda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi.

Xulosa. Arab tilshunosligida nutq tovushining hosil bo'lish mexanizmlarini o'rganish tilning o'ziga xos fonetik xususiyatlarini belgilovchi

artikulyar va akustik omillar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ochib beradi. Arab tilining boy fonologik tizimi urg'uli undoshlar va aniq unli uzunliklari kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi, nutq organlarining aniq muvofiqlashtirilishini talab qiladi hamda ma'no va talaffuz uchun juda muhim bo'lgan o'ziga xos akustik naqshlarni yaratadi. Tahlil ona tili bo'lmaganlar duch keladigan qiyinchiliklarni, xususan, faringealizatsiya va koartikulyatsiyani o'zlashtirishda, maqsadli fonetik ta'limning muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, arab lahjalari orasidagi xilma-xillik mintaqaviy fonetik o'zgarishlarni chuqur tushunish zarurligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot arab fonologiyasi bo'yicha qimmatli tushunchalarga hissa qo'shadi va til o'rgatish, nutq terapiyasi va keyingi lingvistik tadqiqotlar uchun amaliy natijalar beradi. Bu mexanizmlarni tushunish arab tilshunosligi sohasida ham nazariy bilimlarni, ham amaliy qo'llanmalarni rivojlantirish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al Zoubi Samer. (2019). The Speech Sounds of Arabic Language and their Effect on Learning English Pronunciation: A Contrastive Analysis. *International Journal of Humanities and Social Science*. 9. 10.30845/ijhss.v9n1p2.
2. Doris Mücke, Anne Hermes, Taehong Cho b. (September, 2017), Mechanisms of regulation in speech: Linguistic structure and physical control system, *Journal of Phonetics*.
3. Elrefaie D.A., Hegazi M.A.EF., El-Mahallawi M.M. et al. Descriptive analysis of the development of the Arabic speech sounds among typically developing colloquial Egyptian Arabic-speaking children. *Egypt J Otolaryngol* 37, 38 (2021).
4. Alshalaan K. (2020) A Comparison between English and Arabic Sound Systems Regarding Places of Articulation. *Open Access Library Journal*, 7, 1-7. doi: 10.4236/oalib.1105679.
5. Kaye A. S. (1991). *Arabic Phonology: An Acoustical and Physiological Investigation* (Vol. 3). Oxford University Press.
6. Tamer Abou-Elsaad, Omayma Afsah, Mona Rabea, Identification of phonological processes in Arabic-speaking Egyptian children by single-word test, *Journal of Communication Disorders* Volume 77, January–February 2019, Pages 80-93
7. Versteegh K. (2001). *The Arabic Language*. Columbia University Press.
8. Wright W. (1896). *A grammar of the Arabic language*. Cambridge University Press.
9. Iram Sabir*, Nora Alsaheed, A Brief Description of Consonants in Modern Standard Arabic, *Linguistics and Literature Studies* Vol. 2(7), pp. 185 – 189, DOI: 10.13189/lis.2014.020702
10. Qasem F. (2023), "Phonological metathesis phenomenon in the early speech of Arabic-speaking children", *Saudi Journal of Language Studies*, Vol. 3 No. 4, pp. 220-231. <https://doi.org/10.1108/SJLS-07-2023-0030>.

Zulxumor MIRZAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti professori

CHO'LPON TARJIMALARIDA SIYOSIY POETIKA

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asr tarjimachiligi, badiiy tarjima siyosati, jadidchilik g'oyalari targ'ib qilishda badiiy tarjimaning ahamiyati Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tarjimalari misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, tarjima siyosati, adabiy siyosat, imperiya, mustamlaka, milliy tafakkur, subyektivizm.*

Annotation: in this article, the history of literary translation in the beginning of 20th century, policy of the translation and its importance in promoting of Jadids' socio-political ideas are analyzed on the example of the translations of Abdulkhamid Cholpon.

Key words: *literary translation, translation politics, literary politics, empire, colonialism, national thought, subjectivity.*

Аннотация: в статье анализируется история литературного перевода в начале XX века, политика перевода и его значение в пропаганде социо-политических идей джадидов в примере переводов Абдулхамид Чуппана.

Ключевые слова: *художественный перевод, политика перевода, литературная политика, империя, колониализм, национальная мысль, субъективность.*

Sovet imperiyasi davridagi ijtimoiy-siyosiy talablar bilan xalqning azaliy orzulari o'rtasidagi keskin tafovutlar, ziddiyatlar turli milliy ozodlik harakatlarini yuzaga keltirdi. Bu milliy kurashlar o'sha davrda xalqni imperiya zulmidan ozod qilmagan bo'lsa-da, jamiyat ongida, adabiy-estetik tafakkurida "ozodlik uchun kurash" g'oyasini targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1920–1930-yillarda, imperiyaning mustamlakachilik siyosati har jihatdan kuchaygan paytda, jadidlar ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy qarashlarini badiiy tarjimalar orqali ham bayon etdi. Ular ingliz, rus, tojik yozuvchilarining O'zbekistondagi milliy tiklanishda muhim ahamiyatga ega adabiy asarlarini tarjima qila boshladilar. Jumladan, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon erkin shaxs, ozodlik haqidagi fikr-qarashlarini isyonkor tuyg'ularini badiiy tarjimalari, Baxtin ta'biri bilan aytganda, "begona so'z" (чужое слово) orqali ifodaladi. Jumladan, V. Shekspirning Cho'lpon tarjimasidagi "Hamlet" asarida Daniya shahzodasi tilidan aytilgan "Yo o'lim – yo hayot" monologi mustamlakachilikka qarshi kurashayotgan ziyolilar orasida juda mashhur bo'lgan edi.

Badiiy tarjimalar nafaqat jadid g'oyalari, balki 1930-yillarda e'lon qilingan sotsialistik realizm ta'limotini targ'ib qilishda ham ijtimoiy-mafkuraviy, siyosiy nutqning muhim vositasiga aylandi. Adabiy jarayon, jumladan, tarjima sohasi ham markazlashtirilgan madaniy siyosatning yalovbardoriga aylandi. Ayrim manbalarga ko'ra, sotsialistik realizm g'oyalari va kommunistik mafkurani qo'llab-quvvatlovchi, Lenin va Stalin

shaxsini madh etuvchi yuzlab asarlar turli tillarga, shu jumladan, o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Sovet mafkurasi singdirilgan asarlar 1930–1960-yillarda dominant g'oyalar, siyosiy nutq takomilida muhim ahamiyat kasb etdi. Mavjud manbalarda Abdulla Qodiriy ham siyosiy vaziyat ta'sirida ateistik ruhdagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgani haqidagi ma'lumotlar qayd etilgan.

Cho'lpon o'z davrida xalqni istibdoddan himoya qilgan, o'z asarlari bilan mustamlakachilikka qarshi kurashgan xalq qahramoni sifatida nafaqat Osiyoda, balki Yevropada ham mashhur bo'ldi, "Cho'lponning "Farg'ona" she'ri Boku, Istanbul, Berlin va Moskvada turklar tomonidan sevib o'qildi [1:44-bet]. Uning hayoti va ijodi turkistonlik muhojirlar tomonidan Istanbul va Parijda nashr etilgan "Yangi Turkiston" (1927–1932), "Yosh Turkiston" (1922–1939) jurnallarida chop etilgan maqolalarda muhim tahlil obyektiga aylandi [2: 229-bet; 3: 25-bet]. Uning taraqqiyparvar sifatidagi obro'-e'tibori qoldirgan adabiy me'rosi bilangina emas, balki qaltis vaziyatlarda e'tiqodga sobitligi, vatanparvarligi, rostgo'yligi, tili va dilining birligi kabi shaxsiy fazilatlar bilan ham bog'liqdir. Turkiston xalqini ozod va baxtiyor ko'rishni istagan Cho'lpon hukumat bilan murosa qilishga tayyor edi. Shuning uchun ham u "mazlum xalqqa yordam berish", "mamlakatda adolat va tenglik o'rnatish"ni va'da qilgan Oktyabr inqilobini olqishlagan va o'zining ijobiy munosabatini "Qizil bayroq", "Parij kommunasi", "Qizil baynalmilal" kabi she'rlarida ifodalagan. Lekin uning orzulari amalga oshmadi, Turkiston Muxtoriyati tugatildi, bolsheviklarning va'dalari sarob bo'lib chiqdi, markaziy hokimiyatning

boshqaruv siyosati yana kuchaytirildi. Oqibatda Cho'lpon kabi jadidlar imperiyaning raqibiga aylandilar.

1920–1930-yillardagi ijtimoiy-siyosiy muhitda Cho'lpon yaratgan asarlardagi g'oyaviy yo'nalishlarni nazarda tutgan holda shoir tarjimalarini ham siyosiy kontekstda tahlil qilish o'rinli bo'ladi. Chunki "jamiyat nafaqat tarjimon yashayotgan muhitda, balki uning ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ta'sirida shakllangan shaxsida ham mavjud" [4:83-bet]. Demak, Cho'lpon erk, ozodlik, milliy tiklanish kabi mavzulardagi asarlar tarjimasini faqat jahon adabiyotiga bo'lgan muhabbati yoki uni xalqqa tanitish orqali milliy adabiyotni boyitish uchungina amalga oshirmagan. Bu tarjimalar tom ma'noda Cho'lponning siyosiy qarashlarini targ'ib qilish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Adabiyotshunos Xayrulla Ismatulla ham "Shoirning R.Tagorga intilishiga sabab Cho'lponning vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulariga uyg'unligidadir", deb ta'kidlaydi.

Olim T.Rahimov XX asrning 1987-yillarigacha Cho'lpon tarjimalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni shartli ravishda ikki turkumga ajratadi: birinchisi, shoir tarjima asarlari haqida umumiy tavsifdan iborat tadqiqotlar; ikkinchisi, tahlilga tortilib, tegishli xulosalar berilgan tadqiqotlar. Biz o'rganilgan manbalar asosida Cho'lpon tarjimalari tahliliga oid izlanishlarimizni quyidagicha, nisbatan kengroq tasniflashni lozim topdik:

1. 1930–1940-yillar. Siyosiy mazmundagi asarlar tarjimalari tahlili chetlab o'tilgan va olimlar, asosan, Cho'lpon uslubini o'rganish masalalariga e'tibor qaratgan. Ko'p hollarda shoir tarjimalari sotsialistik realizm an'alarida shakllangan adabiy kontekstda ko'rib chiqilgan. Bu yillarda Cho'lpon tarjimalari jiddiy tanqid qilingan maqolalar ham chop etilgan.

2. 1950–1990-yillar. XX asrning 50-yillarigacha Cho'lpon ijodini o'rganish taqiqlangan edi. Hatto 1950-yillardan keyin ham shoir ijodini, jumladan, tarjimalarini konseptual o'rganishga imkon berilmagan. Ayrim tadqiqotlarda Cho'lpon nomi tushirib qoldirilgan yoki tilga olinmagan holatda siyosiy mohiyat kasb etgan tarjimalari tahlil qilingan. Aksar holatlarda olimlar shoir tarjimalarini mafkura manfaatlariga (masalan, 1920-yillar boshida Cho'lpon tomonidan birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilingan "Xalqaro" partiya madhiyasi) bog'lab tahlil qilganlar.

3. 1991-yildan hozirgi kungacha Cho'lpon tomonidan qilingan tarjimalar, asosan, adabiy kontekstda o'rganilgan. T.Rahimov dissertatsiyasining ayrim o'rinlarida muallif va

tarjimonning ruhiy holati o'rtasidagi uyg'unliklar, ozodlik tuyg'ulariga xos xususiyatlar tahlil qilingan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida mahalliy xalqning tafakkuri va dunyoqarashida ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. Rus tilida o'qitiladigan maktablarning tashkil etilishi imperiya manfaatlariga xizmat qilgan bo'lsa-da, ko'plab o'zbek ziyolilari rus tilini o'rganish orqali jahon ilm-fani, adabiyoti va madaniyati yutuqlari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Cho'lpon ham jahon adabiyotini rus tili orqali o'zlashtirdi. Uning rus adabiyotidan ilk tarjimasini Koltsovning 1919-yil 16-noyabrda "Ishtirokyun" gazetasida chop etilgan "Ochkambag'al" she'ri bo'lib, bu asar tarjimasiga shoirning tarjimon sifatida shakllanish bosqichi, deb qarash mumkin" [5:26-bet]. So'ng uning tarjimonlik faoliyati takomillashib, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbekchalashtirdi. Chunonchi, Cho'lponning mashhur "Ko'ngil" she'ri yozilishi va Aleksandr Blokning "Yurak jimjit" ("Душа молчит") asari tarjimalari bir vaqtda, 1922-yil 7-avgustda amalga oshirilgan.

Blok lirikasida "yurak", "qalb" (ruh) tushunchalari dunyosi boy va rang-barang "ichki odam" sifatida namoyon bo'ladi. Yurak, insonning o'zi kabi, ma'lum xususiyatlarga ega va muayyan vazifalarni bajaradi. [6]. Shuningdek, Blok she'rlarida ruh qushga qiyoslanadi va shoir ruhning xususiyatlarini tasvirlash uchun harakat / parvoz predikatlaridan foydalanadi. Ba'zi tadqiqotlarda "Ko'ngil jimdir..." she'ri intim tuyg'ular ifodasi o'laroq yaratilgan, bu she'rni Blok o'zi sevgan ayol Lyubov Mendeleyevaga bag'ishlagani qayd etiladi. Ammo, bizningcha, Cho'lpon Blokning mazkur she'rini undagi nozik tuyg'ular ifodasini o'zbekchalashtirish uchun tarjima qilmagan. Qolaversa, "tarjimalarning hech biri ijtimoiy-siyosiy g'oyalarga neytral yoki ulardan xoli deb qabul qilinmaydi" [7: 243-bet]. Bundan tashqari, "tarjimalar qandaydir bo'shliqlarda tasodifan yaratilmaydi. Tarjima asarlarida muayyan makon va zamonning nafasi aks etadi [8: 72-bet]. Tarjimaning yaratilishida "ijtimoiy-siyosiy, madaniy omillar ta'siri ham kuzatiladi" [8: 74-bet]. Demak, Cho'lpon tarjimalari davr ruhiga bog'liq bo'lgani uchun ularni ijtimoiy, siyosiy kontekstdan tashqarida tahlil qilib bo'lmaydi. Cho'lpon Blokning nozik tuyg'ulari, ma'shuqasiga muhabbatini Vatanga muhabbat bilan bog'lagan. Chunki jadidlar adabiyot va san'atning jamiyatdagi o'rnini undagi ijtimoiy muammolar ifodasi, deb bilganlar. Cho'lpon tarjimasining qadr-qimmatini ham unda aks etgan g'oya kuchi bilan belgilanadi.

Fikrimizni dalillashga harakat qilamiz. Blok she'ridan:

Душа молчит. В холодном небе
 Всё те же звезды ей горят.
 Кругом о златились о хлебе
 Народы шумные кричат...

Cho'lpon tarjimasi:

Ko'ngil jimdir. Sovuq ko'kda,
 Qara bunga yonib turgan
 Hanuz-holo u yulduzlar.
 Butun atrof va har yoqda,
 "Non oltin!" deb fig'on qilgan
 Talashchi, g'alvachi ellar. [9: 445-bet].

She'rning asl matnida "talashchi, buzg'unchi, g'alvachi" kabi "xalq"qa nisbat berilgan so'zlar mavjud emas. Blok "xalq" so'zini berish bilan kifoyalangan. Tarjimaning subyektiv, individual hodisa ekanidan kelib chiqib, Cho'lpon tarjimada "talashchi, g'alvachi" so'zlarini qo'llab, she'rga siyosiy mazmun yuklagan. "Talashchi" "tala, talamoq" fe'lidan olingan bo'lib, "zo'rlik bilan tortib olmoq", "hujum qilmoq" ma'nosini ifodalaydi.

Mustamlaka qilingan davlatlar amaliyotida hukmron jamiyatning mahalliy xalq moddiy, ma'naviy boyliklarini talon-taroj qilish, zo'rlik

bilan tortib olish, mehnat resurslari va madaniy potentsiallardan majburan foydalanish holatlari kuzatiladi. Imperiyaning O'rta Osiyo mintaqalariga hujumida ham jamiyatning farovon hayotini qo'lga kiritish, ularning madaniy merosiga, yer resurslariga ega bo'lish maqsad qilingan. Cho'lpon Blok she'ri tarjimasi kontekstida o'zbek millati, jamiyati, davlati voqeligini ifodalashga harakat qilgan, chunonchi, "tarjima asari ma'lum bir maqsadga muvofiq qayta yozilgan – yangi voqelikni qayta yaratish amaliyotidir" [7: 253-bet]. Demak, Cho'lpon she'rni "qayta yozish" jarayonida "talamoq" fe'lidan hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lmagan, ot so'z turkumiga mansub "talashchi" istilohini o'ziga xos uslubda qo'llab, unga, yuqorida ta'kidlanganidek, siyosiy mazmun yuklagan. Cho'lponning badiiy til yaratish mahorati uning assotsiativ tafakkur mahsuli bo'lgan "xususiy mualliflik ko'chimlari"da ham namoyon bo'lgan.

Shupingning ta'kidlashicha, "tarjimada asl matn ma'lum bir maqsadlar uchun tanlanadi va tarjimon faoliyati mazkur maqsadlarni yuzagan chiqarish bilan bog'liqdir. Mana shu maqsadga muvofiq tarjima jarayonida matnni qayta yaratish majburiydir" [10].

Cho'lponning 1920–1930-yillardagi yaratilgan tarjimalari siyosiy g'oyalarni ifodalashda vosita bo'lib xizmat qilgan. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Blokning ramziy ifodalarga boy she'riyati Cho'lpon uchun o'zining siyosiy-ijtimoiy g'oyalari targ'ibotida qo'l kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cabbar S. (1931–2000) Kurtuluş Yolunda. – Istanbul. In Kommission Bei Franz Steiner Verlag Stuttgart.
2. Ismatullayev X. Cho'lpon va jahon. // Movements and Revolutions in Turkistan:1900-1924. ed. Timur Kocaoglu. (2001). Haarlem, p. 229.
3. Mirzayeva Z. O'zbek adabiyotining Amerikada o'rganilishi. 2-kitob. – Toshkent, 2017.
4. Lilova I. Введение в общую теорию перевода. – М.: Высшая школа, 1985.
5. Rahimov T. Cho'lponning tarjimonlik mahorati. A.S.Pushkinning she'riy va dramatik asarlari tarjimalari misolida. Fil.fan.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... – Toshkent, 1993.
6. Nurgazina A.B, Akosheva M.K. Концепт «душа» в авторской картине мира Блока.// Мир наука, культуры, образования, 2012. № 4 (35).
7. Bennoudi H, Zaid A. Ideology and Translation. Internatioanl Journal of Language and Literary Studies. (2023). 5 (1), 243-253.
8. Lefevere A. Translation, history, culture (A. Lefevere (ed.)). – London and New York. (1992)
9. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.
10. Shuping, R. Translation as Rewriting. International Journal of Humanities and Social Science, (2013). 3(18), 55–59. http://ijhssnet.com/journals/Vol_3_No_18_October_2013/6.pdf



Hoshimjon AHMEDOV,
 ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Ahmedov.hoshim60@gmail.com

O'ZBEK ADABIYOTIDA SAJLI NASRIY SHE'RLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek she'riyatidagi yangi poetik hodisa – sajlil nasriy she'rlar haqida fikr yuritiladi. Keltirilgan namunalar asosida ushbu she'r shakli va uning o'ziga xos jihatlari xususida mulohazalar bildiriladi. Bunday asarlar o'zbek she'riyati rivojlanishining yangicha bosqichi ekanligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, sajlil nasriy she'rlar, an'ana.

Аннотация: в данной статье рассматривается новое поэтическое явление в узбекской поэзии – прозаические стихи с саджом. На основе приведенных примеров даются комментарии о форме этого стихотворения и его специфических аспектах. Отмечается, что подобные произведения являются новым этапом в развитии узбекской поэзии.

Ключевые слова: узбекская поэзия, прозаические стихи с саджом, традиция.

Annotation: this article examines a new poetic phenomenon in Uzbek poetry – prose poems with saj. Based on the examples given, comments are given on the form of this poem and its specific aspects. It is noted that such works are a new stage in the development of Uzbek poetry.

Keywords: Uzbek poetry, prose poems with saj, tradition.

Kirish. O'zbek adabiyotida, xususan, zamonaviy o'zbek she'riyatida janriy va shakliy poetik tajribalar o'ziga xos yangi bosqichga ko'tarilgan. Ayrim ijodkorlar yangiliklarga qo'l urmoqdalar. Shunday o'zgarishlardan biri nasriy she'rlar va uning bir shakli – sajlil nasriy she'rlardir. Maqolada shu haqida so'z boradi.

Tahlil va mulohazalar. Rauf Parfining "Sabr daraxti" to'plamida biz samimiy, sodda va ayni zamonda kitobxon qalbini sehrlab qo'yadigan xalqona, shirador sajlil nasriy she'rlarni kuzatamiz. Bunda shoirning so'z tanlashdagi mahorati va gap qurilishidagi sodda bayon orqali mayin, xanin kayfiyatni bera olishi o'quvchini o'ziga tortadi:

Munajot

Bag'rimda g'ildirar temirchi hayot, izg'itki chivg'inda chidamdir boshim. Faqat sen uyquchan tomirin uyg'ot, qizimning qo'liga kuch ber, Quyoshim.

Bag'rida lahcha cho'g', aylanadi yer, kulinchim, sevinchim, quyuq ko'z yoshim. Faqat sen qizg'anma, bir kaft mehr ber, ilinjim, sig'inchim – buyuk Quyoshim.

Qizig'i shundaki, buni oddiy she'r ko'rinishida yozsak, barmoq vaznidagi nihoyatda nafis o'n bir hijoli she'r hosil bo'ladi:

Bag'rimda g'ildirar temirchil hayot,
 Izg'itqi chivg'inda chidamdir boshim.

Faqat sen uyquchan tomirin uyg'ot,

Qizimning qo'liga kuch ber, Quyoshim...[1. R. Parfi. Sabr daraxti. 190-bet].

Shunday ekan, shoir nega an'anaviy usuldan voz kechdi? Bizningcha, buning sabablari bir nechta. Birinchidan, ohangdorlik va she'riy – ravon, o'ziga xos maromni she'rda qofiya yaratsa, nasrda saj' hosil qiladi. Rauf Parfi "Munajot"ni barmoq tizimiga xos shaklda, hijolarga qat'iy asoslangan holda yozganda intonatsiya, o'z o'rniga ko'ra qofiya talabiga binoan, misra oxiriga ko'chadi. Bu o'rinda saj'ning roli katta. Intonatsiya, xushohanglik bir necha ohangdosh so'zlarni o'zaro yoxud ketma-ket kelishidan hosil bo'ladi. "So'zlarda mavjud bo'lgan mana shu tovushdoshlik tildagi go'zallik hosil qiluchi nisbatning bir turidir. Ammo buning o'zi bir necha ko'rinishlarga ega bo'lib, bular nutqqa turli miqdor va darajada husn bag'ishlaydi. Bularning eng husndori va eng ko'p foydalaniladigani so'z oxiridagi tovushdoshlik bo'lib, bundan so'z ustalari nazmda qofiya, nasrda saj' yasaydilar". [2. A. Rustamov. So'z xususida so'z. 14-b].

Ikkinchidan, odatda, munajot – Xudoga iltijoni anglatadi. She'rning turg'unlik davrida, adabiyotga tazyiq kuchaygan davrda yozilganini hisobga olsak, adib, yaratgan Ollohning nomini majburan "quyosh"ga almashtirganini sezish mumkin. Saj' san'ati "Qur'oni karim"ni qanchalar bezaganini bilgan holda shoir, balkim, sajlil – nasriy shaklda she'r bitmoqni a'loroq bilgan.

Va nihoyat, uchinchidan, mo'jazgina she'rdagi ortiq darajadagi hissiyot, dardni an'anaviy shakldan ko'ra noan'anaviy (nasriy she'r) shakl ko'zlanganidek yuzaga chiqara olishi mumkin.

Navoiy soʻzlari bilan aytganda “soʻzdagi maʼni jone dururkim, soʻz qolib onsiq qolibe dururkim jonsiz”. [3. Navoiy. Hayratul-abror. 21-b].

Demak, bu yerda biz nasriy sheʼrda ham ijodkorning iztirob, kechinmalari, yurak tugʻyonlarini ajoyib pafos bilan bera olishi mumkinligining guvohi boʻlamiz. Shunday maftunkor sajʼli nasriy sheʼrning Yoqub Ahmadjonovning “Yolgʻizlik tafsiri” turkumida ham uchramiz:

“Oqqush, osmondagi oppoq xavotir, oʻqlangan quroldan tuymoqda dahshat. Men uni asrashga emasman qodir, sening yuragingda boʻlmasa shafqat. Daraxt yaproq yozgan yashil xavotir, arra tovushidan chekar iztirob. Men uni asrashga emasman qodir, sening qoʻllaringda boʻlmasa insof. Zamin, koʻksimdagi ulkan xavotir, xalokat oldida turibdi hayron. Men uni asrashga emasman qodir, sening bisotingda boʻlmasa vijdon”. [4. Y. Ahmadjonov. 22-b].

Ana shunday, qoʻshiq ohangiday yoqimli marom va xushohanglikka ega, vazni moʻtadil sajʼli nasriy sheʼr namunalarini isteʼdodli ijodkor – Bahodir Murod Ali ijodida ham bor. Diqqatga sazovor joyi shuki, adib “Munodiy” nomli sajʼli nasriy sheʼrida Navoiy “Munojot”ining oʻziga xos sharh – talqin yoʻlini topgan. [5]. Tasvirda XVI asr til xususiyatlarini aks ettirish orqali davrning oʻziga xos ruhiyatini va eng muhimi – daho Navoiyning sirli ruhiyati, shaxs va ijodkor sifatidagi kamoloti, mukammalligini anglashga boʻlgan shoirona murojaat istifoda etilgan.

Munodiy

Yoʻq bir nimarsadin, bor bir nimarsaga oʻgurdin, qatra xaromdin, qatra halolga – kimarsaga evurdin aql – zakovatu umr tutding, manglayimni maydon tanlab taqdir bitding. Omonat toʻrt muchamni salomat koʻrdim, bu – sening rahimligingdin, ulugʻliging bois shuurimga xalimlik va solihlik indi, buyukliging sharofati ila nazm bobida fohlik sundi, iqbolimga yaxshi fazilatlar ayurdin, xos fazilatlar buyurdin, qalbimning kulyalarini ochding... [6. B. Murodali. 187-b].

Muallif turkiy sheʼriyat dahosining komillikda tengsiz vujudi – ruhiyatini oʻziga xos tarzda botiniy idrok etgan. Tasvir-u tavsifda ustalik shu darajadagi, biz ulugʻ Navoiy munojotlarini tinglayotgan, uqayotgan kabi sehr domiga tushamiz. Buyuk allomaning ijod-u insoniy aʼmolda, iymon-eʼtiqodda, ukbou – sarbaland mavqe-martabaga erishganining boisini ikki olam sarvari ila muloqot etayotgandek sarxush maftunlik ogʻushiga oladi, kishini. Koʻramizki, adib sajʼ sanʼatini juda ustalik bilan ishlatgan. Matnda yaxlit tasavvur yuzaga

chiqqan, murakkab va falsafiy mazmunga baayni mos shakl tanlangan. Bugun sodda, joʻn sheʼriyatga emas, yuksak hislar, nozik sanʼatlar, “tagdor” misralar bilan toʻlgan sheʼriyatga talab paydo boʻldi. [7. E. Vohidov. 145-b].

Ulugʻlarimizning soʻfiyona ishq-muhabbatlari monand talqin va tasvir yosh iqtidorli shoir Salim Ashurning “Muhabbat” nomli sajʼli nasriy sheʼrida ham ajib bir tarzda jilolanadi:

“Muhab-ba-t-t – jamolsan ilohiy, mayda ham, oyda ham suvrating. Ilohim, iloyim gunohim kechirgil, qodirding qudrating. Kanglumday xarobot – ey Vatan, Turkiston degandek qadim Soʻz. Qismatlar bitilgan haqqalam, qogʻoztek pokiza yildiz – Oʻz.

Muhab-ba-t-t – xur-likta shikanligʻ, qafasta bekanor hurriyyat. Bir koʻrpa – ip yemas, tikanligʻ, yopinib qonaydur – ruhiyyat. Muloyim jon olgan bir qil– ich, oʻklara pesh boʻlgan bir qal – qon. Ul ogʻ-u – koʻzni chirt yumub ich! Yoʻliga yotimman, Alʼamon!... [8. Salim Ashur. 34-b].

Buni nasriy sheʼrning sajʼli – “hijoli” varianti deyish mumkin. Shoirning soʻzlarni hijolarga ajratib koʻrsatishidan maqsad – muhabbatning inson ong-tafakkuridan-da olis va koʻhna, qadimiy tuygʻu, boqiy bovujud taʼsirot ekanligini taʼkidlash, soʻz zamiridagi ilohiy, dunyoviy kuch-quvvatning cheksizligini, umrboqiyiligini, ayricha, oʻziga xos tarzda uqtirish, yuqtirish. Bunga sintaktik birliklarning oʻtmishdagi “yolashgan” koʻrinishini ishlatish, soʻz oʻyinlariyu, musiqiylikni, nafis lirizmni yuzaga chiqarishda mumtoz sanʼatorimizga xos oʻynoqi, diltortar soʻzlarni istifoda etish orqali erishilgan. Shu asno oʻziga xos poetik uslub namoyon boʻlyapti. Shoirning eʼtiqodida yor va diyor tuygʻusi mushtarak, muqaddas, “Xarobot” soʻzining lugʻaviy maʼnosi vayrona, sharobxona boʻlsa-da, ammo tasavvuf ahli istilohida inson jismining xarob boʻlishi – qanoat fikr yoʻliga kirib, hayvoniy nafslar, keraksiz yomon xulq – odatlardan qutulib, oʻzni xoksorlik, kamtarinlik rutbasiga solishdir. Xarobotiylar, yaʼni rindlar “mayxona taraddudidin bexonumonligi va paymona taallukidin besarusomonligi” (“Mahbulbul qulub”) bilan mashhur. Ular uchun “toju taxt tufrogʻ bila teng”, hamma narsadan forigʻ, yolgʻiz yor ishqida sarmastu lovu – boli. [9. N. Komilov. 9-b]. Koʻngul – tasavvufda Haq nuri jamolini koʻrsatadigan koʻzgu. Demak, koʻngil oynasidagi yor (ruhi mutlaq) ishq – inkishofiga Vatan dardi ham esh. Chunki Vatan – “qismatlar bitilgan haqqalam”. Hadislarda aytilganidek: Vatanni sevmak iymondandir. Soʻz oʻyinlari ham juda jozibali: muhabbatning qudrati shunchalarki, xohlasi qilichday (I) bagʻringni pora-

pora etgusi, yoinki, kil misoli (II) muloyimgina ichingni (joningni) olgusi, Yoxud “ul og‘-u-ko‘zzi chirt yumub ich!” (“Ich” so‘zining ma‘no turlanishlariga e‘tibor bering: qilich, qil-ich; ich). Hodi Toqtash juda chiroyli gap aytgan: “Muhabbat eski narsa, ammo har bir yurak uni yangilaydi... (E. Vohidov, 172-b).

Xullas, chinakam iqtidor chegara bilmaydi. Shoir odam o‘zini har “janrda” ko‘rsatur. She‘riyat – hamisha kashf etishdan iborat. (E. Vohidov, 172-b).

Fikrimizni yakunlab quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Fabula (matn) nasriy ko‘rinishda bo‘ladi.

2. Saj‘ san‘atining har uch shaklidan (saj‘ mutavoziy, saj‘i mutarraf, saj‘i mutavozin) tegishli istifoda etiladi.

3. Saj‘ tufayli aniq, izchil vaznga xos marom yuzaga keladi, o‘ziga xos ritmik – intonatsion tuzilish hosil bo‘ladi.

4. Ma‘lum kompozitsiyaga ega bo‘ladi, bu bir

necha misradan (abzaslardan) yoki bandlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Mazkur saj‘li nasriy she‘rlarda ko‘p mavzu va mazmuni qamrab oluvchi turkum yoki dostonlar ham bitish mumkin.

Nasriy she‘rlarning saj‘li shakli mahsuldor bo‘lib, undan hali ko‘plab poetik mo‘jizalar kutish mumkin.

Saj‘li nasriy she‘rlar qolgan har ikki shakldan saj‘ san‘ati qo‘llangani bilan yaqqol ajralib turadi. Ularda misralardagi turoqlanish, saj‘ning izchil uchrab turishi kuchli evfoniya (xushohanglik) hosil qilib, ularni bevosita she‘rga yaqinlashtirib qo‘yadi. Ana shu xususiyatlariga ko‘ra saj‘li nasriy she‘rlarni ba‘zan oddiy tartibdagi she‘rlardan ajratish mushkuldek ko‘rinadi. (Salim Ashur. “Muhabbat”. “Yoshlik”, 1992. 9–10-son; Yoqub Ahmadjonov. “Sardoba shotutlari”. “Yolg‘izlik tafsiri. “Yosh gvardiya”, 1991).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рауф Парфи. Сабр дарахти. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 216 б.
2. Рустамов Алибек. Сўз хусусида сўз. – Тошкент, 1987. – 156 б.
3. Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – 352 б.
4. Аҳмаджонов Ёқуб. Сардобадаги бураматут. – Тошкент, 1990. – 128 б.
5. Ёшлик” журнали. 1990, 6-сон,
6. Баҳодир Мурод Али. Кўктўнликлар. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: “Ёзувчи” нашриёти, 1991. – 192 б.
7. Воҳидов Э. Шоиру шеър шуур. – Т.: “Ёш гвардия”, 1987. – 224 б.
8. Салим Ашур. Бағримда ё очилмадинг. Шеърлар. “Ёшлик” журнали. 1992, 9–10-сонлар.
9. Комилов Н. Навоий ҳикматхонаси. “Камалак” тўплами. – Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1990.

Nilufar SULTONOVA,

Qarshi davlat universiteti,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ADABIY ASARDA SYUJET DINAMIKASI VA TA‘SIR NUQTALARI

Annotatsiya: mazkur maqola modifikatsiyaning badiiylik mezonlari uning adabiyotimizdagi o‘ziga xosligini adabiy asarlar orqali tahlil etadi. Modifikatsiyaning keng ko‘lamli estetik hodisa ekanligi va u adabiy ta‘sir va an‘analarga estetik munosabatdan kelib chiqishi, davr va shu davr o‘quvchisining ehtiyojiga qarab an‘anaviy shakllarining o‘zgarishga uchrashini isbotlaydi. Modifikatsiya hodisasining yana bir sababi adabiy jarayondagi estetik mezonlarning o‘zgarishi, ijodkorlarning adabiyotga boshqacha nuqtayi nazar bilan qaray boshlashini bunda shakl o‘zgarishiga uchragan har bir badiiy komponent yoki birbutun adabiy janrning o‘zi muallif ijodiy individualligining estetik belgisi sifatida voqe bo‘lishini tahlil etadi.

Kalit so‘zlar: *obraz, modus, modifikatsiya, ekzistensializm, absurd, qahramon, atribut, shaxs fojiasi.*

Annotation: this article analyzes the artistic criteria of modification and its uniqueness in our literature through literary works. It proves that modification is a large-scale aesthetic phenomenon and that it originates from literary influence and aesthetic attitude to traditions, that traditional forms change depending on the needs of the student of that period. Another reason for the phenomenon of modification is the change of aesthetic criteria in the literary

process, it analyzes the fact that creators begin to look at literature from a different point of view.

Key words: *image, mode, modification, existentialism, absurd, hero, attribute, personal tragedy.*

Аннотация: в данной статье анализируются художественные критерии модификации и ее уникальность в нашей литературе через литературные произведения. Доказывается, что модификация представляет собой масштабное эстетическое явление и берет свое начало от литературного влияния и эстетического отношения к традициям, что традиционные формы изменяются в зависимости от потребностей исследователя того периода. Другая причина явления модификации — изменение эстетических критериев в литературном процессе, он анализирует то, что творцы начинают смотреть на литературу с иной точки зрения.

Ключевые слова: *образ, модус, модификация, экзистенциализм, абсурд, герой, атрибут, личная трагедия.*

O'zbek adabiyotshunoslari dunyo adabiyotida mavjud bo'lgan adabiy syujetlarni nazariy jihatdan muhokama qilib, ularning xronikal syujet, konsentrik syujet, retrospektiv syujet, assotsiativ syujet kabi turlarini alohida ta'kidlab ko'rsatganlar. Xronikal syujet asosida yozilgan romanlarda voqelik ketma-ket, yil va sanalarning markaziy obraz hayotining o'tishiga mos ravishda bayon qilinadi. Bunga Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Oybekning "Navoiy", Pirmqul Qodirovning "Bobur" kabi romanlarini misol qilib keltirish o'rinlidir. Konsentrik syujet asosiga qurilgan romanlarda voqea-hodisalar o'zaro qandaydir ichki sabab va oqibat bilan bog'lanadi. Bunda hodisalar biri ikkinchisini talab qiladi. Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz", Abdulla Qahhorning "Sarob" romanlari bunga misol bo'la oladi. Agar nasriy asar syujetiga retrospeksiya asos bo'lsa, bunday romanlarda "chekinish", "ortga qaytish" yuz beradi. Bu tipdagi syujet asosida yozilgan romanlarga Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat", Asqad Muxtorning "Chinor", O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanlarini misol qilib keltirish mumkin. Assotsiativ syujet tizimi bevosita ruhiy po'rtanalar bilan bog'liq bo'lib, bunday asarlarda beixtiyor xayolga tolsh, nimanidir eslab qolish natijasida qahramonlar tabiatida yuz bergan ruhiy kechinmalar asosiy o'ringa chiqadi. Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" kabi romanlari shu tipga misol bo'la oladi. Isajon Sulton romanlaridagi syujet modifikatsiyasi masalasi o'rganilar ekan, uning romanlarida syujet tiplarining o'zaro uyg'un kelishi ko'zga tashlanadi. Xususan, shu modifikatsion uyg'unlik e'tiboridan "Genetik" romani alohida ajralib turadi. Roman voqealarining bayonida roviy asarning syujet chizig'idagi hodisalarni xronikal tarzda hikoya qilayotgan bo'lsa ham, ora-orada chekinadi – retrospeksion yo'singa murojaat qiladi. Shunday vaziyatlar borki, birorta so'z yoki

voqea munosabati bilan romanning syujet chizig'i assotsiatsiya ta'sirida boshqa yo'nalishga buriladi. Roman matnida biror so'z, hodisa yoki ism vositasida assotsiatsiyaga berilish holatlariga juda asosli va o'rinli misollar uchraydi. Romanda Sofiya xola obrazining berilishi, shu ayolning taqdiri, kelinlik paytlari, hayot tashvishlariga ko'milgan pallalari, shuningdek, keksalikdagi hayoti ham tasvirlanadi. Yozuvchi shu obrazni voqealar orasiga olib kirishda syujetning xayolga berilish, ortga chekinishi – retrospeksiya va assotsiatsiya tipidan unumli foydalanadi. Adib o'z asarida Sofiya xolani tilga olishga hozirlik ko'rib, tabiat unsuri – osmonda nur sochayotgan Oy xususida shunday yozadi: "U maskan uzra tunlari yog'dulangan Oymomo – faqat shu joylarning momosi. O'zga makonlarda Oy bunaqa ko'rinmaydi, nomiyam momo emas, deydilar. Tog' orasidan qalqqan yoki adoqsiz sahrolarning Oyi butunlay boshqa ko'rinishga ega emish. Dov-daraxt isi anqigan kechalarda, tutlar-u teraklar ortidan havolangan o'zimizning oy juda aziz.

Tavba, Oy desam, xayolimda Sofiya xolam jonlanadi. Nihoyatda beozor, qalbi yorug'likka to'la mushtipar xotin edi. Sofiya xolam desam, yuksaklarda yog'du sochgan ajoyib Oymomo yodga keladi". Romanda Oymomo bilan Sofiya xola obrazi o'zaro yonma-yon parallel tasvirlanadi. Adib ba'zan o'z qahramonini nafosat va beg'uborlik ramziga uyg'un tasvirlashni istagan mahalda Oyni esga oladi va Oyga qiyoslaydi. Gohida romanda Oy xususida fikr yuritilsa, uni Sofiya xola sifatida tushunish ham mumkinki, bunday obraz bilan tabiat unsuri o'rtasidagi modifikatsiya romanga xos estetik go'zallik va nafosat bag'ishlaydi. O'zaro qorishib kelgan betakror tasvir o'quvchining ham e'tiborini o'ziga tortadi.

Aslida, har bir adib o'ziga xos bir olam, o'z estetik qiyofasiga ega ijodkor boshqadan ta'sirlanishi mumkin, ammo uni takrorlamaydi.

Roman tarkibidagi turli komponentlar ham shu ijodkorning adabiy-estetik tamoyillarini namoyish etadi. Adabiyotshunos olimi Zulfiya Pardayeva romanga xos muhim bir masalaga juda o'rinli urg'u beradi: "Roman janrining yana bir e'tiborga molik jihati shundaki, janrga xos bo'lgan badiiy komponentlar har bir romanda o'ziga xos tarzda yuzaga chiqadi". Jumladan, Isajon Sulton romanlaridagi adabiy-nazariy komponentlar ham o'ziga xoslikka ega.

"Genetik" romanida "Sofiya xolam" degan sarlavhali maxsus bo'lim bor. Tabiiyki, roman syujet va kompozitsiyasidan o'rin olgan, ayniqsa, maxsus sarlavhaga chiqqan obraz yoki joy nomi roman strukturasi nisabatan kengroq tafsiloti bilan tasvirlanishi, asarning markaziga qo'yilgan masala bilan ham puxta bog'langan bo'lishi lozim. Bunday poetik usul, dunyo adabiyoti, o'zbek romanchiligi tarixida ham mavjud. Masalan, Mixail Bulgakov o'zining "Usta va Margarita" romanining birinchi qismida "Pontiy Pilat"ni, ikkinchi qismida "Margarita"ni ichkarida kichik sarlavhaga olib chiqadi. Romanda har ikki qahramonga yetarlicha tavsif beriladi. Shu bilan birga, voqealar o'sha qahramonlar ishtirokida yoki ularning ruhiy-psixologik muhitida yuz beradi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida "Otabek Yusufbek hoji o'g'li", "Yusufbek hoji", "Xushro'ybibi va Zaynab" kabi fasllar bor. Bevosita fasllarning joy nomlari bilan atalganini Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida "Quva", "Samarqand", "Kobul" tarzida berilishi va ular ham raqamlar bilan boblarga ajratilgan tarkibi kuzatiladi. Shunga mos ravishda "Genetik" romanida ma'lum bir bo'limlar "Sofiya xolam", "Ubay aka", "Do'st", "Ustoz" tarzida nomlanadi. Bunday unsurlar ustida fikrlaganda, Isajon Sultonning dunyo romanchiligi va ayniqsa, o'zigacha bo'lgan ustoz o'zbek adiblarining romanchilikdagi tajribalarini puxta o'rgangani ma'lum bo'ladi. Aslida, har qanday sarlavhaga chiqqan kishi yoki joy nomlari roman syujetida qandaydir vazifani bajarishi shart. Shu e'tibordan roman syujetida asosiy o'rinda turadigan Sofiya xola obrazi "Sofiya xolam" faslida ancha batafsil beriladi: "Sofiya xolam – esini tanib-tanimasdan turmushga chiqqan qishloq ayoli edi. Danakdayligidan onasining yoniga kirib mitti mushtchalari bilan xamir qorgan, hovli supurgan, tomorqada o't yulgan, sigir-qo'ylarga qaragan, qishning sovuqlarida o'tin ko'tarib sandalga olov qalagan... shu mehnatlar aro bir kuni kelin

bo'lishni, keng-mo'l, issiq uyda bolalarini katta qilishni orzulagan bo'lsa, ajabmas.

Men esimni taniganimda esa kap-katta xotinga aylangan, birinchi turmushi buzilib, eri qiz tuqqani uchun haydab yuborgach, oradan qanchadir vaqt o'tib, yoshi ancha katta boshqa bir odamga turmushga chiqqan edi" (O'sha manba, 264-265-betlar). Romanga olib kirilgan har bir obraz o'z qiyofasiga ega bo'lishi, o'quvchining diqqatini o'ziga jalb etishi va umuman, ijodkorning g'oyaviy pozitsiyasi uchun yordam berishi lozim bo'ladi. "Genetik"da Sofiya xolaning turmush tarzini bayon qilish, umr yo'llariga bir sidra nazar solishdan maqsad o'zbek ayolining yaqin o'tmishda boshidan kechirgan tashvishlarini, bir xillikda o'tgan umrini tasvirlashdir. Ayni damda bir inson umrining naqadar mehnat-mashaqqatlar bilan o'tganini tasvirlash ham adib uchun muhim bo'lgan. Sofiya ismini Oy, Oymomoga bog'lagan yozuvchi shu ayol taqdirini tugal beradi. "Sofiya xolam diyonatli, pokiza ayol edi. Unikiga o'ynagani borardim. Borsam, darrov dasturxon yozib, qand-qurs, turshak opchiqardi. "Jiyanim meni ko'rgani keldi" deb quvonib ketardi-da. Xolamning tomorqasida katta tut bor edi, shoxlariga chumchuqlar in qurgan bo'lib, polaponlarini olishga qiziqardik. Lekin tepaga chiqqani qo'rqardik, chunki u yerda katta ilon boriydi. Ilondan hayiqishimiz beshbattar qiziqtirardi, tut ostiga yaqin borolmasdan, uzoqroqdan turib shoxlariga o'ralib olganmi-yo'qmi, deya kuzatardik" (O'sha manba, 259-bet). Sofiya xolaning bolajonligi adib qalbida bolalikning beg'ubor his-tuyg'ularini, xayoliga joylanib qolgan shirin damlarini eslashga yordam beradi.

Roman qahramoni boshidan kechirganlarini eslab, bayon qilar ekan, ulg'aygandan keyingi mahallarda ham Sofiya xolasini esidan chiqarmaydi. Uning huzuriga boradi, u bilan uchrashib gaplashadi. Bunda xronikaga asoslangan syujetga munosib ravishda qahramonning hayot yo'li ketma-ket beriladi. Ammo bu ketma-ketlikda berishning sababi, albatta, Sofiya ismining Oyni eslatishi – shu juftlik assotsiatsiyasidir. "Xolamning ismi boshqa ayollar ismiga o'xshamasligi hayron qoldirardi. Bizning qishloqdagi ayollarning ismlari Oyniso, Turg'unniso, Xosiyat, Nazira, Ibodat... bo'lib, begonaroq bunday ismni hech nimadan xabari yo'q, umrini dalada dehqonchilik bilan o'tkazgan buvam qaydan topib qo'ya qolgan ekan? Tabiiyki, ma'nosini ham bilmasdim. Ayol ismiga "oy" yoki "xon" qo'shib aytilgani uchun, xolamni hamma

“Sofiyaxon” yoki “Sofiyaoy” deb chaqirardi, qishloq tilida u allaqachon “Sapiya”ga aylanib ketgan edi. Sofiyaoy degan ism menga ko‘proq yoqqani uchun, tungi bulutlar orasidan ko‘ringan xayoliy to‘lin oy manzarasini yodimga soladi”. Oy manzarasidan tashqari Sofiya xolasi allaqachonlardir tushida oyni ko‘rgan bo‘ladi. Darvoqe, birorta odam o‘z ismining ma‘nosini bilmasa, unga ismining ma‘nosi tushuntirilsa, ko‘zlari quv nab, juda mamnun bo‘ladi. Xo‘sh “Sofiya” nima ma‘noni anglatadi? “Men ulg‘ayganimda xolam kampir bo‘lib qolgan edi. U nurni, u yuzlarni haligacha sog‘inaman. Goho tun-kechalarda birdaniga ko‘rgim kelib qoladi. Mayin jilmayishini, yuzidagi poklik va musaffolikni qo‘msayman.

Ulg‘aygach, u ismning mazmunidan xabar topdim. “Sofiya” – yunonchada “Ilohiy donolik”, arabchada “Musaffolik” degan ma‘nolarni anglatishini bilganimda, “Albatta, xolamga aytaman, eshitib suyunadi” deb o‘ylaganman. U mahal xolamning menga mehri yanada ortgan, “polvon bolam” deb suyar edi” (O‘sha manba, 267-bet). Bu ism muhokamasida adib Sofiya ismini Muhammad alayhissalomga borib taqalishini ilovadagi izohida “Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ayoli, Sofiya onamizga ishora” deb eslatib o‘tadi. O‘quvchining xayoli uzoq tarixga qarab ketadi. Shu o‘rinda adib voqelik genezisini yana ham uzoqqa olib borib bog‘laydi. Romanning “Genetik” deb nomlanishi, uning asosiy qahramoni shu soha mutaxassisi bo‘lishi – bu alohida

masala. Ammo Oymomo va Sofiya xola juftligi davomidan kelayotgan voqealar uzoq tarixga – Rasululloh (s.a.v.) zamonlariga va hatto undan ham uzoqroqqa borib taqaladi. Genetik – bu inson geni bilan mashg‘ul bo‘ladigan olim. Romanning syujet chizig‘ida Sofiya xolaning shu soha olimiga aloqador epizodlari bor. Olim jiyani Sofiya xolasining bir tola sochini maxsus laboratoriyada tekshiradi. Natijada juda g‘aroyib bir kashfiyotga duch keladi, ya‘ni “dunyo olimlarining aqlini shoshirib qo‘yadigan xazinaga – olam aro eng noyob, eng musaffo Momo Havo geniga ro‘para” keladi. Romanda olimning yoshlik chog‘laridagi voqealar sabab-natija kategoriyasiga mos ravishda asar matnida biri birini taqozo qiladi. Qolaversa, romandan kuzatilgan asosiy maqsad o‘zbek xalqining geni juda qadimlarga borib taqalishini ta‘kidlash hamdir.

Umuman olganda, Isajon Sulton romanlaridagi syujet modifikatsiyasida turli syujet tiplarining o‘zaro mushtarak qo‘llanishi kuzatiladi. Syujet dinamikasi uchun Isajon Sulton ba‘zan psixologik va ba‘zida lirik tasvirlarga o‘z romanlarida ko‘proq o‘rin ajratadiki, bu hol adabiy turlararo modifikatsiyani ko‘rsatadi.

Isajon Sulton o‘zbek romannavislari an‘analarini yangilangan sharoitda o‘ziga xos yo‘sinda davom ettirdi, shu bilan birga, romanlarining syujet qurilishida dunyo adabiyotining bir qator namoyandalarining tajribalarini ijodiy o‘zlashtirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. Roman, qissa va hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi. 2018-yil, 266-bet.
2. Z.Pardayeva. O‘zbek romani poetikasi (Hozirgi o‘zbek romanlarining tahlili misolida). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003- yil, 9-bet.
3. To‘xta Boboyev. “Adabiyotshunoslik asoslari”. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002-yil, 217-bet

Nafosat O'ROQOVA,
 Buxoro davlat universiteti dotsenti
 Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
n.y.uroqova@buxdu.uz

O'ZBEK MUMTOZ SHOIRLARI IJODIDA FLORISTIK OBRAZLARNING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI

Annotatsiya: olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar orqali ifodalash poetikasi qadimdan shakllangan. Ijtimoiy hayotni yoritishda, xalq turmush tarzini yorqin gavdalantirishda ularning adabiy-badiiy asarlardagi roli beqiyosdir. O'zbek adabiyoti, xususan, mumtoz she'riyatda floristik obrazlar ko'p uchraydi. Ularning genezisi folklor asarlariga borib taqaladi. Xalq lirikasida mazkur obrazlar orqali kishilarning his-kechinmalari ifodalangan. Maqolada flora olamiga mansub obrazlarning mumtoz she'riyatdagi o'rnini tadqiq qilingan. O'zbek mumtoz lirikasining yorqin namoyandalari ijodiga mansub she'riy parchalardan misollar olinib, mavzu doirasida chuqur ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, she'riyat, lirika, olamning badiiy manzarasi, o'zbek mumtoz she'riyati, obraz, floristik obraz, ramz

Аннотация: поэтика выражения художественного картина мира через флористические образы формировалась с древнейших времен. Их роль в литературных и художественных произведениях несравненна в освещении общественной жизни и ярком воплощении образа жизни людей. Флористические образы часто встречаются в узбекской литературе, особенно в классической поэзии. Их генезис восходит к фольклорным произведениям. Через эти образы в народной лирике выражаются чувства людей. В статье исследуется роль образов флоры в классической поэзии. В рамках темы взяты и глубоко научно проанализированы примеры поэтических фрагментов, принадлежащих произведениям ярких представителей узбекской классической лирики.

Ключевые слова: художественная литература, поэзия, лирика, художественная картина мира, узбекская классическая поэзия, образ, флористический образ, символ.

Annotation: the poetics of expressing the artistic view of the world through floristic images has been formed since ancient times. Their role in literary and artistic works is incomparable in illuminating social life and vividly embodying people's lifestyle. Floristic images are often found in Uzbek literature, especially classical poetry. Their genesis goes back to folklore works. People's feelings are expressed through these images in folk lyrics. The role of flora images in classical poetry is studied in the article. Examples of poetic fragments belonging to the works of bright representatives of Uzbek classic lyric were taken and deeply scientifically analyzed within the scope of the topic.

Key words: fiction, poetry, lyrics, artistic view of the world, Uzbek classical poetry, image, floristic image, symbol

Kirish. Olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar orqali ifodalash o'zbek adabiyotining barcha davrlarida faol kuzatilgan hodisa sanaladi va bu o'ziga xos tadrijiylik kasb etgan. Qadimdan xalq og'zaki ijodi va mumtoz lirik asarlargacha, qolaversa, yangi o'zbek she'riyatida ham insonlarning xarakter xususiyatlari, jamiyatda hukm surgan siyosiy vaziyat, oddiy xalqning umumiy ahvoli, ularning ruhiyati, kayfiyati, alam-dardi, moddiy turmush tarzi o'simliklar, daraxtlar hamda hayvonlarning poetik obrazlari orqali ramziy gavdalantirilib, badiiy maqsadga erishilgan.

Mumtoz lirik asarlar xalq lirikasidan oziqlangan holda davom ettirildi. Unda mavjud poetik obrazlar mukammallashib, rivojlanib bordi. An'anaviy tarzda mumtoz adabiyot janrlarida ham asosiy obraz sifatida markazda turdi. Bunda, ayniqsa, nabotot va hayvonot olami vakillarining ishtiroki faollashdi.

Asosiy qism. Lirik shoirlarimizdan Lutfiy ijodi bundan mustasno emas. Uning "Yiroq" radifli g'azalida lirik qahramonning yordan ayro qolgandagi ichki his-

tuyg'ulari tug'yoni kuzatishimiz mumkin:

Lolatek bag'rimda dog' erdi, ajabkim, qolmisham
 Bir suman, bir yuzi gul sarvi xiromondin yiroq [7, 49].

Bunda oshiqning yoridan ayrilgani uning dilini xufton qilganligi ifoda etilgan. G'am esa o'zidan keyin, albatta, biror asorat qoldiradi. Bu go'yo lola guli bag'ridagi qora dog'ga mengzalgan. Yor ta'rifini keltirishda uning yuzi gulga, sumanga, tik qomati, xiromon sollanishi sarvga o'xshatilgan. G'azalning dastlabki misralarida yor hijroni g'oyasi kengayib, g'azal maqta'siga yetib kelganda, lirik qahramon tushunib yetadiki, u sevgilidan ayrilish barobarida iymonidan ham ayriladi. Bunga sabab esa shoir "men"ning yor yuzidan hayrat maqomiga tushganligidir.

Lutfiyning "Qani?" radifli g'azalida ham yorning tik, chiroyli qaddi sarv daraxtiga tenglashtirilgan:

Ko'kardi chaman, guluzorim qani?

Sihi sarv bo'yluq nigorim qani? [7, 113]

Baytda bahor kelishi bilan atrofning yashillikka

burkanib, qish fasli o'z hukmini o'tkazgan bog'larning chamanga aylanishi aks etgan. Uyg'onish faslining ta'siri o'laroq oshiq ham ma'shuqasini izlab qoladi. Uning nazdida, yorning uzori (yuzi) – gulga, bo'y-basti sarvga monanddir.

Ijodkorlar o'z fikr-tuyg'ularini tabiat hamda jamiyatdagi voqea va hodisalar bilan qiyoslab, obrazli ifoda etishga harakat qilishadi. Atoyining ham quyidagi baytiga diqqat qilinsa, lirik qahramon bilan tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, yorqin va jonli tasvir kishini maftun qiladi:

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda [4, 24].

Baytda lirik qahramon ma'shuqasining go'zalligini birma-bir ta'rif qilmasdan, shunday hayotiy lavha keltiradiki, o'z-o'zidan yorining jilosi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ya'ni yor go'zalligidan, hatto, chamandagi gul ham uyatdan qizaradi. Bu ham mubolag'ali tasvir, ham hayotiy manzara.

Bobur ijodi ham bu kabi tashbehlarga boydir. Uning bir fardida shunday ajib bir mulohaza bor:

Chamanda sarvni o'lting'uzubturur turushi,
Qiyomate qo'parubtur ot uzra o'lting'urushi [3, 142].

Demak, sanamning tik va go'zal qomati, rost turishining sarvga parallel qo'yilishi Bobur ijodida o'zining kamolot bosqichiga yetgan. Fardda keltirilgan ifoda shoir ijodining badiiy yuksak takomilga erishganini ko'rsatadi. Ham floristik, ham faunistik obrazlarni bir baytda qo'llash ijodkorning tabiiy uyg'unlikka yo'l ocha olganidan dalolat beradi.

Mazkur uyg'unlikni mumtoz adabiyotimiz namoyandalari maromiga yetkazib ko'rsatib bera olganlar. Masalan, Lutfiyning yuqorida tilga olganimiz "Yiroq", "Qani?" radifli g'azallari shu jihati bilan diqqatimizni tortadi:

Yoz faslikim, erur aysh-u tarabning mavsumi,
Soldi bulbul tek meni gardun gulistondin yiroq [7, 49].

Lirik qahramonga ko'ra, yoz fasli aysh-u tarabning ayni zamonidir. Taassufki, bu teskari falak oshiqqa rahm aylamagan. Uni bulbul gulistonidan judo bo'lgani singari taqdir zarbalari begona go'shalarga chirpirak qilib uchirgan. Bunda ma'shuq va bulbul obrazlarini parallel qo'yish orqali badiiy maqsadga erishilgan. Ya'ni taqdirning haqligi masalasi yoritilgan.

Topibdur bukun vasli gul andalib,
Darig'o, mening navbahorim qani? [7, 113]

Ushbu baytda teskari holatni kuzatamiz. Lirik qahramon o'zini bulbulga qiyos etmaydi. Balki bulbul gulning vasliga yetdi, mening navbahorim qani, deya faryod qiladi. Navbahor yoshlik, sog'lik, tinchlik-xotirjamlik, muhabbat kabi ramzlarni tashiydi.

Sharq she'riyatida majoziy ma'noda faol qo'llanuvchi sarv daraxti o'zini chiroyli va tik o'sishi bilan hamisha diqqatni tortib kelgan. Yor qomatining go'zalligini unga tenglashtirish, ayniqsa, mumtoz adabiyotda kuchayganligi, adabiy an'anaga aylanganligining

guvohi bo'lamiz. Odatda, u igna bargli, doim yashil manzarali ko'rinishda bo'ladi.

Ul parining naxl qaddi sarv erur, ruxsori – gul,
Kim ko'rubdur gul ochilmoq sarvi mavzun ustida [10, 56].

Shoir Munis o'zigacha bo'lgan an'anani yangilaydi. Ya'ni gul tugmaydigan sarv daraxtini "gullatadi". Bunda ma'shuqaning navniholdek qaddini sarvga, chehrasini gulga tenglashtirib, sarv ustida "gul undiradi". Bu ijodiy topilma shoirning mumtoz obrazlarga novatorona yondashganini dalillaydi.

Ul lola-vu, rayhon-u suman, toza qizil gul
Ham sarv bukuldi, qadi shamshod, eshigingda [10, 47].

O'zbek mumtoz lirikasining atoqli namoyandalaridan biri Mashrab ijodida ham floristik va faunistik obrazlarga murojaat mavjud. Bir qancha g'azallarida boshqa timsollar qatori sarv obrazi an'anaviy tarzda qo'llangan. Yuqoridagi baytda lola, rayhon, suman, qizil gul singari ko'plab gullarni uchratamiz. Ular yor timsolining ochilishida muhim o'rin tutadi. Ma'shuqaning go'zalligi, rang-ro'yi, yoshligi sifatleri shu gul obrazlari orqali asoslangan. Ayrim mumtoz asarlarda sarvning o'rnini shamshod daraxti bilan almashtirgan holda qo'llashadi. Yuqoridagi baytda ham ikkinchi misrada qo'llangan sarv daraxti o'z vazifasini shamshodga topshiradi va yorning shamshodday go'zal qomati oldida qulluq qiladi. Yorning bo'y-basti shu darajada havas qilgulikki, uning nafasati oldida sarv ham bukilib qoladi. Baytda tanosub, tashxis, epitet, tashbeh singari she'riy san'atlarni o'rinli va go'zal qo'llay olgan, badiiy mukammal durdona asarlarni yaratgan Mashrab lirikasi hamisha kitobxonlar e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Salafllari an'anasiga sodiq, sermahsul ijodkorlardan biri Ogahiydir. Uning lirikasida sarv va shamshod obrazlarining alohida mavqeyi bor.

Bu ra'no qad bila gar bog'a kirsang, sarv ila shamshod

Bo'lub banda, turarlar bir ayoqda ehtirom aylab [10, 48].

To'qqiz baytli "Xiom aylab" nomli g'azalida mazkur ikkita obraz ishtirok etadi. Ammo bu safar ular ma'shuqaning qaddi-qomati ramzini ifodalab kelmagan. Aksincha, ra'no qadli yorning chiroyiga maftun bo'lib, bir oyoqda ehtirom aylab turadilar. Shoir husni ta'lil san'ati orqali sarv va shamshod daraxtlarining tik qomatiga ishora qiladi. Manzarani ko'z o'ngimizda badiiy jilolanishiga ulush qo'shgan tashbeh, jonlantirish, tanosub kabi ma'naviy san'atlar esa baytni boyitgan.

Mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan xususiyatlardan biri unda romantizm metodining tadrj topishidir. Oqibatda, unda mavjud barcha adabiy tur va janrlarda mazkur metodning ustuvorligini kuzatishimiz mumkin. Romantizm metodi – hayot haqidagi, olam va inson borasidagi orzu-istaklar ifodasidir. Bu metodda yaratilgan asarlarda xayoliy voqealar, orzulardagi

obrazlar asosiy o'rin tutadi.

G'uncha mumtoz obrazlar ichida eng ko'p tilga olinadi. Biologik jihatdan o'simliklarning gul kurtagi yozilganda gulga aylanadi. Mashrab g'azalida qo'llangan g'uncha obrazi shu mazmun-mohiyatni ifodalab kelgan:

Sahro yuzi ko'karmas to yoz bo'lmaguncha,
Bulbul tarannum etmas to g'uncha kulmaguncha [8, 12].

Baytda fasllarni almashtirib yuborilganiga guvoh bo'lamiz. Cho'l va saholarning yoz emas, aksincha, bahor fasli kelishi bilan jonlanishi, har xil g'iyoh hamda o'simliklarning ko'karishi hammaga ma'lum. Aslida, "g'unchaning kulishi" – bahor kelganidan darak beradi. Tabiatda uyg'onish faslining namoyon bo'lishi bilan, ya'ni uning tarovati olamni egallashi hamonoq barcha jonivorlar singari qushlar – bulbullar o'z nag'masini boshlaydi. Ular gul-g'unchalarga mahliyo bo'lib, bog' ko'rkiga ko'rk qo'shadi.

G'uncha o'simliklarning oddiy barg kurtigidan yirikligi va uchining to'mtoqligi bilan farq qiladi. G'unchada gulning barcha qismlari shakllangan. Barg qo'ltig'idan hosil bo'lgan g'uncha (gul bo'rtmasi) o'sib rivojlanib, to yozilguncha o'tgan davr g'unchalash davri deb ataladi. Bu davr o'simlik turiga xos asosiy belgi hisoblanadi. Diqqat qaratsak, adabiy asarlarda badiiyat nuqtayi nazardan g'uncha go'yo balog'atga yetib kelgan inson obrazini ramziy g'aydalaniradi.

Munisning "Hanuz" radifli g'azalida g'uncha o'z ma'nosida qo'llangan:

G'unchalar ochildi-yu, ko'nglum ochilmaydur hanuz,
Bulbuloso xotirim gul mayli qilmaydur hanuz [10, 32].

G'unchaning ochilishiga ko'ngilning ochilmagani zid qo'yilgan. Lirik qahramonning nedandir ko'ngli xijil. Bulbuloso xotiri ham gul-u gulzorni istamaydi. Baytda tanosub san'atining yuksak namunasi qo'llangan.

G'uncha hayratdin og'iz ochti, yiqildi yerga gul,
Bog' aro to la'li ruxsorin namoyon ayladi [10, 217].

Yuqoridagi bayt shoir Ogahiyning "Gul'uzorimkim" g'azalidan olingan bo'lib, mazkur g'azal boshdan-oyoq husni ta'lil asosiga qurilgan. Bayt sharhiga to'xtaladigan bo'lsak, ma'shuqaning o'z jamolini bog' aro namoyon qilishi zahotiy oq hayratdan g'uncha og'zining ochilib qolishi, gulning yerga yiqilishi kuzatiladi. Bir qaraganda, asosli vaziyat. Ammo tabiatda g'unchaning ochilib, gulga aylanishi, gullarning esa yerga egilishi tabiiy jarayondir. Holatning shoir tomonidan bunday ishonchli dalillanishi kitobxon tarafidan ham ijobiy qabul qilinadi. Mazkur baytda g'uncha obrazi jonlantirilib, o'z ma'nosida qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, g'uncha kichkinaligi, hali ochilmagan go'zallik timsoli bo'lganligi uchun ma'shuqaning nozik, kichkina va betakror og'ziga ham qiyoslanadi. Buyuk mutafakkir Navoiy lirikasi buni

tasdiqlaydi:

Ketib g'unchadek dog'i nargis kibi

Og'iz birla ko'zdin manga xo'rd-u xob [12, 30].

Uning "Bahor elga ..." deb boshlanuvchi g'azalida lirik "men"ning dildan tuygan chuqur iztiroblari aks etgan. Buni Navoiyning yigitlik chog'ida boshdan kechirgan talotumli yillari bilan izohlash mumkin. Bahor yoshlik, navqironlik ramzini ifodalagan bo'lsa, shoir unga mos ravishda shabob, sahob, guli vasl, g'uncha, nargis, nasimi visol, hajr xori singari holat va istioralardan foydalanadi. Baytda g'uncha og'izga, nargis ko'zga o'xshatilgan. Lirik qahramonning ta'kidlashicha, bahor olamga zeb bergan bo'lsa-da, turli sitamlar, o'yovlar natijasida yeyish va uyqu uni tark etgan. Demak, umumiy qaraganda, uning halovati yo'qolgani ifodasi turli badiiy vositalar orqali yetkazib berilgan.

G'uncha-u gul teng emas la'ling ila og'zinga,

Gulda shakar xanda-u g'unchada guftor yo'q [11, 109].

Yuqoridagi bayt go'zal va betakror lirik shoir Nodira ijodidan olingan. "Yo'q" radifli g'azalda lirik qahramon "chobuk"ining go'zal ta'rifi bilan birga uning holini so'rgali g'amxo'rning yo'qligidan shikoyat qilinadi. Mazkur baytda g'uncha, gul, la', og'iz, shakar, xanda, guftor so'zlari tanosub san'atini hosil qilgan. G'unchaning og'izga, gulning la'lga tenglashtirilishi oqibatida esa tashbeh yuzaga kelgan.

Muqimiy bir qancha ijodkorlar g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Uning "Hijroni zor o'lturg'usi" taxmisi Navoiy g'azaliga bog'langan. Janr talabiga binoan, muxammasning so'nggi bandida har ikkala shoir taxalluslari keltirilgan. Olamning badiiy manzarasini ifodalashda shoir Muqimiy ham nabototga oid obrazlardan samarali foydalangan. Zero, o'zbek mumtoz adabiyotini floristik obrazlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ko'z shabnamidin g'unchani bulbul ochibdur orazin,

Yo ul gul-u rayhon ila sunbul ochibdur orazin [9, 286].

Mazkur muxammasda shoir tabiatning ajib manzarasini yaratgan. Uning fikricha, bulbulning oh-u zorlaridan paydo bo'lgan ko'z shabnamlari (aslida, shudring) g'unchaning orazini ochgan (ya'ni g'uncha gulga evrilgan). Bunga yondosh tarzda boshqa bir holat keltirilgan: gul-u rayhon bilan sunbul chehrasini ko'rsatgan. Shoir lirik kechinmani ifodalash uchun tabiat unsurlaridan unumli foydalangan.

Shunga o'xshash uslub, yo'nalishni shoir Ogahiy ijodida ham kuzatishimiz mumkin:

Ne tong, Ogahiy, nazar aylamas esa bog' sari nigorining,

Sochi sunbul-u, ko'zi nargis-u, labi g'uncha-vu, yuzi loladur [16, 136].

Ko'rinadiki, g'azalning lirik qahramoni shoirning o'zidir. U ma'shuqa obrazini gullarda ko'radi. Yorining

har bir a'zosida mukammallikni his qiladi va tabiatdan shunga monandini izlab topadi. Mumtoz adabiyotda an'ana tusiga kirgan tashbehlarni qo'llaydi: ma'shuqasi sochini sunbulga, ko'zini nargisga, labini g'unchaga, yuzining ol rangini lolaga mengzaydi. Bunda Ogahiy bir misraning o'zida yorga xos bo'lgan bir necha xususiyatni, unga nisbat berilgan sifatlarni birma-bir sanab ko'rsatadi. Buni tansiq us-sifot deyish mumkin. "Tasvir obyektining muayyan tomonini kengroq izohlash, uni bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiluvchi [6, 73]" badiiy san'atlardan biri tansiq us-sifot orqali nafaqat bayt, balki butun asarning badiiy qimmatini oshirilgan.

Shu she'riy san'at bilan bezangan baytlardan birini Bobur ijodida ham kuzatamiz:

Xating bila yuzung-u kokulung sening, ey jon,
Biri binafsha, biri yosuman, biri rayhon [3, 87].

Mazkur bayt shoirning "Xating bila ..." deb boshlanuvchi besh baytli g'azali tarkibidan olingan. Yorning xati [1, 243] binafshaga, yuzi yosumanga, kokuli rayhonga o'xshatilgan. Bu qiyos ortida ma'shuqaning go'zalligi, tengi topilmasligi, noz-u karashmalarining adoqsizligi g'oyasi yashiringan. Uning tabiiy go'zalligi, barkamolligini dalillash maqsadida tabiatda mavjud obrazlarning olingani lirik manzumaning ishonchligini oshirgan. Ya'ni go'zal obrazlar ortida jozib bir narsa yashiringani, uning sirli bo'lib qolishi kitobxonlar diqqatini jalb qilishning individual bir yo'li ekanini ko'rish mumkin.

Kimdir ey qotil emastur tig'i nozing kushtasi,

Sunbul-u rayhon sochingni har bahor oshuftasi [9, 266].

Muqimiyning Furqat g'azaliga bitilgan bu taxmisida ma'shuqa surati o'zining butun jozibasi bilan gavdalantirilgan. Yuqoridagi baytda yorning sochini ta'riflash uchun floristik obrazlardan sunbul hamda rayhon gullaridan foydalanilgan. Mumtoz adabiyotda soch obrazi ham o'ziga xoslikka egadir. Sunbul guli sochga o'xshagani uchun qiyoslansa, rayhon esa sochdan taralgan muattar hidga nisbatan olingan. Kuzatishlarimizga ko'ra, mumtoz lirikada yor obrazini to'liq gavdalantirishda flora olamida mavjud turlardan samarali foydalanilgan.

Shoir yozuvchi idealidagi insonni yoki holatni ko'rsatish uchun qahramonlarini real hayotdagidan ko'ra bo'rttiribroq gavdalantiradi.

Ey gulim, qay kun borurman gulshani gulzoringa?

Gul uzib, bo'lsam musharraf davlati diydoringa [15, 10].

O'z zamonasining taniqli va zukko shoirlaridan sanalmish Zavqiyning "Ey gulim ..." g'azalida qo'llangan gul obrazi – yorga, gulshani gulzor esa yor manzil-makoniga parallel qo'yilgan. Yor tavsifi, uning xatti-harakatlari, oshiqklarining tang holati baland pardalarda tasvirlanganki, bu ma'shuqa talabini kuchaytirgan.

Navoiyning "Bog' atri chu nasimi ..." deb

boshlanuvchi g'azali eng ko'p qo'llanuvchi an'anaviy yetti baytdan iborat bo'lib, oshiqona ruhda yozilgan. Shoir uning har baytiga tabiat zarralari bilan zeb bergan:

Jilva qildi qadding-u nargis-u gul bo'ldi tonuq,

Anga qulluq xatikim savsani ozod berur [12, 56].

Baytdagi nargis, gul, savsan obrazlari shoirning badiiy maqsadi ro'yobi uchun xizmat qilgan. Misralarni sharhlash uchun ayrim istilohlarga izoh zarur. Tonuq – shohid, guvoh; savsan esa gulsapsar ma'nolarida keladi. Ma'shuqa o'z qaddi-qomatini ko'rsatganida yoki jon oluvchi qarashlari bilan atrofga ko'z tashlaganda, gulning bunga shohidligi ta'kidlanadi. Uning suvrati qarshisida savsan, ya'ni gulsapsar qulluq qiladi. Mazkur gulning, aslida, tabiat bag'rida ham egilgan holatda bo'lishi shu tariqa asoslangan. Ko'ramizki, husni ta'lil san'ati g'azalning badiiy mavqeyini bir pog'ona ko'targan.

Sharq mumtoz she'riyati bitiklarida bahor ko'rki bo'lmish lola obrazi mavjud:

Jonki, qat-qat qon bo'lubtur, dog'i ishqing ketmagay,

Lola bargidek ani bir-bir sovursang kuydirib [2, 48].

"Badoyi' ul-bidoya" dan keltirilgan mazkur satrlarda jon lolaga, yor hajri tufayli uning qat-qat qonga to'lishi lola barglariga mengzalgan. Shoir bu o'rinda rang vositasidan unumli foydalanib, misralarning ishonarli bo'lishiga erishgan. Ma'shuqa ishq lola bargidagi dog' singari oshiq joniga o'rnashganki, undan qutulib bo'lmaydi.

Firoq dashtidagi lolalar sarig' butmish,

Magarki dog'lari barcha dog'i hijrondur [12, 51].

Yuqoridagi parcha Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" devonida jamlangan g'azallardan birining beshinchi bayti sanaladi. Bunda lola floristik obrazini qo'llash orqali badiiy niyatga erishish ko'zlangan. Chunki lolaning bag'rida dog'lar bor. Lirik qahramon visolga yetish orzusida kuyib-yonadi. Uni firoq alami qiynab keladi. Oqibatda esa, yuragida alam dog'lari o'z izini qoldiradi. Misradagi "firoq dashti" istiora bo'lib, holatning darajasini ko'rsatish uchun xizmat qilgan. Oshiqning ma'shuqa firoqida chekkan oh-u nolalari zarbidan lolalar qizil emas, aksincha, sariq tus oladi. Bu yerda sariq rang ayriliq, judolik, hijron ramziy ma'nolarini gavdalantirgan.

Xulosa. Olamning badiiy manzarasi turfa obrazlar, motivlar orqali namoyon bo'ladi. Floristik obrazlar mumtoz she'riyatimizda o'z ma'nosidan tashqari turli ramziy ma'nolarni ham ifodalab keladi. Nabotot olamiga mansub obrazlarning qanday ma'no tashishi shoirning dunyoni anglashi va anglata olish qobiliyatiga ko'ra tasniflanadi. Xususan, lola va lolaqizg'aldoq, g'uncha, boychechak, binafsha gullarining obraz darajasiga ko'tarilib, turfa ramziy ma'nolarni ifodalab kelishi yuqorida kuzatganimiz qator shoirlar ijodida kuzatiladi. Ularning obraz sifatida saralanishi mazkur gullarning xarakter-xususiyatlari, rang-tusi, mavjudlik vazifasidan

kelib chiqadi. Shu bois, aytish joizki, mumtoz lirikada gul va o'simlik obrazlarining qo'llanilishi bilan bog'liq yangi tadqiqotlarga milliy adabiyotimiz ehtiyoj sezadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avaznazarov O. Navoiy timsollari so'zligi. – T.: Spectrum Media Group, 2024.288- bet.
2. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. www.ziyouz.com кутубхонаси. 490- бет.
3. Бобур. Девон. –Т.: Фан, 1994. 144-бет.
4. Девони Шайхзода Атойи. –Т.: Фан, 2008. 320-бет.
5. Haqqulov I. Mashrab nafasi. <https://khdavron.uz/kutubxona/uzbek/boborahim-mashrab-gazallar-ibrohim-haqqul-mashrab-nafasi.html>
6. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006. 128- бет.
7. Lutfiy: g'azallar. Nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. –Т.: Akademnashr, 2020. 128- bet.
8. Mashrab: she'rlar/nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. – Т.: Akademnashr, 2020. 128- bet.
9. Muqimiy. Ikki tomlik asarlar to'plami. 1-tom. Lirik. – Т.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.378- bet.
10. Mushkin qoshining hay'ati: Munis, Ogahiy/to'plovchi va so'zboshi muallifi E.Ochilov. – Т.: O'zbekiston, 2015. 224- bet.
11. Nodira – Komila. Devon. – Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 346-bet.
12. Orazin yopqach ko'zumdin: g'azallar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar, fardlar/Alisher Navoiy. So'zboshi, izohlar muallifi va to'plab nashrga tayyorlovchi M. Abdulxayr. – Т.: Zabarjad media, 2023. 160-bet.
13. Xolboyeva M. Xalq og'zaki ijodida gul va bulbul obrazi. Образование наука и инновационные идеи в мире. – Выпуск журнала №-35. – Часть-1. – Декабрь -2023. С. 189-191.
14. Xolboyeva M. Folklorida gul va bulbul obrazi. – Journal of universal science research. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 - 5.073/Volume-2, Issue-2. – P. 396-400.
15. Завкий. Ажаб замона. Шеърлар. – Т.: Шарқ, 2003. 176-бет.

Zakir BAZAROV,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi rahbari,
dotsent, f.f.f.d. (PhD)*

BADIIY TARJIMADA LEKSIK VA STILISTIK BO'YOQDORLIK MUAMMOLARI

Annotatsiya: badiiy tarjima – bu adabiy asarlarni bir tilidan boshqasiga o'tkazish jarayoni bo'lib, u nafaqat tilni, balki madaniyatni, hissiyotlarni va muayyan badiiy uslublarni ham o'z ichiga oladi. Badiiy tarjimaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan leksik va stilistik bo'yoqdorlikni saqlashga bog'liq. Ushbu maqolada badiiy tarjimada leksik va stilistik bo'yoqdorlik muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *badiiy uslub, stilistik bo'yoqdorlik, metofara, taqqoslash, dialekt, nutq uslubi, simbolizm, tarixiy kontekst.*

Annotation: literary translation is the process of transferring literary works from one language to another, which includes material language, culture, emotions and certain artistic styles. The success of the literary translation depends on maintaining the lexical and stylistic coloring. Analysis of the problems of lexical stylistic coloring in literary translation in three articles.

Key words: *artistic style, stylistic coloring, metaphor, comparison, dialect, style of speech, symbolism, historical context*

Аннотация: художественный перевод – это процесс перевода литературных произведений с одного языка на другой, включающий в себя материальный язык, культуру, эмоции и определенные художественные стили. Успех художественного перевода зависит от сохранения лексической и стилистической окраски. Анализ проблем лексико-стилистической окраски в художественном переводе в трех статьях.

Ключевые слова: *художественный стиль, стилистическая окраска, метафора, сравнение, диалект, стиль речи, символика, исторический контекст.*

Leksik stilistik bo'yoqdorlik – bu so'zlarning ma'no va uslubiy jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lishidir. Badiiy asarda so'zlar nafaqat ma'noni ifodalaydi, balki muallifning hissiyotlari, ruhiy holati va uslubiy xususiyatlarini ham aks

ettiradi. Tarjimon ushbu bo'yoqdorlikni saqlab qolishi zarur. Tarjimon badiiy asarni o'zgartirmasdan, uning asl ma'nosini va uslubini saqlab qolishi kerak. Biroq har bir tilning o'ziga xos leksik va stilistik xususiyatlari mavjud bo'lib, bu tarjimaga qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Tarjimon o'zining madaniy va tilshunoslik bilimlarini qo'llab, asarning hissiyotini va badiiyligini yetkazishi lozim. [3]

Badiiy asarlarning leksik va stilistik bo'yoqdorligi ko'pincha madaniy kontekstga bog'liq. Har bir millatning o'ziga xos qadriyatlari, urf-odatlar va an'analari mavjud bo'lib, bu narsalar tarjimada aks etishi kerak. Misol uchun, o'zbek adabiyotida ishlatiladigan ba'zi so'zlar boshqa tillarda to'g'ri ifoda etilmasligi mumkin. Badiiy asarlarda ko'pincha metaforalar va tasvirlardan foydalaniladi. Bu elementlar asarning boyligini oshiradi, lekin ularni tarjimada saqlash qiyin bo'lishi mumkin. Tarjimon metaforani to'g'ri tushunib, uni boshqa tilga mos ravishda o'zgartirishga majbur bo'ladi. Ba'zan, bunday o'zgartirish asarning hissiyotini yo'qotishi mumkin. U adabiyot tarixini ham, Sharq va G'arb adabiyotini ham, o'zbek tilining sir-asrorlarini ham yaxshi bilgan. "O'tkan kunlar" ning jozibador tili bu fikrning isbotidir. O'tkan kunlar, ba'zi manbalarda "O'tgan kunlar" – o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy qalamiga mansub o'zbek adabiyotidagi birinchi roman. 1969-yil "O'zbekfilm" kinostudiyasida ushbu roman asosida "O'tgan kunlar" nomli film suratga olingan. [2]

Adib romanni yozishda arab yozuvchisi Jurji Zaydon asarlaridan ilhomlangan deya ta'kidlangan. Roman 1920-yillar boshida yozilgan bo'lib, 1922-yil ilk bor "Inqilob" jurnalida chop etilgan va 1926-yilda alohida kitob holida chiqarilgan. "O'tkan kunlar" romanining qachon yozib tugatilgani, matbuotda e'lon qilinishi haqidagi ma'lumotlarda biroz chalkashliklar bor. Ammo adib ijodi yuzasidan chuqurroq ish olib borgan tadqiqotchilar keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Abdulla Qodiriy 1917–1918-yillardan boshlab "O'tkan kunlar" romani uchun material yig'ishga kirishdi. 1922-yilda birinchi o'zbek romanining ilk boblari "Inqilob" jurnalida chop etila boshladi. O'sha yillardayoq asar qo'lma-qo'l bo'lib, o'quvchilar asarning navbatdagi boblari chiqishini intiq bo'lib kutishgan. Barchamizga ma'lumki, u davrlarda zamon ancha notinch edi. Shu sababli jurnal muntazam chop etilmagan. Ma'lumotlarni o'rganib chiqsak, faqatgina 1922-yilning o'zida "Inqilob" jurnali ma'muriyati bir necha marta almashganini ko'rishimiz mumkin. Bu holat esa roman taqdiriga ham anchayin salbiy ta'sir qildi, hatto asardagi so'zlarda original holatdan uzoqlashishlarni ko'rishimiz mumkin.

Romanning birinchi bo'limi ilk bor 1925-yilda nashr qilingan bo'lsa, 1926-yilda ayrim xatoliklar tuzatilib qayta nashrdan chiqdi. Ko'p hollarda shunday bo'ladiki, birinchi o'qiganingizda asardan juda ko'p ma'lumot olasiz-u, xursand bo'lasiz. Vaqt o'tgach, bu asarda ko'tarilgan mavzular dolzarbligi, yangi-yangi

bahslar va turli davrlarda turlicha xulosalar paydo bo'ladi. "O'tkan kunlar"ning badiiy qiymati shundaki, bu roman har gal o'qilganida yangi ma'no nozikliklari ko'riladi. O'z davrida asar keng omma tomonidan o'ta "tashnalik" bilan talashib-tortishib o'qilganining sababi ham shunda. Otabek 24 yoshda, Toshkentlik Yusufbek hoji va O'zbek oyimning ko'z nuri, yagona farzandi. Marg'ilon go'zali Kumush esa 17-18 yoshlarda, Mirzakarim qutidor va Oftob oyimlarning yolg'iz farzandi. Savdogarlik bilan shug'ullanuvchi Otabek Marg'ildon Mirzakarim qutidorning tashqi hovlisidan o'tgan ariqdan tahorat uchun suv olayotib, tasodifan Kumushga ko'zi tushadi. Kumush ham Otabekni ko'radi. Nigohlar bir-biriga to'qnashgan chog'da ikkala qalbdam ham ishq otashi alanganadi. Asardagi ushbu voqea tasviri o'qilar ekan, yozuvchi o'zbek ayolining ibo-hayosini mahorat bilan aks ettirganini ko'rishimiz mumkin: "Otabek do'kondorning ko'rsatishicha qutidorning tashqarisig'a kirdi. Shu vaqt tasodufan nima yumish bilandir mehmonxonadan chiqib kelguchi farishtaga ko'zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasig'a kelib to'xtag'an chingilin yigitka beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g'ayri ixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan bir muncha vaqt ko'z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho'chig'andek bo'ldi, yengilgina bir harakat bilan o'zini ichkari yo'lak tomong'a burdi. Bu burilishdan uning orqa-o'ngini tutib yotqan qirq kokillari to'lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo'l ustidan ariq-bo'yida qotib turg'an yigitga yana bir qarab qo'ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi...[1]

Adib Otabek obrazida o'zining yangicha fikrlarini ilgari surgan. Otabek – savdogar, o'zi borgan o'lkalar va o'z yurtidagi iqtisodiy holatlar yuzasidan sog'lom qiyosiy fikrlar bildiradi. Bundan tashqari, Ziyo shohichining uyida bo'lib o'tgan suhbatda o'zining uylanish masalasi fonida o'sha davr oilalarida xotin-qizlarga nisbatan mavjud bo'lgan nosog'lom muhit haqida tanqidiy qarashlarini aytib o'tadi. Bundan tashqari, asarda unga shunday ta'rif beriladi. "Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotini bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa bo'lsin, uzoq so'zlashib o'tirmaydur... Hoji bir necha vaqt so'zlag'uvchini o'z og'zig'a tikiltirib o'turg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa "xo'p" deydir, gapka tushunmagan bo'lsa "xo'sh" deydir, noma'qul bo'lsa "durust emas" deydir va juda ham o'zig'a noma'qul bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan kifoyalaniib mundan boshqa so'z aytmaydir va aytsa ham uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydir". Ushbu ta'rifdan ham Yusufbek hojining naqadar mulohazali, o'ziga xos ma'naviy salobatga ega obraz desam o'rinli bo'ladi. [4]

Davlatchilik boshqaruvi va davr ijtimoiy muhitiga munosabatida ham Yusufbek hoji obrazining mukammalligiga guvoh bo'lamiz. Adib davlat boshqaruvi haqidagi tanqidlari va noroziliklarini hoji

obrazi misolida yetkazib bergan. "O'tkan kunlar" romanida xalq, millat turmushi manzaralarini, milliy urf-odatlarini, millat vakillariga xos xususiyatlarni jonli, hayotiy ifodalash, asarning ruhida, ichki mazmunida so'zlash tarzida milliylikning namoyon bo'lishi milliy ruhning yanada ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qilgan. Romandan olingan ushbu parchada esa o'zbek qizlariga xos bo'lgan milliylik aks etgan: "Oftob oyimning shu yo'sun chaqirishi uch-to'rt qaytalab bo'lsa-da, Kumush eshitmaganga solinib arzimagan narsalar bilan shug'ullang'an bo'lib chiqa bermadi. Otabekning yuzidagi o'ychanliqqa razm qo'yg'an sayin Oftob oyimning haligi shubhasi ulg'aya bordi, kuyavning ko'zini shamg'alat qilib qizining oldig'a kirdi va shivirlab Kumushni urisha boshladi: «Esingni yedingmi qizim, ering sani deb Toshkand degan shahardan kelsayu, san kim keldi deb oldig'a chiqmasang. Tur, chiqib so'rash, arazlab ketib qolsa qilasan?» Oftob oyimning bu keyingi so'zi chindan ham Kumushni o'ylatib qo'ydi: «Ketib qolsa nima qilaman?» degan jumlaning ko'nglidan kechirdi-da, onasidan ilgariroq go'yoki, ayvon toqchasidan bir narsa oladig'andek bo'lib, o'ziga termulib turg'an Otabekka yer ostidan sekingina bir kulib boqdi va toqchadagi keraksiz bo'lg'an bir piyolani olib, yana uyga kirib ketdi. O'zbek oyimning sihirchi-joduchi deb qarg'ashi ham hikmatsiz bir gap emas. Kumushbibining bu kulib qarashi Otabekka ajib bir inqilob yasag'an edi. Undagi oniy bu o'zgarish juda qiziq va sira ishonmasliq edi. Ul bu yer tegidan bir kulib boqish ta'siri bilan ustidagi tog'dek bosib yotgan «orzu»ni ag'darib solg'an va qushdek yengil tortgan edi. Uning oniy bu o'zgarishi shundan iborat edi: «Ularning orzu va rizoliqlari, bu rizoliq sharofati bilan topiladig'an savob, yurtning yuqori-quyi gaplari — barchasi ham Kumushning yolg'iz shu birgina kulib qarashi oldidan o'tabersin!"

Shuningdek, romanning ma'no-mundarija doirasi keng. Unda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolar badiiy mahorat bilan qalamga olingan. Biroq ular orasida eng muhimi, yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir. Buning isboti sifatida Yusufbek hojining ushbu jumlarini keltirishimiz mumkin. Bularning bari davr jaholatidan dalolat bermoqda. Yozuvchining asosiy maqsadlaridan biri ham jaholat va uning salbiy oqibatlarini ko'rsatib berish edi. [3]

"O'tkan kunlar" romani, yozuvchisi Abdulla Qodiriy, o'zining badiiy uslubidagi boyligi va stilistik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu asar o'zining chuqur ma'nosi, rang-barang obrazlari va tilning

nozikli bilan o'quvchilarni jalb etadi. Roman, nafaqat o'z zamonining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini aks ettiradi, balki inson ruhiyatining murakkabligini ham ochib beradi. Abdulla Qodiriy o'z asarida tasviriy uslublardan keng foydalanadi. U tabiatni, insonlarni va ularning his-tuyg'ularini juda batafsil va jonli tasvirlaydi. Masalan, qish mavsumidagi qattiq sovuq, bahorning yangi hayot boshlanishi kabi tabiiy hodisalar orqali qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Bu uslub o'quvchini voqealarga yanada yaqinlashtiradi.

Metafora va taqqoslash

Romanda metaforalar va taqqoslashlar keng qo'llaniladi. Yozuvchi qahramonlarining hissiyotlarini ifodalashda, ko'pincha tabiiy hodisalar yoki kundalik hayotdagi oddiy narsalardan foydalanadi. Masalan, sevgi va umidsizlikni yengil shamol yoki kuchli bo'ron bilan taqqoslab, o'quvchiga qahramonlarning ruhiy holatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Dialekt va nutq uslubi

Qodiriy romanida xalq tilidan, dialektlardan foydalanishi, asarning badiiylikni oshiradi. U qahramonlarning nutqida xalqning urf-odatlarini, an'analarini va hayot tarzi aks ettirilgan. Bu esa o'quvchiga voqealar joylashgan muhitni yanada yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi.

Simvolizm

Romanda simvolizm ham muhim rol o'ynaydi. Har bir qahramon o'zining ichki kurashi va hayot yo'lidagi maqsadlari bilan birga, biror ramz yoki simvolga aylanishi mumkin. Masalan, qahramonning harakatlari va qarorlari orqali ularning ichki dunyosidagi o'zgarishlar va muammolar ochib beriladi.

Tarixiy kontekst

"O'tkan kunlar" romani o'z zamonining tarixiy sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan badiiy asar sifatida ham ahamiyatlidir. Yozuvchi, o'z asarida millatning tarixiy yo'lini, ijtimoiy o'zgarishlarni va xalqning ruhiyatini badiiy til orqali aks ettiradi. Bu esa o'quvchini tarixiy voqealar bilan yanada chuqurroq bog'laydi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida badiiy stilistik bo'yoqdorlikni muvaffaqiyatli qo'llagan. Uning tasviriy uslublari, metaforalari, dialekti va simvolizmi asarni nafaqat badiiy, balki tarixiy ahamiyatga ham ega qiladi. Roman, o'zining chuqur ma'nosi va badiiy boyligi bilan o'quvchilarni o'ziga tortadi va ularni o'z zamonining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Abdulla Qodiriy asari hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda va badiiy adabiyotda o'ziga xos o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014.
2. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. – T.: Adabiyot va san'at, 1986.
3. Abdurahmonova M. Abdulla Qodiriyning psixologik tasvirlash mahorati. –T.: Fan, 1977.
4. Maxmidjonov S. O'ZBEK ADABIYOTIDA ZIYOLI OBRAZINING GENEZISI. Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar, 2023. 2(6), 1231-1235.

Dildora BAZAROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti
bazarova_dildor@gmail.com



VARIANTLILIK HAQIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada variantlilik va variantdosh so'zlarning vujudga kelish omillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *variant, atama, til, dublet, etimologiya.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются факторы вариации и появления вариантных слов.

Ключевые слова: *вариант, термин, язык, дублет, этимология.*

Annotation: this article discusses the factors of variation and the appearance of variant words.

Key words: *variant, term, language, doublet, etymology.*

Variant, variantdosh, dublet atamali tilshunoslikdagi faol va umumsathiy atamalardan bo'lib, ham til sathlariga, ham ularning amaliy voqelanishiga daxldorligi bilan xarakterlanadi. Ular o'zida tilning tarixi va buguni, lison va nutq, talaffuz va imlo, me'yor va uslub, til va ta'lim, adabiy til va sheva, lison va sotsium kesishuvda amal qiluvchi, bir qarashda sodda, lekin murakkab fenomen ekanligi bilan ajralib turadi.

Lingvistik dublet yoki lisoniy dublet yoxud shunchaki dublet (frans. "double" (ikkilanma, ikkiyoqlama) sifatidan olingan doublet atamasi ostida ma'nosi bir xil yoxud yaqin, etimologik jihatdan bir ildizdan kelib chiqqan, tadrijiy taraqqiyot natijasida semantik yoki uslubiy farq kasb etgan, fonetik qiyofasi ayrim tovush jihatidan farqlanadigan leksik birliklar tushuniladi [5].

Variantlilik, variantdoshlik juda ko'p fan sohalariga daxldor bo'lib, u tilshunoslikda ham keng qo'llanuvchanligi bilan xarakterlanadi. 2 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da variant atamasi berilgan bo'lib, u quyidagi talqinga ega: "VARIANT [p<lat] Projekt, plan, ilmiy, badiiy, adabiy asar, mashina va sh.k.ning boshqacha ishlangan turi, boshqa xil ishlangan nusxasi. Ikki variantda tayyorlangan projekt. "Alpomish" dostonining Fozil shoirdan yozib olingan varianti" [3, 173]. O'zbek tilining 5 jildli izohli lug'atida ham so'zning izohi aynan shunday.

Akademik A.Hojiyev tomonidan tartib berilgan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da variant atamasining lingvistik tabiati bayon etilgan: "VARIANT (lot. varians, variants – o'zgaruvchi). Til birligining turli-tuman o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan shakli. Masalan, affiksning varianti, so'zning varianti" [4, 27].

Lisoniy variantlilik tildagi ortiqchalik oqibatidir. U tilning tadrijiy rivoji natijasi va bundan keyingi taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi vositalardan sanaladi. Albatta, ortiqchalikni umuman "keraksiz" ma'nosida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. U tilning harakatliligi va jonliligi, yashovchanligi, rivojlanuvchanligi, sharoitga moslashuvchanligi – "egiluvchanligi"ni o'zida namoyon qiluvchi hodisadir. Til birliklarining "ortiqchalik" belgisini raqobatdoshlik

xossasi sifatida baholash to'g'riroq. Zero, raqobat – taraqqiyotni belgilaydigan, uni tezlashtiradigan asosiy omillardan biri.

Variantdoshlik, variantlilik yoxud variantdorlik til me'yori talablari nuqtayi nazaridan baholanadi. Shuningdek, yuqorida zikr etilgan eskirganlik yoki yangilik, adabiylik yoxud shevaviylik nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lish ham masalani oydinlashtiruvchi, hodisaga xolis yondashishdir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ham, boshqa tillar kabi variantlarga boyligi bilan xarakterlanadi va yagona "invariant" shaklni tanlash hamda boshqa variantlarni inkor qilish tilning ijtimoiy funksiyasiga putur yetkazadi.

Tilda variantlarning vujudga kelishi ko'plab tashqi va ichki omillarga bog'liq.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

- analogiya qonuniyatining amal qilishi;
- tilda formal-semantik asimetriya qonuniyatining mavjudligi;
- turli nutq uslublarining mavjudligi;
- tilning tarixiy taraqqiyoti;
- nutqiy tejam;
- tilning "egiluvchanligi" (moslashuvchanligi);
- nutqning individualligi;
- tilda tanlash imkoniyati mavjudligi.

Variantlar vujudga kelishining tashqi omillari sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

- boshqa tillarning ta'siri;
- tilning sotsial farqlanuvchi;
- jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlar;
- imlo islohoti;
- tilda ayrim gender omillar.

Tilning tadrijiy taraqqiyoti nuqtayi nazaridan munosabatda bo'linsa, variantlarning yashovchanligi, qo'llanuvchanlik darajasi turlichadir. Iste'moldan chiqib ketgan imlo qoidalari va an'alarining izlari saqlanib qolishi ham variantdoshlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun variantlilikning ijtimoiy va individual turini farqlash mumkin bo'ladi. Masalan, arab imlo an'anasi amal qilayotganligi sababli *tamagir, taqiqlamoq*

o'zlashma so'zlarining ayn harfi mavjudligi asosida arab imlosida *ta'magir* (رکمه)) *ta'qiqlamoq* (قاملققت)) tarzida yozilishi an'anasi kirill va lotin imlosida ham, garchi imlo qoidalariga zid bo'lsa-da, davom etib kelmoqda. Yoki kirill alifbosidagi *мўжиза, мўтабар, мўтадил* so'zlarining lotin imlosidagi qulaylik maqsadida *mo'jiza mo'tabar, mo'tadil* shaklida yozish qoidalashtirilganligiga qaramay, uning norasmiy variantlari *mo'jiza mo'tabar, mo'tadil* shaklida ekanligini kuzatish mumkin. Bu, albatta, mazkur so'zlarning qonuniy emas, balki "noqonuniy" variantlari sifatida baholanishi maqsadga muvofiq. Zero, bundagi "xatolik" to'la ma'nodagi subyektiv xatolik bo'lmay, balki kirill alifbosi asosidagi stereotiplar asosida yuz berayotgan obyektiv xatolik sifatida baholanishi lozim. Arab alifbosidagi *ta'magir, ta'qiqlamoq* so'zlarining kirill (*таъмагир, таъқиқламоқ*) va lotin (*ta'magir, ta'qiqlamoq*) imlosidagi "xato" variantlariga ham shunday munosabatda bo'lish mumkin.

Masalan: Раҳбарлар таъмагир бўлиб кетган, пора узатмасанг ер беришмайди. (I.Nishonov. "So'nggi topshiriq", 140-b)

Bunday holatlar she'riy matnlarda ham uchrab turadi.

Чикди Хуросон саридин ўғривор

Келди хом таъма айлабон Қандахор.

(P. Qodirov. "Humoyun va Akbar" – "Avlodlar dovoni" 117-b)

Эдвард Каллен билан кўришимизга ва уйдан чиқишим таъқиқлангани учун соат ўн тўққиздан то йигирма бирдан ўттиз дақиқагача дадамнинг норози мужмал чехрасини кўришга мажбурман.

(S. Mayyer. "Zulmat ostonasidagi muhabbat". 6-b)

Variantdosh so'zlarning lingvistik tabiati o'ta murakkab. Bu murakkablikni ularning fonologik-fonetik va grafik xususiyatlarida ko'rish mumkin. Masalan: *bab-barabar* va *bab barovar, baadab* va *boadab, jibilajibon* va *jiblajibon*.

Davr har bir variantdosh so'zga o'z talablarini qo'yadi. Ulardan ayrimlari eskirgan qatlamga mansubligi, so'zlashuvga xosligi, adabiy talaffuz me'yoriga muvofiq emasligi, madaniy qatlam talabiga javob bermasligi kabi omillar ostida iste'moldan chiqariladi. Dominanta birlik esa adabiy tilning me'yorlariga har jihatdan mos ekanligi bilan xarakterlanadi va me'yor uni tanlab, qonuniylashtiradi. Albatta, siqib chiqarilayotgan variantdosh birlik o'zining konnotativ bo'yog'i "o'tkir"ligi tufayli nutqning chekka hududlarida ma'lum bir emotsional-ekspressiv vazifa bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning ma'lum darajada, garchi passiv qo'llanishga ega bo'lsa-da, "jon saqlab qolish"i uchun sharoit yaratadi. Ammo bu ularning mutlaq qonuniylik belgisiga egaligini ko'rsatmaydi. Umuman olganda, tilda biror unsur, u so'z, ibora, maqol yoki boshqa vosita bo'lishidan qat'i nazar izsiz

yo'qolib ketishi mumkin emas. Shu sababli ayrim so'zlarning variantlari qonuniyligi va yashovchanligi bilan xarakterlanadi.

Masalan: *shohi – shoyi*
bukun – bugun

Ustida go'yo xonatas ko'ylak, Xitoy tovardan kaltacha, toza beqasam kamzul, qimmatbaho *shohi* ro'mol, amirkon kavish-mahsi...

(Cho'lpon. "Kecha va kunduz", 69-b).

Oldiga uqa tutilgan *shoyi* ko'ylak, kalaminka shim, oq tufli.

(O'.Hoshimov. "Ikki eshik orasi", 80-b).

O'zim ham bu maktubni shu *bukun* ko'rdim, — dedi.

(A.Qodiriy. "O'tgan kunlar", 55-b)

Shayboniyxon *bugun* qo'llamoqchi bo'lgan to'lg'ama usuli — yashin tezligida harakatlanishni talab qiladi.

(P.Qodirov. "Yulduzli tunlar", 135-b).

Bu holat quyidagi variantdosh birliklarda ham kuzatiladi.

asta – ohista
shohista – shoyista
hayqirmoq – ayqirmoq
badtar – battar kabi.

Varietlardan birining siqib chiqarilishi, ular miqdorining kamayib borishida bir xillik yo'q, ayrimlari orasida bu borada "yashash uchun kurash" ketayotgan bo'lsa, boshqalarida birini siqib chiqarish jarayoni tez va shiddatli ro'y beradi. Quyidagi so'zlarda variantlararo "murosa"ni kuzatish mumkin:

miltillamoq – miltiramoq, mol-dunyo – mol-u dunyo, mulozimmat – mulozamat, mufti – muftiy, mushk-anbar – mush-ku anbar, nonvoy – novvoy, norizo – norozi, obro'y – obro',odobli – adabli kabi.

Quyida berilgan variantdosh birliklarda dominant variant tomonidan umrini o'tab bo'layotgan variantlarning siqib chiqarilish jarayoni ketmoqda:

oftobchuvoq – oftobshuvoq
oqquv – oqqush
panjshanba – payshanba
parang – farang
parishta – farishta
parq – farq
potinjon – baqlajon
potiha – fotiha

Qatordagi qoraytirilgan so'zlar dominant variantlar bo'lib, ular ustuvor yashovchanligi bilan xarakterlanadi. Ammo mazkur variantdoshlarning barchasi izohli lug'atlarda qayd etilganligi "siqib chiqarilish" mutlaq darajada amalga oshmaganligini ko'rsatadi. Davr ruhini aks ettirish, shevaviy yoki lahjaviy koloritni berish talabi, shuningdek, badiiy asarlarda qahramon nutqini individuallashtirishdan iborat badiiyat talablari bunday variantlarning o'rni bilan onda-sonda ishlatilishiga yo'l qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси, 1-қисм. – Т.: Фан, 1997.
2. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш: Дорилфунун ва педагогика институтлари талабаларига қўлланма [Махсус муҳаррир Л.Т.Бобохонова]. –Т.:Ўқитувчи, 1992. 256-б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли Луғати. 2 томли. 60000 сўз ва сўз бирикмаси С.Ф.Акобиров, Т.А.Алиқулов, С.И.Ибрагимов ва бошқ.; З.М.Маъруфов таҳрири остида. – М.: Русский язык, 1981. Т. I. А – Р. 632-б.
4. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати / Масъул муҳаррир: А.Мадвалиев. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. 168-б.
5. www.wikipedia – свободная энциклопедия.

Агата ОСИПОВА,

*PhD, и. о. доцента кафедры русской литературы
и методики обучения Узбекского
государственного университета мировых языков*

К ВОПРОСУ О НЕОБХОДИМОСТИ ИЗУЧЕНИЯ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ БАКАЛАВРА-ФИЛОЛОГА

Аннотация: статья посвящена рассмотрению специфики преподавания русского фольклора в высшем учебном заведении. Предпринята попытка определить наиболее эффективные способы изложения основного теоретического материала (творческий подход, графический органайзер: таблицы, схемы, диаграммы, иллюстрации). Особое внимание уделяется необходимости обращения к фундаментальным трудам русской фольклористики, заявленным в статье.

Ключевые слова: фольклор, творчество, культура, учебный процесс, наглядность, литература.

Annotatsiya: maqola oliy o'quv yurtida rus folklorini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Asosiy nazariy materialni taqdim etishning eng samarali usullarini aniqlashga harakat qilindi (ijodkorlik, grafik tashkilotchi: jadvallar, diagrammalar, rasmlar). Maqolada bayon etilgan rus folklorshunosligining fundamental asarlariga murojaat qilish zarurligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: folklor, ijodkorlik, madaniyat, o'quv jarayoni, vizualizatsiya, adabiyot.

Annotation: the article is devoted to the consideration of the specifics of teaching Russian folklore in higher education institutions. An attempt has been made to determine the most effective ways of presenting the main theoretical material (creative approach, graphic organizer: tables, diagrams, illustrations). Special attention is paid to the need to refer to the fundamental works of Russian folklore, stated in the article.

Keywords: folklore, creativity, culture, educational process, visibility, literature.

Фольклор как особая форма словесности и демонстрации русской культуры на начальном этапе изучения русской литературы студентами-филологами занимает центральное место. Процесс обучения ориентирован на раскрытие специфики восточнославянской фольклорной традиции, рассмотрение истории собирания и изучения фольклора, определение особенностей его бытования и связи с иными культурными явлениями (музыка, архитектура, литература и т.д.). Связь фольклора с литературой обусловлена его проникновением в смысл народности – характерной черты литературного произведения, путем национального самоопределения искусства через неиссякаемый источник народного творчества. Необходимость изучения дисциплины «Русский фольклор» определяется важными задачами, стоящими перед преподавателем:

- о познакомить студентов со славянской мифологией и обрядностью, научить расшифровке скрытых смыслов, символики;
- о изучить особенности фольклорного мировоззрения и характера бытования произведений устного народного творчества;
- о раскрыть специфику жанровой системы фольклора;
- о развить навыки анализа произведений устного народного творчества;
- о познакомить с ведущими работами русских фольклористов;
- о научить навыкам архивного и библиографического поиска, а также исследовательской работы и другими.

Ознакомление студентов с русским фольклором реализуется в процессе изучения русской литературы отдельной дисциплиной, преподава-

емой в самом начале курса. Связано это с тем, что изучение народного творчества, являющегося основой, базисом художественной литературы, подготавливает будущего филолога к полноценному восприятию художественного текста, позволяя делать целостный литературоведческий анализ с учетом всех культурных особенностей и ментальных кодов. Русское устное народное творчество – основной источник сюжетов, образов, жанров, входивших в состав литературы во все периоды ее развития. Поэтому первый шаг на пути к филологии – изучение фольклора.

Фольклор – процесс творческий, соответственно подход к обучению студентов тоже должен быть творческим. Он помогает заинтересовать слушателей, сделать обучение ярким, креативным, разносторонним. Учебный процесс необходимо выстроить с обязательным:

- прослушиванием аутентичных аудиозаписей (исполнение народных песен, былин, потешек и т.д.);
- просмотром видеороликов из архива сайтов (театрализованные ярмарочные постановки, хороводы и т.п.);
- знакомством с утварью, предметами традиционного крестьянского быта (кочерга, коромыс-

ло, ступа, корыто и т.д.);

- посещением Русского культурного центра (фестивали, ярмарки, празднества, круглые столы и т.п.);
- знакомством студентов с именами и работами художников, касавшихся фольклорной тематики: Ю.А. Васнецов, И.Я. Билибин, М. Врубель Е.В. Честняков и другие.

Объяснение различных процессов устного народного творчества, идейно-художественного наполнения и жанровых особенностей необходимо сопроводить обязательной визуализацией. Излагаемый на занятии основной теоретический материал должен предполагать элементы наглядно-графического характера, что позволяет студентам лучше понять и усвоить информацию. Графический органайзер, включающий в себя таблицы, схемы, диаграммы, иллюстрации, необходимо выстроить в формате алгоритма стройной полномасштабной модели изучаемой темы. При помощи таблиц и схем в сжатой форме представляется разносторонняя характеристика всех особенностей русского фольклора, доступных для восприятия через оригинальные, необычные конструкции и яркие цветовые гаммы. Например:



<p>Меморат (личное воспоминание) Фольклорный рассказ о событиях, воспринимающийся как достоверный и основанный на собственных воспоминаниях рассказчика или воспоминаниях людей из его окружения.</p>	<p>Фабулат (повествование, утратившее особенности воспоминания действующего лица-очевидца, т.е. текст, в основе которого лежит меморат, но дополненный элементами вымысла и характеризующийся «нестрогой достоверностью»). Содержит больше обобщений и передается от третьего лица, обрастая фантастическими деталями (частый переход в сказку – например, рассказы о мертвецах).</p>
<p>Быличка и бывальщина имеют много общего (сохраняют древние языческие представления восточных славян).</p>	
<p>Тематические группы народных демонологических рассказов:</p> <ul style="list-style-type: none"> • о духах природы; 	
<ul style="list-style-type: none"> • о домашних духах; • о черте, змее, проклятых; • о колдунах; • о кладах; • о предзнаменованиях; • о неопознанных летающих объектах (НЛО) и другие. 	

Используемая литература при изучении дисциплины «Русский фольклор» должна включать в себя обязательное обращение к таким фундаментальным трудам русской фольклористики как «Поэтические воззрения славян на природу» А.Н. Афанасьева, «Великорусские заклинания» Л. Майкова, «Народная поэзия. Исторические очерки» Ф.И. Буслаева, «Историческая поэтика» А.Н. Веселовского, «Толковый словарь живого великорусского языка» В. Даля, «Загадки русского народа» Д. Садовникова, «Поэтика мифа» Е.М. Мелетинского, «Морфология сказки» и «Исторические корни волшебной сказки» В.Я. Проппа, где любое повествование представляется с точки зрения культурного явления со скрытым сакральным смыслом. Учебники и учебные пособия XX века, являющиеся классикой по сей день, доходчиво и обстоятельно разъясняют все жанровые особенности, идейно-тематическое содержание, детально раскроют народные образы. Среди них нельзя не отметить «Историю русской фольклористики» Азадовского М.К., «Русский фольклор» Зуевой Т.В., Кирдан Б.П., «Русское устное народное творчество» Кравцова Н.И., Лазутина С.Г., «Русский фольклор» Соколова Ю.М., «Русский фольклор» Аникина В.П., «Русские обрядовые песни» Круглова Ю.Г., «Русский детский фольклор» Капицы Ф. С., Колядича Т. М. и других. Не менее полезны в освоении дисциплины и современные учебные пособия, сумевшие зарекомендовать себя за незначительно продолжительный период времени. К ним можно отнести «Русское устное народное творчество» Шафранской Э.Ф., «Русский фольклор» Ларионовой М.Ч., «Лекции по русскому фольклору» Костюхина Е.А., «Детские фольклор» Камаловой Л.А. и других. В помощь преподавателю и целый ряд электронных ресурсов, располагающих огромным количеством полезной информации, аудио- и видеозаписями. Самые популярные из них:

- ❖ <https://frigato.ru/audioskazki/russkie-byliny/> «Русские народные былины».
- ❖ <https://folkmir.ru/> «Сборник народного фольклора».
- ❖ <https://edu.folklore.ru/?lang=en> «Школа русского фольклора».
- ❖ <https://www.folkcentr.ru/category/onlajn-lektorij/> «Центр русского фольклора».
- ❖ <https://www.philol.msu.ru/~folk/old/linx.htm> «WEB-ресурсы, посвященные русскому фольклору и смежным областям».
- ❖ <https://www.folkcentr.ru/biblioteka-folklorista/> «Центр русского фольклора».
- ❖ <http://www.culture.ru/tradition> «Портал культурного наследия России: нематериальное культурное наследие».
- ❖ <http://www.folkinfo.ru/> «Фольклорно-информационный портал «Фолкинфо».
- ❖ <http://www.rusfolknasledie.ru> «Электронный каталог объектов нематериального культурного наследия народов России».

Таким образом, усвоение и понимание фольклорного явления в целом способствует формированию у будущих филологов глубокого культурологического подхода при изучении русского языка и литературы, приобщая студентов к русским культурным ценностям, пробуждая интерес к народным истокам, духовному наследию, что в последствии формирует научное внимание к проблеме трансформации основ народной эстетики в словесном искусстве, а также факторам эволюционного процесса художественной литературы.

Hulkar ALIQULOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ToshDO'TAU katta o'qituvchisi;
Nigora RAXMATOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
O'zbek va xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

MAROSIM FOLKLORI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS TAMOYILLAR

Annotatsiya: maqolada nikoh to'yida ijro etiladigan "yor-yor" qo'shiqlarining mavzu doirasi, kompozitsiyasi, shakl va g'oyaning birligi, vazn xususiyati, misralardagi parallelizmlarning o'ziga xosligi, to'rtliklardagi mazmunning davomiyligi, lokal xoslanishi, xalqona ifoda bilan uzviyligi, ritmi va ohangdorligining ijro jarayonidagi ta'sirchanligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *parallelizm, kinoya, she'riy ritm, lokal, ohangdorlik, badiiylilik, qofiya, sheva so'zlar, janr, kompozitsiya, to'rtlik.*

Annotation: in the article, the theme, composition, unity of form and idea, characteristic of weight, uniqueness of parallelisms in verses, continuity of content in quatrains, local specificity, unity with folk expression of "yor-yor" songs performed at weddings are presented in the article. , the effectiveness of rhythm and melody in the performance process is analyzed.

Key words: *parallelism, irony, poetic rhythm, locale, melody, artistry, rhyme, slang words, genre, composition, quatrain.*

Аннотация: в статье представлены тема, композиция, единство формы и идеи, характеристика веса, своеобразие параллелизмов в стихах, непрерывность содержания в четверостишиях, местная специфика, единство с народным выражением песен «ёр-ёр», исполняемых на свадьбах. в статье анализируется эффективность ритма и мелодии в исполнительском процессе.

Ключевые слова: *параллелизм, ирония, поэтический ритм, локаль, мелодия, художественность, рифма, жаргонизмы, жанр, композиция, четверостишие.*

Insonning tug'ilishi, yashashi, o'lishi bilan bog'liq holatlar marosimlar bilan tartibga solinishi, ya'ni shaxsning bir hayot bosqichidan, ikkinchi hayot bosqichiga o'tishi oilaviy turli marosimlar (bayramlar, to'ylar, kichik yig'inlar) bilan bog'langan, tasdiqlangan. Umuman olganda, marosimlardagi turli hayotiy chizgilar, dalillar, insoniy qarashlar sotsiologik jihatdan insonni jamoa (ya'ni jamiyat) qonun-qoidalari bilan tanishtirib, tarbiyalab, milliy maktab mezonlarini shakllantirsa, ilmiy nuqtayi nazardan esa, marosimlar xalq og'zaki ijodi namunalarining yashashi uchun vosita sifatida o'ziga xos qimmatga ega. Xalq og'zaki ijodi namunalarining paydo bo'lish tarixi, genetik xususiyati, lokal yoki nolokal mezonlari, dialekt qatlamlari marosim folklorida namoyon bo'ladi.

Marosim folklorining serqirraligi, dramaturgiyasi, badiiy-uslubiy bo'yoqdorligi, ularning ijrochilari,

ishtirokchilarining xilma-xilligi bilan o'lchanadi. Marosim ijodi millat madaniyatining o'ziga xos badiiy yodgorligi bo'libgina qolmay, kelajak hayot mezonlari, zamon va makon haqidagi xalqona o'y-kechinmalar barqarorligini ta'minlovchi izchil tizimdir. Inson hayotida uch marosim: "beshik to'y" marosimi (insonning dunyoga kelishi), "nikoh to'y" marosimi (shaxsning bir maqomdan, ikkinchisiga o'tishi), "o'lim" marosimi (mavjud dunyodan, boshqa dunyoga o'tishi) muhim funksional vazifalarni bajaradi. Ushbu marosimlarda ijro etiladigan og'zaki ijod namunalari esa shu vazifalarga moslashadi. Og'zaki ijod namunalarining asosini qo'shiqlar tashkil etganligi uchun, ularning o'rganilish darajasi ham shunchalik muhimdir. Ayniqsa, nikoh to'ylarida yosh-u qarini birdek hayajonga soladigan, bir on bo'lsada, o'z o'y-kechinmalariga bog'laydigan "yor-yor" qo'shiqlarining o'ziga xosligi sir emas.

Tadqiqotchilar R.Nosirov, A.Musaqulov, I.Haqqulov, M.Ro'ziyeva, M.Jo'rayev, M.Murodova, L.Xudoyqulova, M.Yokubbekovalar tomonidan xalq og'zaki ijodi namunalari turli xil aspektlarda o'rganilgan va "yor-yor" janri haqida ham ma'lum ma'noda ilmiy xulosalar berilgan.

"Yor-yor" janri, odatda, alohida olingan terma to'rtliklardan iborat bo'ladi, deb tasavvur qilinadi. Haqiqatdan ham, ushbu janrga mansub bo'lgan namunalarning aksariyat katta qismida shu xususiyat mavjud. Shunga ko'ra ularning ijro paytidagi o'rni anchayin erkin bo'ladi.

Oq ko'ylagim yengini,
So'kdim ona, yor-yor.
Oq sutingga rozi bo'l,
Ketdim ona, yor-yor. (3: 80)

Yoki:
Payg'ambarining qizini,
Kim ko'ribdi, yor-yor.
Ota-ona mehri,ga,
Kim to'yibdi, yor-yor. (2: 152)

Yuqoridagi kabi bandlar nisbatan erkinroq joylashadi. Kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, ayrim bandlar bir-biri bilan mantiqan bog'lanib ketgan bo'ladi. Bunday hollarda ularning muayyan izchillikda kelishi, albatta, shart bo'lib qoladi.

Qora-qora qo'zilar,
Qo'yni boshlang, yor-yor.
Qalam qoshli yangalar,
O'lan boshlang, yor-yor.
Qiziqtirib aytsangiz,
Bizning bilan, yor-yor.
Yig'ilishib qudalar,
Tanga tashlar, yor-yor. (2:130)

Misralarda "o'lan aytmoq" mantiqiy markazi har ikki bandni o'zaro birlashtirib turadi. Muhimi, mazkur izchillik, ushbu ketma-ketlik mantiqiy ehtiyoj taqozosi bilan yuzaga kelganligi ochiq sezilib turadi.

Bandlarning ichki mantiqiy aloqadorligi tasvirdagi obyekt xususiyatlariga ham chambarchas bog'liqdir. Shunga ko'ra, bunday holatda o'zaro aloqador bo'lgan bandlar sirasi ikki-uch banddan yetti-sakkiz, hatto o'n-o'n ikki bandgacha davom etishi mumkin.

«Yor-yor»larning an'anaviy tarzidagi ko'rinishlaridan biri bevosita Xudoga bag'ishlovlardan boshlanadi. Xuddi shu yerda ierarxiyalik tarzda mantiqiy zanjir tuzila borishini kuzatish mumkin bo'ladi. Bu zanjirning asosiy halqalarini «Xudo – bismillo – Qur'on», «Xudo – payg'ambar – ummat» tarzida davom etadi.

Ikkinchi turkum «yor-yor»larda bir kompozitsion usulga birlashish tamoyili ustunlik qiladi. Ularga xos bo'lgan asosiy belgi, birinchi misrada olg'a surilgan badiiy niyatning keyingi baytlarda mantiqan davom ettirilishi bilan aloqador:

Yor-yor aytib kelaman,
Bilasizmi yor-yor,
Yor-yorimning qadriga,
Yetasizmi, yor-yor.

Keyingi bandlarning barchasi shu turkumga aloqadorlikning belgisi sifatida birinchi misraning takroridan boshlanadi.

Yor-yor aytib kelaman,
Yo'l beringlar, yor-yor.
O'lanchining piriman,
Qo'l beringlar, yor-yor. (2: 162)

Tavsif tipidagi holatlarda ham mana shunday rivojlanish ko'zga tashlanadi. Unda kelin yoki kuyovdagi muayyan ijobiy sifatlar (ba'zan yumoristik tasvirlar ham) uzluksizlik bilan tilga olinadi.

Bir ximchai kamarday,
Beli bordir, yor-yor.
Tol ximchai larzunday,
Bo'yi bordir, yor-yor.
O'n to'rt kunlik oydayin,
Ro'yi bordir, yor-yor. (2: 48)

Bunday tip yor-yorlarda mantiqiy aloqadorlik qofiya vositasida kompozitsion jihatdan ham yana bir marta mustahkamlab boriladi. Buning natijasida bandlar orasidagi mantiqiy izchillik juda kuchli tovush ta'minotiga ega bo'ladi.

Yor-yor to'rtliklari mantiqiy izchillik, mazmunan davomiylikka ega bo'lsa-da, ularning kompozitsion ko'rinishida alohidalik mavjud. Bu xususida Raxmatulla Nosirov o'zining ilmiy ishi va ilmiy maqolalarida alohida to'xtalib o'tgan. (3: 33-35)

Sepoyaga sut qo'ydim,
Achisin deb, yor-yor,
Qarindoshga qiz berdim,
Yolchisin deb, yor-yor.
Qarindoshim orzulab,
Quda bo'ldi, yor-yor,
Oxirida yomonlab,
Judo bo'ldi, yor-yor. (3: 33-35)

Yuqoridagi har ikki to'rtlik mazmun jihatdan bog'langan, mantiqiy izchillikka ega. Ya'ni, sut oqlik – baxt ramzi. Lekin uning achishi, yaxshilik emas. Yaxshi niyat bilan qarindoshga qiz bermoqlik, oqibatda esa qarindoshdan judolik yuzaga kelmoqda. Ikkala to'rtlikdagi mazmun-mohiyatning yoritilishiga ko'ra, ular alohida-alohida kompozitsion ko'rinishga ega.

Birinchi to'rtlik, tematik-psixologik parallelizm, ikkinchi to'rtlik esa, ritmik-sintaktik parallelizm.

Parallelizm xalq qo'shiqlarida juda keng qo'llanilib, baytlarda yagona poetik obraz yaratishga xizmat qiladi. (1: 447)

Yor-yor to'rtliklaridagi kompozitsiya o'rganilganda, to'rtlik bandlaridagi dastlabki ikki

misraning keyingi ikki misraga mantiqan bog'lanishi, aloqadorligi, yoxud zidligiga e'tibor berish lozim. Bu esa poetik obraz va poetik detal o'rtasidagi munosabatda aks etadi.

Yor-yorlaridagi an'anaviy motivlar mazmuniga ko'ra yor-yorlar matni ham bir necha guruhlariga bo'linadi. Bunday bo'linishlar yor-yorlarning kompozitsiyasini yoritishga imkoniyat tug'diradi. Yor-yor qo'shiqlaridagi asosiy motivlardan biri, kelin bo'lib o'zga xonadonga uzatilayotgan qizning ahvoriga achinish, ruhiy iztirob ko'rinishlaridir.

Tog'da toychoq kishnaydi,

Ot bo'ldim deb, yor-yor.

Uyda kelin yig'laydi,

Yot bo'ldim deb yor-yor. (2: 150)

Ushbu to'rtlikda, ota-onasining uyidan ayrilib ketayotgan, begona xonadonga uzatilayotgan qiz ruhiyatiga xos ma'vuslik, iztirob aks ettirilgan. Bu esa ruhiy parallelizm vositasida ifodalangan. To'rtlikning dastlabki misralaridagi mazmun, mohiyatan, qolgan misradagi mazmunga zid. Chunki toychoq, ot bo'lganidan quvonib kishnamoqda. Qiz esa yot bo'lib, o'zga uyga ketayotganidan og'ir ruhiy holatda. Ammo ikkala ko'rinishda ham bir hayotiy voqelik mavjud. Ya'ni toychoq balog'atga yetganda ot bo'ladi, qizlar ham balog'atga yetganda, kelin bo'lib yangi hayotga qadam qo'yadi. Qolaversa, birinchi misradagi ijobiy holat, ikkinchi misradagi salbiy holat zararini mohiyatan chuqurroq ochishga va fikrning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Qo'shiqdagi parallelizm esa, birinchi baytga, ikkinchi baytdagi kutilmagan asos bilan bog'lanishni vujudga keltirmoqda. Yuzaki qaralganda ular bir-biriga bog'lanmagan. Lekin asosiy g'oyani ifodalash uchun mantiqiy bog'lanmoqda. Xalq og'zaki ijodi namunalari bunday ichki mantiqiy bog'lanishlar

juda ko'p uchraydi.

Yor-yor qo'shiqlarida bunday parallelizmlarning ko'p uchrashi uning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Qo'shiqlarda parallelizm bir necha hollarda ko'rinadi: tabiat hodisalari va turmush detallari, umuman ko'zga ko'rinadigan narsalar bilan taqqoslab obrazlash, psixologik bog'lash orqali kishining ma'naviy holati qiyos qilinadi. Bunday obrazlash uchun, albatta, o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, kinoya, metafora va metonimiyalar, allegoriya kabi badiiy vositalar yorqin tasavvurlash uchun qo'llaniladi. Tasviriy ifodalar bilan ko'chma ma'noda kelgan iboralar parallelizmlarni tashkil etadi. Bular orqali qo'shiqning ta'siriy kuchi oshadi.

Darchadagi qaychini,

Zang bosibdi, yor-yor.

Ketadigan singlimni,

G'am bosibdi, yor-yor. (5: 48)

Bu to'rtlikka xos parallelizm: zang bosgan qaychi va g'am bosgan kelin. Ruhiy parallelizm vositasida shakllangan baytlar, poetik detal va poetik obraz o'rtasidagi mantiqiy aloqadorlikka ega. Zang bosgan qaychi – poetik detali, g'am bosgan kelin obrazining ruhiy holatini ishonchliroq ifodalashga xizmat qilmoqda. Zang – qaychini yaroqsiz ahvolga keltiradi. Bu ko'rinib turgan tabiat hodisasidir. G'am esa insonni xarob qiladigan ichki ruhiy azob.

Ko'rinib turibdiki, insonning ichki his-tuyg'ularni oshkor etadigan "yor-yor" to'rtliklarida parallelizmning takrorlanmas ko'rinishlari mavjud. Nikoh to'yi marosimida shaxsning yangi maqomga erishishi bilan bog'liq urf-odatlar, irim-sirimlar, ruhiy kechinmalardagi konfliktlar, badiiy tasvirdagi soddaliklar aynan parallelizmlar orqali yanada mukammal ifoda kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002. 450-bet.
2. Gulyor. Farg'ona xalq qo'shiqlari. – T., 1967. 248-bet.
3. Jo'rayev M. Oy oldida bir yulduz. – T., 2000. 160-bet.
4. Nosirov R. O'zbek xalq qo'shiqlarining kompozitsiyasi haqida. O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2001. O'sha muallif. Xalq qo'shiqlarining zanjirli kompozitsiyasi. O'zbek tili va adabiyoti, 2002.
5. To'xliyev B., Sheraliyev E., Aliqulova H. O'zbek xalq qo'shiqlari. Yor-yorlar. –T., 2009. 104-bet.

Sobir MANSUROV,
 ToshDO'TAU katta o'qituvchisi



“GULSHANI DILAFGOR” TO'PLAMIDAGI LIRIK SHE'RLAR TASNIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada “Gulshani Dilafgor” to'plamidagi ba'zi she'rlar tasnif qilindi. Shoir she'rlarining aksariyati Furqat, Muqimiy, Hamza, Xislat, Kamiy kabi shoirlarning millatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan lirik asarlari bilan hamohang. Shoirning “Gulshani Dilafgor” to'plamidagi lirik she'rlar tasnifi shundan dalolat beradiki, Dilafgor o'zbek mumtoz she'riyatida shoirlarga yo'ldosh bo'lib kelgan mavzularni chetlab o'ta olmagan.

Kalit so'zlar: “Gulshani Dilafgor”, na't, she'r, adabiyotshunoslik, lirik asarlar.

Annotation: some of the poems in the Gulshani Dilafgor collection have been discussed. Most of the poet's poems are in harmony with the lyrical works of poets such as Furqat, Muqimi, Hamza, Khislat, Kami, combined with the ideas of nationalism and enlightenment. The classification of lyrical poems in the poet's collection, namely “Gulshani Dilafgor” shows that Dilafgor could not avoid the themes that accompanied the poets in Uzbek classical poetry. He also relied on the progressive ideas of his time to continue the traditions of the predecessors who had written before him.

Keywords: Gulshani Dilafgor, naat, poetry, literature, lyrical work.

Аннотация: в данной статье классифицированы некоторые стихотворения из сборника «Гульшани Дилафгор». Большинство стихов поэта созвучны лирическим произведениям таких поэтов, как Фуркат, Мукими, Хамза, Хислат, Ками, проникнуты идеями национализма и просветительства. Классификация лирических стихотворений поэта в сборнике «Гульшани Дилафгор» показывает, что Дилафгор не смог избежать тем, которые были спутниками поэтов в узбекской классической поэзии.

Ключевые слова: Гульшани Дилафгор, поэзия, поэзия, литературоведение, лирические произведения.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan ma'rifatparvar ijodkorlar adabiy merosi dunyoning ko'plab kutubxonalarida saqlanadi. O'zbekiston davlat adabiyoti va folklor muzeyi qo'lyozmalar fondi ham xuddi shunday muqaddas dargohlardan biridir. Muzey fondida o'rta asrlar bilan bir qatorda XIX – XX asrlarda yaratilgan ilm-fan va adabiyotning turli sohalariga oid ko'pgina manbalar uchraydi

Ishi o'tmish bilan bog'liq har qanday tadqiqotchi bu yerda hali hech kimga ma'lum bo'lmagan ma'lumotlarni uchratib qolishi tabiiy va odatiy holdir. Ma'lumki, Dilafgor yashagan davr adabiyotimiz tarixida “Milliy uyg'onish davri” deb yuritiladi. Albatta har bir ijodkor asarida u yashagan davr, muhit qaysidir jihati bilan bo'y ko'rsatadi. Biz bu holni Dilafgor ijodida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shunga ko'ra shoir lirik asarlari mavzu ko'lamini tasavvufiy ruh va mazmuni ifodalovchi, diniy-ma'rifiy, ilm-ma'rifatni tarannum etuvchi, sevgi-muhabbat kuylangan, ijtimoiy muammolar yoritilgan she'rlar tarzida ajratish mumkin.

Dilafgor Yaratganga chin e'tiqod qilish barobarida o'z gunohlarini kechirishini so'rab munajatlar bitgan:

G'aribman, benavoman, g'am bila qadim duto, yo Rab,

Junun dashtida muztarib holim tabo(h), yo Rab.

Karamlik podshohim, sendin o'zga takyagohim yo'q,

Tilab matlabni keldim dargahingga men gado, yo

Rab.

Dilafgor bir necha munajatlar turkumini yaratdi. Shoir munajotnomalari ham mumtoz adabiyot vakillari asarlari singari bir qator fazilatlaridan holi emas. Ana shunday xususiyatlardan biri – bandaning chin dunyoga iymon bilan borishi masalasidir:

Tavba qildim, tavbai maqbuli hidoyat aylagil,

Fazli ehsoning man osiyg'a inoyat aylagil,

Bul munajoti Dilafgorni ijobat aylagil,

Robbano, fag'firlano, ey Xoliqi har du jahon,

Aylasam rihlat bu olamdin, yuborg'il boiymon.

Musulmon sharqida chahoryori bosafolar aytgan hikmatli gaplari mazmunida asarlar bitish an'anaga aylangani ma'lum. Masalan, Hazrati Ali (karamallohu vajhahu) ning “Nasru-l-laoliy” asaridan ilhom olgan mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'zining “Nazm-ul-javohir” deya so'z dur-u javohirlarini tergan. Dilafgor ham Hazrati Abu Bakr Siddiq munajotlariga taxmis bog'lagan. Bu taxmis “Kech gunohimni batahqiq Hazrati Odam halil” misrasi bilan boshlanib, shoirning Allohga bo'lgan chin tavbasi, tavallosi, ixlos bilan aytgan munajoti sifatida jaranglaydi.

Dilafgor payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ga chin ummat ekanidan Sarvari Koinotga munosib na't bag'ishlaydi. G'azal quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Zihi shohi arab, mohi ajam, ul sayyidi barno,

Xudo Qur'onda aydi vasfinga “Yosin” ilan “Toho”.

Dilafgor ijodining mumtoz adabiyotimiz namunalaridan oziqlanishi tabiiy hol bo'lib, Mashrab

she'riyati ham unga behad oziq berganini ta'kidlash kerak. Ma'lumki, Mashrab adabiyotimiz tarixida o'ziga xos yo'nalishda ijod qilgan hamda "Qalandariya" suluki asoschilaridan hisoblanadi. Mashrab ijodi ilohiy ishqni kuylovchi she'riyat ekani ham barchaga ma'lum. Uning:

*Har kishining dardi bo'lsa, yig'lasin yor oldida,
Qolmasin armon yurakda, etsin izhor oldida,-
g'azaliga Dilafgor quyidagicha tazmin bog'lagan:*

*Telba ko'nglum ko'z tutar, fursat topib yor oldida,
Aylasam hijron g'amin fil-jumla izhor oldida,*

Dilafgor ijod namunalarini ham o'z zamondosh shoirlari she'rlari kabi millat tuyg'usini shakllantirishda o'zgacha ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, uning millat haqidagi she'rlari Hamza, Abdulla Avloniylarning shu mavzudagi she'rlari bilan hamohang:

*Tun-kechalar choyxonada aytib hamisha safсата,
Ko'k choy ichib, shilqillashib hech ish qilolmaymiz
hanuz.*

yoki yana bir she'rida ilmni tutgan taraqqiyotdan mosuvo qolmasligini quyidagicha bayon etadi:

*Simsiz havoda teligrof yurguzdi ilm-u fan ilan,
Biz bodparak, bedonadin o'zga bilolmaymiz
hanuz.*

Bu g'azalda Hamza she'rlariga xos hamohanglikni kuzatish mumkin. Ma'lumki, Hamza Hakimzodaning bir qancha ijtimoiy-siyosiy she'rlarida Yevropa ilm tufayli borgan sari taraqqiyotga erishayotganligi ta'kidlanadi. Jumladan, shoirning 1914-yilda yozilgan "Vatandoshlarima xitob" she'rida bunday deyiladi:

*G'afolat uyqusidin ko'zung och, boq zamona,
Ilm ila maorif tutuni to'ldi jahona,*

Soldi hama millat bu maorifga xazona,

Biz millat etub or ila nomusi bahona,

Na maktaba ilm o'ldi, na bozorda tijora,

Xushk o'ldugimiz boisidin bo'ldi kasolat. [1]

Ma'lumki, Hamza ham boshqa jadidlar singari millatni g'afolat va jaholatdan uyg'otishni maqsadmatlab deb bilgan, xalqni basoratga – dunyoga ochiq ko'z bilan qarashga da'vat etgan, ilm ila maorifdan bahra olishga chaqirgan.

Shoir g'azallarida ilohiy muhabbat, so'fiyona sevgi motivlari ham kuylanadi. Shoir aksariyat she'rlarida

yer go'zaliga murojaat qilayotgandek bo'lsa ham, aslida Yaratganga bo'lgan sevgisini izhor etadi. Albatta, shu o'rinda "Al-majozu qantaratul-haqiqat" ("Majoz haqiqatga olib boruvchi ko'prikdir") ekanligini unutmazlik lozim:

*Darig'o, umrim o'tdi, ey pari, hajringda jono deb,
Qarong'u bo'ldi olam ko'zlarimg'a, sho'xu barno
deb.*

*Bo'libman misli Majnun, kil tarahhum, yori jononim,
Yutay tokayg'acha qon laxta-laxta, oh Laylo, deb.*

*Qo'yibman ostonangg'a boshimni, ey jafopesha,
Jahon mahvashlaridin sen pari paykarni a'lo deb.*

Dilafgorning yuqorida ta'kidlaganimizdek, "majoziy yo'l bilan boruvchi ilohiy ishq" to'g'risidagi baytlari talaygina. Ulardan yana biri quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Arsai olamda, jono, orazing chun oftob.

Lam'ai anvor aksing ko'kda go'yo mohtob.

Adabiyotimiz tarixida Fuzuliydan bahramand bo'lmagan turkiy tilli ijodkor bo'lmasa kerak. Bir vaqtlar Fuzuliyning shirinabonligidan uning tilida g'azallar yozish ham urfga kirgan edi. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ham Fuzuliy dahosiga tan berib:

Mening shoiriligim yolg'ondir ammo,

Fuzuliy she'riga oshiqligim rost, -

deb yozgan edi. Dilafgor ham salafllari singari fuzuliyona g'azallar bitib, ushbu an'anani qaysidir ma'noda davom ettirdi. Jumladan, shoirning quyidagi matla' bilan boshlanuvchi g'azali Fuzuliyga o'xshatmadir:

*Go'zal mahvashlar ichra sen kabi hurliqo bo'lmaz,
Qiyomingga nechun tashbih qilam tubo raso*

bo'lmaz

Xulosa qilib aytganda, "Gulshani Dilafgor" to'plami noshirlari Dilafgor ijodida Muqimiy, Xislat, Kamiy kabi shoirlarning ta'siri kuchli bo'lgan degan xulosalarga kelishsa-da, aslida shoir she'riyatining mavzu ko'lami ancha kengroqdir. Dilafgorning haqiqiy musulmon farzandi sifatida hazrati Abu Bakr Siddiq munojotlariga taxmis bog'laganligi ham bunga dalildir. Dilafgor g'azallarida ilohiy muhabbat, so'fiyona sevgi motivlari ham kuylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Намза. Ватандошларима хитоб. Sadoi Turkiston, 1914-yil 27-son. (Bu she'r "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1994-yil 11-mart sonida adabiyotshunos I. G'afurov tomonidan e'lon qilingan).
2. Абу Али ибн Сино. Шеър санъати. Саломон ва Ибсол. – Т.: Фан. 1980. 98-бет.
3. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Т.: Akademnashr, 2010. 200-бет.
4. Амонов Ш.Н. Намза шеърятининг манбалари, матний тадқиқи: филология фан. номз... дисс. – Т.: 2010. 15-бет.

Salima KARIMOVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
Elinura ZOKIROVA,
Qarshi davlat universiteti talabasi



O'QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODOLOGIYALARI VA ULARNING INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR BILAN INTEGRATSIYALASHUVI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada o'rganish jarayonini samarali tashkil etish metodologiyalari va ularning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yondashuvlarning ta'lim sifatini oshirishdagi roli va istiqbollari, shuningdek, ta'lim jarayonining kelajagi va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri haqida fikr yuritadi. Natijada zamonaviy ta'lim tizimining innovatsion yondashuvlar bilan integratsiyasi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *integratsiya, metodologiya, sun'iy intellekt, interaktiv dasturlar, pedagogik yondashuv, konstruktivizm, flipped classroom, blended Learning, gamification (O'yinlashtirish), Collaborative Learning (Hamkorlikda o'qitish)*

Аннотация: в данной статье анализируются методики эффективной организации учебного процесса и их интеграция с инновационными технологиями. Также размышляет о роли и перспективах этих подходов в повышении качества образования, а также о будущем образовательного процесса и его влиянии на социально-экономическое развитие. В результате показано, что интеграция современной системы образования с инновационными подходами будет иметь важное значение в развитии знаний и умений учащихся.

Ключевые слова: *интеграция, методология, искусственный интеллект, интерактивные программы, педагогический подход, конструктивизм, перевернутый класс, смешанное обучение, геймификация, совместное обучение.*

Annotation: this article analyzes the methodologies of effective organization of the learning process and their integration with innovative technologies. It also reflects on the role and prospects of these approaches in improving the quality of education, as well as the future of the educational process and its impact on socio-economic development. As a result, it is shown that the integration of the modern education system with innovative approaches will be important in the development of students' knowledge and skills.

Key words: *integration, methodology, artificial intelligence, interactive programs, pedagogical approach, constructivism, flipped classroom, blended learning, gamification, collaborative learning.*

Kirish. Ta'lim jarayoni har bir jamiyatning rivojlantirishida muhim rol o'ynaydi. O'zgaruvchan va raqobatbardosh dunyoda, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli, o'rganish jarayonini samarali tashkil etish metodologiyalari, shuningdek, innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi ta'lim sohasida dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, masalan, konstruktivizm, flipped classroom va blended learning kabi metodologiyalar, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar o'quv jarayonini individualizatsiya qilish, shuningdek, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan haqiqat, onlayn ta'lim platformalari va interaktiv dasturlar, ta'lim jarayonlarini yanada samarali va

qiziqarli qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarga o'zlariga mos o'rganish usullarini tanlash va zamonaviy bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu maqolada o'rganish jarayonini samarali tashkil etish metodologiyalari va ularning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu yondashuvlarning ta'lim tizimining sifatini oshirishdagi roli va istiqbollari tahlil etiladi. Ta'lim jarayonining kelajagi, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bilan birga, zamonaviy jamiyatda ta'limning ahamiyatini yanada oshiradi.

Asosiy qism. O'quv jarayonini samarali tashkil etish metodologiyalari va ularning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu mavzuni to'liq ochib berish uchun quyidagi asosiy nuqtalarni ko'rib chiqamiz:

O'rganish	jarayonini	samarali
li	tashkil	etish
	metodologiyalari	

a. Konstruktivizm – bu ta'lim va o'qitish jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishga, ularning bilimlarini o'z tajribasi va fikrlari orqali qurishiga asoslangan pedagogik nazariya. Ushbu metoddan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, chunki u o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

•**Asosiy tamoyillar:** faol ishtirok, tajriba asosida o'rganish, o'z-o'zini boshqarish.

•**Amaliyot:** guruhli muhokamalar, loyiha asosida o'rganish.

b. Flipped Classroom (Teskari dars) – ta'lim metodologiyasi bo'lib, unda an'anaviy dars tuzilishi o'zgartiriladi. Ushbu yondashuvda o'quvchilar darsdan oldin materialni mustaqil ravishda o'rganadilar, dars davomida esa olingan bilimlarni amalda qo'llash, muhokama qilish va mustahkamlashga e'tibor qaratiladi. An'anaviy darslarni teskari o'zgartirish; uyda video darslar tomosha qilinadi, sinfda esa amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

•**Afzalliklari.** Bu metodning afzalliklari orasida vaqtni samarali boshqarish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish va individual yondashuvni ta'minlash mavjud. Flipped Classroom ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

c. Blended Learning (Aralash o'qitish) An'anaviy va onlayn ta'lim usullarini birlashtirish.

• **Afzalliklari.** O'quvchilarga o'z vaqtida va joyida o'qish imkoniyatini beradi, shuningdek, turli resurslardan foydalanishni ta'minlaydi.

d. Gamification (O'yinlashtirish). O'qitish jarayoniga o'yin elementlarini kiritish. Bu talabalarning motivatsiyasini oshiradi va o'rganishni qiziqarli qiladi. Masalan, ball to'plash, darajalar o'qitish yoki mukofotlar berish.

e. Collaborative Learning (Hamkorlikda o'qitish). Talabalar birgalikda ishlashadi, fikr almashadilar va bir-biridan o'rganadilar. Bu usul ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar metodlari ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, talabalarning qiziqishini oshirish va ularning ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ta'limning globalizatsiyalashuviga qaraydigan bo'lsak, bu zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va samarali metodologiyalarni birlashtirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy muvaffaqiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonining integratsiyasi orqali o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi, bu esa ta'lim sifatini yanada oshiradi.

Dars jarayonlariga zamonaviy yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning qiziqishini kuchaytirish va ularning ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Quyida zamonaviy yondashuvlar va ularning asosiy xususiyatlari keltirilgan:

1. Talabaga yo'naltirilgan o'qitish bu ta'lim jarayonini talabalar ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda tashkil etishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Ushbu metodika o'quvchilarni faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga va o'z-o'zini boshqarishga rag'batlantiradi. O'quvchilarni dars jarayonining markaziga qo'yish va ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va maqsadlariga mos ravishda ta'lim berishdan iborat.

2. Interfaol darslar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi ta'lim metodlari va strategiyalarini o'z ichiga oladigan darslardir. Ularning maqsadi o'quvchilarning qiziqishini oshirish, o'rganish jarayonini jonlantirish va ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Shu jumladan, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi metodlarni ham misol qilib olishimiz mumkin. Bularga muhokama, guruh ishlar, rolli o'yinlarni olishimiz mumkin. Bu esa o'z o'rnida o'zaro fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilishga imkon yaratib beradi. Shu o'rinda, rolli o'yinlarni olsak, ularda o'quvchilar turli rollarni bajarib, vaziyatlarni simulyatsiya qiladilar, bu esa o'qitilayotgan materialni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

3. Texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonlarini metodologiya bilan o'zaro integratsiyalashuviga va har tamonlama darslarni samarali tashkil qilishga o'z hissasini qo'shadi. Misol tariqasida bunga, onlayn resurslar, taqdimot dasturlari va interaktiv platformalar yordamida materiallarni taqdim etishni olishimiz mumkin.

4. Loyiha asosidagi o'qitish – bu o'quvchilarning haqiqiy muammolarni hal qilish jarayonida faol ishtirok etishiga imkon beruvchi ta'lim usuli. Ushbu metod o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va jamoaviy ish ko'nikmalarini oshirish imkonini beradi. Talabalarni haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilishga jalb qilish hamda ijodkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

5. Differensial o'qitish – bu o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda ta'lim berish jarayonidir. Ushbu usul o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, har birining o'rganish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda materiallarni taqdim etishni maqsad qilib olgan. Asosiy xususiyatlariga keladigan bo'lsak, individual yondashuvda o'qituvchi har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyatlari va ehtiyojlarini aniqlaydi va shunga mos ravishda darslarni tashkil etadi. Turli metodlar va materiallar bu yondashuvda o'qituvchi darsda turli xil o'quv materiallari, metod va vositalardan foydalanadi, masalan, vizual materiallar, audio va video materiallar, amaliy mashg'ulotlar va bosh-

qa shu kabi texnologik vositalardan foydalanib darsni tashkil qiladi hamda keyingisi o'z-o'zini o'rganish, bunda o'quvchilarga mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatlari beriladi, bu esa ularning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda o'qituvchilar turli darajadagi vazifalarni tayyorlash orqali har bir o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olishdan iborat. O'z-o'zini baholash va refleksiya esa o'quvchilarga o'z natijalarini baholash imkoniyatini, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida fikr almashishni rag'batlantirishdan iborat. Kollaborativ texnologiyalar onlayn hamkorlik vositalaridan foydalanib, talabalar o'rtasida muloqotni rag'batlantirish hamda guruh ishlarini tashkil etish va natijalarni birgalikda baholash.

Bu yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi, shuningdek,

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'tkir Yo'ldoshev, A. Abdirashidov. "Pedagogika o'qitish metodikasi" Darslik, Fan va ta'lim, "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. I. T. Aliyev. Pedagogik amaliyotlarni tashkil etish". O'quv-metodik qo'llanma. Pedagogika. "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2014, 46-bet.
3. O. M. Axmedov O. A. Ismoilov "Yangi pedagogik texnologiyalarni va ularni joriy qilish muammolari" O'quv-metodik qo'llanmalar, Pedagogika. "Fan va texnologiya" nashriyoti 2012, 36-bet.
4. B. H. Raximov "O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari". O'quv-metodik qo'llanma, Pedagogika. "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2016 Betlar 136-bet.
5. Karimova. G. O. "Zamonaviy o'qituvchi kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari" O'quv-metodik qo'llanma. "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2016, 396-bet.

Farxad BABADJANOV,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU huzuridagi

Davlat tilida ish yuritish asoslarini

o'qitish va malaka oshirish markazi

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy bo'linmasi rahbari

HUJJAT MATNLARINING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilida lingvistik ekspertiza sohasining shakllanishi, uning turlari va hujjat matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning dolzarbligi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *lingvistik ekspertiza, hujjat, hujjat matni, normativ-huquqiy hujjat, lokal normativ hujjat, boshqaruv hujjatlari, shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari, mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari.*

Annotation: this article discusses the formation of the field of linguistic expertise in the Uzbek language, its types, and the relevance of linguistic expertise of document texts.

Key words: *linguistic expertise, document, document text, normative legal document, local normative document, management documents, formal linguistic expertise studies, substantive linguistic expertise studies.*

Аннотация: в данной статье рассматривается формирование области лингвистической экспертизы узбекского языка, ее виды, а также актуальность лингвистической экспертизы текстов документов.

Ключевые слова: *лингвистическая экспертиза, документ, текст документа, нормативный правовой документ, локальный нормативный документ, управленческие документы, формальная лингвистическая экспертиза, содержательная лингвистическая экспертиза.*

Davlat tilining ish yuritish tizimida faol qo'llanilishida lingvistik ekspertiza tadqiqotlari ham muhim o'rin tutadi. Lingvistik ekspertiza sohasi o'zbek tilshunosligida yangi yo'nalish bo'lib, tilning sofligini va yaratiladigan matnlarning mukammalligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda fanlarning zamonaviy talablar va paradigmalari asosida rivojlanishi fanlararo integratsiyaga olib kelmoqda. Tilshunoslik, matnshunoslik va huquqshunoslik fanlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir nuqtada

kesishuvi natijasida, og'zaki va yozma matnlar ustida amaliy tadqiqotlar olib boradigan lingvistik ekspertiza fani yuzaga keldi. Mazkur atama ikki xil ma'noda qo'llaniladi: birinchisi, nutq mahsuli ustida o'tkaziladigan lingvistik tadqiqotlarning nomi sifatida; ikkinchisi, lingvistik tadqiqotlarni o'rganuvchi fan nomi sifatida. Lingvistik tadqiqotlarning nomi ko'pincha lingvistik ekspertiza tadqiqotlari deb ataladi. Shu bois mazkur atamani fan nomi sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Lingvistik ekspertiza fani obyektida tadqiqot olib boruvchilar tilshunoslik, matnshunoslik va huquqshunoslik kabi fanlar bo'yicha bilim va malakaga ega bo'lishi talab qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Akademik Akmal Saidov ta'kidlaganidek, lingvistik ekspertiza o'ziga xos bilim va fanlar majmuyi bo'lib, dunyo ilmiy texnik taraqqiyotida ushbu soha maxsus fan darajasiga ko'tarilgan [6].

Lingvistik ekspertiza sohasi bo'yicha xorijda, xususan, rus tilshunosligida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rus tilshunosligida Baranov A.N. [9], Brinev K. I. [10], Galyashina E.I. [11], Ivanenko G.S. kabi olimlarning, xorijda Coulthard M., Solan L.M., Huylmans H [2]. kabi ko'plab tadqiqotchilarning ishlari e'lon qilingan.

O'zbek tilshunosligida mazkur muammoga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, biroq ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar juda kam. Faqat keyingi yillarda ayrim ilmiy va uslubiy ishlar nashr etildi, dissertatsiyalar himoya qilindi. Professor Shuhrat Ko'chimovning "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish" nomli qo'llanmasi [12], I.Azimov, Z.Ro'ziyev va F.Bobojonovlar hammuallifligida yaratilgan "O'zbek tilida lingvistik ekspertiza" uslubiy qo'llanmasi [1], J.N. O'rozovning "O'zbek tili lingvokriminalistikasi" nomli monografiyasi [5], Z.Suvanovning "O'zbek badiiy matnlarini lingvistik ekspertiza qilishning nazariy-metodologik asoslari" nomli monografiyasi [8], K.Musulmonovning "O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari" nomli falsafa doktori dissertatsiyasi [4] mazkur sohadagi dastlabki tadqiqotlar hisoblanadi.

A.N.Baranov lingvistik ekspertiza xususida shunday yozadi: "Lingvistik ekspertiza – muhim faktlarni aniqlashga va mutaxassisga qo'yilgan savollarga javob olishga qaratilgan nutq faoliyati mahsullarini o'rganish jarayoni hisoblanadi. Lingvistik ekspertiza obyekt haqida tavsiflovchi bayonotlarning to'g'riligini (noto'g'riligini) yoki mumkinligini (mumkin emasligini) aniqlashga imkon beradi. Lingvistik ekspertiza amaliy tilshunoslikda lingvistik obyektlarni

o'rganish uchun ishlab chiqilgan lingvistik nazariyalar va usullarga asoslanadi" [9].

Ayniqsa, hujjat matnlari loyihalarining lingvistik ekspertizasi natijasida matnning axborot tashishdagi aniqlik va tushunarlilik darajasi ortadi, ko'plab munozarali masalalar yechim topadi.

Mamlakatimizning yanada demokratiyalashuvi, so'z erkinligi, ommaviy-axborot vositalarining keng miqyosda yoyilishi, tilning amaliy faoliyatdagi tatbiqining faollashuvi natijasida matnni lingvistik aspektida ekspertizadan o'tkazish masalasi doirasidagi amaliy ishlarga bo'lgan talab va ehtiyoj ham ortib bormoqda [5]. Haqiqatan ham huquqiy-demokratik jamiyatda har qanday muammo, har bir munozarali masala adolatli yechim topishi zarur. Ayniqsa, bugungi kunda davlat tilining taraqqiyotida hujjat matnlarining lingvistik ekspertizasi o'ziga xos o'rin tutadi.

Muhokama. Rasmiy uslubda, xususan, hujjatlar matnida adabiy til me'yorlariga to'liq rioya qilinishini ta'minlashda, shuningdek, boshqa uslublarda nutq mahsuli bo'lgan matnlar hamda og'zaki muloqot bilan bog'liq nizolarni hal qilish va xolis baholashda lingvistik ekspertiza muhim o'rin tutadi. Shu bois ham lingvistik ekspertiza tadqiqotlariga ehtiyoj kundan-kunga oshib bormoqda. Lingvistik ekspertiza xulosalariga asoslangan holda matn egasi, uning matn orqali ifodalayotgan ma'nosiga aniqliklar kiritiladi.

Muayyan nutq faoliyati mahsuli bo'lgan og'zaki yoki yozma matnlarni til me'yorlariga muvofiqligini tekshirish, imloviy va uslubiy xatolarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar berish; matnda qo'llanilgan lug'aviy birliklarning qanday mazmun ifodalashini, matn talablariga muvofiqligini, qaysi obyektga qaratilganligini aniqlash; matnda yashirilgan tag ma'noni ochib berish, matn tahriri bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, nutqiy faoliyat mahsulining huquqiy oqibatlariga doir tahlillar o'tkazish kabi muayyan maqsadlar asosida matnning shakliy va mazmuniy tahlili bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar lingvistik ekspertiza tadqiqotlari hisoblanadi.

Lingvistik ekspertiza tadqiqotlari maqsadi, mazmuni, tadqiq etilayotgan material turi va boshqa xususiyatlariga qarab bir nechta turlarga bo'linadi. Xomaki matn yoki tayyor matn ustida o'tkazilishiga qarab, lingvistik ekspertiza tadqiqotlarini ikki turga bo'lish mumkin:

1. Shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari.
2. Mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari.

Shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari matn loyihasi, tasdiqlanmagan yoki nashr etilmagan yozma xomaki matnlar, ya'ni tayyorlanayotgan

matn ustida o'tkaziladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining lingvistik ekspertizasi, nashrga tayyorlanayotgan darsliklarning yoshga doir lingvistik ekspertizasi, savdo belgisi, obyektlarning nomlari va reklama matnlarining loyihalari bo'yicha o'tkaziladigan lingvistik ekspertizalar shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari hisoblanadi. Shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlarida tayyorlanayotgan matnning imloviy, ishoraviy (puntuatsion), uslubiy va grammatik xatolari tuzatilib, matn adabiy til normalariga muvofiqlashtiriladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining lingvistik ekspertizasida matnning adabiy til normalariga muvofiqligi, aniqligi va tushunariligi, tanlangan lug'aviy birliklarning ko'zda tutilgan ma'noni bera olish imkoniyati; darsliklarning lingvistik ekspertizasida matnlarning o'quvchi yoshiga mos kelishi, ularning dunyoqarashi va til boyligiga muvofiqligi; savdo belgisi, obyektlar nomlari va reklama matnlarining lingvistik ekspertizasida matnning imloviy to'g'ri yozilganligi, milliyliigi, jozibadorligi, jarangdorligi bo'yicha ekspert tomonidan tavsiyalar beriladi. Shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari matnni tuzatish, tahrir qilish, mukammallashtirish maqsadida o'tkaziladi va ko'pincha matnning shakliy tuzilishiga o'zgartirishlar kiritiladi.

Davlat tilini ish yuritish tizimiga to'laqonli tatbiq qilishda shakliy lingvistik ekspertiza tadqiqotlarining o'рни juda muhimdir. Chunki shakliy lingvistik ekspertizada birinchi navbatda matndagi til birliklarining, ya'ni so'z va birikmalarning o'zbek adabiy tilidagi varianti tanlanadi. Jumla qurilishi va so'zlarning grammatik jihatdan shakllanishida adabiy me'yorlarga to'liq amal qilinadi. Tinish belgilarining qo'llanilishida ham imlo qoidalariga to'g'ri amal qilinishi ko'rib chiqiladi. Bir so'z bilan aytganda matn to'raligicha davlat tilida to'g'ri shakllanishiga erishiladi. Shakliy lingvistik ekspertiza davlat tilining amalda qo'llanilishini ta'minlashda muhim vositadir. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktyabrdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 662-sonli qarori bilan normativ-huquqiy hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi belgilangan.

Shakliy lingvistik ekspertiza odatda yozma matnlar ustida olib boriladi, og'zaki matnlar ustida o'tkazilmaydi.

Mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari tayyor, tasdiqlangan yoki nashr qilingan matnlar ustida olib boriladi. Amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjat matnlarining, lokal normativ

hujjatlarning va boshqa rasmiy nashrlarning, audioyozuv hamda videoyozuvlarning mazmunini tushuntirib berish, sharhlash, izohlash; badiiy yoki publitsistik matnlarda buzg'unchilik, ekstremizm, separatizm, shovinizm, egoizm g'oyalarning ilgari surilganligini (yoki bunday holatning mavjud emasligini), zo'ravonlik va axloqiy buzg'unchilikni targ'ib qilish alomatlarining mavjudligi (yoki mavjud emasligi)ni aniqlash; shaxslararo muloqotlarning video va audioyozuvlaridagi og'zaki suhbatlar mazmuniga aniqlik kiritish, suhbatdoshlarning kriminal "niqobli" so'z va iboralarining ma'nosini ochib berish; fuqarolar orasidagi nizoli suhbat matnlarida, ijtimoiy tarmoq yozishmalarida haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish alomatlari mavjudligini (yoki bunday holatning mavjud emasligini) aniqlash; ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarda, postlardagi diniy, mafkuraviy, siyosiy qarashlar ilgari surilgan og'zaki yoki yozma matnlarda nutq egasining davlat siyosiy tuzumiga, milliy davlatchilikka, davlat va hokimiyat vakillariga qarshi g'oyalarni ilgari surganligini (yoki bunday holatning mavjud emasligini) tadqiq etish; taqdim etilgan muallifi noma'lum matnlarning egasini aniqlash bo'yicha muallifshunoslik-sud filologiya ekspertizalarini o'tkazish kabilar mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlari hisoblanadi.

Mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlarida matn mutlaqo o'zgartirilmaydi, tahrir qilinmaydi, xato va kamchiliklariga tuzatish kiritilmaydi. Matn ekspertizaga qanday taqdim etilgan bo'lsa, shundayligicha tadqiq qilinib, tahlillar o'tkaziladi. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor matn mazmunini izohlashga, tushuntirib berishga, sharhlashga, yashirin yoki oshkora bo'lgan umumiy ma'noni ochib berishga qaratiladi.

Hujjat matnlari ustida o'tkaziladigan mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlarida hujjatning mazmuni, unda nazarda tutilgan ma'no oydinlashtiriladi. Aslida, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar matnlarning amaliyotga tatbiq qilishda tushunmovchiliklar yoki turlicha talqin qilishlar yuzaga kelganda hujjat matnini mazmuniy lingvistik ekspertizadan o'tkazish lozim. O'zbekistondagi amaliyotda normativ-huquqiy hujjat matni har xil talqin qilinsa, mazkur hujjatni tayyorlagan subyektga murojaat qilinadi. Biroq har qanday normativ-huquqiy hujjatda uning tashabbuskori nazarda tutayotgan ma'no emas, matndan anglashilgan ma'no hal qiluvchi natija bo'lishi kerak. Chunki qonun ijodkorlari o'zlari ko'zda tutayotgan ma'noni hujjat matnida aks ettirmagan bo'lsa, u matndan anglashilgandek tarzda talqin qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi

mumkin. Aynan shunday oqibatlar kelib chiqmasligi uchun ham normativ-huquqiy hujjat matnlarining loyihalari lingvistik ekspertizadan o'tkazish shartligini belgilab qo'yish kerak. Boshqa lokal hujjatlar yoki boshqa turdagi boshqaruv hujjatlarida matndan anglashiladigan ma'noni har xil talqin qilish holatlari uchrasa masala mutaxassisning lingvistik ekspertiza xulosasi bo'yicha yechim topishi kerak. Ko'pincha shartnoma matnlari bo'yicha bunday ikki xil talqin qilish holatlari uchraydi, biroq kamdan-kam holatlarda lingvistik ekspertizaga murojaat qilinadi.

Natijalar. Lingvistik ekspertizaning birinchi turi asosan, lingvistik bilimlarni talab qilsa, ikkinchi turi huquqshunoslik, siyosatshunoslik, dinshunoslik, psixologiya, mantiq, jestologiya (videoyozuvlar uchun) kabi fanlardan ham xabardor bo'lishni taqozo qiladi. Shuningdek, lingvistik ekspertiza nihoyatda mas'uliyatli ishdir. Ayniqsa, lingvistik ekspertizaning bir turi bo'lgan lingvokriminalistik ekspertiza xulosalariga tayanilgan holda matn egasiga turli xil ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanilishi mumkin.

Mazmuniy lingvistik ekspertiza tadqiqotlarida matnni tahlil qilish imkoni bo'lmasa-da, mazkur ekspertiza tilga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishda,

malakali tilshunos-mutaxassislar yetishib chiqishida muhim rol o'ynaydi.

Rasmiy uslubda, xususan, qonunchilik uslubida, har qanday voqea, hodisa, holat, avvalo, xolis – obyektiv realikka mos shaklda, aniq va tushunarli tarzda yuridik tilda bayon qilinishi lozim. Normativ-huquqiy hujjatlar sof qonunchilik uslubida tayyorlanganligi uchun, unda qo'llaniladigan yuridik atamalar, qonunchilik atama va tushunchalari o'z o'rnida, matnga mos ravishda, imloviy va grammatik jihatdan to'g'ri shaklda qo'llanilishi talab qilinadi.

Xulosa. Har qanday hujjat matnining aniq, tushunarli va adabiy til normalariga muvofiqligini ta'minlash uchun normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, shuningdek, idoralarning lokal normativ hujjatlari loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish davlat tilining taraqqiyotiga ta'sir etuvchi muhim omildir. Chunki davlat tilining mavqeyi uning huquqiy va boshqaruv sohalarida faol qo'llanilishi bilan belgilanadi. Ish yuritishda faol qo'llaniladigan barcha hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazib, shakliy va mazmuniy qoliplarini mukammallashtirish amaliy tilshunoslikning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov I., Ro'ziyev Z., Bobojonov F. O'zbek tilida lingvistik ekspertiza: uslubiy qo'llanma: – Toshkent: "Bookmany print" nashriyoti, 2023. 47-b.
2. Coulthard M. Author identification, ideolect, and linguistic uniqueness // Appl. linguistics.2004.Vol. 25, N 4.P. 431-447. – Bibliogr.: p. 446-447;
3. Huylmans H. Forensische Linguistik – aus der Praxis fur die Praxis // Polizei. – Koln etc., 1991. – Jg. 82, N 4. – S. 99-101.
4. Musulmonova K.X. O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. – Qo'qon: 2022. 132- b.
5. O'rozov J.N. O'zbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: "Bookmany print" nashriyoti, 2023.
6. Saidov A. Куч – адолатда. 2022-йил 9-сентябрь, 36(914)-сон: <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/m8701>.
7. Solan L.M. Author identification in American courts / L.M. Solan, P.M. Tiersma // Appl. linguistics.2004. Vol.25, N 4.P. 448-465. – Bibliogr: 464-465-p.
8. Suvanov Z. O'zbek badiiy matnlarini lingvistik ekspertiza qilishning nazariy-metodologik asoslari. Monografiya. – T.:Lesson pressm, 2023.169-bet.
9. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: Учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2007. 592-с.
10. Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза, Барнаул, 2009.
11. Галяшина, Е. И. Основы судебного речеведения : монография /Е.И. Галяшина. – М.: СТЭНСИ, 2003. 236- с.
12. Кўчимов Ш. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини лингвистик экспертизадан ўтказиш. Методик қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Юристар малакасини ошириш маркази. 2022. 26-б.

Shahzoda A'ZAMOVA,
 Qo'qon davlat pedagogika instituti
 Boshlang'ich ta'lim nazariyasi
 kafedrasida o'qituvchisi
 Gmail: azamovashahzoda700@gmail.com



TOHIR MALIKNING "ALVIDO BOLALIK" ASARIDA TERMINLARNING LINGVOKULTUROLOGIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada Tohir Malikning "Alvido bolalik" asaridagi terminlarning o'rganilishi, badiiy asarda ularning o'zaro ma'naviy munosabatlari to'g'risida mulohaza yuritilgan va fikrlar aytilgan. Asar tabiatidan kelib chiqib, hozirgi kun yosh avlodning tarbiyasi haqida ibratli mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: termin, akademiya, akademik, professor, jo'ra, ustara, koptok, sartarosh, jasad, murid, qalb, texnika terminologiyasi.

Annotation: in this article, the study of the terms in Tahir Malik's work "Farewell to childhood" is discussed, and opinions are expressed about their mutual spiritual relations in the work. given.

Key words: term, academy, academic, professor, razor, razor, ball, barber, body, murid, soul, technical terminology.

Аннотация: в данной статье рассматривается исследование терминов в произведении Тахира Малика «Прощание с детством», а также высказываются мнения об их взаимном духовном отношении в данном произведении.

Ключевые слова: термин, академия, академик, профессор, бритва, бритва, шарик, цирюльник, тело, мюрид, душа, техническая терминология.

Atoqli adib, o'zining "Shaytanat" asari bilan deyarli barcha o'zbek xonadoniga kirib borgan, xalqimiz ma'naviy kamolotiga o'z hissasini qo'shgan yozuvchi Tohir Malikdir. Uning detektiv va didaktiv usulda yozilgan asarlari, shubhasiz, o'zbek yoshlari orasida eng ko'p o'qiladigan kitoblardir. Shu o'rinda "Alvido bolalik" asarini ham mashhur yozuvchining detektiv asarlar turkumiga qo'shish mumkin.

Adib asarda har doim muhim hisoblangan "tarbiya" masalasiga e'tibor qaratgan. Asar qahramonlari ayni psixologik o'tish davrida bo'lgan o'smirlardir. Mana shu muhim paytda tarbiyasiga e'tibor qaratilmagan yoshlar jinoyatning qaytib bo'lmas olamiga kirib ketishadi. Mana shu yo'lga kirib ketgan bolalarning tilidan aytilgan gaplarni o'qib, bu bolalarga vaqtida nega e'tibor qaratilmadi, ular ham ota-ona mehriga haqli edi-ku, birinchi bor ichib kelganida otasi nega qattiqrog tegib, uning birga daydib yurgan "jo'ralari"ga diqqatni qaratmadi degan savollarni berishingiz tabiiy.

Asarni, asosan, maktab yoshidagi kitobxonlarga tavsiya qilgan bo'lardim. O'zi tengqur yoshlarning nimani o'ylashi, qilayotgan harakatlari ularga yaxshiroq tanish, ularning taqdiriga befarq bo'la olmaydi. Ular qilayotgan xatolarni ko'rib, bu ishlarni oxiri rostdan ham "voy" bo'lishini his qilib, o'zlari uchun kerakli xulosalar chiqarishlari zarur. Asror, Salim va Dilfuza singari murg'ak qalblar Qamariddin qiyofasidagi yomonlik mevasidan tatib ko'rib, yaxshi ketayotgan hayotlarini xaosga aylantirdilar. So'nggi pushaymon, o'zingga dushman deganlaridek, ularning boshi devorga qattiq urilgani, yosh kitobxon uchun unutilmas dars bo'lishi tabiiy.

Badiiy asar qay tarzda, qaysi yo'sinda yozilmasin odamlarni tarbiya qilishga ya'ni yaxshilik sari boshlab,

yomonlikdan qaytarishga xizmat qilishi lozim. Taniqli yozuvchi Tohir Malik ham yozgan asarlarining muqaddimasida shu hikmatli so'zni eslatib o'tadi: "Jisingiz qanchalik sog'lom bo'lmasin, qalbingiz maraz ekan, bilingkim, Alloh nazdida siz mitti qo'ng'izdan ham xaqirroqdirsiz". Payg'ambarimiz (s.a.v): "Ogoh bo'ling! Tanangizda bir parcha go'sht bor. Agar u sog' bo'lsa, butun jasad sog'dir. Agar buzilsa butun jasad buzuladi. Ogoh bo'ling, u qalbdir! – degan ekanlar. Donolar aytadilarki, "Sen o'zingni ko'rmoq istaysanmi, u holda ko'zgudagi tashqi qiyofangga emas, ichingdagi ko'zguga boq. Biz esa... kunda necha bor ko'zguga qaraymiz, qalbimizgachi?"

Yozuvchi Tohir Malik ayni shu qalbg murojaat qilgan. Uning "Alvido bolalik" asarida boladagi ruhiy olamni hayotiy va xayoliy kechinmalarini ochib bergan. Asardan hayot zarbalariga chidayolmasdan, uning noma'qul ko'chalariga kirib qolgan bolalar haqidagi hikoyalar o'rin olgan. Adib bu asardagi bolalar bilan yashay oldi va asar shu qadar shuhrat qozondiki, hali-hanuz muxlislar qalbidan, ongidan uning o'chmas asarlari-yu, o'lmas ruh yashamoqda.

O'zbek tilshunosligida terminlar ma'lum fan, texnika yoki kasbga xos tushunchalarni ifodalash uchun maxsuslashtirilgan, foydalanish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan birliklardir.

Adib asarda terminlardan mahorat bilan foydalangan. Masalan:

1. Meni hech qanday qarmoq ilintira olmaydi. Men u yoqda...

Qamariddin barmoqlarini panjara qilib ko'rsatdi – akademik bo'lib kelganman.

Akademik – ot. Fanlar akademiyasining haqiqiy

a'zosi biror akademiyaning oralig'iga saylangan olim, adib, rassom, haykaltarosh va shu kabilar.

Qamariddin aytadiki: "Hech kim o'z-o'zidan yomon bo'lib tug'ilmaydi, uni odamlar yomon qilib tarbiyalaydi" – deb. U nega bunday deb o'ylaydi. Aslida ham shundaymi? Ha aslida hayot bizni tarbiyalaydi. Qamariddin bolalar uyida katta bo'ldi. U ota-onasini qahramonlarcha halok bo'lgan deb o'ylardi. Afsuski unday emas edi. Onasi uni olgani kelganida buni bildi. U onasiga va muhitga bo'lgan nafrati tufayli odam o'ldirib qamaladi va asarda ta'kidlanganidek yetti yilda "Akademik" darajasiga yetadi. U yerda faqat ota-onasidan o'ch olish darajasiga yetdi.

2. "Akademiyada" orttirganlari unga qul emas, xoja edi.

Akademiya – yunoncha, u qahramon hamda Akadem nomi bilan hamda Platon o'z ta'limotidan dars bergan ilm-fan va san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori darajali olimlarga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa.

Asarda "Akademiya" so'zi qamoqxonaga nisbatan qo'llangani asarni yanada sirlilikka, kitobxonni biroz o'yg'a toldiradi. Qamoqxonada insonlar qilgan qilmishlarini yaxshilab anglab, bu yerga qaytib kelmaslikka harakat qilishadi. Qamariddin esa u yerdan qutilgach, qiladigan yovuz ishlarini rejalashtiradi. U yerda o'ziga o'xshaganlar orasida kattasi, ya'ni ular ustidan o'zicha boshliq bo'ladi. U yerda shunday narsalarni miyasida amalga oshiradiki, go'yo akademiyaning eng kuchli mutaxassislari bu akademikni o'zlarining eng yaxshi usullari bilan qurollantirganday. Adibning akademiya terminidan foydalangani tahsinga loyiq.

3. Sen oilangda "Professor" bo'lishing mumkin, lekin men u yerda...

Professor – lotincha muallim, o'qituvchi, murabbiy, oliy o'quv yurtlaridagi eng malakali o'qituvchilarning va ilmiy tadqiqot institutidagi ilmiy xodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi, shunday unvon va lavozimli shaxs.

Yuqoridagi gapda professor iborasi asarning bosh qahramonlaridan biri Asrorga nisbatan qo'llangan. Uning o'qishda ishlari yaxshi edi. Hamma fanlardan a'lochi, hatto sinf faollaridan biri edi. Uning do'mbirachilikka ham iste'dodi bor edi. Lekin dadasi bu iste'doddan noto'g'ri yo'lda foydalanar edi. Dadasi hofiz bo'lib to'ylarga, ziyofatlarga borar edi. Asror esa hamisha dadasiga hamroh edi. To'g'ri, ro'zgor tebratishda dadasiga yordamchi-da dersiz, lekin Asrorga o'zi qiziqmagan ishni qilish yoqmasdi. Ular borgan ziyofatlarda ularga ba'zan joy ham berishmas, bir piyola choyni ham ko'p ko'rishardi. Bu ham yetmaganday dadasining o'yinchi ayollarga bo'lgan munosabati Asrorga kuchli azob berardi. Qamariddin unga aytgan "Oilangda professor bo'lsang" degan gapida ham bir achchiq haqiqat yotardi. U o'z oilasining shunday zerikarli hayotidan shunday zerikkan ediki, adib ta'kidlab o'tganday "professor" darajasiga yetib borgan.

1. Deydilarki: ustara sartaroshning qutisidan zerikib tashqariga chiqibdi...

Ustara – soch, soqolni olish uchun ishlatiladigan o'tkir

tig'li dastalangan asbob. Asarda Sanjar Keldiyorovga nisbatan qo'llangan bu ustara so'zi bejiz keltirilmagan. Sanjar o'ziga to'q xonadon farzandi. Yegani oldida, yemagani ketida. Asarda u o'g'riligi tufayli Sobirov tomonidan tergov qilinadi. Lekin u dadasining puliga ishonib tergovchining savollaridan, hattoki bir kechalik qamoqdan ham cho'chimaydi. Otasi o'g'li haqidagi bu xabarni eshitib bunga ishonmaydi. Axir uning nima kami bor edi. O'g'rilik qilishga ehtiyoji yo'q edi-ku. Adib bu haqida asarda juda chiroyli ochib bergan. Ya'ni sartaroshning qutisidan qochgan ustara oftob yuziga tegib charaqlab ketdi. "Sartaroshning qo'lida xo'rlangan ekanman, endi odamlarning basharasiga surtilgan sovunni, o'siq soqollarini qirtirlash uchun qaytamanmi? Men bunga nomus qilaman!" deb yuraveribdi. Shu asnoda yomg'ir yog'ib, uning yuzini zang bosibdi. Yuzlarida oftob nuri ham yo'q edi. Sanjarni asarda bu oftob nuriga ota-onaning o'zi olib chiqdi. Uning oftobda yashnashiga o'zlari mahliyo bo'lib, yomg'irda qolganida zang bosganidan xabar topib, hayratga tushib qolishibdi.

2. Agar men bo'lmasam, qizingni ko'ptok qilib tashlashardi.

Ko'ptok – o'ynash uchun mo'ljallangan yumaloq shakldagi qattiq jism. Basketbol, futbol kabi o'yinlar uchun mo'ljallangan. Asarda ko'ptok qilib tashlashardi degan gap Dilfuzaga tegishli. Dilfuzaning otasi nogiron, onasi vafot etgan, maktabda ham baholari unchalik yaxshi emas. Dilfuza Asror bilan yaqin do'st. Ularning munosabatlarini noto'g'ri tushunganlar aybni Dilfuzaga ag'darishadi. Bunga sabab esa oilaviy muhitida deb aytishadi. Asror doim uning darsi bilan dardlashadi. Hatto Asror Dilfuzaga nisbatan qandaydir iliq tuyg'ularni sezayotgandi. Shuning uchun Dilfuzaning otasi qizimni tinch qo'y deganda u men bo'lmaganimda bolalar qizingizni ko'ptok qilishardi deydi. Ya'ni uning oilasi tufayli qizni ko'pchilik yoqtirmas, turli gaplar bilan ko'nglini og'ritishardi. Lekin Asror borligi uchun undan ko'pchilik uzoq yurishardi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, yozuvchi tomonidan asarga kiritilgan har bir termin badiiy maqsad hosilasi sifatida generator vazifasini bajargan. Bu esa o'z navbatida asarning badiiyatini ochib berishga zamin yaratgan.

Ayniqsa, jamiyatda ildiz otib ketgan poraxo'rlik, boqibeg'amlik kabi illatlar insonlar taqdirini qanchalik yomon tarafga o'zgartirishini Keldiyorovlar oilasining qismatida ko'rishimiz mumkin. Mayor Soliyev esa halol, to'g'riso'z, o'z ishini yaxshi biladigan, haqiqatdan yuz o'g'irmaydigan, sodiq qoluvchi inson sifatida kitobxon mehrini qozonadi. Shuningdek, inson umriga zomin bo'luvchi ichkilik, giyohvandlikka o'xshash illatlar insonni naqadar tuban maxluqotga aylantirib qo'yishini ham asar voqealari jarayonida kuzatamiz.

"Alvido, bolalik" asari xalqona, tushunarli tilda yozilgan. Qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar sizga, menga juda tanish, sababi biz bu so'z va iboralardan deyarli har kuni foydalanamiz. Yozuvchi ortiqcha bo'yoq va metaforadan qochgan, natijada asar juda yengil o'qiladi. Qahramonlar

tilidan o'zbek va jahon xalqlarining folkloridan o'rin olgan hikmatli so'zlardan ham o'rinli hamda unumli foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tohir Malik "Alvido bolalik" – Yangi asr avlodi: O'zbekiston, 2019. 293-b.
2. Shahzoda, A. Studying the Historical terms used in Takhir Malik's works from the aspect of Text Linguistics. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
3. D.J.Mirhojiddinova, S.D.Bakhodirovna, A.S.Otakoziyeva, A.K.Makhmudovna, U.G.Jumanovna, (2022). Peculiarities Of Studying The Linguopoetic Features Of Historical Terms In A Text Environment. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1595-1598.

Aziza ERKINOVA,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

azizaerkinova22@gmail.com

FORS-TOJIK, O'ZBEK, INGLIZ ADABIYOTI SHE'RIYATIDA "NOMA (MAKTUB)" JANRINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada fors-tojik, o'zbek, ingliz adabiyoti she'riyatida "noma (maktub)" janrining shakllanishi hamda "Noma" janrining fors-tojik, o'zbek va ingliz adabiyoti she'riyatiga kirib kelishi xalq og'zaki ijodi hamda mifologiyaning ta'siri ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, rim-yunon mifologiyasi, epistolyar she'rlar, xat almashinuvlari, Hektor, Sezarlar, "Masnaviy" usulidagi bitiklar.

Аннотация: в данной статье рассматривается формирование жанра «нома (письмо)» в поэзии персидско-таджикской, узбекской и английской литературы и внедрение жанра «нома» в поэзию персидско-таджикской, узбекской и английской литературы. Английская литература – это народные произведения, и говорят, что это влияние мифологии.

Ключевые слова: фольклор, римско-греческая мифология, эпистолярные поэмы, переписка, Гектор, цезари, надписи в стиле «Маснави».

Annotation: in this article, the formation of the "noma (letter)" genre in the poetry of Persian-Tajik, Uzbek, and English literature and the introduction of the "Noma" genre into the poetry of Persian-Tajik, Uzbek, and English literature are folk works. and it is said that it is the influence of mythology.

Key words: Folklore, Roman-Greek mythology, Epistolary poems, Letter exchanges, Hector, Caesars, inscriptions in the "Masnavi" style.

Kirish. "Noma" – forscha so'z bo'lib, "Xat", "Maktub", "Yozilgan narsa", "Farmon" ma'nolarida ishlatilgan [1: 8]. Professor Nasimxon Rahmonov tomonidan tuzilgan va nashr qilingan "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari" kitobining 2-jildida "Noma"ning asl ildizlari xalq og'zaki ijodida "Alpomish" dostonidagi yosh va go'zal Barchinoyning qalmoqlar yurtidan turib, qo'ng'iroq pahlavoni, navqiron Hakimbekdan yordam so'rab yozgan maktubi misolida badiiy ifodasini topganligi yorqin bo'yoqlarda ko'rsatib berilgan. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit-turk" asarida "Irqish" so'ziga izoh berarkan, u "Noma", "Maktub" ma'nosini berishini aytadi. "Qushug'" so'zini tilga olganida asar qahramoni Turkon xotinga yo'llangan nomani alohida qayd etib o'tadi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida Kuntug'di tog'dagi g'orda zohidona hayot kechirayotgan O'zg'urmishga uchrashish va suhbatlashishni istayotganligi haqida xat jo'natadi [2: 5-6].

"Noma" haqiqatdan qadimiy janr. Mil. avv. III asrda O'rta Osiyoda hukm surgan Botir tangriqurtning Xitoy malikasiga yozma jo'natmalari va malikaning unga

javob maktublari haqida ham mumtoz adabiyotimizda bir nechta qaydlar mavjud. Bir gap bilan aytganda "Noma"ning buyum, ishora tarzidagi shakllari, yozma xabarlar va bayonlari fors-tojik adabiyotida nasriy-nazmiy noma janrlarining yuzaga kelishi uchun zamin yaratdi. Jumladan, XI asrda yashab irod qilgan Fahriddin Gurgoniyning "Vis va Romin" dostoni qahramonlarini, ya'ni oshiq Romin va ma'shuqa Vis o'rtasidagi o'nta she'riy "Noma"ni misol keltirish mumkin. Sevgi hamda hijron azoblari ifodalangan bu nomalarni Fahriddin Gurgoniy "Dahnoma" deb ataydi. 1306-1307-yillarda Avhadiy tomonidan yaratilgan "Dahnoma" ham o'nta nomani o'z ichiga olganligi tarixiy manbalarda keltirilgan. Ana shu ikki shoirning "Noma"laridan iborat asarlari keyinchalik yangi-yangi "Dahnoma"larning paydo bo'lishi uchun asos yaratib berdi. Bu an'anani davom ettirgan Hoja Imomiddin Faqih Kirmoniy 1332-yilda "Muhabbatnoma sohibdilon" yoki "Dahnoma" kitobini bitdi. Mazkur asar "Vomiq va Uzro", "Varqa bilan Gulshoh", "Vis va Romin", "Xusrav va Shirin", "Rubob va Daf", "Bishr va Hind", "Yusuf va Zulayho" singari oshiq-ma'shuqlarning sevgisi

haqidagi qisqa rivoyatlarni qamrab olgandi. Faqih Kirmoniyning o'g'li Imod ham "Dahnoma" yozganligi to'g'risida qisqacha ma'lumotlar bor. Xullas, fors-tojik yozma adabiyotida nazm tarzidagi "Noma" janrining paydo bo'lishi XIV asrda Eron, Movarounnahr hududida fors-turk tilida qalam tebratgan ijod ahlining adabiy-badiiy aloqalarida yanada mustahkamlanishiga olib keldi [2: 94-95].

Asosiy qism. "Noma" janrdan o'sha davrda, turk qabilalarini birlashtirgan Oltin O'rda xonligida yashab, ijod qilayotgan adabiy davrlar fors adabiyotidan anchagina xabardor bo'lishgan. Ular fors tilidagi xalq og'zaki ijodi namunalari hamda yozma asarlarini yaxshi bilishlari bilan bir qatorda "Noma" janrining mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan bema'lol tadqiq qilish iste'dodiga ham ega bo'lganlar.

Shu ma'noda zullisonayn shoir Xorazmiyning masnaviy usulida bitilgan "Muhabbatnoma"si o'zbek mumtoz adabiyotidagi "Noma" janrining ilk yozma namunasi hisoblanadi. Asardagi o'n bitta noma uning tuzilishida muhim ahamiyat kasb etgan. Unda nomalar bilan birga g'azal, qit'a, fard kabi lirik janrlar ham uchraydi. Xorazmiy – XIV asrda tarixiy va forsiyda ijod qilgan shoirlardan. Uning asl ismi haligacha ma'lum emas. "Muhabbatnoma"ning dunyo yuzini ko'rishga Oltin O'rda xoni Jonibekxonning Sirdaryo muzofotidagi hukmdorlaridan Muhammad Jonibekning buyurtmasi va homiyligi sabab bo'lgan. Shu tariqa 1353-yilda ishq sevgisini sharaflagan yirik bir asar yuzaga kelgandi. Keyinchalik, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si ta'sirida Xo'jandiyning "Latofatnoma", Amiriyning "Dahnoma", "Sayyid Ahmadning "Taashshuqnoma" kabi asarlari yozilgan [3: 137-141].

Fors-tojik adabiyotidan mumtoz o'zbek adabiyotiga "She'riy maktub" ifodasida ko'chgan "Noma" janri g'arb adabiyotida ham miloddan ilgari ko'rinish berganligini alohida ta'kidlash zarur. "Xat" ma'nosini beruvchi lotincha "Epistula" so'zidan kelib chiqqan "Epistolyar she'r"lar bir kishining ikkinchi odamga yoki boshqalarga rasmiy ravishda yoki samimiy tarzda yoxud ruhiy tuyg'ularda bayon qilingan she'riy murojaatnomalaridan iborat bo'lgan va "Noma" ma'nosida tegishli shaxslarga jo'natilgan. Inchinun, mil. avv. qadimgi Rim shoiri Obidiy "Geroidlar" ya'ni "Epistular Heroidum" (Qahramon ayollar xatlari) nomli to'plam yaratgan bo'lib, bundan yunon va rim mifologiyasidagi ayollarning oshiqqlariga yo'llagan she'riy maktublari o'rin olgan. Bu "Noma"larning aksariyatida oshiqqlarning ma'shuqalariga qilgan adolatsizligi, e'tibor qaratmaganliklariga, oxir-oqibat sevgilari barbod bo'layotganligi, vujudlarini kemirayotgan sevgi-iztiroblari xat almashuvlari jarayonidagi badiiy tasvirida aksini topgan.

Ingliz shoiri Thomas Halesning 1220-1226-yillar oraliq'ida yozilgan "Sevgi maktubi" she'rida oshiq-ma'shuqlarga murojaat qilinib, ularga ishq-muhabbat o'tkinchiligi, dunyoda nohaqliklar bisyorligi, yigit-qizning bir-biriga ishq u yoqda tursin, mol-u dunyoga

hirs qo'yish ham, g'oliblik nashidalar, zafarlarning barchasi, tiriklarning umri ham vaqtinchalikligi, bu hayot yolg'onchilikdan va aldanishdan iborat ekanligi uzundan-uzun misralarda bayon qilinadi. Hatto, deyiladi she'r so'ngida, maqtoqli Hektar, Sezarlar, Parij, Yelena, Amadas, Tristram yoki Iseultlar o'z o'limlarini bir lahza ortiqcha muhabbatnomaga cho'za olmaganlar. Bir gap bilan aytganda, XII asr oxiri va XIII asr boshida yashab o'tgan Thomas Hales "Sevgi maktubi"da har qanday sevgining oxirgi chegarasi qayergacha borishini badiiy-falsafani mushohadalar orqali o'quvchilariga yetkaza olgan [4: 123]. Yunon-rim mifologiyasi ta'sirida ingliz adabiyotiga kirib borgan she'riy "Noma" janri XII–XIII asrda Thomas Hales ijodida aks-sado berganidan so'ng, XV–XVI asrlarga kelib, keyingi avlod shoirlarining ham asarlarida birin-ketin ko'zga tashlanib bordi. Jumladan, 1571-1631-yillarda yashagan Jon Donning "Rafiqamga maktub", Samuyel Danielning 1599-yilda bitilgan "Oktaviya va Mark Antonioga xat" (Letter from Octavia to Marcus Antonius) 1601-1603-yillarda yozilgan.

Ba'zi "Epistolyar she'rlar" (Epistolary poems) Aleksandr Popning 1717-yildagi "Eloisa to Abelard" (Eloizadan Abelardga) she'ri o'z kitobxonlariga yetib bordi. Ammo Yevropa adabiyotining romantik davrida epistolyar she'rlar yozish an'anasi bir muncha muddat sekinlashib qoldi. Oradan bir yarim asr o'tgach "Noma" janri ingliz adabiyotida yana uyg'ondi. 1937-yilda W.A.Auden va Louis MacNeicening "Letters from Iceland" (Islandiya xatlari), Richard Xyugoning 1977-yilda "31 Letters and 13 Dreams" (31 xat va 13 tun) she'rlarining paydo bo'lishi maktub janrining qaytadan jonlantirishiga hissa qo'shdi.

Xulosa. Demak, qat'iy aytishimiz mumkinki, "Noma" janridagi she'riyatning fors-tojik va o'zbek mumtoz adabiyotlarida hamda g'arb adabiyotida yuzaga chiqishida xalq og'zaki ijodi yoki mifologiyaning hissasi beqiyos bo'lgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, eronlik Fahriddin Gurgoniy o'zining "Romin va Vis" dostonini kiritgan "Dahnoma"si bilan "Noma"chilikni fors adabiyotiga olib kirgan bo'lsa, uni Avhadiy (1274-1338-y.) nazmiy misralarda tizilgan "Dahnoma"si orqali boyitdi va bu janrga mazmun bag'ishladi [5: 3-45]. Shuningdek, turk xalqlari og'zaki ijodidagi "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avaxxon", "Kuntug'mush" dostonlaridagi maktublarga o'xshash murojaatlar bilvosita Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kitoblaridagi "Noma" janrlariga ulanib ketdi.

Yunon-rim mifologiyasidagi "Xat" ta'riflari esa grek, italyan, ingliz shoirlarining ijodiga ko'chdi. Sharq va G'arb adabiyotidagi she'riy "Noma" janrlarining paydo bo'lishini qiyoslaganimizda ular o'rtasidagi davrlarda muayyan farqlar borligi ma'lum bo'ldi. Masalan, yunon-rim mifologiyasida "Noma" janri mil. avv. XVIII–XIX asrlarda, fors-tojik va turk xalqlari og'zaki ijodida mil. avv. III asrdan tildan-tilga o'ta boshlaganini ko'ramiz. Mazkur janrning fors-tojik, o'zbek va ingliz adabiyotida she'riy "Maktub" janri sifatida shakllanishida ham tafovutlar bor.

Forslar “Noma”ni yozma adabiyot sahifalariga XIII–XIV asrlarda she’riy tarzda joylashtirgan bo’lsalar, bu janr o’zbek mumtoz adabiyotiga ham “Muhabbatnoma”ning “Masnaviy” usulidagi bitiklari bilan kirib keldi. Endi ingliz she’riyatidagi “Noma” janriga kelsak, bunga yunon-rim mifologiyasi turtki berdi va ilk bor ingliz adabiyotida shoir Thomas Hales (1220-1226-y.y)ning “Sevgi maktubi” bilan ko’rinish berdi. Ingliz adabiyoti she’riyatida “Maktub” janri asosan XV–XVI asrlarda to’liq shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati. “O’qituvchi” nashriyoti. 1967-yil. 8-bet.
2. N.Raxmonov, H.Boltaboyev. “O’zbek mumtoz adabiyoti namunalari”. “Fan” nashriyoti, 2007-yil. 5-6, 94-95-betlar.
3. O. Nosirov, S. Jamolov, M. Ziyovuddinov. “O’zbek klassik she’riyati janrlari”. 1979-yil. 137-141-betlar.
4. Early English poems. Camrlott Press, 444-4b Pearl Street, New York. 1911. 123-S.
5. Гургани Фахриддин "Вис и Рамин". Перевод с персидского С. Лапкина. (3- 45 с <https://poets.org/glossary/epistolary-poem>)
6. <https://www.poetryfoundation.org/articles/70050/learning-the-epistolary-poem>

Aziza YUSUPOVA,
 Alisher Navoiy nomidagi
 O’zbek tili va adabiyoti universiteti
 O’zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti
azizaxonyusupova1996@gmail.com

JAHON TILSHUNOSLIGIDA KONNOTATSIYA MASALALARINING ANTROPOTSENTRIK PARADIGMA ASOSIDAGI TADQIQI

Annotatsiya: maqolada antropologik tilshunoslikning ajralmas fan sifatidagi mavqeyi, uning asosiy tushunchalari inson va til bo’lib, ularning ajralmas birligida uning “tilda inson” degan aniq ifodalanishi haqida so’z boradi. Shuningdek, mualliflar insonning kognitiv va lingvomadaniy faoliyatini antroposentrik paradigma doirasida tadqiq qiladilar, konsepsiyalash va turkumlashirishni inson ongining, kognitiv faoliyatining asosiy jarayonlari sifatida ko’rib chiqish, konsepsiyani inson aqliy faoliyatining asosiy birligi sifatida talqin qilish dunyo va madaniyatning natijasi sifatida namoyon bo’ldi.

Kalit so’zlar: *tilshunoslik, antropologiya, inson, shaxs, tushuncha, lingvomadaniyat, kognitologiya, konsept, til.*

Annotation: the article talks about the status of anthropological linguistics as an integral sci-ence, the basic concepts of which are human and language in their indissoluble unity in its unambiguous formulation “human in language”. Also, the authors investigate human cognitive and linguocultural activity in the framework of anthropocentric paradigm, the consideration of conceptualisation and categorisation as the main processes of cognitive activity of the human mind, the interpretation of the concept as a basic unit of the human mental world and as a consequence of culture.

Key words: *linguistics, anthropology, human being, person, concept, linguoculture, language.*

Аннотация: в статье говорится о статусе антропологической лингвистики как целостной науки, базовыми понятиями которой являются человек и язык в их неразрывном единстве в однозначной формулировке «человек в языке». Также авторы исследуют познавательную и лингвокультурную деятельность человека в рамках антропоцентрической парадигмы, рассматривают концептуализацию и категоризацию как основные процессы познавательной деятельности человеческого сознания, интерпретацию концепта как базовой единицы психического развития человека мира и, как следствие, культуры.

Ключевые слова: *лингвистика, антропология, человек, личность, концепт, лингвокультура, язык.*

XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi tilshunoslikning yangi lingvistik yo’nalishlari, ularning kelib chiqishi, keyingi rivojlanish istiqbollari va muammolari haqida fikr yuritar ekanmiz, albatta, quyidagi savollar bilan shug’ullanishimiz zarur. Zamonaviy tilshunoslikning mavjud ko’plab yo’nalishlaridan qaysi biri yangi, qaysi yo’nalishlar olimlar ongida yetarli darajada mustahkamlanganligi, tilshunoslikning qaysi yangi yo’nalishlari avtonom bo’lganligi, ya’ni o’z konseptual maqomiga ega bo’lganligidan kelib chiqqan.

Tilshunoslikning yangi yo’nalishlarining mavjud tabiatini hisobga olgan holda, ularning ichki uyg’unligini ta’minlaydigan narsa XX-XXI asrlar bo’sag’asida lingvistik tadqiqotlarning yetakchi yo’nalishlaridan biri sifatida

antroposentrizm yuzaga keldi. Bu davrga kelib tilshunoslikda tilning tizimi va tuzilishi, uning faoliyati va rivojlanishi haqida juda katta hajmdagi materiallar to'plangan edi. Bu esa tilning nafaqat muloqot vositasi, balki odamlarning ma'naviy va moddiy tajribasining timsoli, madaniy, ijtimoiy va tarixiy muhitning aks etishi, shuningdek, o'zaro muloqot qilish vositasi ekanligini yanada aniqroq tushunish imkonini berdi va insonlarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi.

Agar falsafada biz antroposentrizmni insonni olamning markazi va yakuniy maqsadi sifatidagi pozitsiyasi deb tushunsak, tilshunoslikda biz tilni ona tilida so'zlashuvchi "tildagi odam" pozitsiyasidan o'rganamiz. Asosiy e'tibor u yoki bu til sharoitida yashovchi shaxsning his-tuyg'ulari bilan bog'liq savollarga qaratiladi. Shaxsning bilish va ijodiy fikrlash faoliyati jarayonlari va ularning tilda aks etishi tahlil qilinadi.

I.A. Boduen de Kurtenining so'zlariga ko'ra "Til faqat bitta ongda, faqat bitta qalbdagi, faqat bitta shaxsda, balki ma'lum bir til jamiyati a'zolarining yagona ongida mavjuddir". Bu ilmiy paradigma til tadqiqotida yangi vazifalarni qo'ydi, ya'ni tilni tasvirlashning yangi usullarini, uning birlik va kategoriyalarini tahlil qilishda yangicha yondashuvlarni talab qildi.

Paradigma termini 1962-yilda amerikalik faylasuf va tarixchi Tomas Kunning mashhur "Ilmiy inqiloblar strukturasi" asarida muomalaga kiritilgan. Olim T.Kun fikriga ko'ra, paradigma o'z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo'lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g'oyalar bilan birlashgan u yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo'llaniladigan o'ziga xos metodlar va usullar yig'indisidir. Paradigma tushunchasi, odatda, Yevropada tilshunoslik fanining shakllanish vaqti deb hisoblangan hamda XIX asrdan boshlab qo'llanilgan. Umumiy tilshunoslikda 3 ta paradigma farqlanadi:

1. Qiyosiy-tarixiy
2. Sistem-struktur
3. Antroposentrik

Tilshunoslikda antroposentrik paradigma haqida dastlab quyidagilarni aytish o'rinlidir. Antroposentrik paradigma tilni uning "sohibi" bo'lgan inson bilan birga tadqiq etadi. Bu paradigmaga asoslangan tadqiqotlar markazida inson omili turadi. Ushbu paradigm XX-asrning oxiri XXI asrning boshlarida shakllana boshlagan. Ushbu paradigmaga V.Gumboldtning qarashlari asos bo'lgan. "Til eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Tilga ko'pincha aloqa vositasi sifatida qarashadi. Aslida bu tilning mohiyatini to'g'ri anglamaslik natijasida paydo bo'lgan noto'g'ri qarash. Antroposentrik paradigmanning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi sohadir. V.Z.Demyankov fikriga ko'ra, kognitiv

tilshunoslikda til strukturalarining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi subyektlar— so'zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi. Axborotning verbal bosqichga o'tishida mental tuzilma bo'lgan konsept muhim o'rinni egallaydi.

Tilshunoslikning yangi yo'nalishlari til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi, odatda yozuvsiz tillar ustida ishlashni nazarda tutadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida ilk tadqiqotlar antropologiya va tilshunoslik o'rtasida yaqin aloqalardan boshlangan edi. Bu antropologlarning Amerika hindularining madaniyati va tillari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari natijasi edi. Ushbu sohadagi dastlabki taqdiqotlar tub amerikalik guruhlarining tillari, fikri va madaniyati o'rtasidagi muhim aloqalar deb hisoblagan yangiliklarni kashf etdilar.

Inson dunyoni anglashda, undagi nazariy va obyektiv faoliyati orqali antroposentrik paradigma pozitsiyasidan idrok etadi. O'zini hamma narsaning o'lchovi sifatida anglash insonga o'z ongida narsalarning antroposentrik tartibini yaratish huquqini beradi, uni kundalik darajada emas, balki ilmiy darajada o'rganish mumkin ekanligini angladi. Insonning ruhiyati, harakatlarining motivlari va qadriyatlar ierarxiyasi uning ongida mavjud bo'lgan ana shu tartib bilan belgilanadi. Bularning barchasini odamlar nutqida eng ko'p ishlatadigan so'zlari va iboralarni o'rganish orqali tushunish mumkin.

Antroposentrik modelning mohiyati shundaki, shaxs muayyan hodisalarni o'rganish uchun boshlang'ich nuqtaga aylanadi. U ushbu tahlilda ishtirok etadi va uning istiqbollari, yakuniy maqsadlari va natijalarini belgilaydi. Misol uchun, hech bir mavhum nazariya nima uchun olov tuyg'u, sevgi alangasi, yurakning issiqligi, do'stlik harorati va boshqalar haqida gapirish mumkin, degan savolga javob bera olmaydi. O'lchov sifatida o'zini bilish va hamma narsadan insonga o'z ongida narsalarning antroposentrik tartibini yaratish huquqini beradi, uni kundalik darajada emas, balki ilmiy darajada o'rganish mumkinligi ham aynan shunda namoyon bo'ladi. Insonning ruhiy mohiyati, harakatlari, motivlari, qadriyatlar ierarxiyasi uning ongida mavjud bo'lgan ana shu tartib bilan belgilanadi. Bularning barchasini inson tilini o'rganish, serunum so'zlarni va tez-tez ishlatadigan iboralarni qay darajada ishlatishi orqali tushunish mumkin, buning uchun uni anglash kerak.

Tilshunoslarning til va inson ichki dunyosining o'zaro bog'liqligi, inson bilimlarining o'ziga xosligi, uning lingvistik aks etishi muammolari, shuningdek, tilning lingvistik tasvirlarining o'ziga xosligini aniqlashga qiziqish dunyo tilshunosligida doim barqaror va keng muammo bo'lib kelgan. Bu masalalarga qiziquvchilar uchun tadqiqotning antropologik tamoyilini Sapir, V.

Gumboldt. Y.D. Apresyan, N.D.Arutyunova, Whorf, A. Vejbitskaya, E.S. Kubryakova va boshqalar asarlarida o'rganishimiz mumkin.

V. Gumboldt "Tilni o'rganishga bo'ysunadi", degan fikrda edi. Bunda insonning bilish maqsadi va uning atrofidagi ko'rinadigan va yashirin narsalarga munosabati aks etadi. Antroposentrik yondashuv tilshunoslik fani obyektiga bugunidan to uning tarixigacha "lingvistik shaxs"ni kiritishni nazarda tutadi.

Antroposentrizm tamoyillari turlicha talqin qilinganiga qaramay, olimning pozitsiyasi turlicha o'zgarganligi aniqlangan. Til elementlarini tafakkur qilishni, ularni inventarizatsiya qilish va tasniflash orqali tilshunoslikda o'rganilgan hodisalar inson nuqtayi nazaridan kelib chiqadi. So'nggi bir necha o'n yilliklarda milliy va xorijiy tilshunoslik rivojlanar ekan, tilshunoslik o'zining paradigmasini o'zgartirib, inson tilni yaratuvchi va ishlatuvchi ekanligini diqqat markaziga qo'ydi. Boshqacha qilib aytganda, bu yangi yondashuv antroposentrizmdan xabar berdi.

Antroposentrik paradigma g'oyalari va muammolariga mos ravishda tilshunoslik tadqiqotlari natijasida lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, psixolingvistika kabi yo'nalishlar paydo bo'ldi va muvaffaqiyatli rivojlandi. Til va madaniyatni o'rganishda, tilning barcha sohalari va jihatlarini qamrab olgan antroposentrizmning tadqiqot obyektlari va predmetlarida ham, maqsadlarida ham ushbu ikki alohida til yo'nalishi o'rtasidagi aloqa nuqtalarini birlashtiradi va ularga har xil turdagi tushunchalarni o'rganish vazifalarini beradi.

Antroposentrizm yo'nalishida "tushuncha" atamasi "inson ongidagi madaniyat bo'lagi, madaniyatning inson aqliy olamiga kirib borish shakli va yaratuvchisi bo'lmagan oddiy qismi" sifatida tavsiflanadi. Aslida, etnosemantik konsepsiya shaxsning tabiiy til semantikasi tizimining tashuvchisi, uning asosiy, milliy va madaniy prototipi sifatida tasdiqlaydi.

Til juda murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Ushbu haqiqatni aniq qilish uchun u bir nechta tasvirlar shaklida taqdim etilgan:

- til inson tili sifatida;
- til lingvistik oilaning a'zosi sifatida;
- til qurilish materiali sifatida;
- til sxema sifatida;
- til belgi sifatida;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вежбиская А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1997.
2. Краткий словарь когнитивных терминов / Э.С.Кубрякова, В.З.Демьянков, Ю.Г.Панкрас, Л.Г.Лузина. – М.:1966.
3. Горелов И. Н. Основы психоллингвистики. – М.: 1997.224-с.
4. Safarov SH.Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax:Sangzor, 2006.
5. Джусупов Н. М. Лигвокогнитивные аспекты исследования символа в художественном тексте: Автореф. дисс... канд. филол. наук.
6. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol. Fanlari

- til fikr makoni sifatida;
- til "aql uyi" sifatida.

XX asr oxirida tilga "madaniyat mahsuli, uning muhim tarkibiy qismi va mavjud bo'lish sharti, madaniy kodlarni shakllantirish omili" sifatida ham qaraldi. Tilga oid tadqiqotlar natijasida, tilga nisbatan yangicha munosabatlar, yangi maqsadlar, yangi asosiy tushunchalar va yangi metodologiyalar vujudga keldi. Shu tariqa, antroposentrik paradigmaning paydo bo'lishi til muammolarini shaxsga va shaxsning madaniyatdagi o'rniga qaratishga olib keldi, chunki madaniyat va madaniy an'analarning diqqat markazida butun til shaxsi turadi.

Hozirgi vaqtda lingvistik shaxsni o'rganishda turli xil yondashuvlar mavjud. Lingvistik shaxsning jismoniyligi, lingvistik shaxsning ijtimoiyligi, lingvistik shaxsning intellektualligi, lingvistik shaxsning hissiyligi va hokazo. Avvalo, bu atama tilning tashuvchisi sifatida, uning so'zlash qobiliyati sifatida, mohiyatan lingvistik shaxs sifatida tushuniladi. Bu, shuningdek, muloqot qilish uchun tildan foydalanadigan shaxsning og'zaki xatti-harakatining xususiyatlari to'plami, ya'ni kommunikativ shaxs sifatida tushuniladi. Antroposentrik tilshunoslikda "til shaxsi" deganda ma'lum bir tilda so'zlashuvchining asosiy milliy-madaniy prototipi tushunilishi mumkin. U asosan lug'aviy tizimda mustahkamlanadi, munosabat asosida yaratilgan o'ziga xos "semantik maydon"ni vujudga keltiradi, qadriyat ustuvorliklari, xulq-atvor reaksiyalari lug'atida aks ettirilgan holda yuzaga keladi. Shuning uchun antroposentrik paradigma insonni birinchi o'ringa qo'yadi va tilga insonning asosiy xususiyati, eng muhim elementi sifatida qaraladi.

Yillar mobaynida qilingan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, madaniyat va til kesishmasida vujudga kelgan antroposentrik qarashlar, ular insonda mavjud, ular insonga xizmat qiladi va ular insonsiz hech qanday ma'noga ega emas degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Lingvistik madaniyatshunoslik zamonaviy tillarning antroposentrik paradigmasining "mahsuloti"dir. Til shaxsi va lingvistik konsepsiya uning asosiy kategoriyalari bo'lib, ular tabiiy tilning umumlashtirilgan so'zlovchisining mentalitetini aks ettiradi va ushbu ilmiy fanni "odam so'zlovchi" prototip qiyofasini qayta qurish uchun tadqiqot vositasi bilan ta'minlaydi.

nomzodi... diss. – T.: 2008.

7. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. – T.: Mumtoz so'z, 2008.59-b.

8. Problems of media discourse, grammar and intercultural communication in Russian journal of linguistics, 2018,

9. Kulikova E. Brusenskaya L. Zhebrowskaya L. Текст научной статьи по специальности "Языкознание и литературоведение"

10. Sayakhmet S. Kushegenova I. Tumanova A. Language personality in domestic and foreign linguistics: Concept, status, typology.



Yorqin DJO'RAYEV,
Chirchiq pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

BADIIY ASARLARNING FALSAFIY-PSIXOLOGIK TAHLILI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING O'QUV- BILUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: badiiy asarlarning falsafiy-psixologik tahlili vositasida o'quvchilarda o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishning metodik jihatlari va motivatsiyani qanday rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Adabiyot darslarida o'quv-biluv motivatsiyasining shakllantirish nazariyasi va metodik usullari tavsiyasi berilgan.

Kalit so'zlar: falsafiy-psixologik tahlil, motivatsiya, ehtiyoj, o'quv-biluv, ta'lim olish.

Аннотация: средствами философско-психологического анализа художественных произведений показаны методические аспекты формирования учебно-познавательной мотивации у учащихся и способы развития мотивации. Дана рекомендация по теории и методическим методам формирования учебно-познавательной мотивации на уроках литературы.

Ключевые слова: философско-психологический анализ, мотивация, потребность, обучение-познание, получение образования.

Annotation: philosophical and psychological analysis is a methodological analysis of a person's motivation, aimed at shaping his thinking and motivation. At the same time, as with other methods, this method uses motivation techniques and motivation theory.

Key words: philosophical and psychological analysis, motivation, need, training, educational work.

Adabiy asarni mutolaa qilib, o'quvchi yozuvchini anglashni, asar qahramonlarining hayotini tahlil qilishni o'rgansa, bevosita sinfda ijodiy muhit paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. 6-sinfda G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi falsafiy-psixologik tahlili orqali o'quvchilar motivatsiyasini shakllantirish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

... *Shu ondayoq xayr-xo'shni nasiya qilib biyobonga yo'l soldim. Osmon uzoq, yer qattiq edi. Qayerga ketib borayotganimni o'zim bilmas edim. Oldinda biror mo'ljallagan niyatim ham yo'q edi. Darbadarlikdan, o'zimning simobday beqaror sayoqligimdan juda o'kinar edim. Salgina bosiq, salgina o'yinqaroq bo'lmasam, hammaning ham nonini tuya qilib bera olar edim. Ust-boshim but, qornim to'q, qayg'um yo'q bo'lar edi. Xayr, mayli, endi afsusning foydasi yo'q.*

Tahlil jarayonida dastlab mazkur tanlab olingan

parchada yozuvchi asar qahramoni yashayotgan zamon va uning xarakterini turli bo'yoqlar orqali mahorat bilan ifoda etganini o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazish uchun "Osmon uzoq, yer qattiq" naqlining mohiyatini anglatish, bugungi kun bilan asardagi voqealar gavdalangan zamoni taqqoslash qissaning falsafiy tomonini ko'rsatadi. Simobday beqaror, sayoq, o'yinqaroq kabi so'zlar orqali yozuvchi "shum bola" dagi ruhiyatni ko'rsatib bergan. Zamonning og'irligi, uning ustiga sho'x, o'yinqaroq yetim bolaning pul topish uchun qayerga ketayotganligini bilmasdan yo'lga o'tlanishi o'quvchida savollar tug'ilishiga sabab bo'lishi kerak. Asardan xulosa chiqarishni o'rgansa, yetim bolaning qilayotgan ishi to'g'ri yoki noto'g'riligini tahlil qilsa, o'quvchi o'zi uchun kerakli xulosani oladi.

Asar tahliliga o'quvchini olib kirish uchun

quyidagicha topshiriqlarni uyga ijodiy ish qilib berish mumkin.

1. Asardagi “shum bola”ni qanday tasavvur qilyapsiz? Uni dadangiz yoki onangizga tasvirlab bering va har birining tasavvurini so‘rab o‘zingizniki bilan qiyoslang. Asar qahramoni haqidagi tasavvuringizda nimalar o‘zgardi?

2. Asarning “Shum bola” deb nomlanishi to‘g‘rimi? Sizningcha, qanday nomlanishi kerak edi?

3. Boyning shum bolaga “xizmat haqi uchun oyiga xom-pishiq aralash, ona sutidan halol ikki pud o‘n yetti qadoqdan olma” berishi adolatdan edimi? Mazkur lavha o‘sha davrdagi xalqning, jumladan, bolalarning turmushi haqida qanday tasavvurlar uyg‘otdi?

4. Oila a‘zolaringiz bilan shum bola va boy obrazini gavdalanitiring. Boyning “innaykeyin” degan so‘roqlariga zamonamizga mos holda javob bering. Keyin asardagi og‘ir zamon bilan taqqoslang.

Ushbu ijodiy topshiriqni bajarish barobarida o‘quvchi oilasiga asar ruhiyatini olib kiradi, zamoni qiyoslashni o‘rganadi. Asarning nega “Shum bola” deb nomlanganligini biladi. O‘zida o‘qishga nisbatan motivatsiya paydo bo‘ladi, tasavvur qilishni o‘rganadi. O‘qituvchining samarali ishlashi uchun maksimal moslashuvchanlikka intilish; o‘quvchilar ehtiyojlariga empatiya, sezgirlik qobiliyati; o‘qitishga shaxsiy ta‘sir ko‘rsatish qobiliyati; o‘quvchilar bilan oson (norasmiy) muloqot uslubini o‘zlashtirish; hissiy muvozanat, o‘ziga ishonch, quvnoqlik kabi shaxsiy fazilatlar zarur bo‘ladi. Shu o‘rinda “Shum bola” qissasiga quyidagicha dars ishlanmasi tuzish mumkin.

Darsning mavzusi: G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasini o‘rganish.

Darsning maqsadi:

a) **Ta‘limiy maqsad:** o‘quvchilarga “Shum bola” qissasi haqida ma‘lumot berish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati, asarni tahlil qilishga o‘rgatish, nutqini o‘stirish;

b) **Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarni ona yurtga muhabbat ruhida tarbiyalash, mardlik, sadoqat, ezgulik, mehnatsevarlik, to‘g‘ri gapirish kabi fazilatlarini shakllantirish;

c) **Rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarda qiyinchilikda to‘g‘ri qaror chiqarish, oilaga sadoqat kabi motivlarni shakllantirish.

Fanga doir tayanch kompetensiyalarning qo‘llanilishi:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: mavjud axborot manbalari kitob, tasvirni uzatish vositalari, internet, lug‘at, ma‘lumotnomalardan o‘quv maqsadlari doirasida foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish;

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi: shaxs sifatida ma‘naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma‘naviy ehtiyojga aylantirish; o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish,

vataniga, oilasiga, sinfdoshlariga hurmat, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera bilish.

Dars turi: o‘quvchilarga yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: “Domino” usuli, “Insert” usuli, “Begonasini top”, savol-javob, test, sayohat usuli.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: G‘.G‘ulomning portreti, darslik, “Shum bola” asari kitobi, kompyuter, proyektor, tarqatma materiallar.

Dars shiori:

Barkamol avlod bo‘lib,

El-yurtga xizmat qilish,

Kitobni e‘zoz aylab

Vatanni yuksaltirish.

Darsning borishi:

I. **Tashkiliy qism.**

O‘qituvchi darsni O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobidan olingan quyidagi so‘zlar bilan boshlaydi.

“Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul eka-di? Undan ko‘ra sholg‘om eksa qozoniga tushadiku! Odamzod nima uchun kitob o‘qiyotib, suyukli qaxramoni o‘lib qolsa yig‘laydi? Uni yozuvchi ichidan to‘qib chiqarganini biladiku! Odamzod nima uchun o‘zga yurtlarga borib behisob mol-dunyo orttira-yu, ittifoqo bolaligi kechgan kulbasi tushiga kirib qolsa, tuni bilan yig‘lab chiqadi? Axir u shohona qasrda yashaydi-ku! Odamzod nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go‘dak alla eshitmasa uxlamaydimi?” Gap shundaki, odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi “MA‘NAVIYAT” deb ataladi!

Aziz o‘quvchilar sizning ana shunday yuksak ma‘naviyat sohibi bo‘lishingizni tilab, bugungi darsimizni boshlaymiz. Sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linadi. I guruh **“Mehr”**, II guruh **“Oqibat”** deb nomlanadi. O‘quvchilarning dars davomidagi ishtiroki rag‘bat kartochkalari yordamida baholab boriladi.

II. **O‘tilgan mavzuni takrorlash.** O‘tilgan mavzuni takrorlash domino o‘yini orqali amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilarga tarqatmalar tarqatiladi. Birinchi savolni o‘qituvchi o‘qiydi. Savolning javobi yozilgan tarqatma egasi, avval javobni, keyin o‘zining tarqatmadagi savolini o‘qiydi.

III. **Yangi mavzu:**

Asarni o‘qishdan avval o‘quvchilarning shum bola haqidagi fikrlarini bilish maqsadga muvofiqdir. Ularning qarashlari umumlashtiriladi, asarni tushunishga tayyorlash bosqichi amalga oshirilishi lozim. Buning uchun darslikda keltirilgan savollar bilan ishlash mumkin:

O‘ylab ko‘ring: “shum bola” deganda qanday bolani tasavvur qilasiz? “Shum bola” va “sho‘x bola” o‘rtasida qanday farqlar bor?

Mahallangizda yoki sinfdoshlaringiz orasida ham shum bolalarni uchratganmisiz?

Ularda boshqa bolalarga o'xshamaydigan qanday xususiyatlarni kuzatgansiz?

Shundan so'ng asar haqida quyidagi ma'lumotlar aytib o'tiladi: "Shum bola" qissasi: Asar 1936-yilda yozila boshlangan bo'lib, 1960-yillarda qayta nashr etilgan, asar dastlab "Dovdirash" nomi bilan yaratilgan. Keyinchalik "Shum bola" deb o'zgartirilgan. Qissaning bosh qahramoni shum bola – Qoravoydir. U ishlab pul topib kelish maqsadida bir necha kunga uyidan arazlab chiqib ketadi va bu sarguzashtlar olti oyga yaqin davom etadi. Bu davr mobaynida shum bola Toshkent atrofidagi bir necha shaharlarda rizqini yig'ib yuradi. Uning Toshkent atrofidagi qishloqlarda kechadigan sarguzashtlariga sarguzasht ulanib, yarim yildan ortiq davom etadi. Mana shu vaqt mobaynida Shum bola bir-biridan qiziq voqealar ishtirokchisiga aylanadi. Pochchasi avaylab boqayotga qimmatbaho qushlarga qatiq, suzma ichirib harom o'ldirib qo'yadi, do'sti Omonga qo'shilib, Sulton o'g'ri boshchiligidagi

kissavurlar bilan tunni o'tkazadi, ko'chmanchilar ovulida o'lik yuvib sharmanda bo'lishadi, masjid imomining og'ilxonasida o'sallab qolgan ho'kiz o'rniga soppa-sog' eshakni so'yib qo'yib rosa kaltak yeydi va hokazo.

Asarda qo'llangan rangin o'xshatishlar:

1. "Sirlangan xumchaga tushgan sichqon-day to'rt tomonga alanglab, o'zimga bir najot yo'li qidirar edim".
2. "Xuddi qorong'u kechada qora palos ustidan qora chumolining qora ko'zini qidirishday qiyin edi".
3. "Qolgan besh qo'yni qidirish quduqqa tushgan nozik munchoqni qidirish bilan barobar edi".
4. "Ora-chorada tor ko'chalar yo'limni to'sib qolsa ham, tulki quvlagan tovuqday sakrab ketar edim".

Shu singari asarda keltirilgan o'xshatishlar tahlili asar qahramonining psixologik holatini namoyon qiladi. O'quvchi asar mazmunini anglaydi.

"Kim epchil-u kim chaqqon!" o'yini

1-guruh

(5 daqiqa)

"Shum bola" qissasidagi Qoravoy ishlatgan yolg'onlarni tartib bilan joylashtiring

1. Dandon sopli pichoqning sinishi;
2. Tozi itning o'limi;
3. Otning o'limi;
4. Og'ilxonaga, qo'rg'onga, omborga o't ketishi;
5. Bo'riboybachchaning o'limi;
6. Adol opaning farzand ko'rishi;
7. Tug'ilgan chaqaloq xuddi Badal aravakashga quyib qo'ygandek o'xshashi.

2-guruh

(5 daqiqa)

Asardagi shum bola tilidan aytilgan iboralarni sharhlang?

1. "Mol sotganda aybini aytib sotmoq"
2. "Xudo urgan ziqna bo'lmang"
3. "Onasini uchqo'rg'onda ko'rmoq"
4. "Berdisini aytgancha shoshilmaslik"
5. "O'pkasini uzib yubormang"

T

IV. Mustahkamlash. Darsni mustahkamlashda "Debat" usulidan foydalaniladi.

O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi va ulardan shum bolaning ijobiy va salbiy tomonlarini yoritib berishlari talab etiladi. Birinchi guruh shum bolaning ijobiy tomonlarini, ikkinchi guruh esa salbiy jihatlarini matnga tayanib ochib berishadi.

V. Uyga vazifa berish, o'quvchilarni baholash va yakunlash.

O'qituvchi quyidagi she'r bilan darsni yakunlaydi:

**O'lsa o'zi o'lar so'zi o'lmaydi,
Hamisha barhayot nasl shoirlar.
Haqiqiy shoirning qabri bo'lmaydi,
Yurakka ko'milar asl shoirlar.**

O'quvchilarni baholab, yig'ilgan kartochkalar orqali g'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa: G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi to'liq matnini o'qib o'rganish.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning badiiy matn ustida ishlashga bo'lgan motivatsiyasi muvaffaqiyat va optimal shaxsiy rivojlanishga erishishda hal qiluvchi omildir. Ular falsafiy-psixologik tahlil jarayonida duch kelinadigan muammolarga qarshi turishda ko'proq diqqatni jamlaydi, qat'iyatli va g'ayratli bo'lishga asos sanaladi. Misol tariqasida quyidagi jadval asosida o'quv-biluv motivatsiyasining shakllanish yo'llarini ko'rishimiz mumkin.

7-sinf adabiyot darsligi asosida Xalq ta'limi vazirligi tavsiyasiga asosan tuzilgan "O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma"da berilgan Anton Chexovning "Garov" hikoyasi falsafiy-psixologik tahlili asosida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish metodi:

Falsafiy qarashlar	Psixologik yondashuv	O'quv-biluv motivatsiyasi
<p>– Ziyofatga ko'plab aqli salim, orif mehmonlar tashrif buyurishgan va ko'p maroqli suhbatlar bo'lgandi.</p> <p>– Darvoqe, kechada o'lim jazosi haqida bahslashdilar.</p> <p>– nasoro diniga e'tiqodda bo'lgan xalqlar uchun badaxloq hamda sharmandalik deb topishdi.</p> <p><i>Voqeaning sababi bo'lgan "Ziyofat" va unga to'plangan "aqli salim, orif" kishilarning "o'lim jazosi" haqida bahslashishidan vujudga kelgan "garov" haqida o'quvchilarga tushuncha berish va falsafiy qarashlarni kengaytirish. Asarning tub mohiyatini anglatish.</i></p> <p>Garovda qamoq muddati 1870-yil 14-noyabr kunduz soat 12 dan 1885-yil 14-noyabr kunduz soat 12 gacha belgilandi.</p>	<p>– Bekorlarni aytibsiz! Hoynahoy, siz umrbod qamoq jazosini yengil hisoblayotgandirsiz. Keling, garov o'ynaymiz: siz kazematda besh yil ham o'tira olmaysiz!</p> <p>– Buni jiddiy aytyapsizmi?</p> <p>– keskin javob qildi yosh huquqshunos. – Bo'pti, o'ynaganim bo'lsin. Men u yerda besh yil emas, o'n besh yil o'tira olaman!</p> <p>– O'n besh yil! Nahotki? Siz-a? – xitob qildi bankir.</p> <p>– Janoblar, men garovga ikki million tikaman!</p> <p>– Roziman! Siz millionlaringizni, men bo'lsam o'z erkimni tikaman! – dedi huquqshunos.</p> <p><i>Garovning kelib chiqishi, shirakayf odamlar, balandparvoz gaplar, qiziqqonlik kabi xislatlar. Bir yosh insonning 15 yil yolg'iz kazematda o'tirishiga sabab bo'ldi.</i></p> <p>Ba'zan kechalari u tuni bilan uxlamasdan allanimalarni yozib chiqar</p>	<p><i>O'quvchida falsafiy-psixologik tahlil qilish orqali asarning tub mohiyatini tushunish, shirakayf qiluvchi narsalar ichmaslik, garov bog'lamaslik, lafzida turmaslik kabi illatdan uzoq yurish.</i></p> <p><i>Har qanday tushkun holatdan chiqish uchun kitob mutolaa qilish, til o'rganish kabi motivlarni hosil qiladi.</i></p> <p><i>Huquqshunosning o'n besh yil ichida o'rgangan ilmi va odamlarning yaxshi yashash maqsadida qilayotgan turli makr-hiylalari, nomardliklari, ikki yuzlamachiliklarga borishini tushunish orqali kelajak hayotida qanday inson bo'lishi kerakligini tushunib</i></p>

Tutqunning kitob mutolaasiga kirishishi, falsafa, tarix, diniy kitoblarni muqaddas kitob Injil (Bibliya)ni, "Dinlar tarixi" va "Ilohiyot"ni, Bayron va Shekspir asarlariga yopishib mutolaa qilishi, turli chet tillarni, huquq ilmini o'rganishi uni tamomila yetuk insonga aylantirganligi o'quvchining kitob o'qishga bo'lgan qishiqishini tarbiyalaydi.

O'ldirishga chog'langan bankirning xatni o'qigach mohiyatni anglashi va o'zgarishi kabi voqealardan o'quvchilarda falsafiy anglashishga mushohada etishga erishiladi

va tongga yaqin bitiklarining hammasini mayda-maydalab yirtib tashlardi. Goho uni yig'lab o'tirgan holda ko'rishardi.

Huquqshunosning mutolaasi halokatga uchragan kema parchasiga yopishib olgan kishi holatiga o'xshardi.

Yo'q, bunga toqat qilolmayman! Xonavayron va sharmisor bo'lishdan qutulishning birdan-bir yo'li – huquqshunosning o'limidir!

Chorbog' qorong'i va sovuq edi. Yomg'ir yog'ardi. Shiddat-la esayotgan rutubatli shamol vahimali shovullab, daraxt shoxlarini silkitib o'ynardi.

Huquqshunosning o'n besh yilni o'tkazishi holati, bankirning esa ikki million pulni bermaslik va garovda yutqazmaslik uchun qabih niyatda o'ldirishni chora deb bilishi. O'quvchining beozor huquqshunosni o'ldirmoqchi bo'lgan bankirning qora niyatidan qaytarish kabi hislar paydo bo'ladi.

yetishi.

Tahlilni yuzaga keltiruvchi turli savol va topshiriqlarni berish orqali o'quvchilarning munosabatini, mohiyatni anglashiga ko'ra rag'bat ballarini olishi ham o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantiradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. *Huquqshunos tashqi qiyofasini va ichki olamini tasavvur qilib ko'ring. Nima deb o'ylaysiz, unga garovga tikilgan pul kerakmi?*
2. *Tabiat tasviriga e'tibor bering. Muallif nega aynan shunday manzarani tanlagan deb o'ylaysiz?*
3. *Sizningcha, bankirni faqat ikki millionni yo'qotish tashvishga solyaptimi?*
4. *Siz huquqshunosning o'rnida bo'lganingizda nima qilardingiz?*
5. *Yillar o'tib ozodlikka chiqqan huquqshunosni ozodlikda qanday ishlarni amalga oshiryapti deb o'ylaysiz?*

Badiiy asarlarning falsafiy-psixologik tahliliga oid ijodiy topshiriqlar vositasida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni anglab yetganda muammoli vaziyatni yaratish, bu muammoni o'rganish, yangi narsalarni o'rganish istagini keltirib chiqaradi. Masalan, Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasidagi ushbu parchaga o'quvchilar e'tiborini qaratish maqsadga muvofiq:

Men har safar Munavvar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro'y bergan bu og'ir voqea emas, dilimda sal ma'yus va iliq hislar uyg'ongan yoz kuni esimga tushadi .

Ularga "Muallif qanday og'ir voqea haqida hikoya qilib beradi deb o'ylaysiz?" tarzidagi fikrlashga undovchi savollar berish asar mohiyatini anglashga sabab bo'ladi. "Og'ir voqea", "ma'yus va iliq hislar" kabi jumalalar ma'nosini tushunish uchun o'quvchi asarni mutolaa qilishga tushadi, savollarga javob berishga, ijodiy izlanishga intiladi. Aqliy zo'riqish qanchalik aniq bo'lsa, motivatsiya shunchalik samarali bo'ladi.

2) adabiy asarlar tahlilida o'yin va jumboq kabi ko'ngilochar vazifalardan foydalanish. Ushbu tadbirlar, odatda, oddiy va ko'p vaqt talab qilmaydi. Bunday vazifalarning maqsadi o'quvchilarni darslarga tezda jalb qilishdir. Ammo ular darsdan chalg'itmasliklari kerak.

3) badiiy asar tahlili orqali munozaralar olib borish. Bunda o'quvchilar tahlil qilinayotgan asar haqida o'z

fikrlarini bildirishadi. Natijada fikrlar xilma-xilligi shakllanadi.

4) darslikda berilgan adabiy asarlar asosida ijodiy loyihalarni amalga oshirish. Masalan, uyda asar haqida tushungani bo'yicha insho, taassurot yozish, mak-tub bitish va hokazo.

5) ijodiy topshiriqlar. Masalan, 6-sinfda "Xalq og'zaki ijodi" bo'limini o'tishda xalq qo'shiqlari haqida ma'lumotlar yig'ish va ijrosini audioshaklda yozib kelish, yig'ilgan materiallarni sinfda muhokama qilish hamda Power Point dasturi, Canvas tizimi imkoniyatlari asosida taqdimot tayyorlash vazifasi orqali o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Adabiyot darslarida shu singari ijodiy topshiriqlarni berib, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish va o'quv motivatsiyasini shakllantirish mumkin. "Zero, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o'z-o'zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkuri, o'z nuqtayi nazariga ega bo'lmagan o'quvchi ijodkor bo'la olmaydi, mustaqil faoliyat yuritilmaydi" .

Albatta, har bir o'qituvchi turli metodlar asosida, sinfda o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasini oshiradigan o'z texnikasidan foydalanadi. Ularning barchasi o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish va rag'batlantirish vositasi sifatida ishlaydi. Natijada, har bir o'quvchi uchun ijtimoiy va o'z-o'zini tarbiyalash motivlarini rivojlantirishga zarur sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 20-bet.
2. Mirzayeva Z, Komilov J. 7-sinf adabiyot darsligi//O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T., 2022. 168-174-bet.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'limning 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 34-bet.
4. Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1998. 42-bet.



Shozod NORMURODOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

IMOM MOTURIDIY VA U MANSUB BO'LGAN TARIXIY-ILMIY MUHIT TASVIRI

Annotatsiya: tarixiy janrda yaratilgan asarlar badiiy adabiyotda eng asosiy mavzulardan biri sanaladi. Tarixiy o'tmishda sodir bo'lgan voqealar, yaqin yoki olis o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlar yaratish esa badiiy adabiyotning muhim vazifalari sirasiga kiradi. Jahon adabiyoti taraqqiyotida ham tarixiy roman alohida o'rin tutadi. Chunki, tarixiy voqea-hodisalarni haqqoniy, izchil, hujjat va manbalar asosida tasvirlash yozuvchidan katta mahorat talab etadi. G'arb va Sharq badiiyatida ham tarixiy roman o'z mavqeyiga egaki, bu turkumdagi romanlar qaysi yurt bo'lmasin, o'sha mamlakat o'tmishidan darak beradi. Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romani ham tariximizda muhim o'rin egallagan allomaning hayot yo'lini o'rganish va o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *Luqmon Bo'rixon, Moturidiy, tarixiy muhit, xarakter, ziddiyat.*

Annotation: historical works are one of the main themes in fiction. Creating works dedicated to events that occurred in the historical past, historical figures who lived in the near or distant past is one of the important tasks of fiction. The historical novel occupies a special place in the development of world literature. Because it requires great skill from a writer to depict historical events truthfully, consistently, based on documents and sources. The historical novel has its place in Western and Eastern art, since the novels in this series reflect the past of this country, whatever it may be. Lukman Borihan's novel "Imam Moturidi" is also important in studying and teaching the life path of a scientist who occupies an important place in our history.

Key words: *Lukman Borihan, Maturidi, historical environment, character, conflict.*

Аннотация: исторические произведения являются одной из основных тем в художественной литературе. Создание произведений, посвященных событиям, произошедшим в историческом прошлом, историческим личностям, жившим в ближайшем или далеком прошлом, является одной из важных задач художественной литературы. Исторический роман занимает особое место в развитии мировой литературы. Потому что от писателя требуется большое мастерство, чтобы правдиво, последовательно, на основе документов и источников изобразит исторические события. Исторический роман имеет свое место в западном и восточном искусстве, поскольку романы этой серии отражают прошлое этой страны, какой бы она ни была. Роман Лукмана Борихана «Имам Мотуриди» также важен в изучении и обучении жизненному пути учёного, занимающего важное место в нашей истории.

Ключевые слова: *Лукман Борихан, Мотуриди, историческая среда, персонаж, конфликт.*

Ma'lumki, asar Somoniylar hukmronligi davridan hikoya qiladi. Asarning muqaddima qismi Somoniylar davlatining "bir qalqib tushishi" bilan boshlanadi. Ya'ni amir Ahmad ibn Ismoil o'z saroyida xoinona o'ldiriladi. Asarning bunday boshlanishi bejiz emas. Sababi Ahmad Ismoil davrida ilm-fan bag'oyat gullab yashnagan edi. Amirning o'zi ham ilmga va xiradmand kishilarga xayrixoh bo'ladi. Bu voqealar asnosida Imom Moturidiy taxtni egallagan bosqinchilarga isyon sifatida madrasaga bormay, u yerdagi tolibi ilmlarga dars berish o'rniga o'zi tug'ilib o'sgan Moturid qishlog'ida qoladi. Mana shu kichik detall orqali yozuvchi Ahmad Ismoildan keyin nafaqat davlatda, balki ilm-ma'rifatda ham o'zgarish yuz berganini, saroyini ilmlilar tark etib, johillar egallab olganini, o'z mavqeyidan foydalanib, musulmonlar o'rtasida o'zaro adovat solayotganini ko'rsatib beradi.

Har qanday jamiyatda insonlarning turli axloqiy va ijtimoiy sifatlarga egaligi shaxslararo ziddiyatlarga

olib keladi. Shaxsning qaysi muhitda shakllanganidan qat'iy nazar, u ayni paytda o'zi mansub bo'lgan jamiyat qonun-qoidalariga munosabat bildirishi kerak bo'ladi. Shu sababli uning qarashlari boshqalarning fikrlash tarzi va hayotiy tutumlariga mos kelavermaydi. Ushbu holatlar ichki konfliktga sabab bo'lishi ham mumkin. Bunda inson o'z e'tiqodiga sodiq qolishga urinadi. Ammo muhit uni jamiyat standartlariga moslashtirishga majbur qilmoqchi bo'ladi. Imom Moturidiy mansub bo'lgan tarixiy muhit diniy-aqidaviy konfliktlarga to'la edi. Musulmonlar turli mazhab va oqimlarga bo'linib olib, Islom dini, uning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karim va hadisi sharif mazmunini noto'g'ri talqin qilishar va musulmonlar o'rtasiga diniy qutqu solishar edi. Ammo ana shunday beayov nizolardan o'zining mustahkam diniy qarashlari va mukammal e'tiqodi bilan Imom Moturidiy va uning safdoshlari omon chiqqan bo'lsa, muhit ta'siriga tushib qolgan Idris Shomiy, Vosiq La'liylar bu kurash qurboniga aylandi.

Luqmon Bo'rixon romanining bosh qahramonlari etib real tarixiy shaxslarni olar ekan, ularning xilma-xil to'qnashuvlarida nutqning dialog shaklidan, ruhiy kechinmalar, o'z olamidagi ziddiyatlarda esa monologlardan unumli foydalanadi. Shuning uchun bu asarda til xarakterga, xarakter esa tilga o'tadi. Bunday dialektik qonuniyat romandagi dialog va monologlarda, personajlarning o'zaro to'qnashuvlarida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Yozuvchi tarixiy shaxslar siymosini yaratar ekan, davr muhitining murakkab, ziddiyatli qirralarini obrazlar tizimi orqali ochib beradi.

Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romanida qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlar zamirida diniy konflikt yotadi. Ushbu asarga so'zboshi yozgan O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'ofurov buni quyidagicha izohlaydi: "Muallif o'z romanida o'sha zamonlar avj olgan diniy-ilmiy, ilohiy nuqtayi nazarlar juda keskin bayon qilingan munozaralar muhiti va oqimlarini ichidan ko'rsatadi, iymon-e'tiqod o'sha davr kishilari uchun qanchalar hayot-mamot qadar ahamiyatli bo'lganiga e'tibor qaratadi". [1]

Imom Moturidiy yashab, faoliyat yuritgan o'sha davrda mu'taziliya, jabariya, murjia, xorijiyalar, jahmiya kabi adashgan oqimlar faoliyat yuritishar edi. Ular o'z maqsadiga erishish uchun asosan yoshlardan, madrasa talabalaridan foydalanishardi. Misol uchun, asarning boshidagi ushbu tasvirga e'tibor qaratamiz.

– Hali peshing'a Parvondag'i masjidd'ga kirgan chog'imiz, bir mudarrisnamo kishi menga qarab g'alati so'z aytdi, – dedi past bo'yli, burni puchuq talaba.

Sallasi ixcham o'ralgan, qora qoshlari tutash sherigi unga ajabsinib tikildi.

– Ne dedi?

– Men ne qilsam, amalimni o'zim yaratgaymen, binobarin ixtiyorim to'la o'z ilkimda, qabilinda so'yladi.

– Bu mo'tazila qavmig'a xos so'zlar, – deb gapni ilib ketdi tag'in bir talaba, – alar ilk uchratgan ahli ilmg'a biror bahona ila mazkur shiorni aytgaylar, agar uchratgani bosh irg'ab tasdiq etsa, o'z qavmidin ekanligini anglab mamnun bo'lgay, agar norizo qarasa, yelka qisib uzoqlashgay, mabodo angrayib tursa, ani avrab o'zig'a tobe etmoqqa uringay.

– Sen angrayib qolmadingmu ishqilib? – so'radi kinoyali ohangda o'sha tutash qosh talaba.

– Albatta, angraydim, – soddalarcha tan oldi pakana tolib, – chunki so'zlari ma'nosini anglay bilmadim, so'ngra, beodoblik bo'lmasun deb, Alloh safaringizni bexatar qilsun, deya takalluf etdim. Talabalar q'llarini og'izlariga tekkizib past ovozda kulishdi. Xattot Nuriy ham miyig'ida jilmayib qo'ydi.

– Ey, angraymay, hushyor yurgil, tag'in jabariya, murjialarg'a yo'liqib qolmag'in, – deb tanbeh bergan bo'ldi o'sha tutash qosh, – madrasamizg'a qaytganga qadar seni boy berib qo'ymayluk". [2]

Bundan ko'rinadiki, islom ta'limotini o'rganishga

endigina kirishgan va hali ilmiy va hayotiy tajribasi oz insonlardan o'z maqsadida foydalanish, uni o'z yo'lga ag'darib olish juda oson kechadi. Va o'sha vaqtdagi mavjud yanglish diniy oqimlar ham ayni shu yo'ldan borishadi. Chunonchi, islom dushmanlari tomonidan dinni kuchsizlantirish uchun turli firqalarga bo'lib yuborish niyatida mu'taziliylarning tashkil etilishi, ularning, o'zlarini chin musulmon hisoblagan holda, barcha aqidaviy hukmlarni aql va mantiq qoliplari doirasida izohlashga urinishi dinga zarar ekani Moturidiy tomonidan asoslab beriladi. Tushunish va tushuntirish mumkin emasligi payg'ambarlarga ham aytilgan ruhning mohiyatini mu'taziliylarning mantiq bilan izohlashga intilishi, albatta, kufrga olib kelishini Abu Mansur kundalik tirikchilikdan oddiy misollar yordamida asoslaydi. Misol uchun, Imom Moturidiyning "Madrasayi Peshvoz" talabalari bilan bo'lgan muloqotini eslaylik.

– Ma'lumki, mo'tazilaning ko'pchiligi gunohi kabira qilgan kishi na kofir, na mo'min, deyishadi, alarga munosabatingiz, ustoz?"

– Yo'q, gunohi kabira qilgan kishi kofir bo'lmas, – deya javobga kirishgan edi ustoz Abu Mansur, – balki, shu noma'qul amali uchun qattiq gunohkorga aylanadi, tavba qilmasa, qiyomat kuni mazkur gunohlari uchun javob bergay".

– "... – Balki, qat'iy harom sanalmish amalni halol deb e'tiqod qo'yish, haromning harom ekanin inkor etish kishini iymondan chiqaradi va bunday kishi kofir bo'ladi. Inchunin, cho'chqa go'shtini yegan kishi, modomiki aning haromligin inkor aylab, halol deya e'tiqod qo'ymas ekan, u kofirg'a do'nmag'ay, balki, qattiq gunohga qolgay. Ammo kishiki garchi cho'chqa go'shtini yemasa ham aning haromligin inkor aylab, ani halol deb e'tiqod qo'ysa, u kishi kofir bo'ladi" [3].

Luqmon Bo'rixon qahramonlarini o'zaro, o'z-o'ziga va muhit bilan ziddiyatli kurashlarda tasvirlar ekan, haq va haqiqatning mavjudligi, ezgulikning barqarorligi va yovuzlikka jazo borligiga ishora qiladi. Bunda muallif Imom Moturidiyning konfliktlar markaziga qo'yish orqali uning bosh qahramon maqomiga munosib ekanligini bir karra tasdiqlaydi. Abu Mansurning bolalik va o'smirlik davrlaridagi do'sti Vosiq ibn Qosim asardagi asosiy qahramonlardan biridir. Yozuvchi romanning ilk sahifalaridayoq uni Moturidiy obraziga qarama-qarshi qo'yadi. Bu hol, ayniqsa, ularning turli tabaqaga mansub oila farzandlari ekanligida yaqqol ko'rinadi. Lekin ayni holat dastlab ikki do'stning munosabatlariga raxna sola olmaydi. Keyinchalik oliy dargoh – Madrasayi Peshvozidagi mudarrisning Abu Mansurni barcha talabalardan ko'ra ko'proq ardoqlashlari Vosiq ibn Qosim yuragini kuydirgan hasad olovini o't oldirib yuboradi. Quyidagi monologda konflikt vositasida qahramon ruhiyati ochib beriladi: "Ha, men qarddon birodarimga hasad qilardim, buni bilganmen, – deya o'yladi Vosiq ibn Qosim hanuz chirkin kunda ustida

besaranjom o'tirarkan, – ammo o'zimni bilmag'anga olganmen. Aslida, uni dam sayin, kun sayin yomon ko'ra boshlaganmen, va lek doimo do'stona iljayib turganmen" [4].

Uning do'stiga bo'lgan ichki nizosidan mu'taziliylar unumli foydalanishadi. Muallif qahramon tilidan bu narsalarni shunday izohlaydi.

"Ey, Qosim ibn Fazl! – o'z-o'ziga xayolan xitob qildi Vosiq La'liy vazmin, lanj qadamlar ila madrasa sahniga chiqarkan, – sen salkam bir yil o'sha kitoblarni o'qiding, o'zingcha nelarnidir anglag'an bo'lding, Tusiylar safidan joy olding. Ey, Imomi La'liy, endi rostini so'yla-chi, murod-maqsaading chindan ham haqiqat edimu? Chindan ham islomg'a quvvat berish asl niyating edimu? Yo'q, aslo! Sen avvalo Muhammadga g'olib kelmoq bo'lding! Undan-da ortig'roq obro', sharaf izlading. Shonu shavkat, sardorlik, mansab-martaba, boylik orzuying edi. Illo, alarga erishding. Va lek ko'ngling charog'onmu? Sen Muhammadning izmidan chiqmoqchi eding, ammo o'zgalor izmiga tushmadingmu, orqa ayog'iga aylanib qolmadingmu?" [5].

Muallif davriy muhitni qahramonlar o'rtasidagi va ruhiyatidagi ana shunday konfliktlar orqali tasvirlaydi. Asar markazida turuvchi qahramonlardan yana biri Idris Shomiy bo'lib, uning to'qnashuvlarga to'la hayoti muallif tomonidan ishonarli tasvirlanadi. Otasining musulmonlar tomonidan o'ldirilganligiga guvoh bo'lgan yosh Aron "Muqaddas fitna" yordamida Idrisga aylanadi. Shu kundan boshlab, u ushbu guruh maslaklarining targ'ibotchisi va tashviqotchisi sifatida musulmon e'tiqodiy qarashlariga qarshi zimdan kurasha boshlaydi. Ayni shu kurash uning Imom Moturidiy bilan konfliktga kirishishiga sabab bo'ladi:

"To'satdan yo'lga bir raqib chiqqanday bo'ldi. U dinda, e'tiqodda Imomi A'zam Abu Hanifa mazhabini mahkam tutgan, Bag'doddagi ash'ariylarga maslakdosh Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy edi. Uning taqvosi, obidligi, bilimdonligi tildan-tilga ko'chib yurardi. Idris Shomiy ilk bor Havori amirdagi yig'inda Imom Moturidiyning mahobatini, ulug'vorligini his etgan edi" [6].

Luqmon Bo'rixonning mahorati shundaki, u qahramonlararo ziddiyatlarni yuzaga keltirgan sabablarni ifodalashda detallardan unumli foydalanadi.

"Detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya'ni u hamisha predmetlilikni ko'zda tutadi), detallarning birikuvi natijasida o'sha obraz ko'z oldimizda butun holda namoyon bo'ladi" [7]. Masalan, roman personajlaridan biri Xolid Xalajning Imom Moturidiy bilan ziddiyatga kirishishiga sirli maktub sabab bo'ladi.

"Dunyoyi dunni zer-u zabar aylashi mumkin, biroq qog'ozdagi zer-u zabarga yuzlansa, boshi aylanib, ko'zi tinadi"gan Samarqand hokimi Xolid Xalaj taqdiri

misolida ilmsizlikning ulkan fojialarga olib kelishi ko'rsatiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, romanda qahramonlararo ziddiyatlar zamirida diniy konflikt masalasi yotadi. Yunon falsafasini o'zlariga maslak qilib olgan mu'taziliylar mantiq ilmini zo'r berib targ'ib qiladilar. Islomni to'la-to'kis anglamagan musulmonlar ularga ko'r-ko'rona ergashadilar. Natijada din bo'yicha ularda nomaqbul qarashlar va savollar paydo bo'ladi. Ushbu vaziyatda mu'taziliylarga qarshi maydonga Imom Moturidiy boshchiligidagi ahli sunna val jamoat keladi.

Moturidiy o'z nutqlaridan birida mantiq ilmi xatolar, adashishlar manbayi ekanligini va eng muhimi, barcha murosasiz qarama-qarshiliklarning asosida mazkur mantiq ilmi yotishini ta'kidlaydi. Shuningdek, mantiqni Haqqa olib boradigan yagona yo'l deya hisoblagan kishilarning ko'pxudolikka e'tiqod qilganliklari va mushrik holda yashab o'tganliklarini ham aytib o'tadi.

Somoniylar hukmronligi davrida ilm-u fan, madaniyat, adabiyot va san'at gullab-yashnagani haqida ko'plab mo'tabar tarixiy asarlardan ma'lum. Romanda jonlantirilgan amir Ahmad Somoniy obrazi ham ilmga, ham e'tiqod masalalariga nechog'lik e'tiborli ekanligi, ham Moturidiy mansub muhitni baqadri imkon ro'yi- rost aks ettirishga xizmat qiladi. Yozuvchi Ahmad Somoniyning jonli lavhalarda aks ettirish orqali barcha hukmdorlar ham yovuz, johil va ilmdan yiroq bo'lmasligini, hukmdori ilmi, adolatli davlatda yolg'on haqiqatdan ustun kelolmasligini, xalqni bir-biriga dushman qilishni istagan guruhlar muqarrar jazo olishini ko'rsatib beradi. Ahmad Somoniyning darveshona libosda hazrati Moturidiy ziyoratiga kelib, u yerda hazrat bilan qilgan suhbatiga e'tibor qaratamiz.

"Abu Mansur supa yoniga qaytdi. Hanuz atrofni sinchkov ko'zdan kechirib turg'on mehmonga mulozamat qildi.

"Supamizga marhamat, inim. Darvoqe, ulovingiz qayda qoldi?"

Darvesh supa chekkasiga o'tirar ekan jilmaydi.

Axir ilmning qoshiga ulovda kelmoq beodoblik bo'lur. Yayov ermas, hatto emaklab kelmoq durust sanalur" [8].

Ushbu jumalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, amir ilmni o'zining martabasidan ham yuqori sanamoqda. Hatto, ilm qarshisida o'zining kimligini ham unutib, "yayov emas, emaklab kelsa ham arziydi", demoqda.

Xulosa qilib aytganda, ushbu inja tasvirlarning o'zi ham zamona hukmdorining ilmga nechog'lik xayrixohligini ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek Imom Moturidiy mansub tarixiy muhit diniy konfliktlar zamirida tasvirlangan. Asarda ko'pincha qahramonlararo konflikt sodir bo'ladi. Konfliktning ushbu turi vositasida ijtimoiy muhit bilan shaxs ziddiyati sabablari ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'rixon L. Imom Moturidiy. –T.: “Adabiyot”, 2022.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. –T.: “Fan”, 1978-1979.
3. Boboiev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –T.: “O‘zbekiston”, 2002.
4. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. –T.: “A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 2004.
5. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
6. Yo‘ldoshev Q. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022. 30-iyul №154.
7. Belinskiy V. G. Adabiy orzular. –T.: “G‘afur G‘ulom”, 1977.101-bet.
8. Ulug‘ov A. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. – T.: “G‘.G‘ulom”, 2017.
9. Karimov G‘. “Tarixiy romanlarda til va uslub masalalari”. –T.: “Sharq yulduzi”, 1979.

Shaxzoda NURILLAYEVA,
QarDU Yoshlar bilan ishlash
bo‘limi tyutori mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEK TILIDA ODOB –AXLOQNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TALQINI

Annotatsiya: dunyo tilshunosligida milliy o‘zligini asrab qolishga intilayotgan har bir xalq uchun ma’naviyat masalasi alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa, axloq masalasi har bir millat uchun hayotiy zaruratga aylanib borayotganligini kuzatish mumkin. Bugungi kunda lingvoma’naviyatshunoslik yo‘nalishidagi muammolardan biri shaxs axloqiy sifatlari va uning millat taraqqiyotidagi o‘rni masalasini tadqiq qilishdir. Bugungi globallashuv davrida “odob-axloqqa doir leksemalarning” semantik tarkibi, til tizimidagi o‘rnini belgilash orqali shaxs axloqiy sifatlarining lisoniy tabiatini o‘rganishni taqozo etadi.

Ushbu tadqiqotimizda o‘zbek tilida odob-axloqni ifodalovchi birliklar frazemalar shaklida qo‘llanishini misollar yordamida yoritib o‘tdik.

Kalit so‘zlar: *frazema, odob-axloq birliklari, salbiy ma’no, ijobiy ma’no, lingvomadaniy birlik.*

Аннотация: в мировом языкознании проблема духовности приобрела особую значимость для каждого народа, стремящегося сохранить свою национальную самобытность. В частности, можно заметить, что вопрос нравственности становится жизненной необходимостью для каждого народа. Сегодня одной из проблем направления лингводуховных исследований является исследование нравственных качеств человека и его роли в развитии нации. В современный период глобализации семантический состав «моральных лексем», определяя его место в языковой системе, требует изучения языковой природы моральных качеств человека. В данном исследовании мы объяснили использование единиц выражения манеры в узбекском языке в виде словосочетаний с помощью примеров.

Ключевые слова: *фраза, этикетные подразделения, негативное значение, позитивное значение, лингвокультурные единицы.*

Annotation: in world linguistics, the issue of spirituality has become especially important for every nation striving to preserve its national identity. In particular, it can be observed that the issue of morality is becoming a vital necessity for every nation. Today, one of the problems in the direction of lingo-spiritual studies is the investigative of the moral qualities of a person and his role in the development of the nation. In today's globalization period, the semantic composition of "moral lexemes", by determining its place in the language system, it requires the study of the linguistic nature of the moral qualities of a person. In this study, we explained the use of units expressing manners in the Uzbek language in the form of phrases with the help of examples.

Key word: *phrase, etiquette units, negative meaning, positive meaning, lingo-cultural units.*

O‘zbek tilida odob-axloqni ifodalovchi birliklar frazema shaklida qo‘llanishi yoki ularning tarkibida frazemalar qatnashishi mumkin. Frazemalar emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lganligi hamda subyektiv munosabatni kuchli ifodalashi sababli bunday birliklar ham mazmunan, ham uslubiy jihatdan ta’sirchanlikka ega bo‘ladi. Qiyoslang: kelin-kuyovning fe‘l-atvori bir-biriga mos bo‘lsin! Kelin-kuyovning yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelsin!

O‘zbek tilida odob-axloqni ifodalovchi shunday sodda gaplar borki, ularda lingvomadaniy axloqning aynan uning tarkibidagi frazema ma’nosidan anglashiladi. Bunday gaplarda kesim ibora bilan ifodalanganligi sababli,

gap mazmunan ekspressivlikka ega bo'ladi. Masalan: Naziraga ko'z tegmasin, juda suluv bo'libdi. (S.O'nar) lloyim bolalarim unib-o'ssin, ularga ko'z tegmasin! (M.A'zamov)

O'zbek tilida "uyatli holatdan holi bo'lmoq" ma'noli Yuz(i) yorug' bo'ldi frazemasi lingvomadaniy axloq birligi sifatida ham qo'llaniladi: qizim, baxtli bo'!! Borgan joyingda yuzing yorug' bo'lsin! (Gazetadan) Do'st-dushmanning oldida yuzimiz yorug' bo'lsin! (A.Dilmurodov)

"Bir-biriga mos bo'lmoq" ma'noli Yulduz(i) yulduz(i)ga to'g'ri kelmoq frazemasi ham gapda kesim vazifasida kelib, odob-axloq mazmunini reallashtirishga xizmat qiladi: "Yulduzi yulduziga to'g'ri kelsin-da", - dedi tashvishlanib onam. (M.A'zamov) Bu nikohga o'zing rozi bo'lding. Endi yoshlarning yulduzi yulduziga to'g'ri kelsin! (I.Rahim)

O'zbek tilida odob-axloqni ifodalovchi birliklar tarkibida qo'llanuvchi yana bir frazema "voqelikka aylanmoq" ma'noli Ro'yobga chiqmoq iborasidir. Ro'yobga chiqmoq frazemasi duolar tarkibida qo'llanib, so'zlashuv uslubida ko'p qo'llaniladi: niyatlaring(iz) ro'yobga chiqsin! Alloh barcha orzularingizni ro'yobga chiqarsin! (So'zlashuvdan). Misollardan ko'rinadiki, odob-axloq birliklarida qo'llanuvchi frazemalarning aksariyatida ijobiy faoliyat ma'no qirrasini mavjud. Shu sababli bunday iboralar odob-axloqni ifodalovchi gaplarda, asosan, kesim vazifasida keladi. Ko'z(i) tegmoq frazemasi salbiy faoliyat ma'no qirrasiga ega bo'lganligi bois gap tarkibida fe'lning bo'lishsiz shaklida qo'llanib, -ma affiksi hamda -sin shakli ko'z tegmoq iborasini ijobiy ma'no bildiruvchi birlikka aylantirishga xizmat qilgan.

Ma'lumki, frazemalar ma'nosi ma'lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ustama ko'chma ma'nodir. O'zbek tilida shunday odob-axloq mazmuniga ega bo'lgan gaplar borki, ularning mazmunini ham ustama mazmun deyish mumkin. Odatda xalq topishmoqlari, maqollarni tashkil qilgan gaplar ham shunday mazmunni tashiydi. Ustama mazmunli odob-axloqning ijobiy ma'noli lingvomadaniy birliklari tilimizda barqarorlashganligi hamda mazmunni obrazli ifodalashi bilan frazemalarga o'xshab ketadi. Masalan: tup qo'yib, palak yozsin, Ol(ing)-u, oldirma(ng), hamyoni(ng)ga Xizr nazar solsin, tuproq olsa(ng), oltin bo'lsin, tili bilan teng aylansin jumalari duolar tarkibida qo'llanib, lingvomadaniy axloqning ijobiy mazmunini

bildiradi.

Tup qo'yib, palak yozsin jumlasini yangi turmush qurgan yoshlarga nisbatan aytilib, "oila mustahkam bo'lsin, yoshlar bola-chaqali bo'lsin" ma'nosini beradi.

Ol(ing)-u, oldirma(ng) jumlasidan esa "ishing muvaffaqiyatli bo'lsin, muvaffaqiyatsiz bo'lmasin" mazmunini anglashiladi.

Hamyoni(ng)ga Xizr nazar solsin jumlasini "puli ko'paysin, boy bo'lsin" istagini beradi.

Tuproq olsang, oltin bo'lsin gapi ham "har bir ishda katta yutuqqa erishsin" mazmunini ifodalaydi.

Tili bilan teng aylansin jumlasini qaynonaga qarata aytilib, "olgan keliningiz juda epli, chaqqon bo'lsin" mazmunini beradi.

O'zbek tilida marhumlarga nisbatan aytiladigan birliklarda ham lingvomadaniy axloqning ijobiy mazmunini ifodalanadi. Bular marhumlar haqida yomon so'z aytmaslik odatidan kelib chiqqan birliklar bo'lib, ularning ayrimlari metaforik mazmun ifodalaydi. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Qorong'i go'ri yorug' bo'lsin. Og'ir tuprog'i yengil bo'lsin. Ushbu jumalar orqali "marhum go'rida qiyalmasin" mazmunini anglashiladi.

Hur qizlarga hamroh bo'lsin. Nomayi a'molini o'ng tarafdan bergan bo'lsin. O'qigan duolarimiz (marhumning) boshiga soyabon, oldiga dasturxon bo'lsin.

Yuqorida keltirilgan duolarning barchasidan "marhum u dunyoda aziyat chekmasin" degan ijobiy istak mazmunini anglashiladi. Bu borada S.Mo'minovning quyidagi fikri o'rinli: "Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat aholisining o'ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o'rganish mumkin emas".

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatdiki, bu kabi jumalardagi mazmun metaforik mazmundir. Bunday birliklarning mazmunini jumlaning propozitiv strukturasi bilan shartli ravishda bog'langan bo'ladi. Ularning tinglovchi tomonidan qabul qilinishida esa umumiy lingvistik bilimlardan tashqari, qiyoslash, o'xshatish, obrazli tasavvur qilish kabi ekstralingvistik omillar ham talab qilinadi. Metaforik mazmunli odob-axloqning lingvomadaniy ijobiy ma'no ifodalovchi birliklari mazmunini ekspressiv ifodalashi bilan ajralib turadi. Ulardagi bu xususiyat sintaktik konnotatsiyaning maxsus o'rganish obyekti bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев А. Фразеологизмларнинг экспрессив хусусияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 1976.
2. Абдуллаев Ж. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари. – Т., 1994.
3. Йўлдошев Б. Фразеология терминидан лавҳалар. – Самарқанд: Сўғдиёна, 1998.
4. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри дисс. ... автореф. – Т., 2000.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1978.
6. Усмонова Ш. Фразеологик бирикмаларда маъно ва қурилиш муносиблиги // Ўзбек тили ва адабиёти. -1998. - №1. – Б.77-78.

Ro'zixon MAVLONOVA,
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani faxriy
o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi



KO'NGIL OVI AZMI QARORI YOXUD JON NISOR UL SAYYOD UCHUNKIM... (Adabiyot muallimlari e'tiboriga taqdim)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibidagi "Qaro ko'zum"dan keltirilgan baytni to'ldiradigan, uni izohlaydigan boshqa misralarni taqdim etishga harakat qilingan. G'amzada, hino, it kabi obrazlar ham tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo'shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo'shildi.

Kalit so'zlar: takovar, samand, bag'ir qoni, jon rishtasi, hino, g'amzada, rishtai jon.

O'ylaymanki, sarlavhani o'qiboq bu jumla tanishdek tuyuldi va xotiradan izlana boshladingiz... Yanglishmadingiz, u haqiqatan, Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azalidagi 3-baytning birinchi misrasiga o'xshash mazmunda. Bayt esa quyidagicha:

**Takovaringg'a bag'ir qondin hino bog'la,
Itting'a g'amzada jon rishtasin rasan qilgil.**

Sezdingizki, bu galgi suhbatimiz mana shu misralarda aks etgan obrazlar borasida. Demak, birinchi misra **takovar** so'zi bilan boshlangan. U adabiy tilimizdagi ot. Gap adabiy qahramonlar mingan ot haqida borar ekan, ko'z oldimizdan Afrosiyob, Rustam (raxsh), Alpomish, Farhod, Shirin yoki Layli mingan otlar o'ta boshlaydi. Otlarni rangi yoxud fe'liga qarab **samand** (ko'k xolli ot), **abrash** (oq-qizil, oq-qora ot), **ablaq** (qashqa, ola-bula ot), **tavsan** (sho'x, o'jar o'ynoqi ot), **raxsh** (yugirik qizil ot), **axshab** (kulrang ko'k ot), **takovar** (chopqir tulpor) kabi nomlar bilan atashgan. Ko'rinadiki, misradagi yor oti shunchaki ulov emas, balki himoyaga maxsus o'rgatilgan samand ekan. Mahbuba ana shu otiga ma'shuq bag'ir qonidan hino istamoqda...

**Surdi ko'nglimni buzib xoki tanim uzra samand,
Yelga berdi tufrog'in, bu uyni vayron aylagach.**
(97-g'azal)

Navoiy ijodidagi ikkinchi devonning 83-g'azali "ot" radifli g'azal bo'lib unda, jumladan:

**Chobukim qatl uchun surdi yana maydong'a ot,
Odame qolmas tirik solg'on zamon javlong'a ot.
Bordurur ma'niki shoyad qolg'on erkin bir kishi,
To aning jonin ham olg'aykim surar har yong'a ot.**

**Har kishini qatlim aylar o'larmen rashkidin,
Vahki, bir ham yongilib so'rmas meni hayrong'a ot.**

**Ne balo qattig' ko'nguldurukim qatl el qonig'a,
Ot surar surg'on masallik lolau rayhong'a ot,**
deydilar ma'ni piri.

Baytlar mazmunidan ko'rinadiki, yor oti nafaqat jangovar ot, uning o'zi ham To'maris, Qurbonjon

dodxoh singari qaytmas va jasur suvoriy ayol kabi ekanligi ayonlashmoqda. Bu g'azal afsona emas. Demak, o'sha davrlar tarixida ham shunday jangovar ayollar bo'lganligi tabiiy. Axir, har qanday badiiy to'qima ortida ham tarixiy haqiqat mavjud-ku... Shoir shu tarixiy voqelikni badiiy tilda tasvirlab bermoqda, xolos...

Navoiy bir g'azalida: **"Vahkim, g'ami hajring oqizur qon jigarimdin"**, – deganlaridek, navbatdagi so'z **"bag'ir qoni"** birikmasi bo'lib, u istifodada ko'pincha **yurak** so'zi bilan birga: "yurak-bag'rim kul bo'ldi", "yurak-bag'rim qonga to'ldi", "yurak-bag'rimni xun qilding" tarzida **qo'shalashib** yuradi. Amalda yurakning ham, bag'irning ham bosh vazifasi qonni haydash, tozalash, haroratini saqlash. Ko'pincha, g'azalda yor ishqidan tanga bir chaqin tushgach, undan bag'ir harorati oshib yurakka tushgan bu ishq barqi ofati shu'lasi oshiq jismiga yuz ming balo yog'diradi. Ma'shuqasi visoli uchun har ishga tayyor oshiqni yor g'ami, hajr, ayriliq ofatlari qiynab ne balo kelsa ham, uni yengishga hozir oshiq sevimli manzura ko'yi tomon qat'iy ahd bilan yo'l soladi... Kutilmaganda esa uning qarshisidan jangovar otdagi suvoriy sifat bir mahbuba **iti hamrohligida** chiqib keladi. U ham o'z qalb **e'tiroflarini** shunchaki duch kelgan oshiqqa in'om etmoqchi emas. U ishq yo'lida sinov, imtihon (balo) va kurash (riyozat) tarafdori. Firoq, hijron sabab oshiqning g'ami, ishq xastaligi o'zining shunday haddi a'losiga yetganki, endi u tanini qiynayotgan otlig' bag'ir hirqatidagi hino ranglik qaynoq xunni yor otiga surtish uchun berishga shay... Bu ham kamlik qilsa: "Azob-u iztiroblardan bezovta **pajmurda jonni** qachongacha tanga bog'lab o'tiraman, o'sha g'amzada jon ipini ol-da, itingga rasan qila qol", – demoqda. Shoirida shunday **jon rishtasi** haqida yana:

**Labi xayolida bag'rim shigofin tiksam,
Alifdin igna qilur jon rishtadin ipagi.**(635-g'.)
*Navoiydin fano chun hosil o'ldi, qilg'asen, ey ishq,
Navoiy rishtai jonin mug'anniy udining tori.*(624-g'.)

Tarozu – bargi gul, ip – rishtai jon, tosh – la' etti,

Chekarda xozini hikmat labing yoquti miqdorin.
(489-gʻ.)

Ishq gʻam bazmida egri qaddima jon rishtasin,
Tor etib soz ayladi koʻnglim chekar afgʻon uchun.
(466-gʻ.)

Ey Navoiy, jism aro jon rishtasin tutqil aziz,
Kim bori loʻlivashim labi uchun asbob erur. (140-gʻ.)
Xullasin, xunobliq jon rishtasidin qildi charx,
Boʻldi jonlar joni vah-vah ul parivash paykari. (576-gʻ.)

Xullas (in), Navoiyning oʻzlari xunobliq (qon halqalari) jon rishtasidan kelib chiqishi taqdiri azaldagi charx koʻrguliklaridan ekanligini taʼkidlamogdalar. Vaziyatdan chiqib kelib oshiqning hozirgi holati:

Pora-pora JIGARI dard oʻtidan oʻrtangʻay,
Qatra-qatra YURAGI hajr oʻtidin qon boʻlgan.
(488-gʻazal.)

Netayki BAGʻRIM erur pora-pora, vah, naylay
Yugursa ashk ila parkolai JIGAR nogah? (II-553-gʻazal.)

Iqtiboslar bilan tushuntirishning shunisi yaxshiki, bu usulda shoirning oʻzlari “soʻzlaydi-da”. Qiyinchiligi shundaki, har bir obrazga sheʼriy dalil izlash koʻp vaqt oladi, bunga katta sabr va umid kerak...

Endi hino soʻziga sitatalar izlashimiz lozim:

Koʻnglima kirgach gʻaming toʻksam bagʻir xunobini.
Ne ajab, gulrang may matlub erur mehmonima
(568-gʻ.)

Sirishk qonin ayogʻing uchun hino qilayin,
Qabul tushsa, qarogʻim ezib qaro qilayin. (504-gʻ.)
Har ayogʻdin oʻtuk tortib, aritsam yuz bilan
Ter gulobin, ul hino yoqqan kafi gulnorini. (461-gʻ.)

Ey koʻngil, qoningni istarsen tovonigʻa hino,
Koʻzlarim xunobi rangi ham sening qoningcha bor.
(115-gʻ.)

Navbatdagi soʻz IT timsoli, u anʼanaviy obrazlardan boʻlib, koʻproq vafodorlik, baʼzan raqib, baʼzan rafiq obrazlarida gavdalanadi.

Yana uzoq yillik (40 yillik) kuzatishlarimizdan kelib chiqib shuni ham eʼtirof etamizki, shoir itlar hayoti, ularning kun oʻtkazish holatlarini kuzatishi va misollaridan foydalanib oʻz gʻazaliyotida “it daftari”dan turfa-turfa qiyos, tashbeh, oʻgʻitiy lavhalar yaratishga erishganlar. 1994-yilda “Oʻqituvchilar gazetasi”ning 7-fevral sonidagi maqolamda taʼkidlaganimdek, **shoir ijodida it obrazi talqinlari koʻlami bir ilmiy ishga tatigulik manbalardir.** Uni qisqacha izohlashga urinaman. Masalan, birinchi devonda 53 ta gʻazalda it timsoliga murojaat qilingan. Shundan sakkiztasida it obrazi tasviri gʻazal maqtaʼsida kelgan boʻlsa, undan uchtasi gʻazal matlaʼsidan joy olgan. Qolganlari oʻrni bilan turli baytlarda uchraydi.

Ikkinchi devonda esa 52 ta gʻazada (yor iti yoki) it obrazi mavjud. Shulardan 3 tasi gʻazal matlaʼsida, 8 tasi gʻazal maqtaʼsidan oʻrin olgan. “**Qasdimda**

har yondin ul koʻy itlarin qoʻy, ey raqib,” – deydi shoir 177-gʻazalning 9-misrasida. Koʻy itlari raqibga, uy (ichkari) itlari sohibaga quloqlik qilguvchidir. Agar bu sanaganim gʻazallar qatoriga 3- va 4-devondagi it obrazi qayd etilgan asarlar ham qoʻshilsa, ular salmogʻi **200** tadan oshadi, shubhasiz. Gap bu obrazning anʼanaviyligida ham emas, muhimi shoir itlar hayot tarzidan foydalanib turlicha turfa qiyoslar topa olganidadir. Hatto, 595-gʻazal toʻliq **Itga** bagʻishlangan;

It kibi necha samanding soʻngicha pʻoya uray,
Nogoh oʻtsam, boqibon sen yana oʻtkuncha turay.
Toʻrt ayoqlanib iting xayli aro men majnun,
Gar kesak otsang oʻpay, gar soʻngak otsang koʻmiray.

Uyqunga moni agar boʻlmasa ul koʻy ichra,
Yugurib itlar ila kecha tong otquncha huray.
Subhi damkim uyur itlar manga chun yoʻq uyqu,
Posini mehr ila olam yorgʻuncha yeturay.
Ishq koʻyida agar sheri jayondur, itdur,
Tong yoʻq ar faxru mubohot ila bu nukta suray,
Netti itlikka Navoiy kibi qoyil boʻlsam,
Elga koʻz yoqmodurur garchi men yoshuray.

Maqtada it soʻzi ham hayvon (it), ham yomonlik maʼnolarida qoʻllanilmoqda. “Xoʻp, men yomonlik (itlik) ning turfaliklariga qoyil qolib – tan berib yashirayotgan boʻlsam, elning koʻzi (qayerda) yoʻqmidi”, deya soʻz oʻyini bilan gʻazalni yakunlamogdalar.

Mahrmi gar boʻlmasang xushturur bu hamki boʻlgʻaysen,
Itlariga hamnishinu sohib asror, ey koʻngul. (II-385-gʻ.)

Bir iyosiz (egasiz) it boʻlib erdi Navoiy yorsiz,
Boʻlmasun, yorabki hargiz banda sultondin judo
(38-gʻ.)

Ey Navoiy, ul quyoshing soyasida koʻr itni Kamronu yoʻq sanga itcha eʻtibor (172-gʻ.)
Bandi zulfung boʻynima tushgach halok etti meni,
Itga jano huch kim oʻlturgali taqmas maras. (273-gʻ.)

Gar Navoiy boʻynigʻa desam-tanobi zulf, der:
Koʻy iti boʻyniga kim taqqandir mushkin maras,
(241-gʻ.)

Buki pora-poradur kuygan bagʻir birla koʻngul,
Itlari ollida ul kofir hamona toʻgʻramish. (261-gʻ.)
Yuragim itlaring andoq yedilar tishlashibon,
Kim yana yoʻqtur alar oʻlligʻa bormoqqa yurak.
(331-gʻ.)

Itlari singʻon safoli ichra chekting durdi shavq,
Ey Navoiy, ani jom, oʻzingni jamshid aylading. (347-gʻ.)

Itlaring olida yuz pora koʻngulni soldim,
Muna koʻr har birining ogʻzida bir pora koʻngul.
(354-gʻ.)

Telba koʻnglum topsangiz ey yor koʻyi itlari
Toʻsh-toʻshidin tishlabon parkand-parkand aylangiz.
(221-gʻ.)

Mana, hurmatli hamkasb! O'zingiz har bir baytdagi motivlarni kuzating va xulosaga keling. Men bu yerda imkoni boricha "Qaro ko'zum"dan keltirilgan baytni to'ldiradigan, uni izohlaydigan misralarni taqdim etishga urindim. Asli shoirning it borasidagi kuzatishlari shunday xilma-xilki, ularni o'rganib faqat hayratda qolasiz, xolos...

G'amzada sizga tushunarli, u ikki o'zak: **g'am** va **zadadan** yasalgan qo'shma so'z. **G'am** – tashvish, g'ussa, hajr, ayriliq, ishqiy dard, muhabbat azoblari. **Zada** – darddan bezillab qolgan, yurak oldirgan, azoblangan jonga nisbatan qo'llanuvchi sifatlovchi so'z.

Rishta – ip, **rishtai jon** – jon ipi. Odamning joni uning tanasiga bog'langan bo'ladi, deyilgan qadimiy qarash tufayli yuzaga kelgan ibora. Shuning uchun hozir ham yoshi ulug'lardan biror kishi qazo qilsa, "joni uzildi", deyishadi. Go'yo o'sha tugun yechildi. **Rasan** – bo'yinbog', chilvir, zanjir, arqon ma'nolarida.

Shoir g'azallarini kuzatsak, ishvakor va fitnagar yor qizil rangga, qizil kiyimlarga, lolagun tabiatga, hatto qizil rangli ot (raxsh)ga o'chligi ko'rinadi. Aslida hozir ham yoshi yetgan bo'y qizlar qizil rangli matolardan kiyinishga, unga hamohang qizil sumka, qizil tufli, qizil yanoq, labda qizil bo'yoq, tagida qizil rangdagi markab bo'lishini istaydi. Bu ayollar psixologiyasi, ayollar mantig'i. To'g'ri, qizil rang yosh ko'rsatadi, u lovullab turadi, barchani o'ziga tortuvchi, jalb etuvchi – maftunkor xususiyatga ham ega, albatta. Shoir ham o'z g'azaliyatida qizil rangga alohida e'tibor berganliklarining guvohi bo'lamiz.

Bu uyg'unlikdan ustalik bilan foydalangan sohir so'z sohiblari qizil labni yoqut la'lga qiyoslashadi. Shu qizillik sabab oshiq qoni mayga, hinaga ham, xunobli ashkka juda ko'p o'rinda tashbehlanadi.

Endi **hino** so'ziga izoh shart ham emas. Bizda O'rta Osiyo va Sharq xalqlari qadimdan mushk-u anbar hamda hinadan foydalanib kelishadi. Uning qo'llanilishi, sir-asrorlari haqida ayollardan so'ragan yaxshiroq. Shoir ijodida hina so'zining tez-tez uchrashi milliy bayramlar bilan bog'liq bu udum turkiy xalqlar tarixida juda ko'hna an'ana ekanligini ham ko'rsatadi. Oshiq nafaqat Yor otiga hatto uning itiga ham o'z qonini hinaga berish uchun doim shay: "Yoqar o'lsang **iting ayog'iga hino** qonim ila, Qo'yki avval supuray gardini mujgonim ila". Navoiy dostonlarida takovar (ot) peyzaj tasvirlarida sipehr, falak, kavn, charx mazmunidagi **borliq** ma'nolarida ham qo'llaniladi:

Bu charxi lojuvard uza xurshid go'yiyo,

Ko'k bo'z takovarig'a muzahhab janoh erur, – kabi.

Hosili kalom, vaziyatan oshiqdagi haddi a'losidan ortgani sari ortib borayotgan niyozmandlik kechinmalar sabab o'z xunini yor otiga, yo'q-yo'q hatto itiga ham hina uchun berishga shay ekanligini ko'rsatadi. Navoiy asarlarini nuktapo'shlik ila anglamoq uchun tarix tubiga 580 yil olisga sayohat qilish lozim kechadi.

Yor o'zidagi noz-u istig'no sabab "Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi" maqomida yuradi, yorning noz-u firog'i, ishvagarligi, havolanish, mutakabbirlik, o'zini ortiqcha kerakli qilib ko'rsatishga ruju qo'yishi oshiqqa bisyor kibrdek ko'rinadi. **Yorni insofga, insoniylikka, muloyimlikka, madumdorlikka** undaydi. Endi baytning nasriy bayoniga kelsak, u o'zidagi niyozmandlik kechinmalari sabab majnunvashlik, yolvorish yo'lidan emas, yaxshi so'z, **odamiy vashlik yo'lidan** borishni ma'qul ko'radi va: **"Ey qaro ko'zligim, sen noz-u karashmang orqali bag'ir qonimni istayotgan bo'lsang olaqol, bosh ustiga. Qonni olding, endi jonni olmoq uchun g'amzada jon ipini sug'urib iting bo'yniga mushkin maras (bo'yinbog') qilaqol",** – deydi ma'shuq.

Xullas, shoir ijodida bir ramziy obrazning turfa ma'nolarga ishora sifatida kelishi ko'rinadi, bu holat shoirning o'ta kuzatuvchan inson ekanliklaridan dalolatdir. Shunday turfa qiyofalarda keluvchi timsollardan biri boya biz yuqorida qayd etganimizdek it timsolidir. Shoir ijodida it timsolining kulminatsiyasi **"as'hoobi kahf"** iti obrazidir. U shoir ijodida vafodorlik va sadoqatning tipik timsoli sifatida o'rnak qilib keltiriladi. Odatda, Yor itining vafo-yu sadoqati o'z egasi – qiz (yor, ma'shuqa)ga nisbatan. Qiz (yor) itni deyarli o'zi bilan birga olib yurishi, uni oziqlantirishi, parvarishlashi, vaqti kelsa, unga shafqat ko'rsatishlariga yagona javob – **yor itining o'z egasiga vafosidir.**

Oshiqqa nisbatan esa bunday emas... **Garchi oshiq yor iti bilan do'stlashishga, unga mehr-u muruvvat ko'rsatishga intilmasin,** vaqtiki kelsa, fursat bo'ldi deguncha xurushi, yor ko'yidan oshiqni quvishi, tabiiy xunxo'rliqi, oshiq yurak-bag'riga o'chligi, beyuzligi, **bir so'z bilan: itlik qilishi** shoir baytlarida o'z ifodasini topganligining guvohi bo'lamiz. Oshiq agarki yorga yetisholmasa, hech bo'lmaganida uning iti mavqeyi maqomida bo'lib qolishni orzulash – manzura visoliga erishishning so'nggi ilinji ekanligi ko'rinadi. Mavzuni yakunlash uchun so'zni yana hazratning o'zlaridan "tinglaymiz".

Ey Navoiy, chobukingning istasang pobo'sini,

Bo'ynig'a ip taqmoq ummedi bila itdek erish.

Chiqti ov azmig'a javlon aylab ul chobuksuvor,

Jon nisor ul sayd uchunkim, jon ang'a qilg'ay nisor...

Nogoh o'tsam boqibon, sen yana o'tkuncha turay,

It kibi necha samanding so'nggicha poya uray.

Demak, yor "takovariga bag'ir qonidin hino bog'la"sh – "jonni oti oyog'iga nisor et"moq, ko'ngil ovi azmi qarori sabab yo chavgon maydoni sari chiqqan ul chobuksuvor sayyod yo'lida "jon nisor" etmoq ekan. Agarki yigit tan-u jismi bu ishga tayyor bo'lmasa, oshiq ruhi – "jon ang'a qilg'ay nisor" ekan. Ya'ni oshiq joni o'z juzv (bo'lakcha)larini munchoq durlari yanglig' takovari chobuk pobo'siga to'kib solishga shayligini ifodalovchi **ramziy tasvir ekan...**



Umidaxon TURAKULOVA,
 NamDU mustaqil tadqiqotchisi

BADIIY MATNDA O'XSHATISHLARNING O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'xshatishlarning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy matndagi o'rni, asarda qo'llanishidan maqsad va vazifasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'xshatishlar, etalon, asos, milliy o'lchov, yangi bilim, masad, obrazlilik, badiiylik, emotsionallik.

Аннотация: в статье рассматриваются своеобразные свойства сравнений, их место в художественном тексте, цели и задачи их использования в произведении.

Ключевые слова: сравнения, эталон, основа, Национальное измерение, новое знание, цель, образность, художественность, эмоциональность.

Annotation: this article discusses the unique characteristics of similes, their role in literary texts, and the purpose and function of their use in literary works.

Key words: similes, standard, basis, national measure, new knowledge, purpose, imagery, artistry, emotionality.

Badiiy adabiyotni tasviriy vositalardan xoli tasavvur etib bo'lmaydi. Tasviriy vositalar badiiy matnning tushunarligini, rang-barangligini ta'minlovchi muhim vositalardan sanaladi. "O'xshatish eng qadimgi tasvir vositalaridan bo'lish bilan birga, eng sodda va ko'p ishlatiladigan, tez-tez qo'llanadigan sintaktik hodisa hisoblanadi" [Qo'ng'urov, 1977: 41]. O'xshatishlar kutilmagan, yangilikka boy, shu bilan birga, noyob hodisalardir. U so'zlovchi tomonidan qo'llanganda tinglovchining diqqatini o'ziga jalb etadi va olinayotgan axborotni uzoq vaqt esda saqlanishini ham ta'minlaydi. Chunki yangi axborot avvalgi egallangan qaysidir bilim bilan mustahkamlanadi. "O'xshatish nafaqat tashqi dunyoni bilish usuli, ayni zamonda uni til o'rganish bilan birga, madaniyatni ham o'rganishga imkon beradigan eng samarali usullardan biri deyish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, kishilar kundalik muloqot jarayonida har bir daqiqada olti marta o'xshatishlardan istifoda etishar ekan. Bu ham o'xshatishlarning til va madaniyatda qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi" [Jo Min Yong, 2022:13]. Tasviriy ifodaning bu turi og'zaki uslubda ham, yozma uslubda ham birdek qo'llanishi kuzatiladi. Yozma adabiyot hali shakllanib ulgurmagan davrlarda ham xalq og'zaki ijod namunalari o'xshatishlardan keng foydalanilgan.

O'xshatishlar fikrni go'zallashtirish bilan birga uning tushunarligini ham oshiradi. Shaxs o'z fikrini bayon etish jarayonida qator o'xshatishlarni qo'llaydi. Bu hol esa uning bilish darajasini, dunyoqarashini va tasavvurini ham belgilaydi. Ayniqsa, shoir va yozuvchilar tomonidan qo'llangan o'xshatishlar xalq orasida keng ommalashadi. Chunki ular xalqning bir vakili sifatida tilning barcha imkoniyatlaridan keng foydalanadilar. Albatta, badiiy asar tasviriy ifodalarsiz bo'lishi mumkin emas, bu vositalar har qanday asarni kitobxon tomonidan sevimli bo'lishiga, omma orasida mashhur

bo'lishiga, hatto esda saqlab qolinishiga ham katta imkoniyat yaratadi. Qahramonlarning tug'ilishidan tortib xarakteri, tashqi ko'rinishi, kiyimi, xulqi, ichki tuyg'ulari, atrofga munosabati kabilarning barchasini tasvirlashda o'xshatishlardan keng foydalaniladi. "Badiiy adabiyot tilining tasviriy vositasi sanalgan o'xshatish o'zining obrazlilik, tasviriylik, emotsional-ekspressivlik kabi xususiyatlari bilan badiiy asar tilida yaqqol gavdalanib turadi. U badiiy asarning barcha komponentlari: portret, ruhiy kechinma, nutqiy xarakteristika, peyzaj, xarakterlar tasvirida qo'llanadi va badiiy asar yuzaga kelishiga xizmat qiladi" [Mukarramov, 1976:4]. Badiiy asarlarni o'xshatishsiz ifoda etishini tasavvur qilib ko'rilsa, asar mazmuni saqlansa ham, undagi bo'yoqdorlik pasayadi. "Asar tilida o'xshatishlar, epitetlar, kinoyalar, mubolag'a va jonlantirish qanchalik xilma-xil va o'rinli ishlatilgan bo'lsa, uning uslubi qanchalik ravshan va individual bo'lsa, asardan ko'zda tutilgan maqsad ham shunchalik tez ro'yobga chiqadi, ya'ni asarda olg'a surilgan g'oya, shu obraz va badiiy priyomlar vositasida o'quvchilarga tez va osonlik bilan yetib boradi" [Donyorov, Yo'ldashev, 1988:157]. "Tilning tozaligi, ma'no aniqligi, o'tkirligi uchun kurash – madaniyat quroli uchun kurashdir. Bu qurol qanchalik o'tkir bo'lsa, qanchalik ko'proq aniq yo'naltirilgan bo'lsa, u shunchalik g'alaba qozonuvchan bo'ladi" [Gorkiy, 1958: 667]. O'xshatishlar har qanday til egalari uchun keng maydondir. Uning imkoniyatlari muallifga ham kitobxoniga ham birdek qulaylik yaratadi. Muallif o'xshatishlar yordamida oson tushuntira olsa, kitobxon o'xshatish bilan oson tushunish imkoniga egadir. "O'xshatishlar, asosan, so'zlashuv va badiiy uslublarda keng qo'llanadi. O'xshatishli qurilmalarda til egalarning tashqi olamni idrok etish usuli namoyon bo'ladi. Ko'proq ilmiy uslubga xos deb qaraluvchi va asosan, o'z ma'nosida qo'llaniladigan terminlar ham ba'zan o'xshatish vositalarini qabul

qilib, ekspressivlikni ifodalaydi. Bundan ko‘rinadiki, qo‘llanilishi ma‘lum bir uslub (ilmiy) doirasida chegaralangan terminlar ham badiiy matnda turli uslubiy ma‘nolarni ifodalab, nutqning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi”. O‘xshatishlardagi yana bir muhim jihat shundan iboratki, unda o‘xshatish qo‘llovchi (nafaqat yozuvchi va shoirlar, balki oddiy xalq)ning bahosi asosiy o‘rinni egallaydi. “Umuman, inson voqelikdagi narsa va hodisalarni kuzatar ekan, ularga baho beradi. U ushbu narsa yoki hodisani yoqtirishi yoki inkor qilishi, hatto yoqtirmasligi ham mumkin. O‘xshatishli qurilmalarda ham nutq egasining shu kabi salbiy yoki ijobiy bahosi aks etadi. Ma‘lumki, baho so‘zlovchining (subyektning) bayon qilinarayotgan obyektga munosabatini bildiruvchi vosita bo‘lib, deyarli, barcha til sathlariga xos bo‘lgan hodisadir. O‘zbek tilida baho munosabati nominativ ma‘no ustiga qo‘yilgan aksiologik ma‘no orqali yuzaga chiqadi va turli vositalar orqali ifodalanadi” [Qambarov, 2008:5]. Inson hayotining har bir daqiqasida va har sohasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan o‘xshatishlarning o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham “O‘xshatish o‘zining konkretlashtirish funksiyasi bilan har bir fanda qo‘llana oladi” [Mukarramov, 1976:4]. Har bir sohada o‘xshatishlarning xizmati bor. Undan tashqari, o‘xshatishlarni qo‘sh tig‘li qurol deyish ham mumkin. Sababi, uning qo‘llanilishi so‘zlovchiga ham, tinglovchiga ham maqsadni oson anglash imkonini beradi. “Majoziy ifodalar muloqotning muvaffaqiyatli chiqishini ta‘minlaydi. Chunonchi, fikrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalashdan ko‘ra, uni o‘xshatish yoki metafora vositasida bilvosita ifoda etish orqali muloqot samaradorligini maksimal darajada oshirish mumkin. Maslahat berayotganda yoki kamchiliklar haqida gapirilganda obrazli ifodalar yaxshi natija beradi” [Jo Min Yong, 2022:14]. O‘xshatishlarni o‘rganish davomida uning bir qator xususiyatlari aniqlandi. Quyida ana shu xususiyatlar haqida ba‘zi fikrlar keltiriladi:

1. Obrazililik, badiiylik, bo‘yoqdorlik, emotsionallik o‘xshatish haqidagi eng asosiy xususiyatlardan bo‘lib, badiiy matnning qiymati ana shu sanalgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Albatta, bu belgilar faqat o‘xshatishlarga xos emas. Bunday xususiyat metafora, sifatlash, ibora kabilarga ham xosdir, ammo o‘xshatishlar boshqa tasvir vositalariga qaraganda ancha faol hisoblanadi. “O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta‘minlashda foydalanib kelinadi. Bu muhim va keng qo‘llanuvchi vosita tilimizda xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarining natijalari sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, badiiy asarda so‘z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi va teran badiiy didining mahsuli sifatida yuzaga keladi” [Yo‘doshev,

2002:57]. Anglashiladiki, badiiy asarda qo‘llangan har qanday tasviriy vositaning tug‘ilishiga muallifning tuyg‘ulari asos bo‘ladi.

2. Ixchamlik va lo‘ndalik xususiyati ham o‘xshatishlarga xos bo‘lib, unda so‘zlovchi o‘z fikrini qiynalmay tinglovchiga yetkaza oladi. Ya‘ni o‘xshatishni keltirish bilan tasvir ham qisqa bo‘ladi, tinglovchi esa noma‘lum holatni avvaldan bilingan boshqa holatni eslash bilan qiyinchiliksiz tasavvur qiladi. “O‘xshatish – bu so‘zlarning qo‘llanilish cheklovlarini to‘ldiradigan usuldur. Ya‘ni, cheklangan so‘zlar bilan insonning turli his-tuyg‘ularini va fikrlarini bevosita ifodalash haqiqatdan qiyin kechadi. Shu bois bunday kemtiklikni to‘ldirish maqsadida anglatiladigan ma‘noni o‘xshatiladigan predmet bilan solishtirib, his-tuyg‘ularni iloji boricha, to‘la-to‘kis ifodalashga harakat qilinadi” [Jo Min Yong, 2022:18].

3. Maqsadni anglash va anglatish. Muallif tomonidan qo‘llangan har qanday o‘xshatish uning maqsadini belgilaydi. Kitobxon tomonidan esa muallifning maqsadini anglashga yordam beradi. Agar adib asar qahramonini to‘la his qila olmasa, bu asar matnining tasviriylikni, bo‘yoqdorligini, ifodaviylikni tushirib yuboradi. Ta‘kidlash lozimki, adib bir vaqtning o‘zida ham so‘zlovchi, ham tinglovchining o‘rnini egallay olmog‘i lozim. Chunki har ikkisinin ham anglashlari bir xil maqsadni ko‘zlashi, bir xil fikrni o‘ylashi, bir xil manzarani ko‘ra olishi muhim va shart hisoblanadi. Ayni holatni badiiy asarda aks ettirish uchun o‘xshatishlar ulkan vazifa bajaradi. Bunday vazifani o‘xshatishlar bilan uddalash oson kechadi.

4. Yangi bilim hosil qilish xususiyati, asosan, erkin o‘xshatishlarda namoyon bo‘ladi. Sababi, erkin o‘xshatish kutilmaganligi bilan kitobxonni o‘yga toldiradi, tasavvurini qo‘zg‘aydi. Turg‘un o‘xshatishlarda esa biroz qiyinroq. Chunki ular hamma tomonidan tanilgan, yaxshi bilingan, ko‘rilgan bilimlar haqida so‘zlaydi. Muallif tomonidan qo‘llangan o‘xshatishlarda ilmiy terminlarning etalon sifatida qo‘llanilishi kitobxonni bu etalondagi semani anglashga undaydi. Sababi, ilmiylik ko‘pincha kitobxon uchun begona tushunchalarni ifodalaydi. Ammo asar tarkibida kelganda uning mohiyatidan xabardor bo‘lishga kitobxon majbur. Aks holda bo‘shliq yuzaga keladi

5. O‘xshatishlar yodda saqlash texnikasi sifatida. O‘xshatishlarga xos mazkur xususiyat egallanayotgan yangi bilimlarni esda saqlanishiga yordam beradi. Bu haqida D.Karnegi aytgan fikrlarni keltiramiz: “O‘xshatish kutilmagan va noyob vositadir. U tinglovchining diqqatini tortadi hamda uzoq esda saqlanib qoladi” [D.Karnegi, 1990:140]. Demak, o‘xshatishlar serqirra va sermahsul vositalar bo‘lib, ular nafaqat tinglovchini balki, biror

bir yangilikni kuzatayotgan shaxsda ham nimagadir qiyoslab esda saqlab qolishiga yordam beradi.

6. O'xshatishlar milliy me'yor, milliy o'lchov, xalq haqida so'zlovchi ko'zgudir. O'xshatishlarning bu xususiyati haqida bir qator xorijiy va o'zbek tilshunoslari, xususan, V.Maslova [Maslova, 2010], L.Balshov [Balshov], N.Alefirenko [Alefirenko, 2005], N.Mahmudov [Mahmudov, 2015], G.Tokarev [Tokarev, 2009] kabilar o'zlarining fikrlarini bildirganlar. "O'xshatishlar olamni bilishning eng eski usullaridan bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tajribalari, milliy madaniyat, urf-odatlar, an'analar asosida shakllanadi. O'xshatish muayyan xalqning milliy tafakkur tarzi va tasavvurlarini namoyon etadi. Shuningdek, o'xshatish idrok etish jarayonini kengaytirishga va yangi ma'nolarni yaratishga yordam beradi, muloqotning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi. Umuman, o'xshatishlarni o'rganish orqali madaniy ma'lumotlar va milliy-madaniy qarashlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin" [Jo Min Yong, 2022:19]. F.Usmanov shu mavzudagi tadqiqotida "Mantiqiy ildizlarga ega lisoniy birlik – o'xshatish yoki komparativ troplar millatning dunyoqarashini, idrok intizomini aks ettiruvchi muhim manbadir. Milliy idrok intizomi esa, o'z navbatida, milliy til orqaligina anglanishi mumkin. Masalan, o'zbeklardagi kichik narsa yoki joyga nisbatan qo'llanuvchi ushoqdek yoki angishvonadek o'xshatishlari milliy idrok intizomini o'zida yaqqol namoyon etadi" [Usmanov, 2019:39]

degan edi. Anglaganimizdek, muayyan xalqqa mansub o'xshatishlar qaysidir ma'noda xalq tajribasidan ham darak beradi. Demak, taqqoslash, qiyoslash inson hayotining ajralmas qismidir. Inson, eng avvalo, o'zini, tanasining har bir a'zosini bilganchalik boshqa narsalarni bilmaydi. Shuning uchun ham tandirning og'zi, ariqning boshi, stolning oyog'i, uzukning ko'zi kabi ko'p ma'nolilik ana shu taqqoslashlar natijasida yuzaga kelgan. Binobarin, o'xshatishlar xalq madaniyati haqida so'zlagichdir. Ularda xalqning munosabati, quvonchi, g'azabi, moyilligi, roziligi yoki noroziligi kabilar o'z ifodasini topadi.

Badiiy matn tarkibida kelgan o'xshatishlar kitobxonda tez tasavvur uyg'ota olishi kerak, chunki og'zaki nutqda tinglovchiga tushunarsiz tuyulgan o'xshatishga so'zlovchi tomonidan kengroq sharh talab qilish mumkin, ammo badiiy asar o'qiyotgan kitobxonda bunday imkoniyat yo'q. Shuning uchun ham muallif tomonidan tanlangan o'xshatish etaloni sodda, taniqli, ammo bo'yoqdorlikni ifoda eta oladigan predmet bo'lishi shart. Murakkab harakatlar, tushunilishi qiyin bo'lgan holatlar etalon sifatida olinsa, o'quvchida tushunish qiyinchiligini paydo qiladi. Bu esa o'z navbatida asarning keng tarqalishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin. Sababi asarni o'qib undan estetik zavq ola bilgan kitobxon uni o'z tanishlariga tavsiya etadi, maqtaydi, natijada, kitobxonlar orasida tez tarqaladi va mashhurlik sari odimlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977.
2. Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филология фанлари бўйича докторлик (PhD) дисс. – Тошкент, 2022.
3. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976.
4. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стил. – Тошкент: Фан, 1988.
5. Горький М. О литературе//Советский писатель. 1958. С. 667.
6. Jamoliddinova D. Badiiy matnda terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. dok. dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021.
7. Қамбаров Ф. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фан. ном. ... дисс. афтореф. – Тошкент, 2008.
8. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002.
9. Карнеги Д. Как вырабатывать уверенность в себе и илиять ил людей выступая публично. – М.: Прогрес, 1990. – 442 б.
10. Маслова В.А. Лингвокультурология. – 4-е изд., стер. – М.: Академия, 2010.
11. Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. – М.: Флинта, Наука, 2005.
12. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3.
13. Токарев Г.В. Лингвокультурология. – Тула: Издательство ТГПУ им. Л. Н. Толстого, 2009.
14. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дисс. – Андижон, 2019.

Асаль ЭРГАШЕВА,
 преподаватель кафедры русского языка
 филиал РГУ (НИУ) нефти и газа
 им. И. М. Губкина в г. Ташкенте



О СУЩНОСТИ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: в статье рассматривается функциональный подход к изучению лексико-грамматических явлений русского языка, который нашел свое применение в преподавании русского языка как иностранного. Основное внимание уделено функциональной грамматике, ее особенностям и роли в моделировании речевой деятельности. Описаны основные теоретические и практические аспекты функционального подхода, акцентируя внимание на связи между грамматической формой, контекстом и смыслом высказывания. Также обсуждается, как этот подход адаптируется в учебном процессе для достижения практических навыков владения языком.

Ключевые слова: функциональная грамматика, языковая единица, функция, глаголы движения, моделирование языка, методика, речевое общение

Annotation: the article discusses a functional approach to the study of lexical and grammatical phenomena of the Russian language, which has found its application in teaching Russian as a foreign language. The main attention is paid to functional grammar, its features and role in modeling speech activity. The main theoretical and practical aspects of the functional approach are described, focusing on the relationship between grammatical form, context and meaning of the utterance. It is also discussed how this approach is adapted in the teaching process to achieve practical language proficiency.

Keywords: functional grammar, language unit, function, verbs of motion, language modeling, methodology, verbal communication.

Annotatsiya: maqolada rus tilining leksik va grammatik hodisalarini o'rganishda funksional yondashuv muhokama qilinadi, bu yondashuv rus tilini chet tili sifatida o'qitishda qo'llanilmoqda. Asosiy e'tibor funksional grammatikaga, uning xususiyatlariga va nutq faoliyatini modellashtirishdagi rolga qaratilgan. Funksional yondashuvning asosiy nazariy va amaliy jihatlari, grammatik shakl, kontekst va gapning ma'nosi o'rtaqidagi munosabatga urg'u berib tasvirlanadi. Shuningdek, ushbu yondashuvning tilni amaliy o'zlashtirishga erishish uchun ta'lim jarayoniga qanday moslashtirilishi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: funksional grammatika, til birligi, funksiya, harakat fe'llari, til modellashtirish, metodika, og'zaki muloqot.

Современные методы обучения русскому языку как иностранному направлены на активизацию учебной деятельности и повышение качества обучения. Сегодня преподавание русского языка выходит за пределы простого изучения грамматических правил и категорий, сосредотачиваясь на практических навыках речевого общения. Функциональный подход стал важной методологической основой для создания учебных программ, направленных на практическое владение языком.

Функциональный подход базируется на идее, что язык – это не только система грамматических структур, но и инструмент коммуникации. Он помогает учащимся не только понимать языковые формы, но и использовать их для передачи смысла в различных коммуникативных ситуациях. В основе подхода лежит связь между языковыми единицами и их функциями в речи.

Функциональная грамматика занимает ключевое место в современном языковом образовании, осо-

бенно при обучении русскому языку как иностранному. Ее основная цель – не просто изучение правил и структур языка, а понимание того, как грамматические единицы функционируют в реальной речи и как они используются для передачи смысла в различных коммуникативных ситуациях. Это делает ее эффективным инструментом для развития практических навыков владения языком.

Функциональная грамматика сосредоточена на изучении языковых единиц в действии, то есть в контексте их употребления. Она ориентирована на анализ взаимодействия грамматических форм с лексическими, синтаксическими и другими элементами языка для формирования смысловых структур. Главной особенностью этого подхода является то, что язык изучается в двух направлениях:

1. От формы к значению – учащиеся изучают, как определенная грамматическая форма (например, падеж или время) может повлиять на смысл высказывания.

2. От значения к форме – студенты анализируют, какие формы и структуры следует использовать для передачи определенного смысла в конкретных ситуациях.

Функциональная грамматика помогает студентам не просто запоминать грамматические правила, а применять их в реальных речевых актах. Это особенно важно при изучении языка как иностранного, так как обучаемые должны не только освоить грамматические структуры, но и научиться использовать их для решения коммуникативных задач. Например, при изучении таких сложных категорий, как глаголы движения, студентам необходимо понимать не только формы «идти» и «ходить», но и контекстуальные условия их употребления.

Кроме того, функциональная грамматика способствует развитию коммуникативной компетенции учащихся, так как акцентируется внимание на том, как язык функционирует в различных жизненных ситуациях. Этот подход включает в себя:

- анализ текстов и предложений с учетом их функциональных ролей;
- исследование взаимодействия между грамматическими и лексическими единицами;
- оценку языковых функций в зависимости от контекста общения (например, использование тех или иных грамматических конструкций в официальных и неофициальных ситуациях).

Для студентов, изучающих русский как иностранный, функциональная грамматика дает возможность:

- глубже понимать взаимосвязь грамматических форм и их функций в речи;
- осваивать язык не только на уровне структур, но и на уровне их применения в реальных ситуациях;
- легче адаптироваться к различным речевым ситуациям, используя подходящие языковые средства.

Термин «функция» имеет множество трактовок в лингвистических исследованиях. По мнению А.В. Бондарко, функция языковой единицы – это ее способность выполнять определенное назначение. Различие в понимании функций связано с их экстралингвистической или интралингвистической природой. Например, функции могут быть связаны как с социальной ролью языка, так и с грамматическими отношениями внутри системы.

From the previous analysis, it is clear that terminology is an important component of lexicology. There are words in the language that express concepts related to science, technology, literature, art, and culture and are used in a single sense and these are called terms. Terms related to each field are combined and called terminology. The use of terms in many senses is not considered a positive feature for science. Because the use of the same term in different sciences in different meanings can sometimes lead to ambiguity. The main (meaning) signs of the terms are explained by their monosemanticity, neutrality, lack of a special emotional-expressive coloring, belonging to any field of science and technology. Sometimes terms can be used in literary works according to stylistic requirements.

Professional lexicon - (professional terminology) a set of terms and concepts specific to the speech of cer-

tain professions. Terms borrowed from another language, words specific to the dialect, words whose meaning has been changed in the common language are the main sources of the development of the professional lexicon. Different names given to the same product or thing by different professions (for example, "cauldron" - "potila" in confectioners, etc.) can also contribute to the development of professional lexicon. They are a valuable resource for researching the history of material culture. Vocational lexicons are used in fiction as a form of artistic image to deeply illuminate the unique attribute and nature of a character. The field of information technology (IT) is constantly evolving, which in turn leads to changes in the professional lexicon used by practitioners.

The famous linguist scientist S. Ibrohimov was the first to compile and analyze the lexicon of professions in the Uzbek language, focusing on the Ferghana dialect in particular. He documented nearly 2,500 terms for trades as varied as silk-making, carpentry, and blacksmithing, creating a comprehensive glossary that includes many terms that are disappearing. A. Sobirov acknowledged Ibrohimov's significant contributions to professional lexicology and noted that his research is a valuable resource for future research and had a great impact on the education of the generation of terminologists and lexicologists. Lexical units cover people's knowledge, profession, worldview. As the linguist scientist V. V. Vinogradov noted, "The lexicon of a language is formed and developed in the process of long-term historical development. It is absolutely impossible to study the history of a language without separating it from the history of the people. The word in every language directly reflects all aspects of the life of society." Thus, understanding language requires an examination of its historical and social contexts.

Professional lexicon and terms are distinguished by their special qualities. The book "Lexicology of the Uzbek language" lists the following differences between the professional lexicon and the terminological lexicon:

1. Terms are the names of official concepts related to a certain field, such as science, technology, industry, agriculture. Vocational lexicon refers to words used only by certain professions.
2. Terms arise not only as specific terms of any topic, but also as a means of expressing scientific concepts, primarily in written form. Professional lexicon is often used in the process of oral speech (conversation) between representatives of certain professions.
3. If expressions have a broad meaning on the basis of the development of science and technology on a global, nationwide scale, words related to

the profession are used only within a certain local boundary and by a small part of the population. Professional lexicon is dialectal and offers various options.

In some works, different approaches are observed in differentiating the lexicon of profession. S. Usmanov says that "some linguists and logicians use the term not only words and phrases related to science and technology, but also the names of all household appliances, weapons of the current level of production, as well as the names of primitive weapons of the past", notes that he also includes words related to various professions. It is known that the development of society, development of science, culture, technology and other fields affects the lexicon of the language. The lexicon of the language expands with new words and terms. Words and terms are almost the same. A term is a word, but it refers to a specific field, science, or practice. They differ from the word in general use, because it is used by scientists, representatives of a certain topic, who are purposefully introduced to science.

A. A. Reformatsky on the issue of the term, which is important in the fields of science and technology: "A term is a word and it is limited by its separate and special signs; Science, technology, economics, terms in fields, politics and diplomacy are different words". A term is not an "ordinary word", be it "unusual" or a "new word", it can be "rationalized" and even "created", but it is first and foremost a word".

Terminographers and lexicographers analyze computer words using different approaches. Terminographers are engaged in the use of basic terms in this field, while lexicographers try to explain the computer meaning of lexical units. Terminographers are responsible for analyzing and describing words related to a particular topic, as well as creating new terms when necessary. Lexicographers explain the meaning of words and how they are used in context. Terminographers, unlike lexicographers, analyze lexical combinations only according to their meaning in a specific field of specialization. For example, the name of a virus refers to at least two separate concepts, one in medicine and the other in computing. The primary task of a terminographer is to identify concepts developing in a new direction and link them to the corresponding terminology as quickly as possible.

Terminographers, unlike lexicographers, are tasked with conveying how to use language rather than describing it. Standardization of terms is important because "high-quality" terminology (eg, lack of synonymy, clear terminology) generally promotes efficient knowledge production. In other words, the clearer the terminology, the easier it is to trans-

fer linguistic knowledge between specialists and non-specialists.

According to K. M. Musayev, "terminology as a lexicon of the language is like a city: it was built on the basis of a plan, but it was not built at once; It is formed on the basis of historical conditions, and various architects, designers, inventors of different generations participate in its creation. The specific complexity of terminology regulation is determined by this".

The primary goal of lexicon teaching is to develop students' foreign language skills and abilities. The assimilation of lexical material occurs at three levels. The first stage is familiarization with a new word; the second stage is the beginning of using familiar lexicon in the speech process, that is, the period of initial material reinforcement; the third stage is the assimilation of the studied word as part of skills and abilities in speech activities. Terminological competence is one of its components. In a non-linguistic higher education institution, the main focus is on reading texts in the specialty. In the process of mastering terminological lexicon, students develop lexical subcompetence. Terminological competence characterizes the qualitative parameters of special speech of future higher education specialists. In other words, a communicator (communicating person) learns to express concepts related to the field in foreign language terms during their professional activities. A set of scientific and technical words serves as the conceptual foundation of a particular field.

In the modern methodology of teaching foreign languages, particularly English to non-philology students, lexicon is considered an important means of mastering various types of speech activity. The distinction between active (reproductive) and passive (receptive) lexicon is very important and influences the pedagogical strategies used in the context of education and the education system. Active lexicon refers to a set of lexicon that students can use to express their thoughts or in conversation. For example, if an IT student effectively uses terms like "algorithm," "debugging," or "cloud computing" in discussions or writing, these words become examples of active lexicon. In contrast, an inactive dictionary contains terms and phrases that students can understand when encountering others in speech or in writing, such as "cybersecurity," "user interface," or "artificial intelligence" - but may not yet be able to actively use in themselves. The total sum of the student's real lexicon, including active and passive lexicon, reflects their cognitive mastery of the language. At the same time, students also encounter unfamiliar lexicon - words that they have not learned before, but have potential for assimilation. This potential

lexicon stems from morphological and semantic parallelism between native languages such as English and Uzbek or Russian. For example, a student may encounter the term "virtualization," and due to comparable concepts in their native language, they can intuitively determine its connection to "virtual" environments in determining its meaning. Potential lexicon can usually be learned only by presenting it orally (in audio text) and in writing (in graphic text). A practical example is when a student listens to a lecture on "machine learning" and defines the context-based definition of "neural networks" before this term is explicitly taught. At this stage, "neural networks" are classified as potential lexicon, as the student successfully summarizes its meaning in advance. Thus, students' lexicon is formed from their real lexicon and potential lexicon. In addition, there is the concept of vocabulary lexicon, which includes terms that the student encounters only once in a certain context and is not reinforced by subsequent exercises. For example, if an IT curriculum introduces a term such as "blockchain" in a separate lesson on digital currencies without further follow-up or elaboration, if the student does not encounter the term again in practical applications or further research, this question 'z may become part of the new lexicon lexicon. Furthermore, there is a concept of non-lexicon, which includes terms that the student encounters only once in a specific context and are not reinforced by subsequent exercises. If the IT curriculum introduces a term such as "blockchain" in a separate lesson on digital currencies without additional observation or detailed study, this word may become part of the lexicon of a new dictionary if the student does not find it again in practical manuals or subsequent research.

Computer words can be classified into terminological and non-terminological groups. Indeed, computer words can have different levels of "terminologization.". Many terminological concepts are used as common language words: download (downloading) was known only a few years ago to computer specialists, but now it is widely used. When the term "Download" appeared, its popularity may have been unexpected, but its widespread use occurred as a result of the expansion of the Internet. However, it is clear that in some circumstances, the word was created with the intention of being widely used by non-specialists. Examples include desktop, folder, recycle bin, and wallpaper.

As the terminographer Ahmad notes, "The roots of some common words in the field of computer science come from Middle English, which in turn comes from Latin and is therefore based on Latin". For example, computer is derived from the Latin word

computare. The linguist also classifies words such as algorithm (algorithm), data (data), and program (program) in a similar way. As in the hierarchical sequence, which is traditionally used in many scientific fields, samples are also suitable for terms related to computational techniques: printer → laser printer → colour laser printer.

One of the unique features of computer and Internet terminology is that it is easily understood and used by the general public. Pitch and Drasco state that "the majority of computer terms are already known to everyone, because they are re-expressions of existing common language meanings - classified by terminolization". For example, mouse, desktop, mega, mailbox, domain, virtual, windows in English. As a result of the modernization of our language, we introduced terms such as mouse, disk, Internet ethics into the Uzbek language. Interestingly, some terms were used in other professions before they came to the computer industry. For example, surfing (spending time on the Internet) - channel - surfing (spending time in front of the TV); bandwidth (in the calculation, it indicates the speed of data transfer) - in telecommunications, this is the spectrum of the

communication channel; and the virus, of course, as a disease-causing microorganism from the point of view of medicine.

Conclusion

Lexicology involves studying various aspects of language, including word formation and terminology development. Terms are specialized words that convey specific concepts in fields such as science and technology, contributing to professional lexicons unique to different professions. The professional lexicon is shaped by borrowed terms, dialects, and the evolving nature of language, emphasizing the importance of clarity in scientific communication to avoid ambiguities. The study differentiates between terminology, often used in written contexts, and professional vocabulary, which is more common in oral discourse. In the domain of computer science, many terms have become widely recognized, illustrating how specialized language can permeate everyday usage. Overall, the research underscores the dynamic nature of vocabulary in specialized fields and the critical role of effective terminology in communication.

References:

1. Karimov S.A. TILSHUNOSLIK NAZARIYASI. Samarqand – 2012. B.20-23
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. - Тошкент, 1969.
4. Собиров С. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқи этиш. - Тошкент: Маънавият, 2004. - Б. 27-28.
5. Виноградов В.В. Об основном словарном фонде словообразующей роли в истории языка // Избранные труды. Лексикология и лексикография. - М.: Наука, 1977. - С.47
6. Ўзбек тили лексикологияси. - Тошкент: Фан, 1981. - Б.32
7. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1964. - Б.12
8. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка// Проблемы структурной лингвистики.– М., 1968, – С. 110.
9. Juan Sager: A Practical Course in Terminology Processing, (Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins) 1990
10. Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986. -с.163.
11. Рўзметова Д.А. // Талабаларга инглиз тили потенциал лексикасини ўргатиш/дисс... PhD. – Чирчиқ. 2022. – 132 б.
12. Misirov Sohijjon Abdupattayevich. Nofilologik yo'nalishlarda ingliz tilida sohaviy (kasbiy) leksikani o'rgatishning nazariy masalalariga doir
13. Uzaqova O. M. Ingliz va o'zbek tillarida kompyuter terminografiyasining lingvistik xususiyatlari.- Farg'ona: FarDU. Ilmiy xabarlar- 2022. - B. 397.
14. Khurshid Ahmad: «Neologisms, Nonces and Word Formation», in: Euralex 2000 Proceedings
15. Heribert Picht and Jennifer Draskau: Terminology: An Introduction, (Guildford: University of Surrey) 1985.

Inomiddin IMOMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti

KREDIT MODUL TIZIMI: MUAMMO VA YECHIMLAR (nodavlat oliy ta'lim muassasalari misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada nodavlat oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimidagi muammolar, o'quv jarayonining uslubiy ta'minotini va o'quv fanlari dasturlari, tanlov fanlar katalogi hamda fanlarning o'quv-uslubiy majmuasini shakllantirish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirish haqida tahlillar berilgan.

Kalit so'zlar: nodavlat oliy ta'lim muassasalari, kredit-modul tizimi, muammo va yechimlar, interaktiv usullar.

Annotation: in this article, the problems in the credit-module system of non-state higher education institutions, the methodological support of the educational process and the formation of qualifications and skills for the formation of the programs of educational subjects, the catalog of elective subjects and the educational-methodological complex of subjects analyzes are given.

Key words: non-state higher education institutions, credit-module system, problems and solutions, interactive methods.

Аннотация: в статье анализируются проблемы кредитно-модульной системы негосударственных высших учебных заведений, методическое обеспечение образовательного процесса и формирование квалификаций и умений для формирования программ учебных предметов, каталога элективных предметов и учебно-методического комплекса предметов.

Ключевые слова: негосударственные высшие учебные заведения, кредитно-модульная система, проблемы и решения, интерактивные методы.

Kirish. Nodavlat oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimida mashg'ulot rejasi bo'yicha materiallar tahlil qilinib, kichik guruhlar yoki juftliklarda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalangan holda berilgan topshiriqlar bajariladi. Amaliy mashg'ulot bo'yicha materiallar mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasida keltiriladi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalari kredit ta'lim tizimi sharoitida talabalar va professor-o'qituvchilar mobilligi ta'lim muassasasining akademik erkinligi va vakolatlarini kengaytirish orqali ta'minlanadi. Bunda talabalarning akademik erkinligi ularning ta'lim dasturiga kirgan fanlarni o'zlashtirishida mustaqil ishlarning ahamiyatini yuksaltirish orqali o'z faoliyatini va mustaqil bilim olishini tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ta'lim tizimida mutaxassis tayyorlash modelini o'zida aks ettiruvchi rasmiy hujjat – mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasi (MO'UM) hisoblanadi. MO'UM bakalavr, magistr va doktorantlar tayyorlash konsepsiyasini aniqlovchi hujjatdir. MO'UM har bir mutaxassislik bo'yicha talabalarni o'qitishning maqsadlari, mazmuni va usullarini aniqlaydi. MO'UM o'z ichiga quyidagilarni oladi: davlat ta'lim standartlari; malaka talablari; o'quv rejaları; tanlov fanlari katalogi; fanning o'quv-uslubiy majmuasi.

Davlat ta'lim standartlari (DTS) ta'lim sohalari bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali

kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ta'lim sohalari tarmoqlarini rivojlantirish kabi maqsadlar va oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi turli normativ-huquqiy hujjatlarga hamda xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Asosiy qism. Ta'lim sohalarining davlat ta'lim standarti o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli normativ hujjatlar: bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejaları, fanlar dasturlari va boshqalarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ta'lim sohalarining muayyan bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshirilishi belgilangan. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Kunduzgi ta'limda bakalvriat dasturining me'yoriy muddati to'rt yil qilib belgilangan. Alohida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qish muddati kamida uch yil bo'lgan bakalvriat dasturlari joriy etilishi belgilangan.

Magistraturada mutaxassislar tayyorlash ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo'nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida amalga oshirilishi belgilangan. Ta'lim dasturlarida kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha me'yoriy o'qish muddatlari farqlanishi mumkin. Kechki va sirtqi ta'lim shakllarida me'yoriy o'qish muddatlari

kunduzgi ta'limning me'yoriy muddatiga nisbatan kamida teng bo'lishi, ammo bakalavriatda bir yildan, magistraturada esa 6 oydan ko'p bo'lmali talab etilgan. Kechki va sirtqi ta'lim shakllarida me'yoriy o'qish muddatlari oliy o'quv yurti tomonidan mustaqil belgilanadi.

Bir o'quv yili uchun kunduzgi ta'limda amalga oshiriladigan ta'lim dasturining hajmi 60 kreditga teng deb olingan. Ta'lim shaklidan qat'iy nazar ta'lim dasturining umumiy hajmi me'yoriy muddati bir yil bo'lganda – 60 kreditni, ikki yil bo'lganda – 120 kreditni, uch yil bo'lganda – 180 kreditni, to'rt yil bo'lganda – 240 kreditni tashkil etadi. Ta'lim dasturlarini amalga oshirishda oliy o'quv yurti elektron o'qitish va masofaviy ta'lim texnologiyalardan keng foydalanishi tavsiya etilgan. Xususan, jismoniy cheklangan, nogiron talabalarni o'qitishda elektron o'qitish va masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali o'quv materiallarini erkin shaklda olish va uzatish imkoniyati ta'minlanishi zarurligi ta'kidlangan. Davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagilar asos qilib olingan:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RBQ-637-sonli Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-yanvardagi ilm-fanni rivojlantirishga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishi hamda geologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot muassasalariga tashrif davomida o'tkazilgan 5-sonli majlis bayoni.

DTS tuzilmasi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan: 1.DTS ni ishlab chiqish asoslari 2.Qo'llanish sohasi 3.Atamalar, ta'riflar, qisqartmalar 4.Bitiruvchilarining kasbiy faoliyatlari tavsifi 5.Ta'lim sohalari bitiruvchilarining kompetensiya darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar 6.Ta'lim sohalari bo'yicha o'quv rejalari tuzilmasi 7.Ta'lim sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini baholash.

Davlat ta'lim standartida o'quv rejalardagi har semestr uchun kreditlar hajmi 30 kredit qilib belgilangan, fanlarga kamida 3 kredit ajratiladi. Ta'lim dasturlari 2 xil – majburiy va tanlov fanlaridan iborat bo'ladi. Majburiy fanlarga kreditlari malaka talablarida belgilangan fanlar kiradi. Tanlov fanlariga – oliy o'quv yurti tomonidan belgilanadigan va talabalar tomonidan tanlanadigan fanlar ro'yxati kiradi. Bakalavriatda o'qish 4 yil davomida 204 hafta davom etadi. Bunda nazariy, amaliy ta'lim va attestatsiyalarga – 40-60%, ta'tilga – 10-30%, malaka amaliyotiga – 15-25% va bitiruv malakaviy ishiga – 2-7% hafta ajratilgan. Magistratura o'qish 2 yil davomida 100 hafta davom etadi. Bunda nazariy ta'lim, ilmiy faoliyat va attestatsiyalarga – 60-76%, ta'tilga – 14-24%, ilmiy amaliyot (stajirovka) ga – 6-10% hafta ajratilgan.

Nodavlat oliy ta'limda bakalavriatda fanlar

tuzilmasi 4 ta blokda (tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari va qo'shimcha fanlar), magistraturada esa ilmiy faoliyat turi ham qo'shilib 3 ta blokda (umum metodologik fanlar, mutaxassislik fanlari, ilmiy faoliyat) jamlangan. Fan bloklarining har biri majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Talaba u yoki bu fanni o'rganayotib kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan aniq hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni orttiradi. Fanlarda qanday bilimlar qay tarzda o'zlashtirishi belgilab beriladi. Fanlar ichida sohadagi so'nggi ilmiy yutuqlardan kelib chiqib mavzular, qonunlar, dalillar jamlanadi va ularning mazmuni talqin qilinadi. O'quv rejalarda fanlar mantiqiy ketma-ketlikda, o'zaro bog'liqlikda joylashtiriladi. Bunga fanlarni prekvizitlar va postkvizitlarga ajratish orqali erishiladi.

Kredit ta'lim tizimida tanlov fanlari katalogi (TFK) mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasining majburiy elementlaridan biri sanaladi va u oliy o'quv yurtining Uslubiy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mutaxassislikning TFK talaba tomonidan o'zining o'quv trayektoriyasini moslashuvchan tarzda shakllantirish uchun tanlanadigan fanlar ro'yxatidan iborat.

TFK oliy o'quv yurtining barcha yo'nalish va mutaxassisliklari bo'yicha tuziladi va kelgusida kasbiy faoliyat turlari hamda va mutaxassisning har tomonlama yetuk kadr bo'lib shakllanishi uchun zarur bo'lgan fanlarni o'zida qamrab oladi. TFK da ta'lim dasturidagi barcha tanlov fanlarining qisqa mazmuni keltiriladi.

Xulosa. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida kredit ta'lim tizimi o'qituvchilarning ishini sezilarli darajada o'zgartirib yuboradi, ular o'z oldiga doim o'zini-o'zi takomillashtirish va o'z bilimini oshirish, o'quv jarayonining yangi o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish zaruriyatini qo'yishadi. Bunda eng avvalo auditoriyada foydalaniladigan materiallar mazmuniga jiddiy e'tiborni qaratgan holda talabalarining mustaqil ishi yanada sifatli va ahamiyatli bo'lishi ta'minlanadi. Talabalarining bilish faoliyatini, ayniqsa auditoriya mashg'ulotlarini tashkil qilish va ularni boshqarish kompleks uslubiy va didaktik ishlanmalar bo'lishini nazarda tutadi. Kredit ta'lim tizimida talabalarining qiziqishlarini to'liq hisobga olish, ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini ta'minlash, o'qituvchilar o'rtasida raqobat muhitini yaratish, turli ta'lim usullarini takomillashtirish va qo'llashni, shu jumladan o'quv-uslubiy ta'minot sifatini yaxshilashni ham nazarda tutadi. Kredit ta'lim tizimi har bir fan bo'yicha yangi avlod darsliklari va o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va joriy qilishni nazarda tutadi. Fanning o'quv-uslubiy majmuasi (O'UM) mavjud an'anaga ko'ra o'quv ijodiy jarayonlarning tashkiliy-uslubiy ta'minotining asosi hisoblanadi. Shunga muvofiq, fanlarning O'UM ni yaratish, sinovdan o'tkazish, takomillashtirish masalalariga pedagogik izlanishlarda muhim e'tibor qaratiladi. Fanlarning

O'UM uzluksiz ta'limning barcha bo'g'in va tarmoqlarida axborot muhitini mustahkamlash va rivojlantirish va resurs bilan ta'minlashning muhim omili sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. Т.: "Tafakkur" нашриёти, 2020. 120-бет.
2. Ўринов В. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида ECTS кредит-модуль тизими: асосий тушунчалар ва қоидалар. Ўқув қўлланма. Нью Брансвик Университети, 2020 й.
3. Inomiddin Imomov. English Speaking Nation: Uzbekistan. 2022/11/30. Journal WATESOL Newsletter. Publisher WATESOL Volume 3 Issue Fall 2022, Pages 22-25.
4. Inomiddin Imomov. Teaching economic terminology through interactive techniques. Conference Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'limning transformatsiyasi. Volume 1. Issue1. 2022/11/30. Pages 365- 367
5. Baybaeva, M. K., & Imomov, I. A. (2021). Organizational and regulatory framework for creating a healthy and creative environment in management activities based on the supervision skills of managers in the context of modernization of education. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 752-758.
6. Imomov, Inomiddin A. "COMPETENCY BASED TEACHING OF FOREIGN LANGUAGE." COMPETENCY 10 (2019): 10-2019.
7. Parhadjanovna S. S. MASTERING THE ART OF READING: TECHNIQUES AND STRATEGIES TO ENHANCE READING SKILLS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 482-485.
8. Saidakbarova S. P. et al. The Role Of Speech Genres In The Communication Process //Educational Administration: Theory and Practice. – Т.: 2024.30.№. 5. 2500-2503-с.
9. <http://bimm.uz> – Олий таълим тизими педагог ва раҳбар кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш бош илмийметодик маркази

O'Imas SAIDOV,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"O'zbek tilshunosligi" kafedrasini mudiri, dotsent,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*



ISH YURITISHGA OID TERMINOLOGIK BIRLIKLARNING SHAKLIY TAVSIFI

Annotatsiya: terminologik tizimda tabiiy tilga xos lingvistik qonuniyatlar ham o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ish yuritish terminlarini ham tartibga solib turish zaruriyati mavjud. Ushbu maqolada (O'zbek tilining izohli lug'atidagi) ish yuritish terminlarining struktur tavsifini o'rganish orqali milliy va o'zlashma terminlardan ish yuritish terminologiyasining shaklga oid ba'zi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi, taklil va mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: *termin, lug'at, texnik terminlar, metodologik asos, ish yuritish terminlari.*

Аннотация: лингвистические законы, свойственные естественному языку, также выражаются в терминологической системе. Поэтому возникает необходимость регулирования условий работы. В данной статье (в толковом словаре узбекского языка) путем изучения структурного описания деловых терминов рассматриваются некоторые особенности формы деловой терминологии из национальных и родных терминов, высказываются предложения и замечания.

Ключевые слова: *термины, лексика, технические термины, методологическая основа, деловые термины.*

Annotation: linguistic regularities specific to natural language are also expressed in the terminological system. Therefore, there is a need to regulate the working terms. In this article (in the explanatory dictionary of the Uzbek language), by studying the structural description of business terms, some features of the form of business terminology from national and native terms are discussed, suggestions and comments are made.

Key words: *terms, vocabulary, technical terms, methodological basis, business terms.*

Ish yuritish terminlari har qanday ilmiy terminosistema kabi tushunchalarning shunchaki ro'yxati emas,

balki o'ziga xos semiologik tizimdir. Bu terminlar ayni paytda ijtimoiy hayot, iqtisodiyot, huquq, menejment, savdo va ta'lim sohalarida keng qo'llanuvchi, ish yuritishga bilvosita aloqador tushunchalarning muayyan tizimini ifodalaydi. Terminologik tizimda tabiiy tilga xos lingvistik qonuniyatlar ham o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ish yuritish terminlarini ham tartibga solib turish zaruriyati mavjud. Ushbu maqolada (O'zbek tilining izohli lug'atidagi) ish yuritish terminlarining struktur tavsifini o'rganish orqali milliy va o'zlashma terminlardan ish yuritish terminologiyasining shaklga oid ba'zi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi, taklif va mulohazalar keltiriladi.

Umumtil leksikasida birikma shaklidagi birliklarning mustaqil atov birliklar sifatida qo'llanishi kam kuzatiladigan holatdir. Ayrim hollarda leksik lakunalar bilan bog'liq ravishdagi bunday qo'llanishlarga duch kelishimiz mumkin. [1. 258]

Ko'p hollarda terminlar struktur tarkibi jihatidan turlarga ajratilganda o'zak miqdoriga ko'ra sodda, qo'shma, juft, murakkab, birikmali, birikma terminlar qo'llangan holda guruhlanadi. Shuningdek, terminlarning morfologik jihatdan, asosan, ot so'z turkumiga oidligi formal-struktur jihatdan qisqartma shakldagi terminlar ham mavjudligi tabiiy hol ekanligini ko'rsatadi. Ish yuritish terminlari sistemasida ham qisqartma (abbreviatsion) terminlar mavjud. Ular haqida quyiroqda batafsil to'xtalamiz.

O'zbek tilining texnik terminologiyasini tadqiq qilgan olim R.Doniyorov terminlarni tuzilishiga ko'ra o'ziga xos tarzda tasniflaydi. U birdan ortiq leksik uzvdan tashkil topgan terminlarga sintaktik yo'l bilan hosil bo'lgan termin sifatida qaraydi. Uning fikricha, terminologiyada yakka so'zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan hosil bo'lgan terminlar salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar, barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi [3.148]. Rus tilshunosi A.N.Kojin ham "terminlarda ifodalanayotgan narsaning belgisi shundoqqina ifodalanib turadi, ular bilish sari harakat jarayonida ijtimoiy ma'lumotlarni mustahkamlashda so'zdan iborat to'siqni oshib o'tishga yordam beradi" degan xulosani aytib o'tgan. Anglashiladiki, R.Doniyorov ushbu fikrga metodologik asos sifatida tayangan.

R.Doniyorov sintaktik usul bilan hosil bo'lgan texnik soha terminlarini ot+ot, nisbiy sifat+ot, sifat+dosh+ot, jarayon nomi+ot tipidagi ko'rinishlarga ajratgan. Olim ot+ot tipidagi terminlarni I tip izofali, II tip izofali, III tip izofali turlarga bo'lgan. U bunday terminlarni yasalishi jihatidan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar sifatida, tuzilishi jihatdan esa

qo'shma terminlar sifatida baholagan. [4.148]

R.Doniyorovning texnik terminlar tasnifida ayrim e'tiborga molik jihatlar ko'zga tashlanadi. Birinchidan, olim sintaktik usul bilan yasalgan terminlar sirasida fe'l turkumiga mansublarini ajratmaydi. Ikkinchidan, ayrim sintaktik usul bilan hosil bo'lgan terminlarning qoliplarini morfologik (masalan, ot+ot tipidagi), ba'zilarini semantik (jarayon nomi+ot) asosda belgilaydi. Umuman olganda, R.Doniyorov texnik terminlarni tuzilishi jihatidan an'anaviy tarzda sodda va qo'shma turlarga ajratadi.

O'zbek tili ish yuritish terminologiyasi bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan N.Sadinovanning ilmiy ishida sohaga oid terminlar tuzilishiga ko'ra qo'shma, yasama, birikma terminlarga ajratib o'rganiladi. [5.62] Olima sohaga oid terminlarni ajratishda morfologik va sintaktik usul mahsuldor ekanligini ta'kidlab, sintaktik usul bilan yasalgan sohaga oid qo'shma terminlarni yasaliş modeliga ko'ra ot+ot: xatjild, yilchorak, yukxat; sifat+ot: qimmatbaho, xomashyo; son+yasama ot: birbutunlik, o'nkunlik; olmosh+fe'l: kimoshdi; ravish+ot: kamunum, kammahsul kabi guruhlarga ajratadi. Shuningdek, ish yuritish sohasida yasama terminlarni hosil qilishda 20 ga yaqin so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etishini, lekin ularning bu soha terminlarini hosil qilishdagi imkoniyatlari bir xil emasligini aytib o'tadi. Jumladan, -ma, -chi, -lik, -(u)v, -q(-iq, -uq, -ik), -im, -dor, -lash, -lashtirish kabi qo'shimchalar va -noma, -xona affiksoidlarining yasama terminlarni hosil qilishda faol ishtirok etishi kuzatilgan. Mazkur ishda ish yuritishga oid yasama terminlarni hosil qilishda -noma affiksoidining faollashgani va hujjat nomlarini yasovchi qo'shimcha sifatida maxsuslashgani hamda "Qisqacha ruscha-o'zbekcha-inglizcha ish yuritish lug'ati"da noma so'zi yordamida hosil qilingan 30 dan ortiq termin keltirilgani qayd etilgan. N.Sadinovanning fikricha, "Muayyan affiks yoki affiksoidlarni maxsuslashtirish orqali qisqa, aniq va monosemantik terminlarni hosil qilish, birikma va tavsifiy terminlardan qutulish mumkin bo'ladi". Komponentlariga ko'ra murakkab terminlarning "birikma termin" shaklida qo'llanishi kuzatiladi. Qo'shma so'zlarning ko'pchiligi so'z birikmasi orasidagi sintaktik aloqaning yo'qolishi natijasida vujudga kelgan. Lekin juda ko'p yangi tushunchalar so'zlar orasidagi sintaktik aloqani saqlagan holda, ya'ni so'zlar sintaktik yo'l bilan birikkan holatda nomlanadi va "birikma termin"lar hosil qilinadi. N.Sadinova ham ishida "birikma termin" atamasini qo'llaydi va keyingi davrlarda ish yuritish sohasida birikma terminlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq holatlarni aytib o'tadi. Xulosa qilib aytganda, O'TILda berilgan ish yuritishga bilvosita daxldor terminlar tuzilishi jihatdan sodda,

qo'shma, juft, birikma, qisqartma terminlar guruhlariga birlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1990. – С. 258; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е. – М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1969. –С.215; Ҳоҗиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 49
2. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. 148-bet.
3. Sadinova N. O'zbek tili ish yuritish terminologiyasi: Filol. fan. bo'yicha fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2022.
4. Sadinova N. O'zbek tili ish yuritish terminologiyasi: Filol. fan. bo'yicha fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2022.
5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. 62-bet.

Akbar RUZIYEV,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
kechki bo'lim boshlig'i, f.f.f.d., PhD
ruziyevakbar@navoiy-uni.uz*

TILSHUNOSLIKDA DISKURS ATAMASI TALQINI

Annotatsiya: maqolada diskurs, diskurs turlari va diskursni matn lingvistikasining predmeti sifatida, nutq tahlilini esa uning usullaridan biri ekanligiga aloqador fikrlar haqida so'z yuritiladi. Muallif nutqda diskurs keng va xilma xil namoyon bo'lishini, nutqiy vaziyatning turfaligi, o'zaro konfliktli obrazlar nutqi va xatti-harakatlarining o'ziga xos majmui diskurs tahlilni amalga oshirish zarurligiga aloqador xulosalarni beradi.

Kalit so'zlar: *individual, xususiy diskurs, mental omillar, adresat, kommunikativ muloqot, aniq, haqiqiy, faraziy, yagona, massiv.*

Аннотация: в статье обсуждается мысль о том, что дискурс, виды дискурса и дискурс являются предметом лингвистики текста, а анализ речи является одним из ее методов. Автор приходит к выводу о широте и разнообразии дискурса в киносценариях, многообразии речевой ситуации, специфике речи и поведения конфликтных образов, необходимости дискурсивного анализа.

Ключевые слова: *индивид, частный дискурс, ментальные факторы, адресат, коммуникативное общение, ясное, реальное, гипотетическое, уникальное, массовое.*

Annotation: the article discusses the idea that discourse, types of discourse, and discourse are the subject of textual linguistics, and that speech analysis is one of its methods. The author concludes that the discourse in the screenplays is wide and diverse, the diversity of the speech situation, the specificity of the speech and behavior of conflicting images, the need for discourse analysis.

Key words: *individual, private discourse, mental factors, addressee, communicative communication, clear, real, hypothetical, unique, massive.*

Nutqni har xil aspektlarda tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotlar turli fan tarmoqlarining yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Nutqning muloqotga uzatishdan boshlab to qayta ishlash va qabul qilish jarayonlari muayyan lingvistikaga oid fan yo'nalishlarida alohida tadqiq qilinadi. Nutqning kommunikantlar tomonidan qabul qilinishi va o'zlashtirilishi har bir muloqot ishtirokchilarida individual xarakter kasb etadi. Ana shu individualliklarni tadqiq etuvchi lingvistik fan sohasi pragmatolingvistika sanalsa, uning asosiy masalalaridan biri sifatida diskursni ko'rsatish mumkin.

Tilshunos olim L.Raupova "diskurs" termini tilshunoslikda o'tgan asrning 50-yillarida birinchi marta tilga olinganligini qayd etadi. Bu ibora

amerikalik tilshunos Z.Harrisning 1952-yilda nashr etilgan "Diskurs tahlili" deb nomlangan maqolasida ishlatilgan. Tilshunos Sh.Gulyamova o'zining shu mavzu bo'yicha olib borgan izlanishlarida quyidagilarni qayd etadi: "diskurs, Zellig Harrisga ko'ra (1951), "Hozirgi deskriptiv tilshunoslikda birdan ortiq so'zlar, odatda, hisobga olinmaydi. Tilshunos, odatda, elementlarning o'zaro bog'liqligini bir vaqtning o'zida faqat bitta gapda ko'rib chiqadi. Bu materialning mumkin bo'lgan tavsifini beradi, chunki har bir so'z (yoki so'z turi) ichidagi elementlarning o'zaro aloqasi ishlab chiqilgan va boshqa nutq so'zlarning ketma-ketligi, ya'ni o'zaro bog'liqliklarga ega bo'lgan elementlarning ketma-ketligi sifatida tavsiflanadi. Bu cheklov shuni

anglatadiki, ketma-ketlikdagi barcha soʻzlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik haqida hech narsa aytilmagan”.

“Harris diskurs-tahlil qaratilgan izlanishni anchayin qiziqarli tarzda chiqarib tashlaydi. U tilshunoslik tadqiqotlari mulohaza elementlariga asoslanadi, diskursni fikrning davomi deb hisoblash kerak, degan fikrni ilgari surgan. Harris, diskurs doirasida soʻzlar oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganish soʻzlashuv tahlilining hajmi oʻsha davrning nazariy apparatini qayta ishlashdan koʻra koʻproq maʼlumot talab qildi, deya taʼkidlaydi. Bu 1950 va 1960-yillar uchun toʻgʻri boʻlsa-da, taxminan, lekin 1970-yillarda pragmatika, suhbatni tahlil qilish, matn tilshunosligi va dolzarblik nazariyasi kabi turli xil yondashuvlar paydo boʻldi”.

Tilshunos Sh. Bobojonova Harris va Grenoblening diskursga bergan taʼriflariga muvofiq, diskurs nutqning istalgan koʻrinishida soʻzlarning oʻzaro munosabatiga asoslanadi. Ushbu taʼrifni diskursga berilgan dastlabki taʼriflardan biri sifatida, uning faqat bir qirrasinigina ifodalaydi deyish mumkinligini qayd etadi. Sababi soʻzlarning oʻzaro munosabati diskursning butun mohiyatini ochib berolmaydi. Ayni damda muayyan bir qirrasini ifoda etadi. 1988-yilda nashr etilgan “Collins concise english dictionary”da diskursning 7 xil izohi keltiriladi:

1) ogʻzaki muloqot; suhbat, suhbat; 2) mavzuni nutqda yoki yozishda rasmiy muomala qilish vositasi; 3) tilshunoslar bir nechta jumalarni qamrab oladigan lingvistik hodisalarni tahlil qilish uchun foydalanadigan matn birligi; 4) gapirish: fikr yuritish qobiliyati (arxaik); 5) rasmiy gapirish yoki yozish; 6) munozara oʻtkazish; 7) musiqa (arxaik) (XIV asr, Oʻrta asr lotin tilidan).

Mutaxassislarning koʻrsatishicha, oʻtgan asrning 60-yillari boshlarida antropolog Dell Humes ilk bor diskurs tushunchasi va uning ahamiyati bilan shugʻullangan. Uning kuzatishlari asosida diskurs tushunchasini lingvistik termin sifatida tilshunoslik sohasiga olib kirilgan. Dell Humes mulohazasiga qaraladigan boʻlsa, diskurs kishilarning ogʻzaki nutqda bir-birlari bilan muloqotga kirishishi, yaʼni kommunikativ hodisa sifatida tushunish toʻgʻri boʻladi. Yaʼni diskurs – bu faqatgina muloqot, ammo diskurs nafaqat muloqotni, balki matn bilan ham oʻzaro uygʻunlikda sodir boʻladigan holat ekanligini unutilib boʻlmaydi. Tilshunos L. Raupova oʻz tadqiqotida oʻtgan asrning

60-yillarida Dell Humes tilning sotsiumdagi holatini tahlil qilishni yoʻlga qoʻyganligini, Dj. Syorl, M. Grays kabi tilshunos faylasuflar ham tilni ijtimoiy voqelik sifatida tadqiq qilishga, muloqotning shakllanishini va nutq nazariyasini oʻrganishga kirishdilar, pragmatik yoʻnalishini tanlab, matndan anglashilgan maʼnoni tahlil qila boshlashganligini oʻrinli qayd etadi.

Muloqotda milliy, umumiy va individual, xususiy mentalitet va madaniyat aks etadi. Demak, “... muloqot murakkab kommunikativ hodisa boʻlib, u matndan tashqari matnni tushunish uchun zarur boʻlgan ekstralingvistik omillar (dunyoni bilish, fikr-mulohazalar, joʻnatuvchining munosabati, maqsadlari) ni ham oʻz ichiga oladi”. Shuni taʼkidlash kerakki, ushbu taʼrif zamonaviy davr matniga oid koʻplab lingvistik tadqiqotlar uchun asosdir. Xususiy diskurslar mohiyatan muayyan bir etnik, kulturologik, tarixiy, dinamik, sotsiologik va shu singari keng maydonni qamrab oladi va aynan xususiy diskurslarning lingvistik mohiyatini oʻrganish, izohlash tilning ichki va tashqi imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi.

Tilni aloqa vositasi sifatida quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1) pragmalingvistikada til aloqasini tavsiflashning asosiy tushunchasi faoliyat tushunchasidir;

2) til kommunikantlarning dinamik oʻzaro taʼsiri vositasidir;

3) tilning faoliyati uni qoʻllashning situatsion va ijtimoiy-psixologik konteksti bilan uzviy bogʻliqdir.

Adresantning maʼlumotni qabul qiluvchiga joʻnatuvchi sifatidagi pragmatik yoʻnalishi ikkalasi tomonidan til vositalarini tanlashda topiladi. Potensial oluvchilarning quyidagi turlari aniqlandi:

1) aniq, haqiqiy; 2) faraziy; 3) yagona; 4) ommaviy.

Kommunikativ niyat asosida yotgan gʻoya yoki motiv intensiya (lot. – niyat) deb ataladi. Maʼruzachi maqsadli ravishda oʻz niyatini maksimal aniqlik va izchillik bilan ifodalashi kerak boʻlgan shunday til vositalarini tanlaydi. Nutq xulq-atvori strategiyasi unga kommunikativ niyatning aniq (yaxshi) va yashirin (yomon) ifodasi oʻrtasida tanlovni talab qiladi. Bayonotda noaniqlik boʻlsa, kommunikativ kompetensiya yordamga keladi, bu esa uni qabul qiluvchi tomonidan toʻgʻri talqin qilinishini taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раупова Л. Диологик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи. Филол. фан.д-ри дисс. – Тошкент, 2012. -Б. 261.

2. Harris Z.S. Discourse analysis // Language, 1952.

3. Ш.Гулямова. Монологик дискурсдаги қўшма гапларнинг социопрагматик талқини (ўзбек ва инглиз тилларидаги материаллар асосида). Филол.фан.д-ри дисс. – Андижон, 2022. -Б. 137.

4. L.A.Grenoble. Discourse analysis. – USA: Dartmouth College, 2000.

5. Остин Дж.Л. Слово как действие. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – М.: Прогресс, 1986. –С. 22-130.

6. Голубкина Л.В. Работа над сценарной заявкой / Людмила Викторовна Голубкина. – М.: ВГИК, 1974. – С. 36.

Parviz IZZATILAYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.



“MAJOLIS UN-NAFOIS” VA UNING FORSCHA TARJIMASI “LATOYIFNOMA” ORASIDAGI AYRIM IXTILOFLAR

Annotatsiya: Eronda navoiyshunoslik bevosita “Majolis un-nafois” tazkirasining fors tiliga tarjima qilinishi bilan bog'liq. Ushbu asar bugungi kungacha fors tiliga besh marotaba tarjima qilingan. Ammo tarjimalarning barchasida u yoki bu darajada asl matndan yiroqlashish ko'zga tashlanadi. Mazkur maqolada “Majolis un-nafois” tazkiraning ilk forsiy tarjimasini sanalgan “Latoyifnoma” tahliliga tortilib, uning asl turkiy matn bilan o'zaro farqli jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *tazkira, “Majolis un-nafois”, qo'lyozma nusxa, tajima, Faxriy Hiraviy, “Latoyifnoma”, “Toshkent nashri”, “Tehron nashri”.*

Аннотация: в Иране навоиведение напрямую связано с переводом тазкиры «Маджалис-ан-нафаис» на персидский язык. Эта работа была переведена на персидский язык пять раз. Однако во всех переводах в той или иной степени заметны отклонения от оригинального текста. В данной статье анализируется «Латоифнаме», считающаяся первым персидским переводом тазкиры «Маджалис-ан-нафаис», и обсуждаются её отличия от оригинального тюркского текста.

Ключевые слова: *тазkira, «Маджалис-ан-нафаис», рукописная копия, перевод, Фахри Хирави, «Латоифнаме», «Ташкентское издание», «Тегеранское издание».*

Annotation: the article discusses the direct relationship between the field of Navoi studies and the Persian translation of “Majolis un-nafois” in Iran. This work has been translated into Persian five times up to the present day. However, all of these translations exhibit varying degrees of deviation from the original text. In this article, the first Persian translation, known as “Latoifname,” is analyzed, and the differences between it and the original Turkic text are examined.

Key words: *tazkira, “Majolis un-nafois”, copy manuscript, translation, Fakhri Khiravi, “Latoifname”, “Tashkent edition”, “Tehran edition”.*

Eronda navoiyshunoslik tarixi bevosita “Majolis un-nafois” tazkirasining tarjima qilinishi bilan bog'liq jarayonda o'z aksini topgan. Tazkirada turkiy xalqlar shoirlari bilan bir qatorda ko'plab forsiy xalqlar shoirlari hayoti va ijodi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlarning keltirilishi XVI asrning boshlaridanoq bu asarga bo'lgan qiziqishning ortishiga olib keldi. Yuqoridagi omillar sabab mazkur asar fors tiliga besh marotaba tarjima qilindi.

“Majolis un-nafois” tazkirasining ilk forsiy tajimasini nashrga tayyorlagan Eronlik navoiyshunos Ali Asg'ar Hikmatning kitobga yozgan muqaddimasidan “Latoyifnoma”ni nashr etishda faqatgina bitta forscha nusxadan foydalanib, so'ngra uni “Majolis un-nafois” asarining uch turkiy tildagi qo'lyozmasi bilan qiyosiy o'rgangani ma'lum bo'ladi.

“Majolis un-nafois” tazkirasini va uning forscha tarjimasini “Latoyifnoma” orasida shoirlar to'g'risidagi ma'lumotning ma'nosi bilan bog'liq tafovutlar mavjud. Ayni ma'lumotlardagi bu kabi tafovutlarni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

- 1) shoirlar bilan bog'liq ixtiloflar;
- 2) shoirlarning she'ri bilan bog'liq ixtiloflar.

“Tehron nashri”da ayrim shoirlar haqidagi ma'lumot bilan “Toshkent nashri”da aynan o'sha shoirlar haqidagi ma'lumot orasida ixtiloflar bor. Mazkur ixtiloflar asosan

kishilar ismi va joy nomlari bilan bog'liqdir. Quyida joy nomlari bilan bog'liq ayrim farqlarni keltiramiz:

“Tehron nashri”da **Mavlono Amiriy** haqida keltirilgan ma'lumotning xotima qismida uning vafot etgan joyi borasida shunday yozilgan: *“Qabrash jonibi Badaxshon dar Arhangu Sar ast”* [2, 19].

Ammo “Toshkent nashri”da uning vafot etgan manzili bo'yicha shunday ma'lumot keltiriladi: *“Aning qabri Badaxshon sari Arhang Saroydadur”* [1, 302]. Boshqa tazkiralarda Mavlono Amiriy vafot etgan joy nomi to'g'risida ma'lumot uchramaydi.

“Tehron nashri”da **Shayx Sadridin Ravosiy** to'g'risidagi ma'lumotda uning dafn etilgan manzili quyidagicha keltiriladi: *“Dar shahri Hirot az olam raft va na'shi o'ro ba viloyati Shug'on burdand va onjo madfun ast.”* [2, 28].

“Toshkent nashri”da ham mazkur shoirning dafn etilgan manzili yuzasidan shu mazmundagi ma'lumot keltiriladi: *“Shayx Hiriy shahrida olamdan o'tti va na'shin Shug'ong'a eltilar va anda madfundur”* [1, 311].

“Tehron nashri”da **Mullo Muhammad Badaxshiyning** qayerlik ekanligi to'g'risida shunday bayon qilinadi: *“Az qariyai Ishkamesh ast, ki dar navohii viloyati Qundur ast”* [2, 95].

Biroq “Toshkent nashri”da yuqoridagi qayddan biron farq qiluvchi ma'lumot keltiriladi: *“Qunduzning Ishkamish o'tlig' kentidindur”* [1, 381].

Bular orasidan “Ishkamish” va “Qunduz” to‘g‘ri variant hisoblanib, boshqa manbalarda ham mazkur joy nomlari shu shaklda tilga olinadi. Jumladan, “Haft iqlim” asarining muallifi Qunduzni Kobul shimolidagi bir viloyat sifatida [6, 610], Badaxshiyning tug‘ilgan joyini esa “Ishkamish” [6, 609] tarzida tilga oladi. Tarix va jug‘rofiyaga oid manbalarda “Qundur” va “Ishkamesh” nomli viloyatlar tilga olinmagan, biroq “Tehron nashri”ning ta‘sirida “Farhangi suxanvaron” asarida ham Badaxshiyning tug‘ilgan joyi ishtibohan “Ishkamesh” [5, 519] tarzida keltiriladi.

Shuni ham alohida qayd o‘tib o‘tish lozimki, “Tehron nashri”da **Mavlono Qabuliy Qunduriy** to‘g‘risidagi ma‘lumotda “Qunduz” ishtibohan “Qundur” [2, 72] tarzida zikr etilgan va bu xatolik keyinchalik yozilgan “Farhangi suxanvaron” [5, 468] va “az-Zari‘a” [4, 875] asarlariga ham ko‘chgan. Biroq Qazviniyning “Majolis un-nafois”dan qilgan forsiy tarjimasida [2, 242] hamda “Arafot ul-oshiqin” tazkirasida [3, 3408] mazkur viloyatning nomi “Qundo‘z” tarzida qayd etilgan.

Shoirilar bilan bog‘liq ixtiloflardan tashqari ba‘zida “Tehron nashri” bilan “Toshkent nashri” orasida turli shoirlar ijodidan keltirilgan she‘rlar va ularning mazmun-mohiyatida ham tafovutlar borligi aniqlandi. Ulardan ayrimlarini quyida keltirib o‘tamiz:

“Tehron nashri”da **Mavlono Zohidiy** to‘g‘risida keltirilgan ma‘lumotda undan shunday bir bayt keltiriladi: “Zuhraro jang borubob ki dod, La‘l dar sang yo Rab ob ki dod.” [2, 18]

Bizningcha, xato tarzda yozilgan “borubob” so‘zidan maqsad “bo rubob” bo‘lsa, bu misralardan shunday ma‘no kelib chiqadi: “Kim Zuhra va rubob orasiga nifoq soldi.” Ammo ayni shu misralar Toshkent nashrida: “Zuhraro chang yo rubob ki dod” [1, 302] va “Arafot ul-oshiqin”da: “Zuhraro chang bo rubob ki dod” tarzida keltiriladi [3, 1649]. “Toshkent nashri” hamda “Arafot ul-oshiqin” asarida keltirilgan ushbu baytning ma‘nosi bir-biriga ancha yaqindir, ya‘ni “Kim Zuhraga [chalishi uchun] chang yo [va] rubob berdi” degan ma‘no anglashiladi.

Sharq adabiyotida “Zuhra” va “Nohid” yulduzi xursandchilikning mazhari bo‘lib, uni “falak mutribi” sifatida ham talqin qilganlar. Shuningdek, ko‘plab shoirlar, jumladan, Hofiz Sheroziyning she‘rlarida ham bu mavzu tilga olinadi:

“Biyovar may, ki natvon shud zi makri osmon emin,

Ba lo‘bi Zuhrai changivu Mirrixii silahshurash.” [7, <https://ganjoor.net>]

Yuqoridagi misoldan “Toshkent nashri” va “Arafot ul-oshiqin” asarida keltirilgan variantning mazmuni, ya‘ni “Zuhraga [chalishi uchun] chang yo [va] rubob bermoq” “Tehron nashri”da keltirilgan “Zuhra va rubob orasida urush chiqarmoq”dan ko‘ra aqlga sig‘adigan holatdir.

“Tehron nashri” bilan “Toshkent nashri” o‘rtasidagi she‘rlarda bundan boshqa ixtiloflar ham anchagina topiladi. Jumladan, Mavlono Muhammad Olim (1-majlis, 16-raqam, 15-bet), Mavlono Sulaymoniy (1-majlis, 34-raqam, 31-bet), Mavlono Tuti (2-majlis, 56-raqam, 31-bet) kabi shoirlarning she‘rlarida ham bu kabi tafovutlar mavjud.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida ko‘p hollarda shoirlar ijodidan namuna sifatida bir yoki ikki bayt keltirish bilan cheklangan. “Tehron nashri”da esa ba‘zan mazkur she‘rlarning ayrim misralari keltirilmasdan ularning o‘rni ochiq qoldirilgan. Bu kabi kamchiliklardan quyida bir misol keltiramiz:

“Tehron nashri”da **Sulton Iskandar Sheroziy** qalamiga mansub ruboiyning ikkinchi bayti quyidagicha keltiriladi:

“Tori muyugning do‘konin mubin,
Yo misrifi yo Halabni... yo Rumi.” [2, 125].

“Toshkent nashri”da ruboiyning ikkinchi misrasi to‘g‘ri tarzda shunday beriladi:

“Tori mo‘yungning zakotin men beray,
Yo Misrni, yo Halabni, yo Rumi.” [1, 412].

“Toshkent nashri”ni to‘g‘ri deyishimizga sabab shuki, yuqoridagi “Tehron nashri”dagi baytdan ma‘no chiqara olmaganimiz bir paytda mazkur nusxada keltirilgan baytdan ma‘no chiqara olamiz, ya‘ni shoir bu bayt bilan “ma‘shuqaning har tola sochi Misr, Halab va Rum mamlakatlaridan-da qadrliroq” ekanligini va uning bir tola sochiga mazkur shaharlarni tortiq etishga tayyor ekanligini uqtirmoqchi bo‘ladi.

S. G‘aniyeva nashr etgan “Majolis un-nafois” va A. Hikmat nashr etgan “Latoyifnoma”ni o‘zaro qiyosiy o‘rganish natijasida, ular orasida anchagina tafovut borligi misollar keltirish yo‘li bilan ko‘rsatib o‘tildi. Bunday tafovutlar asarning boshqa forsiy tarjimalarida ham anchaginani tashkil qiladi. Bu esa “Tehron nashri”ni tayanch manba – “Toshkent nashri” yordamida bartaraf etishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami (10 jildlik). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. 9-jild.
2. امير عليشير نوایی، مجالس النفايس، به كوشش علی اصغر حکمت، منوچهری، تهران 1323.
3. اوحدي بليانی، تقی الدين محمد. عرفات العاشقين و عرصات العارفين. به تصحيح ذبيح الله صاحب كاری و آمنه فخر احمد. ج 6. تهران: ميراث مکتوب، 1389.
4. آقابرگ تهرانی، محمد محسن. الذريعة الى تصانيف الشيعة. ج 9. بيروت: دار الاضواء.
5. خيامپور، عبدالرسول. فرهنگ سخنوران. تبریز: چاپ خانه شرکت سهامی چاپ کتاب آذربایجان، 1340.
6. رازی، امین احمد. هفت اقلیم. به تصحيح سيد محمد رضا طاهری. ج 2. تهران: سروش.
7. <https://ganjoor.net/hafez/ghazal/sh278>

Muhayyo ISMAILOVA,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti;
Sagdiyana ABDUSATTAROVA,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti;
Jahongir ASATULLAYEV,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING SALOMATLIK DARAJASINI ANIQLASH VA SPORTGA ISTIQBOLLILIGINI TASHXIS ETISH

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab o'quvchilarining salomatlik darajasi va ularning sportga istiqbolliligini (ya'ni iqtidor va imkoniyatlarini) tashxis etish masalalari batafsil tahlil etiladi. Tadqiqotda salomatlik va sport qobiliyatini baholash usullari, sportga moyillikni aniqlashda qo'llaniladigan ilmiy metodlar va pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, bu yondashuvlarning o'quvchilarning sport salohiyatini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilinadi. Ushbu maqola orqali o'quvchilarning salomatlik darajasini doimiy kuzatib borish, ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish va sport sohasida istiqbolliligini baholashning dolzarbligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: salomatlik darajasi, sport iqtidorini aniqlash, jismoniy faollik, sog'lom turmush tarzi, pedagogik yondashuv, istiqbollilik, maktab o'quvchilari, sport salohiyati.

Annotation: this article analyzes in detail the issues of diagnosing the level of health of schoolchildren and their prospects for sports (i.e. talent and potential). In the study, the methods of assessing health and sports ability, scientific methods and pedagogical approaches used in determining the inclination to sports are highlighted. Also, the impact of these approaches on the development of students' sports potential is analyzed. This article shows the importance of constantly monitoring the health of students, directing them to a healthy lifestyle, and evaluating their prospects in the field of sports.

Key words: health level, identification of sports talent, physical activity, healthy lifestyle, pedagogical approach, perspective, schoolchildren, sports potential.

Аннотация: в статье подробно анализируются вопросы диагностики уровня здоровья школьников и их спортивных перспектив (т.е. таланта и потенциала). В исследовании выделены методы оценки здоровья и спортивных способностей, научные методы и педагогические подходы, используемые при определении склонности к занятиям спортом. Также анализируется влияние данных подходов на развитие спортивного потенциала студентов. В данной статье показана важность постоянного контроля за здоровьем студентов, ориентации их на здоровый образ жизни, оценки их перспектив в сфере спорта.

Ключевые слова: уровень здоровья, выявление спортивных талантов, физическая активность, здоровый образ жизни, педагогический подход, перспектива, школьники, спортивный потенциал.

Kirish

Bugungi kunda yosh avlodning jismoniy sog'lomligi va rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktab o'quvchilari orasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish nafaqat ularning salomatligini mustahkamlash, balki jismoniy va ruhiy holatini barqarorlashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli o'quvchilarning sog'lig'ini baholash va sportga qobiliyatlarini aniqlash masalalari ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhimdir.

O'quvchilarning salomatlik darajasini o'z vaqtida baholab borish orqali sport turlari bo'yicha iqtidor va imkoniyatlarini aniqlash, ularning sport salohiyatini oshirishga yordam beradi. Tadqiqotda bu jarayonni qanday ilmiy metodlar orqali samarali tashkil qilish mumkinligi batafsil ko'rib chiqiladi.

Salomatlik darajasini aniqlashning asosiy yondashuvlari

Maktab o'quvchilarining salomatligini o'z vaqtida baholash sog'liqni saqlash va ularning

sport qobiliyatlarini aniqlashning muhim bosqichi hisoblanadi. Salomatlik darajasini aniqlashda quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

Antropometrik ko'rsatkichlar. O'quvchilarning bo'y, vazn va tana massasi indeksi (TMI) salomatlik holatining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar ularning jismoniy rivojlanish darajasini baholashda qo'l keladi. O'quvchilarning yoshiga mos ravishda bo'y va vazn o'lchamlari aniqlanadi, TMI orqali o'z tana vaznini me'yorda saqlash muhimligi tushuntiriladi.

Jismoniy testlar. O'quvchilarning jismoniy faollik va rivojlanish darajasini aniqlash uchun turli funksional testlar qo'llaniladi. Masalan, yugurish, o'tirib-turish, uzoqqa sakrash, matkap usulidagi mashqlar va boshqa jismoniy sinovlar yordamida ularning umumiy jismoniy holati baholanadi. Bu testlar jismoniy imkoniyatlarni aniqlash uchun aniq natijalar beradi.

Salomatlik haqida so'rovnoma va tibbiy tekshiruvlar: O'quvchilarning umumiy salomatlik holatini nazorat qilish uchun tibbiy tekshiruvlar va sog'liq so'rovnomalari

muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon tibbiy ko'riklar orqali ularning sog'liq muammolarini o'z vaqtida aniqlash va ularning sport faoliyatiga qanchalik tayyor ekanligini baholash imkonini beradi.

Sportga istiqbollilikni tashxis etish

O'quvchilarning sportga moyilligi va istiqbolliligini aniqlashda ilmiy va metodologik yondashuvlar mavjud. Sport qobiliyatini aniqlash o'quvchilarni sport turlariga yo'naltirish va ularning iqtidorini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Quyidagi mezonlar asosida sportga istiqbollilikni aniqlash mumkin:

Genetik omillar. Ba'zi sport turlari bo'yicha qobiliyat va iste'dod irsiy omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, tezlik va chidamlilikni talab qiladigan sport turlari uchun ma'lum genetik omillar belgilangan bo'lishi mumkin. Bunday omillarni tahlil qilish orqali sportga istiqbolli bolalarni aniqlash va ularni mos sport turlariga yo'naltirish mumkin.

Fiziologik mezonlar. Jismoniy kuch, tezlik, moslashuvchanlik, chidamlilik kabi fiziologik xususiyatlarni o'rganish sport iqtidorini aniqlashning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Maxsus testlar orqali bolalarning sport faoliyatiga mosligini baholash va ularni qaysi sport turi uchun istiqbolli ekanligini aniqlash mumkin.

Psixologik mezonlar. Bolalarning sportga qiziqishi, o'ziga ishonchi va maqsad sari intilishi sportda muvaffaqiyatga erishishning muhim jihatlardan biridir. Ularning psixologik jihatdan sportga qobiliyatli ekanligini aniqlash ham istiqbollilikni baholashda muhim hisoblanadi.

Pedagogik yondashuvlar va sportga qiziqtirish

O'quvchilarni sportga jalb etish jarayonida to'g'ri pedagogik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Maktab ta'lim jarayonida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish, o'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Sportga qiziqtirish uchun quyidagi yondashuvlar qo'llanilishi mumkin:

Motivatsion yondashuv: o'quvchilarni sportga qiziqtirish uchun ularga rag'bat berish va muvaffaqiyatlari uchun mukofotlash samarali usuldir.

Sport tadbirlari, musobaqalar va jamoaviy o'yinlarda ishtirok etish orqali ularda raqobat va jamoaviylik tuyg'usi rivojlanadi.

Individual yondashuv: har bir o'quvchining jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mos sport dasturlari ishlab chiqilishi lozim. Bu yondashuv ularning sport sohasida qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Tizimli nazorat va baholash: o'quvchilarning salomatlik va jismoniy tayyorgarlik holatini muntazam nazorat qilib borish muhimdir. Bu nafaqat ularning sport qobiliyatlarini rivojlantirishda, balki sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Takliflar va tavsiyalar

Maxsus salomatlik dasturlari: maktab o'quvchilari uchun salomatlikni oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar, masalan, jismoniy faoliyat, sog'lom ovqatlanish va ruhiy salomatlik.

Sport mashg'ulotlari: o'quvchilar uchun turli sport turlarini taklif etish, sport musobaqalarini o'tkazish va jamoaviy sport faoliyatlarini rag'batlantirish.

Baholash tizimlari: o'quvchilar o'z salomatlik darajalarini baholash uchun maxsus tizim ishlab chiqish. Bu tizim o'quvchilarga o'z salomatliklariga e'tibor berishga undaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash: o'quvchilarning sportga qiziqishlarini oshirish uchun o'z-o'zini tarbiyalash va o'z maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish.

Xulosa.

Maktab o'quvchilarining salomatlik darajasini baholash va ularning sportga istiqbolliligini aniqlash kelajakda sog'lom va jismonan kuchli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. O'quvchilarning salomatligini muntazam kuzatish, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va ularning sport sohasidagi qobiliyatlarini aniqlash orqali ularga sportda yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratish mumkin. Shu bilan birga, sportga qiziqtirish va ularga mos yondashuvni tanlash pedagogik jarayonda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov I. (2018). Bolalar sporti va jismoniy tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan.
2. Mamatqulov A. (2016). O'quvchilarda sport qobiliyatlarini aniqlash usullari. – Toshkent: O'zbekiston sport universiteti nashriyoti.
3. Rasulov O. (2020). Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Abduqahhorov I. (2019). Maktab o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish. – Toshkent: Sharq.
5. Nematov S. (2021). Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti.

Urmonoy TOSHMATOVA,
Qo'qon DPI Boshlang'ich ta'lim
metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY MASALALARNI HAYOTGA TATBIQ ETISH

Annotatsiya: matematik mantiq matematik fikrlashning asosini tashkil etuvchi muhim mavzudir. Uning ahamiyatiga qaramay, ko'plab o'quvchilar matematik mantiq bilan bog'liq tushunchalarni tushunish bilan kurashadilar. Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etish uchun turli usullardan foydalanishni o'rganadi va shu bilan mavzuni yanada qiziqarli va o'quvchilar uchun ochiq qiladi.

Kalit so'zlar: matematik mantiq, boshlang'ich sinflar, jalb qilish, mavjudlik, tushunish, ishlash, yutuq.

Annotation: mathematical logic is an important subject that forms the foundation of mathematical thinking. Despite its importance, many students struggle with understanding the concepts involved in mathematical logic. This article explores the use of various methods to bring mathematical logical issues to life in elementary grades, thereby making the subject more engaging and accessible to students.

Keywords: mathematical logic, elementary grades, engagement, accessibility, understanding, performance, achievement.

Аннотация: математическая логика - важный предмет, который формирует основу математического мышления. Несмотря на его важность, многие студенты испытывают трудности с пониманием концепций, связанных с математической логикой. В этой статье исследуется использование различных методов для воплощения математических логических задач в жизнь в начальных классах, тем самым делая предмет более увлекательным и доступным для учащихся.

Ключевые слова: математическая логика, начальные оценки, вовлеченность, присутствие, понимание, успеваемость, достижения.

Kirish. Matematik mantiq – bu ramziy mantiq yordamida fikrlash va xulosa chiqarish bilan shug'ullanadigan matematikaning bir bo'limi. Bu muammolarni hal qilish, bashorat qilish va matematik tushunchalarni tushunish uchun muhim vositadir. Biroq ko'plab o'quvchilar mavzuni mavhum va tushunish qiyin deb bilishadi, bu esa matematikada yomon ishlash va yutuqlarga olib keladi. Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etish usullarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, asosiy maqsad o'quvchilarning matematikada tushunchalarini, faolligini va samaradorligini oshirishdir. Tadqiqotda boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etishning turli usullari qo'llaniladi. Bunday usullardan biri mantiqiy fikrlashni o'z ichiga olgan o'yinlar va jumboqlardan foydalanishdir. Masalan, Sudoku o'yini o'yinchilarni raqamlar bilan panjara to'ldirish uchun mantiqiy mulohazalardan foydalanishni talab qiladi. Xuddi shunday, Xanoy minorasi va daryodan o'tish muammosi kabi mantiqiy jumboqlar o'quvchilardan muammolarni hal qilish uchun mantiqiy fikrlash va deduksiya ko'nikmalaridan foydalanishni talab qiladi. [1.43]. Ushbu o'yinlar va jumboqlar matematik mantiqni o'quvchilar uchun qiziqarli qiladi, bu ularning mavzu bo'yicha tushunchalari va ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Tadqiqotda

qo'llaniladigan yana bir usul – bu mantiqiy fikrlashni o'z ichiga olgan hayotiy misollardan foydalanish. Masalan, o'quvchilarga muammoni hal qilish uchun mantiqiy fikrlashdan foydalanish kerak bo'lgan ssenariylar berilishi mumkin. Masalan, ularga trafik va masofa kabi omillarni hisobga olgan holda A nuqtadan B nuqtaga o'tishning eng tezkor usulini aniqlash kerak bo'lgan ssenariy berilishi mumkin. Hayotiy misollardan foydalangan holda, o'quvchilar matematik mantiq tushunchalari bilan yaxshiroq bog'lanishlari mumkin, bu esa tushunish va ishlashni yaxshilashga olib keladi.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik mantiqni o'rgatish qiyin vazifa bo'lishi mumkin, ammo bu ularni tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini bilan tanishtirish uchun ajoyib imkoniyat bo'lishi mumkin [2.75]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematik mantiq masalalarini hayotga tatbiq etishga yordam beradigan ba'zi fikrlar:

1. Aniq misollardan foydalaning: bolalar tushunchalar aniq tarzda taqdim etilganda eng yaxshi o'rganadilar. Masalan, tasniflash, naqshlar va ketma ketlik kabi asosiy mantiqiy tushunchalarni o'rgatish uchun bloklar, o'yinchoqlar yoki hatto mevalar kabi kundalik narsalardan foydalanishingiz mumkin.

2. O'yinlar: o'yinlar bolalarga mantiqiy

tushunchalarni kiritishning qiziqarli usuli. Sudoku, tic-tac-toe va boshqa jumboq o'yinlari kabi o'yinlar bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Muammoni hal qilish strategiyasini o'rgating: muammoni hal qilish matematik mantiqning muhim tarkibiy qismidir. Bolalarga muammolarni hal qilishda yordam berish uchun orqaga qarab ishlash, stol tuzish yoki rasm chizish kabi strategiyalarni o'rgating.

4. Hikoyalar va ko'rgazmali qurollardan foydalaning: hikoyalar va ko'rgazmali qurollar yosh bolalar uchun mavhum tushunchalarni aniqroq qilishga yordam beradi. Masalan, sabab-oqibat tushunchasini o'rgatish uchun hikoyalar kitobidan foydalanishingiz yoki naqshlarni qanday topishni ko'rsatish uchun rasmlardan foydalanishingiz mumkin.

5. Texnologiyani qo'shing: bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ko'plab ta'lim dasturlari va o'yinlari mavjud. Texnologiyani darslaringizga kiritish ularni yanada qiziqarli va interaktiv qilishi mumkin.

6. Muhokamani rag'batlantirish: bolalarni o'z yechimlari ortida fikrlash va mulohazalarini baham ko'rishga undang. Bu ularga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi [3.15]. Umuman olganda, kichik yoshdagi o'quvchilarga matematik mantiqni o'rgatish ijodkorlik, sabr-toqat, yangi va qiziqarli o'qitish usullarini o'rganishga tayyorlikni talab qiladi. Ushbu g'oyalarni darslarga kiritish orqali o'quvchilarga akademik va shaxsiy hayotlari davomida yaxshi xizmat qiladigan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalar yechish haqida fikr yuritish aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki

u aqliy operatsiyalarni analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirishni talab etadi [4.56]. O'quvchi istalgan masalani yechayotganda savolini analiz qiladi, masala sharti ustida fikr yuritadi. O'quvchilar masala yechish orqali izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishlarini aniqlash uchun fikr yuritadilar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etishda qo'llaniladigan usullar o'quvchilarning ushbu fan bo'yicha tushunchalarini, faolligini va samaradorligini oshirishda samarali hisoblanadi. O'yinlar va jumboqlarda qatnashgan o'quvchilar mantiqiy fikrlash va deduksiya qobiliyatlari yaxshilanganligini ko'rsatib, matematikada ishlashning yaxshilanishiga olib keldi. Xuddi shunday, mantiqiy fikrlashning hayotiy misollari berilgan o'quvchilar mavzu bilan yaxshiroq aloqada bo'lib, bu ularning tushunish va ishlashini yaxshilashga olib keladi.

Tadqiqot matematik mantiqni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yanada qiziqarli va qulay qilish muhimligini ta'kidlaydi [5.87].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, matematik mantiq matematik tushunchalarni tushunish va muammolarni hal qilish uchun muhim mavzudir. Biroq, ko'plab o'quvchilar mavzuni mavhum va tushunish qiyin deb bilishadi. Mantiqiy fikrlash va mantiqiy fikrlashning hayotiy misollarini o'z ichiga olgan o'yinlar va jumboqlardan foydalanib, o'qituvchilar mavzuni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yanada qiziqarli va qulayroq qilishlari mumkin, bu esa matematikada tushunish, jalb qilish va ishlashni yaxshilashga olib keladi. O'qituvchilar o'z o'quvchilariga mavzuni hayotga tatbiq etish uchun turli xil vositalar va usullardan foydalangan holda o'qitish usullarida ijodiy bo'lishlari juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi (metodik qo'llanma). – Toshkent: Sharq, 2005.
2. Bikbayeva N.U., R.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi (O'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
3. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum (O O'YU uchun). – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
4. Bikboyeva N.U., Yangiboyeva Y.A. Ikkinchi sinf matematika darsligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
5. Bikboyeva N.U. Yangiboyeva E.Y. Uchinchi sinf matematika darsligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.

Jamshid ATAVULLAYEV,
 BuxDPI o'qituvchisi



ANTON PAVLOVICH CHEXOV IJODINING O'ZBEK ADABIYOTIGA TA'SIRI MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada rus adabiyotining yirik vakili Anton Pavlovich Chexov hikoyalari o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ta'siri masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jamiyatdagi kamchiliklar, ifoda etish, uslubiy g'alizlik, so'z tejamligi, laganbardorlik, xushomadgo'ylik, kuchlining, boyning soyasi, tasvir va hokazo.

Аннотация: в данной статье представлен научно-теоретический анализ влияния рассказов Антона Павловича Чехова, крупного представителя русской литературы, на развитие узбекской литературы.

Ключевые слова: недостатки в обществе, экспрессия, методологическая странность, экономия слов, лесть, тень сильного, богатого, имидж и др.

Annotation: this article provides a scientific and theoretical analysis of the influence of the stories of Anton Pavlovich Chekhov, a major representative of Russian literature, on the development of Uzbek literature.

Keywords: shortcomings in society, expression, methodological oddity, economy of words, flattery, shadow of the strong, rich, image, etc.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti hikoyachiligida o'ziga xos uyg'onish, yangilanish jarayoni kechmoqda. Ma'lumki, badiiy ijodda muayyan yo'nalishning yuzaga kelishi tasodifiy hodisa emas. Har qanday tamoyilning vujudga kelish tarixi, ko'lami, miqyosi, tarixiy genezisi bo'ladi. Badiiy adabiyotdagi tamoyillarning vujudga kelishi badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar jarayonidan boshlanadi. Bu olamda har bir inson, millat va xalq hayotining ma'nosini o'zini o'rab turgan muhitdan, milliy urf-odatlar, el-u yurtiga xos azaliy fazilatlaridan kelib chiqqan holda tushunadi. Tabiiyki, bu tushunchalarning har birida hayotiy asos, ibratli jihatlar bor. Jumladan, bizning xalqimiz ham bu borada butun bir qarashlar tizimi, yaxlit hayotiy falsafaga ega.

O'zbek hikoyalari mana shu tushunchalarning ifodalari bilan bir qatorda milliy madaniyatimizning tasviri xalqona xususiyatlarning badiiy talqini bilan bir qatorda jahon adabiyotining ta'siri ham seziladi.

Dunyo adabiyotining buyuk namoyandalaridan bo'lgan Anton Pavlovich Chexov hikoyachilikda o'ziga xos maktab yaratgan. Uning hikoyalari yengil o'qilishi, jumalarning qisqaligi, jamiyatdagi kamchiliklarni ochib berishi va ularning ustidan zaharxanda kulishi bilan o'quvchi e'tiborini tortadi.

Ayniqsa, yzovchining voqealarni real tasvirlashi, hikoyalari badiiy to'qima va hayot haqiqatini singdirib yuborishi, ularda rus xalqiga xos xarakterlarning bo'rtib ko'rinishi tahsinga sazovor. Bundan tashqari, adibning qalamga olgan mavzulari butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan masalalarni ifoda etishi bilan har qanday o'quvchi ko'ngliga yaqin keladi. Hikoyalarni qaysi millat kitobxonini o'qishidan qat'i nazar, unda o'zini ko'ra olishi mumkin. Ba'zi yozuvchilarda kuzatiladigan uslubiy g'alizlik, jumalarning haddan ziyod cho'zilib ketishi, tasvirda me'yordan oshib ketish, asarda ortiqcha qahramonlarning bo'lishi, asar qismlari

o'rtasidagi bog'liqlikning zaifligi kabi kamchiliklarni Chexov asarlarida uchratmaymiz. Har bir epizod, har bir jumlaning o'z o'rni, vazifasi bo'ladi.

Ta'kidlab aytish joizki, yozuvchi ijodida bitta ham ortiqcha so'z uchramaydi. Ayniqsa, muallifning sermazmun yumoristik hikoyalari har qanday darajadagi o'quvchini o'zining sirli olamiga olib kiradi.

"Nikolayev temir yo'l vokzalida ikki oshna uchrashib qoldi. Biri semiz, biri oriqlik. Semiz hozirgina vokzalda ovqat yegan – yog'liq labi pishgan olchaday yaltirab turibdi".

Buyuk o'zbek adibi Abdulla Qahhorning deyarli barcha hikoyalari ham qisqalik va aniqlik kuzatiladi. Fikrimizni adibning mashhur "Bemor" hikoyasining kirish qismi tasdiqlaydi: "Sotivoldining xotini og'rib qoldi".

Chexovning "Semiz va oriqlik" hikoyasining boshlanishidagi aniq va qisqalik "Bemor" hikoyasida ham aynan kuzatiladi. Hikoyalarni qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, juda ko'p xususiyatlarda mushtarak jihatlar ko'zga tashlanadi. "Bemor" hikoyasida ham, "O'g'ri" va boshqa Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikoyalarda hamda Chexovning ko'pgina hikoyalari kitobxon kutmagan noan'anaviy yechim yetakchilik qilganini kuzatish mumkin.

"Oriqlik butun vujudi bilan ta'zim qilib xayrlashdi va xitoyday hihiladi. Xotini iljaydi. Nafanayil tavoze bilan qadam tashlayman deb shlyapasini qo'lidan tushirib yubordi. Uchovi ham o'zida yo'q xursand edi. "Hikoyada ifodalangan kinoya kulgisi Abdulla Qahhorning barcha hikoyalari ifodalanadi. Jamiyatda mavjud bo'lgan ayrim kishilarning o'ziga xos xarakter-xususiyatlaridan achchiq kulish badiiy adabiyotda kinoyaning ifodalanishini ta'minlaydi.

Badiiy asarlardagi turli obrazlar tizimi, inson psixologiyasi va tabiati, xarakterini tahlil qilish imkonini

beradi. Obrazning ruhiy jihatdan asoslanganligi, birinchi navbatda, uning badiiyatini ta'minlasa, ikkinchidan, asarning estetik qimmatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Badiiy asar tahliliga bir necha fanlar kesishuvida yondashish obraz mohiyatiga chuqurroq kirish va insonni har tomonlama o'rganish imkonini beradi. A.P.Chexovning hikoyalarini mana shu turli fanlar kesishuvi asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: "Chol Osip salmoqlab, ozodlikdan ilgari dehqonlarning qanday yashaganini gapirib ketdi (bu o'rinda 1861-yilda Aleksandr II zamonida dehqonlarni krepostnoy huquqidan ozod qilinmasdan oldingi davr qapiriladi) . Xuddi shu kabi A.P.Chexov asarlari ifodasi turli fanlar kesishuvida tasvirlanadi.

A.P.Chexov hikoyalarida sarlavhalar mahorat bilan tanlanadi, hikoya g'oyasidan xabar beradi. Hikoyani o'qib bo'lgach, nega aynan shu sarlavha tanlanganini tushunib yetasiz, yozuvchining mahoratiga tasanno, deysiz. Hikoyalarning oxiriga katta ma'no yuklanadi. Butun hikoyadagi voqealar rivojini kuchaytirib bo'lib, oxirida "portlaydi".

Umuman olganda, so'z tejamkorligida, asar qismlarini g'oya atrofida jipslashtirishda Chexovga yetadigan adib sanoqli, desak, to'g'ri bo'ladi. Shu

sababli ham A. P. Chexov ijodi butun dunyodagi ko'plab hikoyanavis yozuvchilar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan.

Ayniqsa, A.Qahhor, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov va boshqa bir qator adiblarimiz hikoyalarida Chexovga xos uslub yaqqol sezilib turadi.

"Semiz va ori", "Niqob", "Lozim choralar", "Xameleon", "Chinovikning o'limi" kabi hikoyalarda o'sha davr jamiyatidagi laganbardorlik, xushomadgo'ylik, kuchlining, boyning soyasiga ko'rpacha yozish singari illatlar qoralansa, "Mujiklar", "Soylikda", "Yovuz niyatli kishi", "Vanka" hikoyalarida oddiy xalq hayoti, orzu-armonlari yuksak mahorat bilan tasvirlanadi.

Mo'jazzgina "Chiqdi" orqali esa kattagina hayot haqiqati, ya'ni odamlarning o'zgalar kamchiliklarini g'iybat qilib, o'zining qusurlariga e'tibor bermasligi juda go'zal tarzda ochib beriladi.

A.P.Chexov ijodidagi hikoyalarni o'qib ibrat va zavq olasiz. Qahramonlarning kamchiliklaridan goh kulasiz, goh jahlingiz chiqadi, xullas, ularning hayoti bilan yashaysiz. Anton Pavlovich Chexovning hikoyalari eng sevimli jahon adabiyotining adabiy merosi ekaniga shubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chexov A.P. "Semiz va ori". – Toshkent: Ziyo nashr, 2023. 8-bet.
2. Abdulla Qahhor. Hikoyalar. – Toshkent: Kamalak, 1995. 46-bet.
3. Chexov A.P. "Mujiklar". – Toshkent: Ziyo nashr, 2023. 56-bet.

Khurshida TOSHOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik
Universiteti o'qituvchisi
toshovaxurshida1990@gmail.com

PERL BAK ASARLARIDA AYOL MATONATI TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada mashhur Amerika yozuvchisi Nobel va Pulitzer mukofotlari sohibasi Perl Bak asarlarida ayol matonati tavsifi va irqiy kamsitilishga barham berishi haqida to'xtalib o'tilgan. Azal-azaldan ingliz adabiyoti va undagi asarlar ham ayol obrazini turli janrlarda tasvirlab, nodir asarlarni taqdim qilib kelmoqda. Uning aynan "The Good Earth" (1931) romani, ya'ni ayol tasviri yaratilgan asari "Pulitzer" (1932) mukofotiga sazovor bo'ldi. Va aynan shu asar Nobel mukofotini ham olishida muhim ro'l o'ynadi. Perl Bak adabiyotda Pulitzer va Nobel mukofotini olgan yagona ayol va uning asarlari Amerika adabiyoti tarixida keng miqyosda tarjima qilingan.

Kalit so'zlar: xitoy (Sharq) ayollari, yagona shaxs, fidoyilik, chidamlilik, ayol obrazi, kanizak, anonim ona, Konfutsiy ta'limoti

Аннотация: в этой статье известная американская писательница Перл Бак, лауреат Нобелевской и Пулитцеровской премий, рассказывает об описании женской силы и ликвидации расовой дискриминации. Английская литература и произведения в ней с незапамятных времен изображают образ женщины в различных жанрах и представляют редкие произведения. Именно его роман «Добрая земля» (1931), то есть произведение, в котором создан образ женщины, получил «Пулитцеровскую» премию (1932). И эта работа сыграла важную роль в получении Нобелевской премии. Перл Бак — единственная женщина, получившая одновременно Пулитцеровскую премию и Нобелевскую премию по литературе, а ее произведения являются наиболее широко переводимыми в истории американской литературы.

Ключевые слова: китайские (восточные) женщины, одинокий человек, самопожертвование, выносливость, женский образ, наложница, неизвестная мать, конфуцианство.

Annotation: in this article, the famous American writer Pearl Buck, winner of the Nobel and Pulitzer Prizes,

talks about the description of female power and the elimination of racial discrimination. English literature and the works in it have depicted the image of a woman in various genres since time immemorial and represent rare works. It was his novel *The Good Earth* (1931), that is, the work in which the image of a woman was created, that received the Pulitzer Prize (1932). And this work played an important role in receiving the Nobel Prize. Pearl Buck is the only woman to have received both the Pulitzer Prize and the Nobel Prize in Literature, and her works are the most widely translated in the history of American literature.

Key words: *chinese (Eastern) women, single person, self-sacrifice, endurance, female image, concubine, unknown mother, Confucianism.*

Kirish. Perl Bak amerikalik buyuk adiba, Nobel Mukofoti laureati (1938) g'arbliklarga haqiqiy Xitoy asarlari, undagi odamlar va Xitoy (Sharq) ayollarini o'zining romanlarida yorqin ifodalab bergani bilan muvaffaqiyatli tanishtira olgan yozuvchi va tarjimon hisoblanadi. Perl Bak Xitoy (Sharq) ayollari misolida ayollar mavzusini yoritib berishi bejizga emas, chunki Amerika yozuvchisining bolaligi va o'smirligi Xitoyda o'tgan. To'rt oylikdan boshlab Perl Bakning real hayot asosidagi tajribalari bizga Xitoyni biz tushuna oladigan til bilan xitoyliklar ko'rganidek, tushunganidek taqdim etadi, bu G'arb va Sharq o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi (Bently 793).

Ayollar tasviriga bag'ishlangan asarlarida Perl Bak ko'pincha xitoy (Sharq) ayollari qanday mard, farishtanamo siymolar va oilaparvar ekanligi xitoyliklarning umumiy madaniyati, ertaklari, mashhur asarlari hamda tarixlarida aks etgan. amerikalik adabiyotshunos olim Robert Spillerning "Qo'shma shtatlar adabiyoti tarixi"da qayd qilishicha, Perl Bakning asarlari ayniqsa, Shvetsiyada yaxshi qarshi olingan. Yana bir amerikalik olim Paul Doylning qayd etishicha, Perl Bakning asarlari dunyodagi eng muhim bo'lgan tillarga tarjima qilingan. U va Mark Tven amerikalik yozuvchilar orasida o'tmishda ham, hozirda ham xorijdagi mamlakatlarda mashhurlikka erishgan. Taxminan 13 ta romanida Perl Bak, turli tabaqadagi xitoy (Sharq) ayollarini yorqin tasvirlagan. Biz tahlilga olgan quyidagi 5 ta roman ham xitoy ayollarini tasvirlangan: *East Wind: West Wind* (1930), *The Good Earth* (1932), *The Mother* (1934), *Pavilion of women* (1946), *Peony* (1948).

Shu o'rinda yana shuni ta'kidlash o'rinliki, Perl Bakning birinchi "Xitoy ayoli so'zlaydi" deb nomlangan ikki hikoyasi 1925-yilda "Asia" jurnalida chop etilgan va besh yildan so'ng 1930-yili bu hikoyalar qayta ishlanib, "East Wind, West Wind" nomi bilan roman sifatida chop ettiradi (S.Akobirova). Perl Bak asarlarida ayollarga nisbatan o'zi yashayotgan davrdagi munosabat, ayollarning jamiyatdagi va oiladagi o'rni, nohaqliklar ba'zan maqtov, ba'zan achchiq haqiqat asosida jonli tasvirlanadi.

Asosiy qism. Perl Bakning 1934-yilda chop

qilingan "The Mother" asarida xitoylik dehqon ona timsolida aslida dunyodagi barcha onalarni tasvirlagan. Perl Bak ning bu asardan, ya'ni onani tasvirlashdan maqsadi aniq: faqat ona hammani seva oladi, oilasi uchun mas'ul bo'la oladi. Hamisha oilasi va bolalari uchun o'zini qurbon qilishga tayyor va shuning uchun ham hayotini oldinga surish uchun harakatlantiruvchi kuchdir (Gao, Xiongya). Bu sevgi, fidoyilik, chidamlilik balki barcha onalarda biz anglagan narsa, onani har tomonlama ta'sirga ega bo'lgan xarakterga aylantirdi. Shu xususiyatlari tufayli ham bu asar ko'pchilikning e'tiborini tortdi.

Adabiyot tanqidchilaridan Richards, Doren, Brickell, va Schneider larning fikrlariga ko'ra ona asosiy qahramon va tabiatan umumiy, barcha irqning onalarini o'z ichiga oladi. Adamasning fikricha, Perl Bak tasvirlagan dehqon ayol mavhum emas bu hikoya faqatgina ramziy axloqni ifodalaydi. Ayolga nom berilmagan bo'lishiga qaramasdan butun romanda "The Mother" deb gapiriladi va u o'z hayotini bera oladigan yagona shaxsdir. Perl Bak "The Mother" asarida hamma yerdagi yaxshi ayollarni ko'rsatib berish uchun xitoydagi dehqon, oddiy ayol obrazini tasvirlaydi.

Yozuvchining "Pavilion of women" asariga nazar soladigan bo'lsak, xitoylik kanizak ayol holati, uni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, bu esa inson tabiatiga chinakam hurmatni talab qiladi. Umumiy qilib aytganda Perl Bakning xitoylik (Sharq) ayollari oilaparvar ekanligi tasvirlanadi. Uning ko'pchilik kitoblaridagi Xitoy (Sharq) ayollari tasviri, uning umumiy qilib Xitoy (Sharq) ayollari haqida yozganligi, buni tasdiqlaydi.

Xitoy (Sharq) ayollarining xarakter sifati haqida P. Bak shunday deydi: "Har qayerdagi eng yaxshisi bilan teng va bu sifat eng kambag'al, eng savodsiz va shuningdek baxtlisida ham topiladi. Umumiy olganda Xitoy (Sharq) ayollarida erkaklarga qaraganda to'g'riso'zlik, sadoqatlilik, chidamni qiyinchiliklar va hayot jarayonlarida ko'rsatishdir. Perl Bak tomonidan qattiq yomon ko'rilgan ayol bu-kanizaklik, aslida Konfutsiy ta'limotidan noto'g'ri foydalanishgan. Turmush qurgan juftliklar oilani saqlab qolish uchun farzand ko'rishlari kerakligini o'rgatgan. Farzandlik sadoqati bahonasida

deydi: Paul Sih xotinlari erkak avlod tug'maganlarida kanizaklar olib kelishi ko'pxotinlikka olib kelgan va bu Konfutsiy axloqining asosiy maqsadini barbod qilgan.

Yana "The Mother" asariga qaytadigan bo'lsak, asardagi ona obrazi anonim bo'lishi mumkin va Perl Bak ataylab uni butun asarda anonim qoldiradi. U nafaqat Xitoydagi ko'plab dehqon onalarni, balki Xitoydagi barcha onalarni ifodalaydi. Shuning uchun ham kitobning mavzusi onalik deb aytiladi. Xitoylik ayol qiyinchiliklarga qaramasdan oxirigacha yaxshi ona sifatida sobit bo'lib qoladi. Bunga aniq ko'rinib turgan ustunlik xarakteridagi tushuncha shuki, Xitoy ayollari erkaklaridan ustun deb ta'kidlangan (Doan Cao Ly).

Qisqa qilib aytganda yozuvchining ayollarni tasvirlagan har bir asarida ayollarning chinakam matonati, hayotga, yashab qolishga bo'lgan kurashi, oilasi va yaqinlari uchun o'zini qay darajada qurbon qilishga tayyor ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa. G'arbliklar ko'pchilik Xitoy ayollarini baxtsiz deb hisoblashadi. Xitoyda tug'ilgan ko'pchilik ayollar sevimli yoki istalgan emas, bu

ko'pchilik Xitoy onalari o'tmishda o'zlarining qiz bola chaqalog'ini past darajada va itoatkor bo'lib dunyoga kirib kelishiga imkon bergandan ko'ra uni qurbon qilishgan. Xitoy ayollarining hayoti uch karra namuna bo'la oladi. Uyida u otasiga itoat qiladi, turmush qurgach turmush o'rtog'iga, turmush o'rtog'ining vafotidan keyin esa o'g'liga itoat qiladi.

Kelin sifatida u uyning birinchi xonimiga ovozsiz xizmatkor. Ayol turmush o'rtog'ining soyasi, hech qachon turmush o'rtog'idan oldinda yoki yonmayon ko'rilmagan. Hushtor sifatida o'yinchoq bo'lgan. Perl Bak Xitoy (Sharq) ayollarini tasvirlash bilan, birinchi marta Xitoydagi ma'lum bir ijtimoiy holatlarni muvaffaqiyatli olib o'ta oldi va inson tabiatini, o'zini tasvirladi. Xitoy (Sharq) ayollardagi yaxshilik, undagi kamchiliklar, va shu bilan birga hayotdagi eng yuksak namuna bo'la oladigan qobiliyati bor ekanligini ko'rsata oldi.

Ayollardagi boshqa hech bir xilqatda uchramaydigan, tenglashtirib bo'lmaydigan fazilatlarini, matonatinini P. Bak asarlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akobirova Sarvara "Amerika adabiyoti va sharq (XX asrning birinchi yarmi misolida). PHD dissertatsiyasi. –Toshkent, 2002. UDK 820(73).09
2. Adams, J Donald. "A True Epitome of Motherhood: Mrs. Buck's Deeply Elemental Novel of Chinese Peasant Life". The New York Times 14 Jan. 1934, 5: 1, 18.
3. Bentley Phyllis. The Art of Pearl S. Buck, "English Journal, Vol. 24 (December 1935), 791-800-p
4. Buck, Pearl Sydenstricker, East Wind: West Wind, New York, 1930
5. Brickell, Herschel. Rev. of The Mother. New York Evening Post 20 January. 1934:7
6. Buck Pearl "Chinese Women". Pacific Affairs. vol. 4 (October 1931) p. 905.
7. Doan Cao Ly. The Image of the Chinese Family in Pearl Buck's Novels. St. John's University New York. August 4, 1964
8. Gao Xiongya, Images of Chinese women in Pearl S. Buck's novels: a study of characterization in "East Wind: West Wind", "Pavilion of Woman", "Peony", "The good Earth" and "The Mother". Ball State University, Indiana March 1993
9. Toshova Khurshida Ibodullayevna. (2024). PORTRAYAL OF WOMEN FROM VARIOUS SOCIAL STRATA (AS EXEMPLIFIED IN PEARL BUCK'S WORKS). European Journal of Humanities and Educational Advancements, 5(5), 100-102. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/4589>
10. Toshova Khurshida Ibodullayevna and KHASANOV ASLIDDIN ABDIMUROTOVICH, "Importance of needs analysis in second language acquisition", isrcr, vol. 1, no. 1, pp. 386–391, Oct. 2023.
11. Toshova, K. I. (2024). "Women's character in Pearl Buck's The Good Earth". Conferencea, 5, 21–24. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferenceas/article/view/1356>

Zarina HOMIDOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUV LUG'ATLARIDAN FOYDALANISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv lug'atlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish usullari, nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at bilan ishlash ekanligi hamda lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini turli xil o'yinlar orqali tashkil qilish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: so'z, lug'at, nutqiy kreativlik, imloviy savodxonlik, imloviy lug'at, ibora, kreativlik, didaktik o'yinlar.

Аннотация: в данной статье рассмотрены методы формирования навыка пользования учебными словарями у учащихся младших классов, то, что одной из важных задач речевого развития является работа со словарем, а также совершенствование и регламентация работы над словарем. , ее основная мысль заключается в разделении и обосновании направлений, организации процесса обогащения словарного запаса учащихся посредством различных игр.

Ключевые слова: слово, словарный запас, речевое творчество, орфографическая грамотность, орфографический словарь, словосочетание, творчество, дидактические игры.

Annotation: in this article, the methods of forming the skill of using educational dictionaries in elementary school students, the fact that one of the important tasks of speech development is working with the dictionary, as well as the improvement and regulation of work on the dictionary, its main it is thought about separating and justifying the directions, organizing the process of enriching students' vocabulary through various games.

Key words: word, vocabulary, speech creativity, spelling literacy, spelling dictionary, phrase, creativity, didactic games.

Yangilanayotgan O'zbekiston ta'lim muassasalarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, atrofdagi voqeelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish, sog'lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi. Uzlüksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish boshlang'ich ta'lim tizimida ham o'qitish sifatini takomillashtirishni taqozo etadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Ustoz va murabbiylar kuni" munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida: "Boshlang'ich sinflardan boshlab farzandlarimizning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, kelgusida ularni ixtisoslashgan sinflarda o'qitishni davom ettirish tizimini joriy etish lozim. Buning uchun Xalq ta'limi vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi navbatdagi o'quv yilidan boshlab 4-sinf bitiruvchilarini fanlar bo'yicha saralash va yo'naltirish tartibini amaliyotga kiritishi kerak", deya boshlang'ich sinflarda o'qitishga alohida e'tibor qaratdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi vazifalarning asosiy qismi ona tili va

o'qish savodxonligi darslarida amalga oshiriladi. O'qish va ona tili darslariga qo'yilgan asosiy vazifalar o'quvchilarning nutqini va fikrlash doirasini o'stirish, lug'at boyligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, chiroyli yozish ko'nikmasini shakllantirish hamda savod o'rgatishdan iborat hisoblanadi. Har qaysi insonning nutqi aniq va mukammal bo'lsa, shu insonning fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Faylasuflardan biri Platon "Fikrlar dunyoni boshqaradi", – degan edi. Darhaqiqat, insonning fikr-maqsadi – uning ongli ishlari va axloqining harakatlantiruvchi kuchidir. Ana shu fikr-maqсадlar nutq vositasida bayon qilinadi. Nutq nafaqat xayoldagi o'y-fikrlarni bayon qiladi, balki uning shakllanishi uchun ham xizmat qiladi. Fikrlar esa nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirishning sharti fikrni boyitish hisoblanadi. O'quvchilar nutqini o'stirish ularning aqliy faoliyatini rivojlantirish va lug'atini boyitish bilan amalga oshiriladi. Aynan lug'atlar ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, ularning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash maktablarda bolalar nutqini o'stirish va rivojlantirish jarayoniga qo'yilgan muhim vazifalardan biridir. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan yana biri o'quvchilarda umumiy o'quv ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Umumiy o'quv ko'nikmalari orasida turli lug'at va ma'lumotnomalardan foydalanish ko'nikmasi muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda yurtimizda vazifasiga

maxsus dars ajratish kerak. O'qituvchilar tajribasini o'rganish natijasida ona tili darslarida lug'at ishi yetakchi o'rin egallamog'i lozim degan xulosaga kelish mumkin. Bu ishning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq. Yangi texnologiyalardan foydalanish bolalarning darsga qiziqishini oshiradi. Lug'at bilan ishlash esa ona tilini o'rgatishdagi yangi texnologiyalardan biri – madaniyatni o'stirish texnologiyasidir. O'quvchilarda lug'atning barcha turidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Bu, shubhasiz, ularning madaniy va nutqiy saviyasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
2. Bobojonov Sh., Islomov I. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati (maktab o'quvchilari uchun). – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007. 51-bet.
3. Safarov Firuz Sulaymonovich, Istamova Shohida Maqsudovna. Types of lexical meanings. Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 6, 2020. – PP. 481–484.
4. Firuz Safarov, Nodira Xudoyberdiyeva, Nilufar Xolmurodova. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish imkoniyatlari. Journal Pedagog Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.

Dilorom MENGZIYOYEVA,
Termiz Davlat pedagogika instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" 2- bosqich magistranti.

ALISHER NAVOIYNING "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDA KOMIL SHAXS TARBIVASIGA OID QARASHLAR

Annotatsiya: Alisher Navoiyning asarlari orasida "Mahbub ul-qulub" asari komil shaxs tarbiyasiga oid va komil inson axloqiga bag'ishlab yozilgan muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada odob-axloq haqida fikr yuritilgan ekan insonlarning ezgu sifatleri – sahovatlik, saxiylik, mehribonlik, hilm, rostgo'ylik, mehnatkashlik, kamtarinlik, tavoze' bir qator insoniy hislatlar va fazilatlar ulug'lanadi. Bularga qarama-qarshi bo'lgan takabburlik, dangasalik, fisqu-fasod, yolg'onchilik, firibgarlik, johillik, ochko'zlikni hazrat Navoiy insoniylikka zid illat deb qaraydi. Asarda mutafakkir uzoq yillar hayotiy tajribasi, o'zining kuzatishlari natijasidagi xulosalarini original fikrlar orqali yoritib beradi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub" ilm talabi, komillik, rostgo'ylik, sabr, shoshqaloqlik, mehnatsevarlik, yoshlar tarbiyasi, yaxshi xulq, yaxshilik va yomonlik.

Аннотация: работы Алишера Навои между Произведение «Махбуб уль-Кулуб» имеет особое значение как важный источник, написанный о воспитании совершенной личности и совершенной нравственности человека. В этой статье Размышляя о манерах, воспеваются ряд человеческих качеств и добродетелей – щедрость, щедрость, доброта, знания, честность, трудолюбие, смирение, скромность – высокомерие, лень, хазрат Навои рассматривает коррупцию, ложь, мошенничество, невежество, жадность. как пороки против человечества. В произведении мыслитель проливает свет на свой многолетний жизненный опыт, свои выводы в результате наблюдений посредством оригинальных мыслей.

Ключевые слова: Алишера Навои, «Махбуб уль-Кулуб» требуют знаний, совершенства, честности, терпения, спешки, трудолюбия, воспитания молодежи, хорошего поведения, хорошего и плохого.

Annotation: in reflecting on the ideas of morality put forward in Alisher

Navoi's "Mahbub ul-qulub", a number of human virtues-generosity, kindness, humility, honesty, diligence, humility, humility qualities are glorified. Pride, laziness, corruption, lying, fraud, ignorance, and greed are considered by Navoi to be inhumane. In the play, the thinker reflects his conclusions based on many years of life experience and observations through original ideas.

Key words: Alisher Navoi, Mahbub ul-qulub, hilm, demand for knowledge, honesty, humility, generosity, patience, haste, diligence, humility, virtues, perfection, youth education, good behavior, good and evil.

Hazrati Navoiyning asarlaridagi mazmun-mohiyat bugungi globallashuv davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. O'z davri diniy va dunyoviy ilmlarini chuqur egallab, hayotda saodatmandlik va saxiylikni kasb qilgan Hazrati Navoiy "Mahbub ul-qulub"dagi nasriy va nazmiy matnlar orqali chin musulmonlik farzi va komil inson

ma'naviyatini shakllantirish g'oyasini ilgari surdi hamda ma'naviy ehtiyoji sabab ushbu asarni yaratdi. "Qobusnoma"da axloq va odob, "Guliston"da adolat va adab mavzusi ko'tarilgan bo'lsa, "Mahbub ul-qulub"ning bosh mavzusi va obyekti inson, insoniylik va shaxs kamolotidir. Ma'lumki, ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida komil insonni tarbiyalash yo'lidagi mashaqqatlari bayon qilingan bo'lib bir insonda bo'lishi kerak bo'lgan hamma hislatlarga birma-bir to'xtalib o'tadi. Yomon illatlardan yiroq bo'lishligini ham, bu illatlarni ham nomi bilan sanab keltiradi. Navoiyning nafaqat boy ijodi, balki sermazmun hayoti ham biz yoshlar uchun namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqsevarligi, fidoiyligi barchamizga o'rnak bo'lishi lozim. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday yozgan edilar: "Alisher Navoiy xalqimizning adabiyoti, madaniyati va siyosiy tarixida alohida o'ringa ega bo'lgan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, shan-u sharafini dunyoga tarannum etgan o'lmas so'z san'atkoridir"¹.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ko'proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma'rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi

1. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.:2008. 34-b.

Hazrat Navoiyning so'nggi buyuk asarlaridan biri nasriy pandnoma yo'nalishida yozilgan "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") dir. "Mahbub ul-qulub" asari oltmish yillik umri davomida hayotda ko'rgan-kechirganlarini teran tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merosidir. Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo'lgan hayotiy muammolarga eng to'g'ri yechimlarni ta'sirli usulda berishi bilan yuksak daraja kasb etadi. Musajja' san'atining nodir namunasi sanalgan bu noyob asarning yaralishi sabablarini muallif quyidagicha izohlaydi: "Bu muqaddimotdin maqsad bukim, har ko'y va ko'chada yugurubmen va olam ahlidin har nav elga o'zumni yetkurubmen va yaxshi-yamonning af'olin bilibmen va yamon-u yaxshi hislatlarin tajriba qilibmen. Xayr va sharrdin no'sh va nish ko'ksumga yetibdur va laim va karim zaxm va marhamin ko'nglum dark etibdur. Va zamon ahlidin bayozi as'hob va davron xaylidin ba'zi ahhobki bu hollardin xabarsiz va ko'ngullari bu xayr va sharrdin asarsizdur. Bu nav ashob va ahhobg'a intiboh qilmoq va alarni nav bu holatdin ogoh qilmoq vojib ko'rundiki, har toifa xisolidin vuquflari va har tabaqa ahvolidin shuurlari bo'lg'ayki, munosib el xizmatig'a shitob qilg'aylar va

nomunosib el suhbatidin ijtinob vojib bilg'aylar va bari el bila maxfiy rozlaridin so'z demag'aylar. Va shayotin makr-u firibidin boziy emagaylar. Har nav el suhbat va xususiyatiki, alarg'a havas bo'lg'ay, bu faqirning tajribasi alarg'a bas bo'lg'ay".

"Mahbub ul-qulub" asari Navoiyning umri davomidagi butun hayotiy kuzatishlari asosida yozilgan. Shu boisdan har bir ijtimoiy tabaqa aniq tasvirlangan. Ushbu kitob orqali xalqimiz orasida allaqachon maqolga aylanib ulgurgan Navoiyning hikmatli so'zlaridan bahramand bo'lasiz. "Mahbub ul-qulub" asari ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy qarashlari bayon etilgani bilan ham qiziqarlidir. Navoiy bu asarida sabr, qanoat, kamtarinlik, vafo, hayo, karam, saxovat, himmat, oliyjanoblik, mardlik, hilm, do'stlik, ilmga amal qilish, shirinso'zlik, rostgo'ylik kabi fazilatlarini ulug'laydi, aksincha, baxillik, badfe'llik, hasadgo'ylik, chaqimchilik, xasislik, yolg'onchilik, tamagirlik, nodonlik, takabburlik, mayxo'rlik, badnafsluk kabi yomon illatlarni qattiq qoralaydi: "Chin so'z – mo'tabar, yaxshi so'z – muxtasar. Ko'p so'zlovchi – zeriktiruvchi. Kishi aybini gapiruvchi – o'ziga yomonlik sog'inuvchi. Agar so'z go'zallik ziynati bilan bezalmasa ham, unga chinlik bezagi yetarlidir! Yolg'onchining gapi qanchalik chiroyli bo'lsa, shunchalik qabihdir. Aqlli odam yolg'on gapirmas, ammo barcha rost gaplarni aytaverish ham to'g'ri emas". Navoiy xushmuomala, ochiq yuzli odamlarni maqtaydi: "Ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik, chuchuk so'zidan el-yurtga xurramlik. Tilini tiyolgan odam – donishmand, oqil. So'ziga erk bergan - ko'p vaysagan odam – beandisha va pastkash. Yolg'onchi Haq oldida gunohkor, xalq oldida sharmanda. Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz".

"Mahbub ul-qulub" uch qismdan iborat. Kitobning birinchi qismi "Xaloyiq ahvoli va af'oli va aqvolining kayfiyati" – xaloyiqning ahvoli va fe'l-atvori hamda so'zlarining kayfiyatiga bag'ishlangan 40 fasldan iborat bo'lib, unda jamiyatning turli qatlam vakillari - odil podshohdan tortib oddiy navkargacha, shayxulislom va mudarrislar, shoirlar-u mug'anniylar, tijorat vakiliyu dehqonlarning fe'l-atvori, o'ziga xos xarakter-xususiyatlari to'g'risida aniq fikr yuritadi, bu borada o'zining ibratli mulohazalarini ilgari suradi. Alisher Navoiyning fikriga ko'ra, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir.

Oltin, kumush etma kasb davlat kunidin,
Kim tortar adab ulusni davlat tunidin,
Gar yo'qdir adab ne sud oltin uni din,
Ening adabi xushroq erur oltundin.

Ikkinchi qismda – "Hamida af'ol va zamima xisol xosiyatida" – ya'ni, yaxshi qiliqlar va yomon xislatlar xususiyati tahlil qilingan. Axloqiy masalalar yetakchi o'rin tutuvchi o'n bobdan iborat bu qismda "tavba", "qanoat", "sabr", "tavoze", "odob", "ziki", "rizo", "ishq" kabi zarur insoniy xislatlar talqin qilinadi. Ijodkor har

bir insoniy fazilatni bayon etar ekan, shunga mos ravishda hikoyatlar, nasihatimiz baytlarni tanlab, ta'sirchanlikni oshirishga erishadi.

Uchinchi qism: "Mutafarriqa favoyid va amsol surati" – turli foydali maslahatlar, maqollar va pandnasihatlarini qamrab olgan bo'lib, tanbeh shaklida yozilgan. 120 dan ortiq tanbehda muallif ochko'zlik, baxillik, badxulqlik, takabburlik, xudbinlik singari inson xarakterida kuzatiladigan bir qancha salbiy fe'l-atvordagi xislatlarni keskin tanqid qiladi; odamiylik fazilatlarini, komillikka yetaklovchi chin insoniy sifatlar xususida ibratli fikrlar bildiradi. O'z fikrlarini turli mazmundagi hikoyat, hikmatli baytlar bilan asoslashga harakat qiladi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida xalq og'zaki ijodidan, ayniqsa, maqollardan samarali foydalanish bilan birga, o'zi ham ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, maqollarga yaqin bo'lgan bir qancha hikmatlar yaratadi. Bu hikmatli so'zlar xalq orasida shunchalar mashhur bo'lib ketdiki, uni ko'pchilik maqol deb bilishadi.

Alloma, ayniqsa, yoshlarga oid bo'lgan yaxshi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" – T. 34-bet
2. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub". – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. 117-bet.
3. Mahmudova G. A. Navoiy "Mahbub ul-qulub" asaridagi hikoyatlarning g'oyaviy mohiyati. bitiruv malakaviy ish N.: 2014-y 8-9-bet
4. saviya.uz

va yomon xislatlar haqida so'z yuritadi va bularga quyidagilarni misol qilish mumkin: Isrof qilish – saxiylik emas; o'rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni – devona deydilar; yorug' joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Kimki xalqqa ko'rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas. Yaxshiliklarni topmoq – yedirmoqdir; Ayblarni yashirmoq – kiydirmoqdir. Alisher Navoiy insonlardagi yomon illatlarning o'rnini qanday qilib yaxshi xislatlarga aylantirishni aniq ko'rsatib berganlar va bu yozganlariga ham o'zlari doimo amal qilganlar.

Alisher Navoiy ilmni quyidagicha ta'riflaydi:

El aybini ayturg'a birovkim, uzatur til,

O'z aybini fosh aylagali til uzotur, bil.

Ya'ni ilm olib amal qilmagan kishi, misoli yerni haydab urug' sepmaganga yoki urug' sepib, urug'idan hosil olmaganga o'xshaydi. "Mahbub ul-qulub"dagi har bir tanbeh, bayt yoki qit'a hayotiy hikmat darajasiga ko'tarilganki, bu tanbehlar zamiriga xalqning ko'p asrlik hayot tajribasi davomida to'plagan maqol va matallarining mazmuni singdirilgan.

Ismigul DO'STMURODOVA,

Qarshi davlat universiteti folklorshunoslik
va shevashunoslik ta'lim yo'nalishi
III bosqich talabasi

XALQ DOSTONLARIDA OBRAZ VA OBRAZLILIK MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalq dostonlarida obraz va obrazlilik masalalarining muammo sifatida yoritilishi, qahramonlik eposi obrazlari tarkibi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *doston, obraz, obrazlilik, an'ana va badiha, variant, qahramon, g'oya, mazmun, struktura.*

Annotation: this article examines the issues of imagery and imagery in Uzbek folk epics, analyzing the composition of heroic epic characters and their ideological and artistic features from a scientific and theoretical perspective.

Keywords : *epic, imagery, expressiveness, tradition and art, variant, hero, idea, content, structure.*

Аннотация: в данной статье как проблема анализируются вопросы образа и образности в узбекском народном эпосе, с научно-теоретической точки зрения анализируются состав героических эпических образов, идейно-художественные особенности.

Ключевые слова: *эпос, образ, образность, традиция и искусство, вариант, герой, идея, содержание, структура.*

Doston janr sifatida ma'lum bir voqeaband asarga nisbatan qo'llansa-da, ammo u voqelikni tasvirlash va ifoda usuliga ko'ra farqlanadi. Ma'lumki, doston adabiyotimizning har ikkala turiga: og'zaki va yozma shakliga nisbatan ham qo'llanuvchi janr bo'lib, voqelikni tasvirlash, qahramonlar ruhiyati va xatti-harakatini ifodalash nuqtai nazaridan farqlanadi. "Yozma adabiyotdagi lirik "men"ning qalb dunyosi, bilimi, dunyoqarashi qanchalik boy bo'lmasin, u albatta biror qirrasini bilan ijodkor shaxsiyati bilan, xalq qo'shig'idagi "men" kollektiv, xalq bilan

bog'lanadi"[1,19]. Demak, folkloridagi tasvir jarayoni individual yoxud jamoaviy ijod asosida amalga ohsa ham, u asrlar mobaynida xotira va epik bilim asosida sayqallashgan, an'anaviylashgan, xalq e'tiqodi va tafakkurida estetiklashgan umumlashma dunyoqarashning ramziy ifodasidir. Yoxud "Folklor asarida inson obrazi adabiy asardagi obraz bilan qiyoslaganda unda individuallashtirishga nisbatan umumlashtirish ko'proq ko'zga tashlanadi"[2,55]. Folklor asarlari, ayniqsa, dostonlarida xalq tafakkurida ramzlashgan umumlashma g'oyaviy maqsadni anglash, his etish uchun esa doston strukturasi muhim ahamiyat kasb etuvchi obraz va obrazlilik masalasiga to'xtalib o'tish joizdir. Obraz keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'nodagi obraz tushunchasi ijodkorning fikr – tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Tor ma'noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siyosini ifodalaydi. Obrazning eng muhim elementi bu obrazlilik hisoblanadi. Obrazlilik badiiylik ichida yashaganidek, obraz obrazlilikning mohiyatini o'zida tashiydi. Shu sabab obraz tushunchasi adabiyot ilmining bosh masalalaridan sanaladi. Chunki unda obrazlilikning mohiyati borligicha namoyon bo'ladi. Demak, yozuvchi – san'atkorning butun salohiyati u yaratgan obrazlarda seziladi.

Badiiy obraz nima ekanligini sharhlaydigan bo'lsak, avvalo, adabiy asarda tasvirlangan inson, narsa – buyum hodisalarining barchasi obraz deb yuritiladi. Chunki ularning har biri hodisaning ma'lum bir qirasi jihatini o'zida namoyon etib voqelikni to'la tasavvur etish imkonini beradi. Biroq "obraz" terminini, avvalo, insonga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki san'at va adabiyot asarlarida hayotning har qanday ko'rinishlarini ko'rsatishdan ko'zda tutilgan maqsad, avvalo, insondir. Har bir dostonga qarasa, badiiy bo'yoqdorlik, obrazlilik mahorat bilan aks etganini ko'ramiz. Buning yorqin dalili sifatida biz "Alpomish" dostoni orqali obraz va obrazlilik masalasini ko'rib chiqamiz.

"Alpomish" – xalqimizning qadimiy qahramonlik dostoni bo'lib, unda oila, yor, urug' birligi uchun kurash qahramonlik xarakterida badiiy tasvirlanadi. Doston qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan epos bo'lib, o'zbek millatiga xos eng yuksak ma'naviy -axloqiy sifatlar ulug'lanadi. Dostonidagi mana shunday ulug'vorlik, qahramonlik sifatlari unda tasvirlangan obrazlar vositasida g'oyaviy mazmuniga ega bo'ladi. Biz dostonida tasvirga tortilgan obrazlarning tarixiylik asosi, g'oyaviy maqsadi, badiiy mukammallik baxsh etishini tahlilga tortish uchun obrazlarni bir qator semantik nuqtai nazardan ko'rib chiqishimiz mumkin. Yoxud doston strukturasi qatnashgan obrazlarning ishtirokiga ko'ra bir necha guruhga

bo'lib tasniflashimiz mumkin. Chunki doston g'oyaviy mazmunini ochishda ushbu obrazlarning har biri ma'lum vazifa bajarib, asar kompozitsion butunligini ta'minlaydi. Dostonidagi obrazlar tarkibi borasida fikr yuritganda, albatta, dastlab uning g'oyaviy mazmunini yoritishga qaratilgan ramziylik, an'anaviylik va shartlilik xususiyatidan kelib chiqqan holda tasniflashimiz mumkin. Jumladan, doston syujet qurilishida ishtirok etayotgan personajlarning xarakter va vazifasiga ko'ra quyidagi guruhga ajratib o'rganish ma'qul: a) bosh qahramon; b) homiy va ko'makchi personajlar; v) yordamchi personajlar; g) raqib yoki asar konfliktini yuzaga keltirishda muhim rol o'ynovchi personajlar. Doston strukturasi muhim vazifa bajaruvchi personajlarning xarakter va tipik ifodasi mujassamlashgan obrazlar, albatta, bosh qahramon xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Chunki voqealarning tasvirlanishi, baxshi ijodiy manerasi va ustoz-shogird an'anasi asosida shakllangan ijro xususiyati bosh qahramon xarakterini badiiy aks ettirish asosida yuzaga chiqadi. Shulardan kelib chiqqan holda aytish joizki, bir maqola doirasida har bir guruh obrazlar borasida fikr yuritish, obraz va obrazlilikning o'ziga xos mohiyatini tahlil etish ancha murakkablik keltirib chiqaradi. Biz esa dostonidagi bosh qahramonlar –Alpomish va Barchin timsollari, ularning xalq ijodkorlari tomonidan ijro etilishi, ijro jarayonida tasvirning o'ziga xos ramziy ifoda va usullariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Xalq o'zi sevgan, ardoqlagan qahramonlarini doimo ulug'lab, ularning har bir xatti-harakati, timsolini yaratishga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, Fozil shoir repertuaridan yozib olingan "Alpomish"[3] dostonida ham epik qahramon ruhiyati, kurash va intilishlari, mardlik va jasurligi, sevgi va sadoqati, qahramonlik xakteri Fozil shoirning ijodiy manerasi asosida mukammallik kasb etgan. "Alpomish" dostonining bosh qahramoni sahroyi bahodir, qo'ng'iroq urug'ining umidi va ishonchi Hakimbek – Alpomishdir. U mehnatkash xalqning qahramonlik kuchlarini o'zida mujassamlashtirgan, yovuzlik va yomonlikning ashaddiy dushmani, el-yurt farovonligi yo'lida mardlik ko'rsata olgan bahodir, xalq eposining quyma obrazidir" [4,256]. Darhaqiqat, Alpomish va Barchin obrazlari doston syujet va kompozitsiyasida yetakchi mavqe egallaydi. Dostonning g'oyaviy asosi, xalq idealidagi qahramon masalasi ham dostonida badiiy quyma tasvirlarda o'z badiiy qiymatini saqlaydi. Syujet tizimida baxshi Hakimbekning dunyoga kelishidan, ulg'ayib qahramon bo'lishigacha bo'lgan barcha kurash va intilishlarini mahorat bilan tasvirlab boradiki, bu ijodkorning epik qahramonga bo'lgan his-tuyg'usidan dalolat beradi. Alpomish shunchaki tasvirga tortilgan obraz emas, albatta. Uning dunyoga kelishi ham ramziy asoslariga ega bo'lib, qahramonlik xarakterining shakllanishida ham xalqning epik

qahramonga bo'lgan orzu umidini ro'yobga chiqara boradi. Doston syujetiga qo'yilgan muammoviy konflikt ham mana shu doirada shakllanib boradi. U yetti yoshiga kirgandan bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyni ko'tarib, Asqar tog'ning katta cho'qqisini yulib o'tadi. "Shunda Hakimbek yetti yoshga kiradi. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyi bor edi, ana shunda Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'lga ushlab, yetti yashar bola ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasi olamga ketdi"(70-bet). Ushbu tasvirdan ham ko'rinib turibdiki, epik qahramon faoliyati yoshlik palladan dushmanni hayratga solib, uning bahodirligiga rahna solishga zamin yaratadi. Bu esa konfliktidagi aka-uka Boybo'ri va Boysarilar o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik sabab ro'yobga chiqqa boradi. Syujet liniyasida epik qahramonning sevikli yori Barchin uchun qalmoq yurtiga borib alpnlarni yengib, Barchinni qo'ng'irot yurtiga olib qaytishigacha bo'lgan harakatlari va ruhiy vaziyati xalq badiiy tafakkurida sayqallashgan an'anaviy qolip va badiiy shakllarda tasvirlanib boradi.

Garchi dostonning ko'plab o'rinlarida ushbu holat tasvirga tortilsa-da, Murodtepada Alpomish va Qorajon tortishuvlarida baxshi qahramonlikning oliy darajadagi ko'rinishlarini ko'rsatadi. Baxshi mahorati shundaki, qahramonga xos jasurlik va mardlik sifatlarini birma-bir "lochin", "shunqor", "nor" kabi, shuningdek, dushmanga balo keltiruvchi "balo" sifatlashlarini qo'llash orqali epik qahramon tilidan tasvirlay boradi:

Suqsurni izlagan lochin bo'laman...,
Boysundan quvilgan shunqor bo'laman...,
Moyaning yo'qchisi, nori bo'laman...,
Qalmoqlarga kelgan balo bo'laman (150 -bet).
Ayniqsa, Qorajon tilidan epik qahramonni

tasvirlash jarayonlariga ham baxshi alohida e'tibor qaratib, o'xshatishlardan o'rinli foydalanadi:

Ostingda bedoving halloslar qushday,
Achchig'ing chillali muzlagan qishday (148-bet).

Epik qahramon obrazining mukammallik kasb etishi voqealar tizimida shiddat bilan ko'zga tashlansa-da, raqib obrazlar bilan bo'lgan kurash va intilishlar uning xarakteridagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Alpomishga qarama- qarshi obraz sifatida biz Ko'kaldoshni olishimiz mumkin. Bu obraz orqali zo'ravonlik, manmanlik kabi salbiy xislatlar ochib berilgan. Barchin obrazida ham g'urur, jasorat, mardlik kabi xislatlar aks ettirilgan. Barchin obrazida yorga bo'lgan sadoqat, o'zbek ayollariga xos bo'lgan sabrlilik, oriyat kabi haqiqiy ayolga xos bo'lgan fazilatlar ko'zga tashlanadi. Mana shunday obrazlar orqali dostonda yuzaga kelgan obrazlilik jarayoni go'zallashadi, asarning mohiyati yanada kuchayadi. Doston qahramonlariga xos mardlik, vatanparvarlik xislatlari obrazlarning ruhiy vaziyati va xatti-harakatlari orqali badiiyligini oshira boradi. Dostonda tasvirga tortilgan obrazlilikni biz obrazsiz tasavvur qila olmaymiz. Bu ikki termin bir - biri bilan uzviy bog'liqdir. "Alpomish" dostonidagi obrazlar ham o'zining rang - barangligi, serqirraligi bilan ajralib turadi. Dostonda tasvirlangan obrazlar obrazlilik bo'yog'ini yanada shakllantirgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalq dostonlarida obraz va obrazlilik hodisasi orqali biz ajdodlarimiz qanday kuchga, mahoratga ega bo'lganliklari, ularning turmush tarzi, yashash hayotidagi o'zgarishlar, sinovlar qanday bo'lganligi va bu sinovlarni qanday yengib o'tganliklari ana shu obraz va obrazlar misoli orqali ochib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Alpomish" dostonidagi obraz va obrazlilik masalalarini ilmiy nutqai nazardan tahlil qilmasdan o'zbek xalq dostonlaridagi obrazlar muammosining genezisi, tarixiy ildizlari, g'oyaviy-badiiy ahamiyatini yoritmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. –Toshkent: Fan, 2010. 19-bet.
2. Кравцов. Н.К. Проблемы славянского фольклора. –М.: Наука, 1972. Стр.55.
3. Alpomish. Doston. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi T.Mirzayev. – Toshkent: Fan, 1999.
4. Imomov K. va boshq. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: O'qituvchi, 1990. 256-bet.
5. Murodov M. O'zbek xalq dostonlarida obraz yaratish usullari haqida ba'zi mulohazalar. XX asr o'zbek folklorshunosligi. Antologiya. –Toshkent, 2017. 223-bet.



Kumush Odina QARSHIBOYEVA

O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti

O'zbek tili yo'nalishi talabasi

qarshiboyevakumushodina@gmail.com

MANSUR JUMAYEV SHE'RIYATI HAQIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada Mansur Jumayev she'rlarini tahlil qilish orqali hozirgi yoshlar she'riyatida yor mavzusi qanday talqin qilinayotganligiga e'tibor berdik. Maqolada yor va ishq obrazlariga yetarlicha to'xtalib, bugungi kunda bu tushunchalarning toraygani, ko'plab ijodkorlar tag ma'no bilan yozgan satrlarni ham o'qirmanlar faqat ust ma'nosida tushunayotganligi haqida fikrlarimizni isbotlashga harakat qildik.

Kalit so'zlar: obraz, badiiy obraz, obrazli tafakkur, yor, modern she'riyat, ishq, oshiq.

Аннотация: в данной статье, анализируя стихотворения Мансура Джумаева, мы обратили внимание на интерпретацию темы возлюбленной в современной молодежной поэзии. В статье мы подробно рассмотрели образы возлюбленной и любви, и попытались обосновать, что в наши дни эти понятия сузились, а строки, написанные многими авторами с глубоким подтекстом, читатели воспринимают лишь в их буквальном значении.

Ключевые слова: образ, художественный образ, образное мышление, возлюбленная, модернистская поэзия, любовь, влюбленный.

Annotation: in this article, we examine how the theme of the beloved is interpreted in contemporary youth poetry by analyzing the poems of Mansur Jumaev. We thoroughly explore the imagery of the beloved and love, attempting to substantiate our view that these concepts have become narrower in modern times. We also argue that readers today often interpret lines written with deeper meanings by many poets only at their surface level.

Key words: image, artistic image, image thinking, love, modern poetry, love, lover.

Kirish. Adabiyotda eng ko'p uchraydigan obraz yor obrazi hisoblanadi. Nafaqat sharqda, balki butun san'at olamini ko'zdan kechirsak yor obrazini uchratishimiz mumkin. Yor obrazi barcha davrlar va davlatlarda adabiyotning asosiy, bosh mavzusi bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu obraz adabiyotga o'z-o'zidan kirib qolmagan. Badiiy asarda yorning o'z vazifasi bor. Turli yozuvchilar ijodida yor obrazi turlicha talqin qilingan va o'ziga xos maqsadlarni yuzaga keltirgan. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: bugun adabiyot ham zamon bilan hamnafas o'sayotgan bir paytda yor obrazi ham takomillashdimi? Asrlar osha yashab kelayotgan obrazlar o'zgardimi?

Asosiy qism. Shubhasiz, ha. Zamonaviy she'riyatda yor obrazidagi o'zgarishlardan biri bu mumtoz adabiyotda hamisha yor bilan yonmayon yuradigan ag'yor, raqib obrazi chiqib ketgani bo'ldi. Ayni paytda yozilayotgan ishqiy she'rlarda faqat oshiq va yor qoldi. Buni Mansur Jumayevning she'rlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Bizga bir yor yordir – tamiz,
sukut bizni esh etadir:
sevgimizni sevgilimiz
aytmasak ham eshitadir!

Sahnada faqat oshiq va yor bor. Nafaqat boshqa odam, hatto ortiqcha detal ham yo'q. Oshiqning bor izhori sukutida. O'z o'rnida yor ham "tamiz"li, aqlliligi, oshiqdan hech narsa so'ramayapti, aksincha, sukutli

izhorlarni ham eshita olyapti. Bu bilan aytishimiz mumkinki, mumtoz adabiyotdagi yor obrazi o'zining zulmkorlik, bevafoqlik xususiyatini yo'qotdi.

Bugungi kun she'riyati ancha ijtimoiylashdi. Shu jumladan, ishq, sevgi ham ijtimoiy-hayotiy hodisaga aylandi. Odamlar uchun chinakam muhabbat faqat er-xotin orasida bo'lishi mumkin. Garchi jamiyatda ishq o'zining qamrovini o'zgartirgan bo'lsa-da, she'riyatda saqlanib qoldi. Misol uchun, Mansur Jumayev shunday yozadi:

Toza hislarga to'ldi
ko'ngil kosa, sarvinoz;
tasvirga qarab, bo'ldim
Musavvirga ishqiboz.

Aniqlik kiritadigan bo'lsak, bu o'rinda tasvir – yor, Musavvir – Alloh. Shoirning yori shu qadar nuqsonsiz, go'zalki, oshiq yorni ko'rib, uning Yaratuvchisiga ishqiboz bo'lyapti. Bu satrdan yor shunchalik go'zal bo'lsa, uning Musavviri qanday ekan, degan ma'no anglashiladi. Mansur Jumayev ijodida ilohiy boshqa ijodkorlarnikiga qaraganda ko'proq uchraydi. Nafaqat ishq haqidagi she'rlari balki boshqa she'rlarida ham tasavvuf unsurlari uchraydi. Faqat zamonaviy she'riyatda tasavvuf to'g'ridan- to'g'ri yoki so'zma-so'z emas, mazmunan ifodalanyapti.

Bir she'rida shoir shunday deydi:
Ko'nglim edi ko'zimda balqqan,
Yolg'iz kema singari qalqqan.

Qalqib-qalqib eltajak haqqa,
Olib bormas hilol ham, xoch ham.

Shoirning ko'zini dengiz, ko'nglini kema deya tashbeh qilmoqda. Keyingi misralarda odamni Haqqa faqat ko'ngil eltishini ta'kidlab o'tadi. Xuddi shu she'rning nihoyasida shoir Mansur Hallojga to'xtalib, o'zining ham shu yo'lda ekanligini aytadi. Shoir to'g'ri yo'ldagilarni aslo tushunishmaydi, deb she'riga xulosa yasagan. Bu yerda shoir Mansur so'zini ishlatib husni talil va talmeh san'atlaridan foydalangan:

Gadoman-u, shahman deb aytsam,
Yo'lchiman-u, rahman deb aytsam...

Ishonmaysiz Haqman deb aytsam,
Mansur bo'lgan bobo Halloj ham.

Shoir ijodida mavzular xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. Ayrim she'rlarida pand-nasihati sezilib tursa, ayrim she'rlarini shoir shunchaki o'zining hayotiy xulolasi sifatida yozib qo'ygandek tuyuladi. Misol uchun quyidagi she'rni keltirsak bo'ladi:

Uchragan har tayoq siloh bo'lmaydi,
Har topinganingiz iloh bo'lmaydi.
Umr – bir en mato, paypoq qilsangiz,
Qolgan yarmi boshga kuloh bo'lmaydi.

Inson yashar ekan, umrida ko'p yaxshi-yomonlarga duch keladi. Shunday paytlarda har kimning ham ichidan "ehhh" degan allaqanday tuyg'ular o'tadi. Shoirning yuqoridagi misralari xuddi shunday "eh"lar sabab yozilgandek go'yo.

"Kitobsevar qizga" she'rida esa ajib o'ynoqilik bor:

Sevib qoldim ne uchun?
Balki
dilni shundoq qiynagim keldi.
Sizning bilan,
o, tengsiz pari,
sevgi-sevgi o'ynagim keldi.
Siz bag'rimda bo'sangiz deyman,
ko'kda yulduz,
poyimda tuproq...

Sizni jondan ortiq sevaman,
siz kitobni sevasiz ko'proq.

Men deymanki:

– Qo'yamasam yomon,
bezayversam gar xobingizni!

Siz deysizki:

– Shoirim, qachon
chiqarasiz kitobingizni?..
Bugun esa tavallud ayyom,
siz tug'ilgan bu kun ham oniy.
Talpinaman sizga bu oqshom,
qo'llarimda –
Hazrat Navoiy!

Bu she'r jimjimador so'z va badiiy tashbehlardan yiroq. Lekin o'qituvchi dilida yoqimli hislar uyg'otguvchi she'rlardan biri.

Shoirning eng ko'p e'tirof etiladigan she'rlaridan biri "Oldinda bir yo'l bor..." deb boshlanuvchi she'ridir. Unda quyidagi misralar bor:

Oldinda bir yo'l bor ko'p yiroq,
tarxini topmadim kim bichgan
qilichim damidan o'tkirroq
sochlaring toridan ingichka.

Shaklan qaralganda, bu she'r hammaga tushunarli. Lekin shoir bu yerda qaysi yo'lni nazarda tutayotganligiga biroz izoh shart. Bu yerda shoir ochiq aytmasa-da, sirot ko'prigi haqida aytmoqda. Keyingi misralarda shoir tanosub san'atidan foydalanadi va ma'noni kuchaytirib boradi:

Oldinda ko'prik bor osti jar,
bilmadim o'zim ne bo'laman
azizim, sen o'tgil bexatar,
azizim, sen faqat qulama.

Xulosa: Mansur Jumayev she'riyati o'z badiiyati va rang-barangligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shoir she'rlarini o'qib qalbingiz tozalangandek, ruhingiz yuksalgandek bo'ladi. Zamonaviy adabiyotga mumtoz adabiyotdan ulgi olgan shunday she'rlar juda ham kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
2. Jumayev M. Hayrat qo'shiqlari. – Toshkent: Adabiyot, 2021
3. Karimov B. Istiqloq adabiyoti: nazm va nasr. – Toshkent, 2021.
4. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Navoiy universiteti. – Toshkent, 2018.



Nigora MIRZOIDOVA,
*The department of English teaching
 methodology and Educational technologies, UzSWLU
 senior teacher*

THE ROLE OF TECHNOLOGY FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING THROUGH READING AND WRITING IN IMPROVING THE TRANSLATION COMPETENCE OF UNIVERSITY STUDENTS

Annotation: this article explores the role of technology in developing critical thinking skills through reading and writing to improve the translation competence of university students. A review of relevant literature reveals that technological tools and resources can support active reading, analytical writing, and critical reflection during the translation process. The findings suggest that effectively leveraging technology in translator education cultivates the higher-order thinking skills and self-reflection necessary for translation competence.

Keywords: *translation competence, critical thinking, translation technologies, translator education*

Аннотация: в этой статье рассматривается роль технологий в развитии навыков критического мышления посредством чтения и письма для повышения переводческой компетентности студентов университетов. Обзор соответствующей литературы показывает, что технологические инструменты и ресурсы могут способствовать активному чтению, аналитическому письму и критическому осмыслению в процессе перевода. Полученные результаты свидетельствуют о том, что эффективное использование технологий в обучении переводчиков развивает навыки мышления высшего порядка и саморефлексии, необходимые для развития переводческой компетентности.

Ключевые слова: *переводческая компетентность, критическое мышление, переводческие технологии, образование переводчика*

Annotatsiya: ushbu maqola universitet talabalarining tarjima qobiliyatini oshirish uchun o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda texnologiyaning rolini o'rganadi. Tegishli adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, texnologik vositalar va manbalar tarjima jarayonida faol o'qish, tahliliy yozish va tanqidiy aks ettirishni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, tarjimon ta'limida texnologiyadan samarali foydalanish tarjima kompetensiyasi uchun zarur bo'lgan yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatini va o'zini aks ettirishni rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: *tarjima kompetensiyasi, tanqidiy fikrlash, tarjima texnologiyalari, tarjimon ta'limi*

In the digital age, translation has become an increasingly technologized activity, with translators relying on a range of computer-based tools to enhance efficiency, consistency, and quality. At the same time, the complex cognitive act of translation requires advanced critical thinking skills to analyze source texts, research subject matter, make reasoned linguistic choices, and evaluate and refine translations. As translator education programs aim to prepare students for the demands of professional translation, it is crucial to examine how technologies can be leveraged not only to assist the translation process but also to cultivate the critical thinking skills that underpin translation competence.

The literature highlights the multidimensional

nature of translation competence, which involves the interplay of bilingual communicative competence, extra-linguistic knowledge, instrumental competence, strategic competence, and psychophysiological components. Critical thinking is identified as a key cognitive skill that supports multiple competences, enabling translators to analyze, interpret, problem-solve, and make reasoned decisions throughout the translation process. Scholars emphasize the importance of cultivating critical thinking in translator education through pedagogical approaches that foster active learning, reflective practice, and self-awareness.

Regarding the role of technology, the reviewed studies showcase a range of tools that can support critical engagement during translation-

oriented reading and writing. Several studies investigated the effects of using online resources and corpus tools on translation quality. Students who strategically used dictionaries, parallel texts, and corpora to research terminology and usage produced translations with greater accuracy, idiomaticity, and coherence compared to those who relied solely on their own linguistic knowledge. The study highlighted the importance of developing students' information literacy and critical evaluation skills to effectively leverage online resources.

The reviewed literature indicates that effectively integrating technologies into translator education can support the development of critical thinking skills that are vital for translation competence. By providing opportunities for active reading, targeted research, decision justification, and reflective evaluation, technological tools and resources engage students in higher-order thinking processes throughout the translation workflow.

However, the studies also highlight the complexity of fostering critical thinking in technologized translation environments. While technologies offer valuable support, they can also introduce challenges such as information overload,

quality variability, and the temptation to uncritically accept automated suggestions. The findings suggest that effective technology integration should be grounded in a pedagogical framework that emphasizes active learning, problem-solving, and reflection. Classroom activities and assessments should be designed to encourage students to critically engage with technologies, questioning their outputs, justifying their choices, and reflecting on their decision-making processes.

This article has explored the role of technology in developing critical thinking through reading and writing to improve the translation competence of university students. The reviewed literature indicates that integrating technological tools and resources can support critical engagement, research, decision-making, and reflection throughout the translation process, thereby enhancing students' higher-order thinking skills and translation performance. However, the effective use of technologies for critical thinking development requires explicit training, guidance, and pedagogical frameworks that emphasize active learning and reflection.

References

1. Bowker, L. (2015). Computer-aided translation: Translator training. In S. Chan (Ed.), *Routledge encyclopedia of translation technology* (pp. 88-104). Routledge.
2. Göpferich, S. (2015). Translation competence: Explaining development and stagnation from a dynamic systems perspective. *Target*, 27(1), 61-76.
3. PACTE Group. (2011). Results of the validation of the PACTE translation competence model: Translation project and dynamic translation index. In S. O'Brien (Ed.), *Cognitive explorations of translation* (pp. 30-56). Continuum.
4. Alves, F., & Gonçalves, J. L. (2013). Investigating the conceptual-procedural distinction in the translation process: A relevance-theoretic analysis of micro and macro translation units. *Target*, 25(1), 107-124.
5. Shreve, G. M., & Angelone, E. (Eds.). (2010). *Translation and cognition*. John Benjamins.
6. Shih, C. Y. (2019). Web-based annotation in translator training: Pedagogical design and student engagement. *Translation and Interpreting Studies*, 14(1), 1-20.
7. Prieto Ramos, F., & Guzmán, D. (2018). Assessing the use of collocation dictionaries and corpora for translation problem solving: An exploratory case study. *Babel*, 64(2), 145-165.



Hakimbek G'ULOMJONOV,
*Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil
sudlov fakulteti 4-bosqich talabasi, G'afur G'ulom
nomidagi maxsus stipendiya sohibi*

YIGIRMA YOSHIMDA ELLIKKA KIRDIM

Ne sinov o'tmadi deysiz boshimdan,
Bu hayot bearmon, betashvish derdim.
Kutmagan g'avg'olar chiqdi qoshimdan,
Yigirma yoshimda ellikka kirdim.

Ajinlar yugurdi, oqlar oralar,
Navqiron onimdan ko'lmakday tindim.
Ming o'y-xayollarga topmay choralar,
Yigirma yoshimda ellikka kirdim.

Korimga yaramay ishonganlarim
Barining kimligin birma-bir bildim.
Qadrini angladim yo'qotganlarim,
Yigirma yoshimda ellikka kirdim.

“Qo'ysang-chi” demanglar gapimga kulib,
Ellik yosh insonning tashvishin ko'rdim.
Yoshdek ko'rinsam ham ichimdan qarib,
Yigirma yoshimda ellikka kirdim.

Turfa xil mushkulot ko'rar ko'zlarim,
Dardlarim ichimda, bag'rimni tildim.
Ancha sokinlashgan o'ynoq so'zlarim,
Yigirma yoshimda ellikka kirdim.